



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ODIL SUDLOV AKADEMIYASI**

# **SUDGA QADAR ISH YURITISH BOSQICHIDA TERGOV SUDYASI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR**

**Ilmiy-amaliy konferensiya to'plami**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ODIL SUDLOV AKADEMIYASI

# **Sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi faoliyati bilan bog'liq muammolar**

**Ilmiy-amaliy konferensiya to'plami**

Toshkent - 2026

Ilmiy-amaliy konferensiya to'plami O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Kengashining 2026-yil 19-maydagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

**UDK:** 347.9(075.8)(575.1)

**BBK:**

Sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi faoliyati bilan bog'liq muammolar. Ilmiy-amaliy konferensiya materallari to'plami. – T. nashriyoti, 2026. – 96 b.

**Mas'ul muharrir:** Z.R.Omonov - *O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti, y.f.f.d.,*

**Taqrizchilar:**

**Xoliqulov U.** - *O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasida professori, y.f.d.,*

**Toshev O.** - *O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti, y.f.f.d.,*

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya materallari to'plamida jinoyat sud ishlarini yuritishda tergov sudyasi instituti va sud nazoratiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar va tezislardan iborat bo'lib, mualliflar tomonidan tergov sudyasining protsessual huquqiy maqomi, protsessual majburlov choralarini qo'llashda tergov sudyasining vakolatlari, sud-tergov amaliyoti va muammolari, shaxs huquq va erkinliklarini cheklovchi protsessual harakatlarini amalga oshirishda sud amaliyotida uchrayotgan dolzarb masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar va tavsiyalar bayon etilgan.

Maqolalarda keltirilgan dalillar va ko'rsatilgan manbalarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas'uldir. Maqola mualliflarining fikr mulohazalari tahrir hay'atining nuqtai nazarini bildirmaydi.

Ushbu amaliy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tinglovchilari, sudyalari va sud apparati xodimlari mo'ljallangan.

## KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning bosh mezonlari inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat darajasida himoya qilish hamda odil sudlov mustaqilligini ta’minlashdan iboratdir.

Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat darajasida himoya qilish demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishning bosh mezonidir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli sud-huquq islohotlarining markazida ham aynan jinoyat-protsessual qonunchiligiga ilg‘or xalqaro standartlarni joriy etish hamda fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash vazifasi turibdi.

Ushbu sohada eng tarixiy va tub burilish nuqtalaridan biri, shubhasiz, jinoyat protsessining sudga qadar ish yuritish boqsichida sud nazoratini kuchaytirish hamda “tergov sudyasi” institutining joriy etilishi bo‘ldi. Jinoyat ishini mazmunan ko‘rib chiqishdan xoli bo‘lgan, faqatgina shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq protsessual majburlov choralari hamda tergov harakatlari ustidan sud nazoratini amalga oshiruvchi institutga aylandi.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari, sohada duch kelinayotgan dolzarb muammolar va ularning yechimlariga bag‘ishlangan. To‘plamdan joy olgan tadqiqotlarda sohaning eng yetakchi olimlari va tajribali amaliyotchi xodimlari tomonidan quyidagi o‘ta muhim va tizimli masalalar atroflicha tahlil qilingan.

To‘plamda jamlangan ilmiy maqola va tezislarda tergov sudyasi faoliyatining quyidagi fundamental yo‘nalishlarini qamrab oladi:

Sudga qadar bo‘lgan bosqichda ayblov va himoya tarafi o‘rtasidagi real protsessual tenglikni ta’minlashda tergov sudyasining roli;

Qamoqqa olish, uy qamog‘i singari ehtiyot choralari qo‘llashda sud nazoratini kuchaytirish;

Tintuv o‘tkazish, telefon so‘zlashuvlarini eshitib turish va pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash kabi shaxs huquqlarini jiddiy

cheklovchi tergov harakatlariga sanksiya berishning amaliy muammolari;

Jabrланuvchi va guvohlarning ko'rsatuvlarini tergov sudyasi ishtirokida oldindan mustahkamlash orqali ularning ruhiy holatini himoya qilishning ilg'or tizimlari;

Germaniya, Fransiya, AQSh kabi rivojlangan davlatlarning tergov sudyasi modellari milliy qonunchilikka implementatsiya qilish istiqbollari qamrab olingan.

Bundan tashqari, To'plamda sudga qadar ish yuritish bosqichida ayblov va himoya tomonlarining real protsessual tengligini yaratish, himoyachining dalillar to'plashdagi ishtirokini kengaytirish va tergov sudyasi nazorati ostida chinakam tortishuv muhitini shakllantirish masalalari tahlil etilgan.

Tintuv o'tkazish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, telefon so'zlashuvlarini eshitib borish kabi insonning xususiy hayotiga bevosita daxl qiluvchi harakatlarga sanksiya berishda sud nazoratining ahamiyati va tergov organlari tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni preventiv bartaraf etish mexanizmlari to'plamda tadqiq qilingan.

Ushbu to'plam nafaqat O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tinglovchilari, amaliyotdagi sudyalar, sud apparati xodimlari va tergov organlari mansabdor shaxslari uchun amaliy qo'llanma, balki jinoyat-protsessual huquqi sohasida izlanishlar olib borayotgan yosh olimlar, tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilar uchun ham qimmatli ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur to'plamdan joy olgan ilmiy asoslangan taklif, tavsiyalar va qonunchilikka kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartishlar sud-tergov amaliyotini takomillashtirishga, adolatli qarorlar qabul qilinishiga hamda mamlakatimizda inson huquqlarini oliy darajada himoya qilishga munosib hissa qo'shadi deb ishonamiz.

To'plam mutaxassislar va keng kitobxonlar ommasida katta qiziqish uyg'otishiga umid qilib, barcha mualliflarga va tadqiqotchilarga chuqur minnatdorchilik bildiramiz hamda kelgusi ilmiy-amaliy faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz!

**O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi  
rektori, yu.f.d. professor v.b. Sh.Abduqodirov**

**N.J.Hakimova**

*O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov  
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

**SUDYALAR HAMJAMIYATI ORGANLARI QARORLARI  
USTIDAN SHIKOYAT QILISHNING HUQUQIY TABIATI:  
SUD HOKIMIYATI MUSTAQILLIGI VA PROTSESSUAL  
KAFOLATLAR O'RTASIDAGI MUVOZANAT**

**Annotatsiya:** *Maqolada sudyalar hamjamiyati organlari, xususan Sudyalar oliy kengashi qarorlarining huquqiy tabiati, ular ustidan shikoyat qilish tartibi, bunday qarorlarning sud nazorati doirasiga kiritilishi hamda xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Muallif milliy va xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilgan holda, sudya mustaqilligini ta'minlash bilan bir vaqtda sudyalarning protsessual huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi.*

**Kirish**

Huquqiy davlat va adolatli sudlov tizimida sud hokimiyati mustaqilligi alohida ahamiyat kasb etadi. Sudya mustaqilligi prinsipi nafaqat sud qarorlarining xolisligiga, balki fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, sudya mustaqilligini ta'minlash faqat tashqi bosimlardan himoya qilish bilan cheklanmaydi. Sudyaning kasbiy faoliyatiga oid qarorlar, jumladan lavozimga tayinlash, intizomiy javobgarlikka tortish, vakolatni to'xtatish yoki muddatidan oldin tugatish kabi masalalar bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar ham samarali huquqiy kafolatlar bilan ta'minlanishi lozim<sup>12</sup>.

Bugungi kunda O'zbekiston qonunchiligida malaka hay'atlari qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibi muayyan darajada tartibga solingan bo'lsa-da, Sudyalar oliy kengashi qarorlari ustidan shikoyat

---

<sup>1</sup> БМТнинг “Судьялар мустақиллигининг асосий принциплари”. Милан, 1985.

<sup>2</sup> OSCE/ODIHR. Kyiv Recommendations on Judicial Independence. – Kyiv, 2010.

qilish mexanizmi nazarda tutilmagan. Bu esa nazariy va amaliy jihatdan bir qator bahslarni keltirib chiqarmoqda.

Qayd etish lozimki, sudyalarning hamjamiyati organlarining huquqiy tabiati masalasi ilmiy adabiyotlarda bahsli mavzulardan biri hisoblanadi. Ayrim olimlar ushbu organlarni davlat hokimiyatining maxsus instituti sifatida baholasalar, boshqalar esa ularni sudyalarning o'zini o'zi boshqarishi organlari sifatida ko'radilar. Xususan, R.S. Abdullin fikricha, sudyalarning hamjamiyati organlariga davlat tomonidan ommaviy vakolatlar berilganligi ularning ommaviy-huquqiy tabiatga ega ekanligini anglatadi. Muallif ushbu organlarning sudyaning huquqiy maqomiga ta'sir ko'rsatuvchi qarorlar qabul qilishi sababli ularni davlat boshqaruvining maxsus subyekti sifatida ko'rish lozimligini ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

Boshqa yondashuv tarafdorlari esa sudyalarning hamjamiyati organlarini korporativ mustaqillik instituti sifatida baholaydilar. Ularga ko'ra, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash uchun ushbu organlarning davlat hokimiyatining odatiy ma'muriy nazoratidan mustasno bo'lishi kerak.

Bizning fikrimizcha, mazkur masalada mutlaq yondashuvdan voz kechish lozim. Chunki sudyalarning hamjamiyati organlari bir vaqtning o'zida ham kasbiy o'zini o'zi boshqarish funksiyasini, ham ommaviy-huquqiy funksiyalarni amalga oshiradi. Demak, ular aralash huquqiy tabiatga ega institut sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

Sudya mustaqilligi prinsipi xalqaro huquqda mustahkam o'rin egallagan. BMTning "Sudyalarning mustaqilligining asosiy prinsiplari", Yevropa Kengashi hujjatlari va OBSE tavsiyalarida sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortishda adolatli jarayon kafolatlarini ta'minlash zarurligi qayd etilgan<sup>4</sup>.

OESRning O'zbekiston bo'yicha hisobotida ham sudyalarning uchun shikoyat qilish mexanizmining yetarli emasligi alohida tanqid

---

<sup>3</sup> Абдуллин Р.С. Формирование и развитие судебного управления в России. – М.: Юрлитинформ, 2015. – Б. 41–44.

<sup>4</sup> OSCE/ODIHR. Kyiv Recommendations on Judicial Independence. – Kyiv, 2010.

qilingan. Hisobotda sudyaning eshitalish huquqi, himoya huquqi va intizomiy qaror ustidan sudga murojaat qilish huquqi to'liq ta'minlanmagani ko'rsatilgan<sup>5</sup>.

Amaliyotda ayrim holatlarda sudyalarning intizomiy ishlarni ko'rib chiqish jarayonida ish materiallari bilan to'liq tanishish imkoniyatiga ega emasligi yoki qarorlarning yetarlicha asoslanmagani haqida fikrlar bildirilmoqda. Bu esa protsessual kafolatlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

T.G. Morshakova ta'kidlaganidek, sudyaga nisbatan qabul qilinadigan har qanday intizomiy qaror faqat ichki tashkiliy masala emas, balki inson huquqlari va sud mustaqilligi bilan bog'liq konstitutsiyaviy ahamiyatga ega masaladir<sup>6</sup>.

Sudyalar hamjamiyati organlari qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda ikki asosiy yondashuv shakllangan.

Birinchi yondashuv tarafdorlari mazkur nizolarni ma'muriy-huquqiy nizo sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, sudyaga nisbatan qabul qilingan qaror uning huquqiy maqomiga ta'sir ko'rsatadi, shu sababli bunday qarorlar ustidan ma'muriy sudlarga shikoyat qilish imkoniyati bo'lishi shart.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra sudyalarning hamjamiyati organlari qarorlari boshqa sudyalarning hamjamiyati organi (masalan, sudyalarning hay'ati yoki apellyatsiya hay'ati) tomonidan qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Mazkur ikki yondashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilingan holda, aralash model eng maqbul echim ekanligi ko'rinadi. Chunki faqat ichki korporativ nazorat sudya huquqlarini yetarli darajada himoya qilmasligi mumkin, biroq to'liq tashqi sud nazorati esa sud hokimiyati mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas<sup>7</sup>.

---

<sup>5</sup> OECD Anti-Corruption Reforms in Uzbekistan: 5th Round of Monitoring. – Paris, 2024. – P. 87–89.

<sup>6</sup> Моршаклова Т.Г. Стандарты судебной деятельности. – М.: Норма, 2017. – Б. 112–118.

<sup>7</sup> BMTning "Sudyalar mustaqilligining asosiy prinsiplari". Milan, 1985.

Ayrim xorijiy davlatlar, masalan Rossiya Federatsiyasi tajribasi o'rganilganda, kvalifikatsiya hay'atlari qarorlari ustidan yuqori turuvchi hay'atga yoki sudga shikoyat qilish mumkin. Bu model sud nazoratining yuqori darajasini ta'minlaydi<sup>8</sup>.

Qozog'istonda esa "Sudyalar jyurisi" instituti mavjud bo'lib, u intizomiy ishlar bo'yicha maxsus organ sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur organ sudyalar hamjamiyati doirasida mustaqil qaror qabul qiladi<sup>9</sup>.

Yevropa davlatlari tajribasi ham turlicha. Italiya, Fransiya va Ispaniyada sudyalar kengashlari muayyan mustaqillikka ega bo'lib, ularning qarorlari ustidan maxsus tartibda shikoyat qilish mumkin<sup>10</sup>.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, xalqaro amaliyotda yagona universal model mavjud emas. Har bir davlat o'z huquqiy an'analari va sud tizimi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng maqbul modelni tanlaydi.

"Sudlar to'g'risida"gi Qonun va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunda sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatiga oid asosiy qoidalar belgilangan. Biroq mazkur qonunlarda Sudyalar oliy kengashi qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibi ochib berilmagan<sup>11</sup>.

Bu esa bir qator huquqiy bo'shliqlarni keltirib chiqarmoqda. Xususan:

- qaysi qarorlar shikoyat qilinishi mumkinligi aniq emas;
- qaysi organ bunday shikoyatlarni ko'rib chiqishi belgilanmagan;
- protsessual muddatlar va tartiblar ko'rsatilmagan. Natijada, ayrim holatlarda sudyaning huquqiy himoya vositalari cheklangan holatda qolishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda sudyalar hamjamiyati organlari qarorlari ustidan shikoyat qilish masalasi sud mustaqilligiga qarshi emas, balki

---

<sup>8</sup> Федеральный закон РФ «Об органах судейского сообщества».

<sup>9</sup> Конституционный закон Республики Казахстан «О судебной системе и статусе судей».

<sup>10</sup> Council of Europe Recommendation CM/Rec(2010)12.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni // lex.uz.

uning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Sudya mustaqilligi faqat tashqi bosimdan himoya bilan emas, balki sudyaning o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyati bilan ham ta'minlanadi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro amaliyotda sudyalarning hamjamiyati organlari, jumladan sudyalarning kengashlari qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibini belgilash bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas. Har bir davlat o'zining huquqiy an'analari hamda milliy sud-huquq tizimi uchun eng maqbul hisoblangan yondashuvlardan kelib chiqadi.

Mamlakatimizda sudyalarning hamjamiyati organlari, shu jumladan Sudyalarning oliy kengashi qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqishga vakolatli organ ilmiy munozaralar va xorijiy davlatlarning tajribasini qiyosiy-huquqiy o'rganish natijalari asosida belgilanishi maqsadga muvofiq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1. ОЭСР. Базовый отчет по итогам пятого раунда мониторинга антикоррупционных реформ в Узбекистане. 2024.*
- 2. Абдуллин Р.С. Формирование и развитие судебного управления в России. Москва, 2015.*
- 3. Клеандров М.И. Судейское сообщество в России и других государствах СНГ. Москва, 2016.*
- 4. Морщакова Т.Г. Стандарты судебной деятельности. Москва, 2017.*
- 5. The OSCE/ODIHR Kyiv Recommendations on Judicial Independence. 2010.*
- 6. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni.*
- 7. O'zbekiston Respublikasining "Sudyalarning oliy kengashi to'g'risida"gi Qonuni.*

**T.A.Obidov**

*O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi  
kafedra mudiri, y.f.f.d (PhD), dotsent.*

## **JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDA XALQARO HAMKORLIKDA TERGOV SUDYASINING ROLI: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO STANDARTLAR O‘RTASIDAGI KOLLIZIYALAR**

### ***Annotatsiya***

*Mazkur ilmiy maqolada jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlikda tergov sudyasining roli, huquqiy maqomi va inson huquqlarini ta’minlashdagi ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, ekstraditsiya jarayonida qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo‘llash bilan bog‘liq milliy qonunchilik normalari hamda xalqaro huquq qoidalari o‘rtasidagi ziddiyatlar ilmiy tahlil etilgan. Yevropa inson huquqlari sudi amaliyoti, Minsk Konvensiyasi, xorijiy davlatlar qonunchiligi va milliy sud-huquq islohotlari asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.*

### **Kirish**

Globalashuv sharoitida transmilliy jinoyatchilikning kuchayishi jinoyat turlarining oshib borishi davlatlar o‘rtasida jinoiy ishlar bo‘yicha xalqaro hamkorlikning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xususan, xalqaro terrorizm, odam savdosi, kiberjinoyatchilik, narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi va korrupsiya kabi xavfli jinoyatlar bir davlat hududi bilan cheklanib qolmayotgani, bir davlatning yurisdiksiyasidan tashqariga chiqishi xalqaro hamkorlikning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlikda ekstraditsiya instituti xalqaro jinoyat-protsessual hamkorlikning markaziy elementlaridan biri hisoblanadi. Ekstraditsiya jarayonida inson huquqlari va davlat xavfsizligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda sudning, jumladan tergov sudyasining ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida “habeas corpus” instituti joriy qilinishi inson huquqlarini ta’minlashda muhim bosqich bo‘ldi. Qamoqqa olish

vakolatining prokurordan sudga o'tkazilishi sud nazoratining mustaqil mexanizm sifatida rivojlanish jarayonini boshlab berdi. Aynan shu jarayonda amaldagi Jinoyat protsessual kodeksga 2010 yilda yangi o'n to'rtinchi bo'lim bilan to'ldirilib, jinoiy sud ishlarni yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning tartib tamoillari belgilab berildi. Ko'rsatib o'tilgan har ikkala institut ham jinoyat protsessida yangi institutlardan biri bo'lganligi bois, bugungi kunda amaliyotda va nazariyada ayrim masalalar yuzaga keldiki, ularning echimini aniqlash uchun kun tartibiga qo'yilishini ko'rsatmoqda.

Aynan shunday masalalardan biri xalqaro hamkorlik jarayonida xorijiy davlat so'rovlari asosida shaxsni ushlab berishga doir so'rovni hal qilishda milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalar o'rtasida kolliziyalar mavjudligi kuzatilmoqda.

Tergov sudyasi institutining nazariy-huquqiy asoslari to'g'risida so'z yuritilganda, ushbu institut inson huquqlarini ta'minlash maqsadida shakllangan mustaqil sud nazorati mexanizmi hisoblanadi. Fransuz huquqshunosi Mirey Delmas-Martining fikricha, zamonaviy jinoyat protsessida sud nazorati inson huquqlarini ta'minlashning asosiy kafolatidir.

Rossiyalik olim V.M. Lebedev ham sud nazorati davlat majburlor choralari bilan inson huquqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashini ta'kidlaydi. Ayniqsa, qamoqqa olish bilan bog'liq qarorlarda sudya mustaqil va xolis pozitsiyani egallashi lozim.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 605-moddasiga muvofiq, xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan kelgan so'rov asosida shaxsni qamoqqa olish haqidagi masala tergov sudyasi tomonidan hal etiladi.

Bu esa tergov sudyasining xalqaro hamkorlikda inson huquqlarining protsessual kafolatchisi sifatida harakat qilishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 242-moddasiga ko'ra, qamoqqa olish ehtiyot chorasi asosan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun qo'llaniladi. Biroq JPKning 599-moddasida ekstraditsiya uchun bir yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosi etarli asos sifatida belgilangan.

Bu holat amaliyotda huquqiy ziddiyatni keltirib chiqaradi. Chunki ayrim hollarda shaxsni ekstraditsiya qilish mumkin bo'lsa-

da, milliy qonunchilik bo'yicha uni qamoqqa olish uchun asos mavjud bo'lmasligi mumkin.

Nemis olim Klaus Roksin jinoyat protsessida har qanday majburlov chorasi aniq va prognoz qilinadigan huquqiy asosga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, protsessual noaniqlik inson huquqlarining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan milliy qonunchilikdagi mavjud kolliziyalar huquqiy aniqlik prinsipiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1993 yil 22 yanvardagi Minsk Konvensiyasi ishtirokchi davlatlarga shaxsni ekstraditsiya qilish bo'yicha aniq majburiyatlar yuklaydi. Konvensiyaning 60 va 68-moddalariga muvofiq, so'rov kelib tushganidan keyin shaxsni zudlik bilan aniqlash va ushlab turish choralari ko'rilishi lozim.

Konvensiyaning aynan shu normasi, milliy qonunchilikdagi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 242-moddasida ko'rsatilgan qamoqqa olishning shartlari bilan ziddiyatga kirishadi. Qolaversa, yuqorida ko'rsatilgan Jinoyat protsessual kodeksning 599-moddasi talablari ham shu kodeksning 242-moddasi mohiyatiga qarshi mazmuni keltirib chiqaradi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining ayrim moddalarida sodir etilgan qilmish uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llash tahdidi mavjud emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 131-132, 139, 140, 141, 141<sup>1</sup>-moddalari birinchi qismlarida nazarda tutilgan sanksiyalarda ko'rishimiz mumkin.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar boshqa yondashuvni ham ilgari suradi. Yevropa inson huquqlari sudining "Soering v. United Kingdom" ishida davlat ekstraditsiya jarayonida inson huquqlarini ta'minlashi shartligi qayd etilgan.

Yevropa inson huquqlari sudi ekstraditsiya bilan bog'liq qator ishlarida inson huquqlarining ustuvorligini ta'kidlab kelmoqda.

"Soering v. United Kingdom" ishida Sud shaxsni inson qadriga zid munosabat mavjud davlatga ekstraditsiya qilish mumkin emasligini qayd etgan.

Bu qarorlar xalqaro hamkorlik jarayonida inson huquqlari ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Hamdo'stlik mamlakatlarining qonunchiligi o'rganilganda ko'tarilayotgan masalaning echimi milliy qonunlar ustunligi nuqtai nazaridan kelib chiqib hal qilingan. Masalan, Qozog'iston Respublikasi JPKning 590-moddasida milliy qonunchilikda ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilmagan hollarda ekstraditsiya rad etilishi mumkinligi belgilangan.

Bu tajribalar O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tergov sudyasi inson huquqlarini ta'minlashda markaziy protsessual subyekt hisoblanadi. Ayniqsa, qamoqqa olish bilan bog'liq qarorlarda sudya xalqaro inson huquqlari standartlariga tayanishi lozim.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt shaxs erkinligini eng muhim qadriyat sifatida belgilaydi.

Shu sababli xalqaro hamkorlik jarayonida ham inson huquqlari ikkinchi darajaga tushirilishi mumkin emas.

So'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı sud-huquq islohotlari amalga oshirildi.

Xususan, qamoqqa olish vakolatining sudlarga o'tkazilishi, advokat institutining kuchaytirilishi, protsessual kafolatlarning kengaytirilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Biroq ekstraditsiya sohasida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik o'rtasidagi kolliziyalarni bartaraf etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchilikda quyidagi muammolar mavjud:

- qamoqqa olish bilan bog'liq normalarning o'zaro ziddiyati;
- xalqaro shartnomalarni qo'llash mexanizmlarining noaniqligi;
- inson huquqlari standartlarini amalga oshirishdagi protsessual muammolar;
- ekstraditsiya jarayonida sud nazorati vakolatlarining cheklanganligi.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- 1) JPKning 242-moddasiga ekstraditsiya jarayoni uchun maxsus istisno normasini kiritish;
- 2) JPKning 603-moddasini inson huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan qo‘shimcha asoslar bilan to‘ldirish;
- 3) tergov sudyasining inson huquqlari standartlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash vakolatlarini kengaytirish;
- 4) xalqaro shartnomalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish;
- 5) ekstraditsiya ishlari bo‘yicha maxsus sud amaliyotini shakllantirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jinoiy sud ishlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda tergov sudyasi inson huquqlarining muhim kafolatchisi hisoblanadi. Biroq milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari o‘rtasidagi kolliziyalar amaliyotda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ayniqsa, ekstraditsiya jarayonida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash bilan bog‘liq huquqiy ziddiyatlarga barham berib, qonuniy tarzda echimi ko‘rsatilmasa, huquqiy aniqlik prinsipiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib qolaveradi.

Shu sababli milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish, inson huquqlarini ustuvor qadriyat sifatida ta‘minlash va tergov sudyasining mustaqil rolini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: O‘zbekiston, 2026.*
2. *O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: O‘zbekiston, 2026.*
3. *1993 yil 22 yanvardagi Minsk Konvensiyasi.*
4. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948.*
5. *Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. 1966.*
6. *Roxin C. Strafverfahrensrecht. München, 2020.*
7. *Delmas-Marty M. Criminal Policy and Human Rights. Paris, 2019.*
8. *Lebedev V.M. Sudebnaya vlast v sovremennoy Rossii. Moskva, 2021.*

**JINOYAT PROTSESSIDA TERGOV SUDYASI INSTITUTI:  
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

Zamonaviy jinoyat sudlovining rivojlanishi, eng avvalo, dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, jinoyat protsessi qonunchiligini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tergov sudyasi institutini shakllantirish va uni takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri qabul qilinishi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ayniqsa, ularni cheklash bilan bog'liq protsessual qarorlar ustidan samarali sud nazoratini kuchaytirishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlarni yanada mustahkamladi. Xususan, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash masalalari huquqshunos olimlar va amaliyotchilar e'tiboridagi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Yangilangan Konstitutsiya davlatimizning qonuniylik, adolat va inson huquqlari ustuvorligini ta'minlashga qat'iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

Mazkur konstitutsiyaviy islohotlarni amaliy jihatdan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024 yil 10 iyun kuni PF-89-sonli «Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon qabul qilindi. Ushbu Farmon sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, ishni sudga qadar yuritishda taraflarning tengligi va tortishuvi prinsipini amalda ta'minlash, shuningdek, tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilinishiga erishish vazifalarni belgilab berish bilan bir qatorda jinoyat

ishlarini yuritishda sud nazoratining ta'sirchan mexanizmlarini shakllantirish, shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda "Habeas corpus" institutini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Davlat rahbarimizning tashabbusi va keng ko'lamli sud-huquq islohotlari doirasida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish maqsadida milliy sud tizimida tergov sudyasi lavozimi joriy etildi.

Tergov sudyasi institutining joriy etilishi dastlabki tergov bosqichida shaxs huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, protsess ishtirokchilari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash hamda ayblov tomoni vakolatlarining asossiz kengayib ketishining oldini olishga xizmat qiladi. Tergov sudyasining asosiy vazifasi esa — dastlabki tergov jarayonida tergov organlari va prokuratura faoliyati ustidan mustaqil va xolis sud nazoratini amalga oshirishdan iboratdir.

Mazkur institut ayniqsa tortishuv prinsipini mustahkamlash, himoya huquqini ta'minlash hamda inson huquqlarini sud orqali himoya qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Tergov sudyasi shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari cheklanishida qonuniylik kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, ehtiyot choralari qo'llash, tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitish kabi protsessual harakatlarni sanksiyalashda uning roli kattadir.

Xorijiy davlatlar tajribasi tergov sudyasi institutining turli modellari mavjudligini ko'rsatadi.

Fransiyada tergov sudyasi (juge d'instruction) instituti<sup>1</sup> shakllangan bo'lib, u uzoq vaqt davomida ham sud nazorati, ham tergov funksiyalarini amalga oshirgan. Biroq so'nggi yillarda mazkur model bir shaxs qo'lida ortiqcha vakolatlar jamlanishi tanqid qilinishi sababli isloh qilinmoqda. Hozirgi kunda Fransiyada prokurorning tergov ustidan rahbarlik roli kuchaytirilgan holda, inson huquqlarini

---

<sup>1</sup> <https://pravgos.ru/index.php/journal/article/view/891>

cheklash bilan bog'liq masalalar bo'yicha sud nazorati saqlab qolinmoqda.

Germaniyada esa tergov bo'yicha sudya (Ermittlungsrichter) konstitutsiyaviy huquqlarga daxl qiluvchi protsessual harakatlarni sanksiya qiladi<sup>2</sup>. Nemis modeli ayblov, tergov va sud nazorati funksiyalarining aniq ajratilganligi bilan ajralib turadi hamda sud mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qozog'iston tajribasi ham alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu davlatda tergov sudyasi instituti jinoyat protsessi islohoti doirasida joriy etildi. Tergov sudyasi ehtiyot choralarini sanksiyalash, protsess ishtirokchilari shikoyatlarini ko'rib chiqish hamda dalillarni ta'minlash bilan bog'liq ayrim masalalarni hal etadi<sup>3</sup>. Qozog'iston amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, tergov sudyasi vakolatlarining kengaytirilishi inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Anglosakson huquq tizimi davlatlarida alohida tergov sudyasi instituti mavjud emas, biroq sud nazorati magistrat sudlari va judicial review mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Bu esa qaysi huquqiy model qo'llanilishidan qat'i nazar, zamonaviy davlatlar tergov organlari faoliyati ustidan samarali sud nazoratini ta'minlashga intilishini ko'rsatadi.

Tergov sudyasi instituti rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

*-dastlabki tergov bosqichida sud nazorati doirasining kengayishi;*

*-inson huquqlari kafolatlarining kuchaytirilishi;*

*-jinoyat protsessini raqamlashtirish va elektron sudlov tizimlarini joriy etish;*

*-shikoyatlarni tezkor sud tartibida ko'rib chiqish mexanizmlarini rivojlantirish;*

*-tergov sudyasining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash.*

---

<sup>2</sup> <https://publishup.uni-potsdam.de/opus4-ubp/frontdoor/deliver/index/docId/6039/file/sdrs02.pdf>

<sup>3</sup> <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231>

O'zbekiston jinoyat protsessi uchun tergov sudyasi institutini rivojlantirish sud-huquq islohotlari sharoitida alohida dolzarb ahamiyatga ega. Dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish jamiyatning odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, shaxs huquqlarini ishonchli himoya qilish hamda tortishuv prinsipini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tergov sudyasi institutini yanada takomillashtirish qator tashkiliy-huquqiy va protsessual masalalarni kompleks hal etishni taqozo etadi. Xususan, tergov sudyasi, prokuror hamda tergov organlari vakolatlarining aniq chegaralarini belgilash, sud nazorati funksiyasi bilan ayblov funksiyasining o'zaro aralashib ketishining oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, dastlabki tergov bosqichida ishtirokchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali ta'minlash maqsadida shikoyatlarni ko'rib chiqishning protsessual tartib-taomillarini takomillashtirish zarur. Mazkur institutning samarali faoliyat yuritishi, shuningdek, yuqori malakali va maxsus tayyorgarlikka ega sud kadrlarini tayyorlash bilan ham bevosita bog'liqdir.

Ayni paytda, rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish va uni milliy huquq tizimi hamda huquqiy an'analar xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirib joriy etish tergov sudyasi institutini izchil rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tergov sudyasi instituti zamonaviy jinoyat sudlovining inson huquqlarini dastlabki bosqichda sud orqali himoya qilishga qaratilgan muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Uning keyingi rivojlanishi sud mustaqilligi, taraflar tortishuvi va inson huquqlari ustuvorligi prinsiplariga asoslanishi lozim.

**Z.R.Omonov,**

*Odil sudlov akademiyasi o'qituvchisi,  
y.f.f.d (PhD) dotsent*

## **“TERGOV SUDYASI” TUSHUNCHASINING NAZARIY- HUQUQIY MAZMUNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAMDA IJTIMOIIY-HUQUQIY AHAMIYATI.**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligiga 2025 yilda kiritilgan muhim yangilik — tergov sudyasi institutining nazariy-huquqiy mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-huquqiy ahamiyati kompleks ilmiy tahlil etilgan. Tadqiqotda jinoyat-protsessual doktrinasida tergov sudyasiga olimlar tomonidan berilgan turli nazariy ta’riflar va yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *tergov sudyasi, jinoyat-protsessual maqom, sud nazorati, tortishuvchanlik prinsipi, yurisdiksiyon nazorat, deponentlash, aybsizlik prezumpsiyasi, ehtiyot chorasi, qamoqqa olish, ayblovga og‘ish.*

Jinoyat-protsessual doktrinasida tergov sudyasining huquqiy tabiati turlicha talqin qilinadi. B.A. Mo‘minovning fikricha, tergov sudyasi – bu ishni sudga qadar yuritish bosqichida mas’ul organlarning iltimosnomalari va manfaatdor shaxslarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish hamda hal qilish orqali shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari ta’minlanishi ustidan sud nazoratini amalga oshirishga vakolatli sudyadir<sup>4</sup>.

Bu haqda A.S. Aleksandrov tergov sudyasini umumiy yurisdiksiya sudlari tizimidan mustaqil ravishda ishlaydigan va ixtisoslashtirilgan mustaqil subyekt sifatida ta’riflaydi<sup>5</sup>.

Shuningdek, O.A. Glyankoning ta’kidlashicha, tergov sudyasi jinoyat ishi bo‘yicha sudgacha ish yuritishda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklaydigan protsessual

---

<sup>4</sup>Mo‘minov B.A. Jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish ustidan sud nazorati: Yurid. fan. doktori (DSc) ... diss. – Toshkent: O‘zR IIV Akademiyasi, 2020. – B. 249.

<sup>5</sup>Александров А.С. Доктринальная модель уголовно-процессуального статуса следственного судьи М.: 2019. – С. 158.

harakatlarni amalga oshirishning qonuniyligi va asosligi to‘g‘risidagi protsessual-huquqiy nizoni hal qiluvchi, shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi hamda dalillarni to‘plash va tekshirish bo‘yicha sud nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxsdir<sup>6</sup>.

D. Choriyevaning yondashuviga ko‘ra, tergov sudyasi ayblov va himoya tomonlari harakatlarini muvofiqlashtirib, ularga o‘z huquqlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratuvchi shaxs hisoblanadi<sup>7</sup>.

Shuningdek, tergov sudyasining eng asosiy o‘ziga xos xususiyati shundaki, u jinoyatlarni fosh etmaydi, aybdorlarni axtarmaydi va jinoyat ishini mohiyatan (aybli yoki aybsizlik masalasini) ko‘rib chiqmaydi. Uning vazifasi – ayblov tomoni (tergov, prokuratura) va himoya tomoni o‘rtasidagi mustaqil va xolis hakam (arbitr) rolini bajarish orqali sudga qadar bosqichda tortishuvchanlik prinsipini real ta‘minlashdir.

Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlarni kompleks tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tergov sudyasining jinoyat-protsessual maqomini shakllantirishda uning faoliyatini ikki fundamental konsepsiya asosida tushunish lozim: birinchisi, sud hokimiyati vakili sifatida inson huquqlarini davlatning majburlov apparatlari asossiz aralashuvidan himoya qilish (yurisdiksiya-nazorat funksiyasi); ikkinchisi, jinoyat protsessida tenglik va tortishuvchanlik muhitini yaratish orqali dalillar to‘plash sifatini oshirish (tortishuvchanlik funksiyasi).

Olimlar o‘rtasida tergov sudyasining vakolatlari borasida kuchli ilmiy munozaralar kechgan. Xususan, T.G. Morshakovaning konsepsiyasiga ko‘ra, tergov sudyasi jinoiy ta‘qib funksiyasini o‘z zimmasiga olmasdan, faqatgina tergov ustidan sud nazoratini amalga oshirishi, ya‘ni yangi dalillarni to‘plash tashabbusi bilan chiqmasdan, taraflar taqdim etgan materiallarni tekshirishi lozim<sup>8</sup>. Professor A.V.

---

<sup>6</sup> Глянько О.А. Теоретико-правовая модель процессуального статуса следственного судьи: Дисс... канд. юрид. наук. – Москва: Академия управления МВД России, 2019. – С. 107.

<sup>7</sup> Choriyeva D.M. Tergov sudyasi: u kim va uning himoyachi protsessual maqomini oshirishdagi o‘rni qanday? // Kun.uz elektron nashri, 24.04.2020 y.

<sup>8</sup> Морщакова Т.Г. Концепция создания института следственных судей в РФ // Сравнительное конституционное обозрение. – 2005. – № 3. – С. 61-68.

Smirnov esa tergov sudyasiga nafaqat sud nazorati, balki bevosita “sud tergov harakatlarini o‘tkazish” vakolatini berishni taklif qilgan<sup>9</sup>. Biroq ilg‘or xorijiy tajriba (xususan, Fransiyaning “ozodlik va qamoq sudyasi” yoki Germaniyaning “uchastka sudyasi” institutlari) shuni ko‘rsatdiki, sud vakolati va tergov vakolatining bir mansabdor shaxsda (tergov sudyasida) qorishib ketishi kutilgan ijobiy natijani bermaydi, aksincha, sudyaning xolisligini yo‘qotishiga olib keladi. Shu sababli, milliy qonunchiligimizdagi tergov sudyasi modeli, asosan, yurisdiktsion va nazorat funksiyalarini bajarishga qaratilgan bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri tergov olib bormaydi.

### **Tergov sudyasi institutining ijtimoiy-huquqiy ahamiyati va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi maqomi.**

Jinoyat ishlarini yuritishning sudga qadar bo‘lgan bosqichlarida odil sudlov prinsiplarini amalga oshirishning eng muhim kafolati bu – tortishuvchanlikdir. M.S. Strogovich ta’kidlaganidek, tortishuvchanlik shunday sharoitni taqozo etadiki, unda ayblov tomoni ishni hal qiluvchi suddan ajratilgan bo‘ladi va tomonlar teng huquqlarga ega bo‘ladi<sup>10</sup>. Sudga qadar bo‘lgan bosqichda ayblov tomoni (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror) davlatning cheksiz majburlov resurslariga ega bo‘lgani holda, himoya tomoni dalillarni to‘plashda jiddiy to‘siqlarga duch kelishadi. Himoyachi tomonidan dalillar taqdim qilinishi yoki ekspertiza tayinlash haqidagi iltimosnomalar ayblov funksiyasini bajaruvchi tergovchi tomonidan ko‘rib chiqilar va ko‘p hollarda subyektiv ravishda rad etiladi. Bu esa himoya tomonini “statistik ishtirokchi”ga aylantirib qo‘ygan.

Tergov sudyasi institutining joriy qilinishi bu adolatsizlikka barham beradi. Endilikda, tergov jarayonida taraflar o‘rtasida yuzaga keladigan har qanday protsessual-huquqiy nizo mustaqil arbitr bo‘lgan tergov sudyasi tomonidan, sud majlisi shaklida, ikki tomonning vajlarini teng eshitgan holda hal qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 iyundagi PF-89-sonli Farmoni bilan sud-tergov tizimida yangi davr boshlandi. Ushbu Farmon asosida 2025 yil

---

<sup>9</sup> Смирнов А.В. Возрождение института следственных судей в российском уголовном процессе. [Электрон ресурс].

<sup>10</sup> Строгович М.С. Курс уголовного процесса. М.: Юр.лит.,1958. с. 40.

28 yanvarda qabul qilingan O‘RQ-1022-sonli Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) 31-1-modda (Tergov sudyasining vakolatlari) bilan to‘ldirildi.

Qonunchilikdagi yangiliklarni ilmiy jihatdan tahlil qilsak, tergov sudyasining vakolatlarini ularning huquqiy yo‘nalishiga ko‘ra uchta katta guruhga tasniflash mumkin:

Birinchi guruh: Shaxsning erkinligi va daxlsizligini cheklovchi protsessual majburlov choralarini qo‘llash ustidan yurisdiksiyon nazorat. Shaxsni jamiyatdan ajratish yoki uning fundamental huquqlarini cheklash faqat mustaqil sud hokimiyati tomonidagina amalga oshirilishi xalqaro Habeas korpus (Habeas Corpus) standartining o‘zagidir. Ushbu guruh vakolatlariga: qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash; ularning muddatini uzaytirish; ushlab turish muddatini 48 soatgacha uzaytirish; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish va uning muddatini uzaytirish kabilar kiradi. Mazkur majburlov choralarining qabul qilinishida tergov sudyasi nafaqat formal asoslarni, balki iltimosnomada keltirilgan vajlarning (masalan, shaxsning qochib ketishi yoki tergovga to‘sqinlik qilishi xavfining) faktik ma‘lumotlar bilan tasdiqlanganligini xolisona tekshiradi.

Ikkinchi guruh: Insonning xususiy hayoti, uy-joy daxlsizligi va mulk huquqini cheklaydigan tergov harakatlariga sanksiya (ruxsat) berish. Yangi qonunchiligimizning eng inqilobiy o‘zgarishlaridan biri sifatida JPKga 158-1, 158-2 va 169-1-moddalarning kiritilishi bo‘ldi. Endilikda, tintuv o‘tkazish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish; mol-mulkni xatlash; murdani eksqumatsiya qilish; pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash kabi o‘ta nozik, insonning xususiy hayotiga bevosita daxl qiluvchi tergov harakatlariga faqat tergov sudyasi tomonidan ruxsat beriladi. Ushbu harakatlarning prokuror sanksiyasidan olinib sudga berilishi – inson huquqlarini himoya qilishni eng yuqori pog‘onaga ko‘taradi. Ilgari prokuror ham jinoiy ta‘qibni boshqaruvchi, ham qonuniylikni nazorat qiluvchi subyekt sifatida bunday ruxsatlarni berishda o‘zining ayblov

funksiyasi ta'siridan to'liq xalos bo'la olmas edi. Tergov sudyasi esa ayblov natijalaridan manfaatdor emas va jinoyatlarni fosh etish statistikasi uchun javobgar bo'lmaydi.

Uchinchi guruh: Dalillarni to'plash, mustahkamlash va tortishuvchanlik muhitini shakllantirish bo'yicha vakolatlar. JPKning yangi 121-3-moddasiga binoan, tergov sudyasiga prokurorning yoki taraflarning iltimosnomasiga ko'ra, guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash (deponentlash) vakolati berildi. Bu institutning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati shundaki, agar guvoh yoki jabrlanuvchiga tahdid bo'lsa, yoki ular og'ir kasallik sababli kelgusida sudda qatnasha olmaslik ehtimoli bo'lsa, ularning ko'rsatuvlari dastlabki tergov bosqichining o'zidayoq, tergov sudyasi raisligida, advokat va prokuror ishtirokida tortishuvchan sud majlisida eshitiladi va bayonnomaga olinadi. Bu dalil keyinchalik sud muhokamasida hech qanday shubhasiz, to'laqonli maqbul dalil sifatida foydalaniladi. Qozog'iston va Ukraina tajribasida ham deponentlash instituti tergov sudyasi faoliyatining eng muvaffaqiyatli yo'nalishlaridan biri sifatida baholangan.<sup>11</sup>

Tergov sudyasi va Odil sudlovni amalga oshiruvchi sudya funksiyalarining differentsiatsiyasi (farqlanishi).

Ilmiy nuqtai nazardan, tergov sudyasi institutining yana bir o'ta muhim ijtimoiy-huquqiy ahamiyati – bu odil sudlovning xolisligini kafolatlashidir. Psixologiya va huquqshunoslik simbiozi shuni ko'rsatadiki, ishni sudga qadar yuritishda protsessual majburlov choralarni qo'llagan, xususan, shaxsni qamoqqa olish to'g'risida qaror chiqargan sudyada, garchi u ayblilik masalasini rasman hal qilmasa-da, faktik ma'lumotlar asosida shaxsning aybdorligiga doir dastlabki ichki ishonch (psixologik moyillik yoki ayblovga og'ish – обвинительный уклон) shakllanib qoladi.<sup>12</sup> Agar mazkur sudya keyinchalik shu jinoyat ishini birinchi instansiya sudida mazmunan

---

<sup>11</sup> Хан В.В. Полномочия следственного судьи в новой модели уголовного процесса Казахстана: сущность и классификация // Научные труды Алматинской академии МВД РК. – 2014. – № 4 (41). – С. 99-105.

<sup>12</sup> Лазарева В.А. Теория и практика судебной защиты в уголовном процессе. – Самара: 2000. – С. 232.

ko‘rib chiqadigan bo‘lsa, u o‘zining dastlabki qaroriga ruhan bog‘lanib qoladi. Bunday vaziyatda undan mustaqil ravishda oqlov hukmini chiqarishni yoki tergov organlarining dalillarini erkin, tanqidiy baholashni kutish qiyin.

Sud hokimiyati vakillari faoliyatini bunday majburiy psixo-emotsional qaramlikdan ozod qilish uchun tergov sudyalarning joriy etilishi eng oqilona echimdir. Tergov sudyasi faqat protsessual qarorlarga sanksiya beradi va shikoyatlarni ko‘rib chiqadi, biroq u hech qachon jinoyat ishini mohiyatan (mazmunan) ko‘rib chiqishda ishtirok etmaydi. Birinchi instansiyada ishni mohiyatan ko‘ruvchi sudya esa ish materiallari bilan faqat tergov tamomlanganidan keyin, to‘laqonli “toza” ichki ishonch bilan, hech qanday dastlabki psixologik yukka ega bo‘lmagan holda tanishadi. Bu jinoyat protsessida aybsizlik prezumpsiyasini real hayotga tatbiq etishning oliy ko‘rinishidir.

Qolaversa, yangi qonunchiligimizga ko‘ra (O‘RQ-1022-son Qonun), Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan barcha ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish ham jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining tergov sudyasi vakolatiga o‘tkazildi. Bu jinoyat ishlarini mazmunan ko‘ruvchi sudyalarning ish yuklamasini keskin kamaytirishga va ularga o‘z diqqat-e‘tiborini faqat og‘ir va murakkab jinoyat ishlarini adolatli ko‘rib chiqishga qaratishlariga imkon yaratadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, tergov sudyasi – bu shunchaki jinoyat protsessidagi yangi ishtirokchi emas, balki sud-huquq tizimini inkvizitsion qoldiqlardan tozalovchi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqaro o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlovchi institutsional qalqondir. Tergov sudyasining jinoyat-protsessual maqomi shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining cheklanishini oldini oluvchi preventiv sud nazorati funksiyasi orqali namoyon bo‘ladi va bu O‘zbekiston Respublikasida demokratik, huquqiy davlat poydevorini yanada mustahkamlashga katta hissa qo‘shadi.

**O.S.Toshev,**

*Odil sudlov akademiyasi Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedrası  
o'qituvchisi, y.f.f.d (PhD) dotsent v.b.*

## **SHAXSNING OZODLIGI, SHA'NI VA QADR-QIMMATIGA QARSHI JINOYATLARDA TERGOV SUDYASINING ALOHIDA O'RNI**

**Annotatsiya:** *Mazkur ilmiy maqolada shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning yuridik tabiati, ushbu toifadagi ishlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari hamda sudga qadar ish yurituv bosqichida tergov sudyasining roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Rivojlangan xorijiy davlatlar (Fransiya, Germaniya, AQSh) tajribasi asosida milliy qonunchilikni, xususan, jinoyat-protsessual mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *shaxs ozodligi, sha'n va qadr-qimmat, tergov sudyasi, sud nazorati, Habeas korpus, viktimizatsiya, odam savdosi, xorijiy tajriba, jinoyat-huquqiy fanlar.*

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlaridan biri - inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish va ularning daxlsizligini ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlangan. Sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, "Habeas korpus" institutini kengaytirish va jinoyat protsessida tergov sudyasi institutining joriy etilishi shaxs huquqlarini himoya qilishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar bo'yicha sudga qadar ish yuritish bosqichida davlatning majburlov apparatlari asossiz aralashuvining oldini olish va jabrlanuvchilarning buzilgan huquqlarini tiklashda ushbu institut muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsni jamiyatdan ajratish yoki uning fundamental huquqlarini cheklash faqat mustaqil sud hokimiyati tomonidagina amalga oshirilishi xalqaro "Habeas korpus" (Habeas Corpus) standartining

o‘zagi hisoblanadi. Tergov sudyasi qamoqqa olish, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralari qo‘llash, ularning muddatini uzaytirish, shuningdek, ushlab turish muddatini 48 soatgacha uzaytirish kabi vakolatlar ustidan yurisdiksiya nazoratni amalga oshiradi.

Shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar doirasida bunday nazoratning o‘rnatilishi tergov organlarining ayblov tomonga berilib ketishining oldini oladi va shaxs ozodligini asossiz cheklashga yo‘l qo‘ymaydi.

Insonning sha‘ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish ko‘pincha uning xususiy hayotiga bevosita aralashuvni taqozo etishi mumkin. Insonning xususiy hayoti, uy-joy daxlsizligi va mulk huquqini cheklaydigan tergov harakatlariga, xususan, tintuv o‘tkazish, yozishmalar va telefon so‘zlashuvlarini eshitib borishga faqat tergov sudyasi tomonidan sanksiya beriladi. Mazkur sanksiya berish vakolatining prokurordan olinib mustahkam sud nazoratiga o‘tkazilishi inson sha‘ni va sirlarini himoya qilishni eng yuqori pog‘onaga ko‘taradi hamda dalillarni to‘plash jarayonida shaxsning qadr-qimmatini tahqirlanishining oldini oladi.

Shaxsning yashash, erkinlik, sha‘ni va qadr-qimmatini daxlsizligi huquqi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplaridan biridir. Biroq jamiyatning raqamlashuvi va transmilliy jinoyatchilikning o‘sishi fonida odam savdosi, odam o‘g‘irlash, shuningdek, kibermakondagi tuhmat va haqorat kabi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortib bormoqda.

Xorijiy va milliy olimlarning ilmiy izlanishlarida tergov sudyasi instituti va shaxsga qarshi jinoyatlarning tabiati keng muhokama qilingan. Taniqli Rossiyalik mashhur protsessualist olim, yuridik fanlar doktori I.L. Petruhin sud nazorati va shaxs daxlsizligi masalalarini eng ko‘p tadqiq qilgan olimlardan biridir. Olim I.L.Petruhin o‘zining ilmiy asarlarida shaxs daxlsizligi huquqini mutlaq qadriyat sifatida baholab, uni cheklash faqat va faqat mustaqil sud hokimiyati (tergov sudyasi) orqali amalga oshirilishi shartligini ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Petruhin jinoyat protsessida sudga qadar ish yuritish

---

<sup>1</sup> Петрухин И.Л. Судебная власть: контроль за расследованием преступлений. – М.: Тк Велби, проспект, 2008. – 288 с.

bosqichida majburlov choralarini faqat sud nazorati orqali amalga oshirish kerakligini demokratiyaning eng oliy ko'rinishi deb hisoblagan. U prokuratura nazorati shaxs huquqlarini to'laqonli himoya qila olmasligini, buning uchun mustaqil arbitr-tergov sudyasi zarurligini ta'kidlaydi.

“Sud nazorati – demokratiyaning buyuk yutug'idir va shubhasiz, kelajak aynan unga tegishli... Shaxsning ozodligi, daxlsizligi va xususiy hayot sirini to'g'ridan-to'g'ri cheklashga qaratilgan har qanday majburlov chorasi faqatgina mustaqil sudning ruxsati bilan va sof tortishuvchanlik tartib-taomillari asosida amalga oshirilishi shart. Sud hokimiyatining doimiy va faol nazoratisiz tergov organlarining o'zboshimchaligi va ayblov qiyaligini engib bo'lmaydi deb ta'kidlagan<sup>2</sup>.

G'arb olimlaridan Jon Spenser (John Spencer) va Richard Vogler (Richard Vogler) Yevropa qit'asi huquq tizimida tergov sudyasining nafaqat nazoratchi, balki dalillarning xolisligini kafolatlovchi faol subyekt ekanligini tadqiq etishgan. Jon Spenser Anglo-sakson va Yevropa qit'asi huquq tizimlarini qiyoslar ekan, qit'a tizimidagi (ayniqsa, Fransiyadagi) tergov sudyasining (*juge d'instruction*) maqomiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, tergov sudyasi faqatgina kuzatuvchi yoki politsiyaning harakatlariga order beruvchi rasmiy shaxs emas, balki adolatning faol kafolatidir. Yevropa qit'asi huquq tizimida tergov sudyasi (*juge d'instruction*) protsessual sahnadagi oddiy tomoshabin emas. U haqiqatni aniqlash maqsadida ham ayblovchi, ham oqlovchi dalillarni teng miqdorda to'plashga qonunan majbur bo'lgan (*à charge et à décharge*), shu orqali tergovning qonuniyligi va dalillarning mutlaq xolisligini kafolatlovchi faol hamda markaziy figuradir<sup>3</sup> deb ta'kidlagan.

Jinoyat kodeksining Maxsus qismida shaxsning ozodligi, sha'n va qadr-qimmatga qarshi jinoyatlar alohida bobni (VI bob) tashkil etadi. Ushbu jinoyatlar sirasiga odam savdosi (135-modda), ayolni

---

<sup>2</sup> Петрухин И.Л. Неприкосновенность личности и принуждение в уголовном процессе. - М.: Наука, 1989. - 254 с.

<sup>3</sup> European criminal procedures / edited by Mireille Delmas-Marty and J.R. Spencer ; translation supervised by J.R. Spencer.

erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish (136-modda), odam o‘g‘irlash (137-modda), qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum qilish (138-modda), tuhmat (139-modda) va haqorat qilish (140-modda) kabi jinoyatlar kiradi.

Ushbu toifadagi jinoyatlar bir qator o‘ziga xos kriminologik va jinoyat-huquqiy xususiyatlarga ega:

1) Ushbu jinoyatlarning bevosita obyekti shaxsning jismoniy erkinligi (makon va zamonda erkin harakatlanish huquqi) hamda uning ijtimoiy-ma’naviy maqomi (sha’ni va qadr-qimmatini) hisoblanadi. Bu ne’matlar insonga tug‘ilganidan boshlab beriladi va ularni begonalashtirib bo‘lmaydi. Shu sababli, ushbu ne’matlarga qilingan har qanday tajovuz shaxsning jamiyatdagi o‘rniga va ruhiyatiga jiddiy putur etkazadi.

2) Sha’n va qadr-qimmatga qarshi, shuningdek, odam savdosi kabi jinoyatlar aksariyat hollarda yuqori latentlikka ega. Jabrlanuvchilar o‘zlarining obro‘sigacha putur etishidan, jamiyatdagi muhokamalardan yoki aybdorning qasos olishidan qo‘rqib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishdan o‘zini tiyadilar.

3) Bugungi kunda tuhmat va haqorat kabi jinoyatlarning sodir etilish usullari keskin o‘zgardi. Ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar orqali shaxsning qadr-qimmatini tahqirlash, yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish (kiberbulling, doksing) keng tus olmoqda. Bu esa jinoyatning obyektiv tomonini kengaytirib, uning ijtimoiy xavflilik darajasini (auditoriyaning kattaligi hisobiga) oshiradi.

4) Odam o‘g‘irlash va ozodlikdan g‘ayriqonuniy mahrum qilish jinoyatlari jabrlanuvchida chuqur psixologik jarohatlar (masalan, Stokgolm sindromi yoki posttravmatik stress buzilishi) qoldiradi. Bunday holat tergov jarayonida jabrlanuvchi bilan ishlashda alohida ehtiyotkorlik va psixologik yondashuvni talab qiladi.

Jinoyat protsessida ayblov va himoya tomonlarining tengligini ta’minlash, shuningdek, sudga qadar ish yurituv bosqichida shaxs huquqlarining asossiz cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida tergov sudyasi instituti faoliyat yuritadi.

Tergov sudyasi – bu jinoyat ishini mazmunan ko‘rib chiqmaydigan, balki faqat sudga qadar ish yurituv bosqichida protsessual majburlov choralari qo‘llashni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan sudyadir.

Shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlarda tergov sudyasining roli bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

1) Odam savdosi (135-modda) yoki odam o‘g‘irlash (137-modda) kabi jinoyatlarda gumonlanuvchilar ko‘pincha uyushgan guruh a‘zolari bo‘ladi. Ular jabrlanuvchiga yoki guvohlarga bosim o‘tkazishi, qo‘rqitishi mumkin. Bunday holatda tergov sudyasi jinoyatning ijtimoiy xavfliligi va jabrlanuvchiga nisbatan tahdidlarni inobatga olib, gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo‘llash masalasini ko‘rib chiqadi. Bunda sudya nafaqat ayblanuvchining huquqlarini, balki jabrlanuvchining xavfsizligini kafolatlash nuqtai nazaridan yondashadi.

2) Tuhmat (JK 139-modda) va haqorat qilish (JK 140-modda) jinoyatlari, ayniqsa, axborot texnologiyalari orqali sodir etilganda, dalillarni to‘plash uchun gumonlanuvchining elektron qurilmalarini tintuv qilish, yozishmalarini olish yoki telefon so‘zlashuvlarini eshitish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kimning yozishmalar, telefon orqali so‘zlashuvlar siriga bo‘lgan huquqi kafolatlangan. Tergovchi o‘zboshimchalik bilan bu huquqni buza olmaydi. Tergov sudyasi tergovchi tomonidan taqdim etilgan materiallarni o‘rganib chiqib, haqiqatan ham ushbu tergov harakatini o‘tkazmasdan turib jinoyatni ochish imkonsiz ekanligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng sanksiya beradi. Bu esa shaxsning qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda boshqa shaxslarning daxlsizlik huquqlari asossiz poymol etilishining oldini oladi.

3) Shaxsni qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum qilish nafaqat jismoniy shaxslar, balki ba‘zan vakolatini suiiste‘mol qilgan mansabdor shaxslar (masalan, tergov yoki surishtiruv organlari xodimlari) tomonidan ham sodir etilishi mumkin. Agar shaxs tergov organlari tomonidan asossiz ushlab turilgan bo‘lsa, tergov sudyasi “Habeas korpus” prinsipi asosida ushlab turishning qonuniyligini

tekshirishi va noqonuniy ushlab turilgan shaxsni darhol ozod qilish haqida ajrim chiqarishi mumkin. Bu tergov sudyasining aynan shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlardagi to'g'ridan-to'g'ri va eng oliy himoyachilik vazifasini namoyon etadi.

4) Shaxsning sha'niga tajovuz qilingan ishlarda jabrlanuvchi va guvohlarni himoya qilish o'ta muhim. Tergov sudyasiga prokuror yoki taraflarning iltimosnomasiga ko'ra, guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatmalarini oldindan mustahkamlash (deponentlash) vakolati berilgan. Agar jabrlanuvchiga tahdid bo'lsa, uning ko'rsatmasi dastlabki tergov bosqichidayoq tergov sudyasi raisligida, himoyachi va prokuror ishtirokida tortishuvchan sud majlisida eshitaladi. Bu dalil keyinchalik sud muhokamasida to'laqonli maqbul dalil sifatida qabul qilinadi va jabrlanuvchining qayta viktimizatsiya bo'lishining oldini olishda katta huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Bunday toifadagi ishlarda jabrlanuvchi odatda tezkor xodimga, keyin surishtiruvchiga, so'ngra tergovchiga, undan keyin prokurorga va nihoyat sudda yana o'nlab odamlar oldida jinoyat tafsilotlarini qayta-qayta so'zlab berishga majbur bo'ladi. Odam savdosi yoki sha'ni toptalgan (masalan, jinsiy zo'ravonlik, og'ir tuhmat) holatlarda har bir so'roq jabrlanuvchini o'sha dahshatli voqeaga ruhan qaytaradi. Buning oqibatida u stressga tushadi, tushkunlikka (depressiyaga) tushadi va ko'pincha adolatdan ko'ra tinchlikni afzal ko'rib, o'z ko'rsatmasidan voz kechishga harakat qiladi.

Shu sababli qayta viktimizatsiyaning oldini olishning eng samarali huquqiy mexanizmi bu ko'rsatmalarni deponentlashdir. Deponentlash - bu guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatmalarini keyinchalik sud muhokamasi bosqichida qayta so'roq qilmasdan turib, maqbul dalil sifatida foydalanish maqsadida dastlabki tergov bosqichida maxsus tartibda yozib olish va qonuniy mustahkamlashdir. Agar jabrlanuvchining ruhiy holati og'ir bo'lsa yoki unga tahdid qilinishi xavfi bo'lsa, u shunchaki tergovchining xonasida emas, balki tergov sudyasi raisligida, maxsus jihozlangan xonada bir marta ko'rsatma beradi. Bu jarayon albatta video va audio yozuvlar orqali qayd etiladi. Jabrlanuvchining yuz ifodasi, his-tuyg'ulari va gapirish ohangi hammasi muhrlanadi. Jabrlanuvchini

tergov davomida boshqa bezovta qilinmaydi. Asosiy sud majlisi boshlanganda esa, jabrlanuvchini sudga chaqirish shart bo'lmaydi. Sudyalar va taraflar tergov sudyasi tomonidan yozib olingan videoni ko'rish orqali uning ko'rsatmasini o'rganadilar.

Tergov sudyasi ishtirokida deponentlash jarayoni o'tkazilganda, u erda ayblanuvchining himoyachisi (advokati) ham ishtirok etadi. Tergov sudyasi himoyachiga ham jabrlanuvchiga savol berish imkonini yaratadi (agar jabrlanuvchining xavfsizligi talab etsa, bu maxsus oyna ortidan yoki audio-aloqa orqali qilinadi). Shu orqali dalil har tomonlama xolis va qonuniy shakllanadi.

Tergov sudyasi orqali amalga oshiriladigan video-deponentlash tizimi jinoyatchini javobgarlikka tortish uchun etarli qonuniy dalil yaratish bilan birga, jabrlanuvchining ruhiyatini kelajakdagi davomli sud-tergov jarayonlarining iskanjasidan qutqaradi. Tergov sudyasi tomonidan jabrlanuvchining ko'rsatmasini deponentlash (video va audio yozuvlar orqali mustahkamlash) amaliyoti keng qo'llanilishi shart. Bu esa qayta viktimizatsiyaning (re-victimization) oldini olishga xizmat qiladi.

5) Tuhmat va haqorat jinoyatlarining aksariyati axborot resurslari orqali sodir etilmoqda. Tergov sudyasi provayderlardan ma'lumot olishni tezkorlik bilan sanksiyalashi, dalillar o'chirib yuborilishidan oldin ularni huquqiy mustahkamlanishi natijasida elektron dalillar ustidan tezkor nazoratni amalga oshirishga poydevor bo'ladi.

6) Sha'n va qadr-qimmatga etkazilgan ma'naviy zararining darajasini aniqlashda tergov sudyasi himoya yoki jabrlanuvchi tomonining iltimosiga ko'ra mustaqil ravishda sud-psixologiya yoki sud-lingvistika ekspertizalarini tayinlash vakolatiga ega bo'lishi adolatli qaror qabul qilishning garovidir.

Shaxsning erkinligi va sha'niga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda xorijiy davlatlarda tergov sudyasining roli turli huquqiy tizimlarda o'ziga xos tarzda shakllangan.

Fransiya tajribasi misolida ko'radigan bo'lak, Fransuz jinoyat protsessida (Juge d'instruction) tergov sudyasi o'ta muhim va faol figura hisoblanadi. Odam savdosi yoki uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan odam o'g'irlash kabi og'ir jinoyatlarda tergov sudyasi

tergovni bevosita o'zi boshqaradi. U nafaqat ayblovchi dalillarni, balki oqlovchi dalillarni ham to'plashga majbur (*à charge et à décharge*). Fransuz olimlarining ta'kidlashicha, bu tizim jabrlanuvchining qadr-qimmatini himoya qilishda eng yuqori samaradorlikni ko'rsatadi, chunki tergov sudyasi jabrlanuvchini politsiyaning ortiqcha bosimidan himoya qiladi va ko'rsatmalarni bevosita sud uchun (deponentlash) mustahkamlaydi

Germaniya (Ermittlungsrichter) jinoyat-protsessual kodeksiga (StPO) ko'ra, tergov sudyasi tergov o'tkazmaydi, balki prokuror va politsiyaning so'roviga asosan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklovchi harakatlarga ruxsat beradi (sanksiyalaydi). Sha'n va qadr-qimmatga qarshi jinoyatlarda (masalan, internet orqali tuhmat yoki haqorat) dalillarni to'plash maqsadida shaxsiy yozishmalarni olish yoki elektron qurilmalarni ko'zdan kechirish uchun aynan *Ermittlungsrichter* ruxsati talab etiladi. Nemis olimlari buni maqsadga muvofiqlik va mutanosiblik (Verhältnismäßigkeit) prinsipining amaliy ifodasi deb bilishadi.

Anglo-sakson tizimi (Magistrate Judge) AQSh va Buyuk Britaniyada tergov sudyalari (magistratlar) *Habeas Corpus* institutining asosiy ijrochilaridir. Ozodlikdan g'ayriqonuniy mahrum qilish jinoyatlarida magistrat sudya jabrlanuvchini zudlik bilan ozod qilish va aybdorni qamoqqa olish uchun order (warrant) beradi. Shuningdek, ular shaxsning qadr-qimmatini tahqirlash davom etishining oldini olish maqsadida himoya orderlari (protection orders) chiqarish vakolatiga ega.

Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatini – har qanday demokratik jamiyatning poydevoridir. Ushbu ne'matlarga qarshi qaratilgan jinoyatlar nafaqat alohida shaxsga, balki butun jamiyatning axloqiy-huquqiy muhitiga tahdid soladi.

Ushbu toifadagi jinoyatlarni tergov qilish jarayoni o'ziga xoslikni, inson ruhiyatini tushunishni va yuksak huquqiy madaniyatni talab etadi. Bu jarayonda tergov sudyasining o'zni beqiyosdir. Tergov sudyasi – bu davlatning jazolash mashinasi va fuqaroning daxlsiz huquqlari o'rtasidagi oltin o'rtalikni ta'minlovchi, tarozi toshini teng ushlab turuvchi mustaqil arbitrdir.

Xorijiy davlatlarning tajribasidan hamda sud-tergov amaliyoti tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida tergov sudyasiga guvoh va jabrlanuvchilarning ko‘rsatmalarini sudga qadar ish yurituv bosqichida deponentlash vakolatini kengroq joriy etish;

2) Kibermakonda shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar bo‘yicha elektron dalillarni muhrlash yuzasidan tergov sudyasining “elektron sanksiyasi” mexanizmini joriy etish va tergov sudyasiga elektron dalillarni zudlik bilan yuridik jihatdan mustahkamlash vakolatini berish lozim.

3) Tergov sudyasi sudga qadar ish yuritishda sud-psixologiya va sud-lingvistika ekspertizalarini tayinlash vakolatlariga ega bo‘lishi lozim. Tuhmat va haqorat (ayniqsa internet orqali) ishlarida so‘zlarning ma’nosini va inson ruhiyatiga ta’sirini baholash uchun himoya tomonining iltimosiga ko‘ra tergov sudyasi mustaqil ravishda ekspertiza tayinlashga ruxsat berishi kerak.

4) Odam savdosi va odam o‘g‘irlash jinoyatlarida tergov sudyasi tomonidan ayblanuvchiga jabrlanuvchiga ma’lum masofadan yaqinroq kelishni taqiqlovchi maxsus himoya orderlarini berish tizimini amaliyotga keng joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning ozodligi va qadr-qimmatiga tajovuz qilingan hollarda tergov sudyasi institutining samarali faoliyati qonun ustuvorligini ta’minlashga, fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirishga va pirovardida, mamlakatimizda inson huquqlarini eng oliy darajada himoya qilishga xizmat qiladi.

Shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar bo‘yicha tergov jarayoni nafaqat jinoyatni ochish, balki insonning poymol bo‘lgan ruhiy va jismoniy daxlsizligini tiklashga xizmat qilishi kerak. Sud-huquq tizimidagi bunday modernizatsiya jarayonlari pirovard natijada davlatning inson huquqlari kafili sifatidagi rolini xalqaro maydonda yanada mustahkamlaydi.

**S.N.Mamadiyev,**  
*O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov  
akademiyasi o‘qituvchisi, y.f.n(PhD), dotsent*

## **SUDGACHA ISH YURITISHDA SHIKOYAT QILISH HUQUQINI SUIIESTE’MOL QILISHNING OLDINI OLISH: SUD NAZORATI CHEGARALARI VA QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotatsiya.** *Maqolada jinoyat protsessining sudgacha bosqichlarida surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiati, ushbu huquqni amalga oshirish chegaralari va uni suiiste’mol qilishning oldini olish mexanizmlari tahlil qilinadi. Xorijiy va milliy protsessualist olimlar qarashlari asosida sud nazoratining mohiyati, uning prokuror nazorati va tergov mustaqilligi bilan nisbati, shuningdek sudning jinoiy ta’qib funksiyasiga aralashib ketishi xavfi yuzasidan polemik yondashuv ilgari suriladi. Muallif shikoyat qilish huquqini cheklash emas, balki uni insoflilik, mutanosiblik va protsessual maqsadga muvofiqlik mezonlari asosida tartibga solish lozimligini asoslaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *sud nazorati, shikoyat qilish huquqi, sudgacha ish yuritish, huquqni suiiste’mol qilish, jinoyat protsessi, prokuror nazorati, protsessual mutanosiblik, tergov harakatlari, odil sudlov.*

Jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarini ta’minlashning eng muhim kafolatlaridan biri davlat organlari va mansabdor shaxslarining protsessual harakatlari yoki qarorlari ustidan shikoyat qilish imkoniyatidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi har kimga o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish, davlat organlari va mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlaydi.<sup>4</sup>

Biroq ushbu huquqning konstitutsiyaviy maqomi uni mutlaq, chegarasiz va har qanday protsessual maqsadda qo‘llaniladigan vositaga aylantirmaydi. Amaldagi Konstitutsiyaning 20-moddasida

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat sanasi: 30.04.2026).

inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga putur etkazmasligi shartligi, huquqiy ta'sir choralari esa mutanosiblik prinsipiga asoslanishi lozimligi belgilangan.<sup>5</sup>

Shu ma'noda sudgacha ish yuritishda shikoyat qilish huquqi ikki qirrali tabiatga ega. Bir tomondan, u shaxsni surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning ehtimoliy g'ayriqonuniy harakatlaridan himoya qiladi. Ikkinchi tomondan, mazkur huquq asossiz, takroriy yoki ataylab kechiktirilgan holda qo'llanilsa, jinoyatlarni tez va to'la ochish, dalillarni saqlash, jabrlanuvchining huquqlarini tiklash hamda ishni sudda mazmunan ko'rib chiqish vazifalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maqolaning asosiy ilmiy muammosi shundan iboratki, sudgacha bosqichda sud nazoratini kuchaytirish inson huquqlari nuqtai nazaridan zarur bo'lsa-da, ushbu nazorat sudni dastlabki tergovga rahbarlik qiluvchi subyektga aylantirmasligi lozim. Boshqacha aytganda, sud nazorati inson huquqlarini himoya qilish vositasi bo'lib qolishi, jinoiy ta'qib funksiyasining tarkibiy qismiga aylanmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2-moddasiga ko'ra, jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi, aybi bo'lmagan shaxs javobgarlikka tortilmasligi va qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iborat.<sup>6</sup>

JPKning 27-moddasi protsess ishtirokchilariga, shuningdek jinoyat ishini yuritishdan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslarga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va sudning protsessual harakati yoki qarori ustidan shikoyat berish huquqini beradi. Ushbu norma shikoyat qilish huquqini jinoyat protsessining umumiy kafolatlaridan biri sifatida mustahkamlaydi. Biroq amaldagi tartibda shikoyat qilish mexanizmi barcha hollarda to'g'ridan-to'g'ri sudga

---

<sup>5</sup> O'sha manba. 20-modda.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/111460> (murojaat sanasi: 30.04.2026).

murojaat qilish shaklida emas, balki ko‘pincha prokuror nazorati va yuqori turuvchi mansabdor shaxs orqali amalga oshiriladi.<sup>7</sup>

Bu holat, bir qarashda, sud orqali himoyalaniş huquqini cheklayotgandek ko‘rinishi mumkin. Lekin masalaga faqat formal yondashib bo‘lmaydi. Jinoyat protsessida sud nazorati va prokuror nazorati o‘zaro raqobat qiluvchi institutlar emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi kafolatlardir. Prokuror tergov jarayonida qonunlarga rioya etilishini doimiy kuzatib borsa, sud asosan huquq buzilishi jiddiy, bevosita va sud aralashuvini talab qiladigan hollarda neytral kafolat sifatida maydonga chiqadi.

Shu bois, sudgacha bosqichda shikoyat qilish huquqini qonunchilikda kengaytirish masalasi mexanik ravishda hal etilmasligi kerak. Har qanday protsessual harakat yoki qaror ustidan sudga zudlik bilan shikoyat qilish imkoniyati tergov jarayonini parchalab yuborishi, sudni ishning faktik tomoniga ortiqcha jalb qilishi va sud muhokamasigacha bo‘lgan bosqichda protsessual funksiyalar aralashuvini kuchaytirishi mumkin.

Sud nazoratining jinoyat protsessidagi o‘rni yuzasidan protsessualist olimlar o‘rtasida bir xil yondashuv mavjud emas. A.V. Smirnov jinoyat protsessi modellarini tahlil qilar ekan, tortishuv jarayonining asosiy sharti ayblov, himoya va ishni hal qilish funksiyalarining institutsional ajratilganligida ekanini ta’kidlaydi.<sup>8</sup>

I.B. Mixaylovskaya ham jinoyat protsessi maqsadlari va funksiyalari haqida fikr yuritib, sudning ayblov yoki tergov funksiyasiga aralashuvi uning xolis hakam sifatidagi maqomiga putur etkazishini ko‘rsatadi.<sup>9</sup>

Mazkur yondashuv bilan umumiy ma’noda kelishish mumkin. Chunki sud ishni hal qiluvchi organ sifatida jinoiy ta’qib strategiyasini belgilashda ishtirok etsa, keyinchalik ishni mazmunan ko‘rish jarayonida uning betarafligiga nisbatan shubha paydo bo‘ladi. Biroq ushbu tezis sud nazoratini sudgacha bosqichdan umuman

---

<sup>7</sup> O‘sha kodeks. 27-modda.

<sup>8</sup> Smirnov A.V. Modeli ugolovnogo protsessa. – SPb., 2000. – S. 50–52.

<sup>9</sup> Михайловская И.Б. Цели, функции и принципы российского уголовного судопроизводства. – М., 2003. – С. 69.

chiqarib tashlash lozim, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Aksincha, zamonaviy huquqiy davlatda sud nazorati aynan tergov va prokuror organlari vakolatlari bilan shaxs huquqlari to'qnashgan nuqtada zarur bo'ladi.

O'zbekistonlik olim B.F. Mo'minov sudga qadar ish yuritish ustidan sud nazoratini inson huquqlarini himoya qilishning mustaqil kafolati sifatida baholaydi.<sup>10</sup>

Uning pozitsiyasida kuchli jihat shundaki, sud nazorati ma'muriy yoki prokuror nazoratining oddiy takrori sifatida emas, balki sud hokimiyatining inson huquqlarini tiklovchi shakli sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ushbu qarashni mutlaqlashtirish ham xavfli: agar sud nazorati "qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi" degan mexanik formula asosida qurilsa, u sudni xolis kafolatdan tergov jarayonining faol boshqaruvchisiga aylantirishi mumkin.

B.F. Mo'minovning sudgacha nazorat doirasini kengaytirish haqidagi ilmiy takliflari, ayniqsa inson huquqlariga jiddiy daxldor holatlar bo'yicha, amaliy ahamiyatga ega.<sup>11</sup>

Biroq mazkur maqola muallifi fikricha, kengaytirish predmet bo'yicha emas, balki mezonlar bo'yicha amalga oshirilishi kerak: ya'ni sudgacha bosqichda sud nazorati faqat shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga bevosita ta'sir qiluvchi, keyinchalik sud muhokamasida bartaraf etilishi qiyin yoki imkonsiz bo'lgan protsessual holatlarga nisbatan ustuvor qo'llanilishi lozim.

Z.F. Inog'omjonova va G.Z. To'laganova jinoyat protsessi ishtirokchilari huquqiy maqomini tahlil qilar ekan, protsess ishtirokchisining huquqlari uning protsessual majburiyatlari va umumiy vazifalardan ajratilgan holda qaralmasligi kerakligini ko'rsatadi.<sup>12</sup>

---

<sup>10</sup> Mo'minov B.F. Jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish ustidan sud nazorati. – Toshkent: Hilol-media, 2020. – 254 b.

<sup>11</sup> Мунинов Б. Перспективы расширения пределов судебного контроля над досудебным производством // Review of Law Sciences. – 2020. – № 1.

<sup>12</sup> Inog'omjonova Z.F., To'laganova G.Z. Jinoyat protsessi ishtirokchilari. O'quv qo'llanma / M.H. Rustamboev tahriri ostida. – Toshkent: TDYuI, 2007. – B. 25.

Bu fikr shikoyat qilish huquqiga ham to'la tatbiq etiladi: shikoyat subyektiv huquqdir, ammo u jinoyat protsessining umumiy vazifalarini izdan chiqaradigan, boshqa ishtirokchilar huquqlariga zarar etkazadigan yoki odil sudlov manfaatlarini falaj qiladigan usulda amalga oshirilmasligi shart.

D.M. Mirazov dastlabki tergov organlari faoliyati ustidan nazorat va kontrol masalalarini tahlil qilar ekan, tergov ustidan nazoratning bir necha institutsional shakllari mavjudligini, ularning har biri o'z protsessual maqsadi va chegarasiga ega ekanini asoslaydi.<sup>13</sup>

Muallif mazkur fikrni qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlaydiki, sud nazorati prokuror nazoratini siqib chiqarishi emas, balki unda mavjud bo'lmagan xolis sud kafolatini ta'minlashi kerak. Sud nazoratining protsessual kuchi ham aynan shu chegarada — ya'ni huquqni tiklashda, ammo tergovni boshqarmaslikda namoyon bo'ladi.

Huquqni suiiste'mol qilish umumhuquqiy kategoriya sifatida shaxsning subyektiv huquqdan uning ijtimoiy-huquqiy maqsadiga zid ravishda foydalanishini anglatadi. V.I. Kruss bu holatni huquqlar va erkinliklardan foydalanish orqali boshqa shaxslar, jamiyat yoki davlatning qonuniy manfaatlariga zarar etkazishga qaratilgan xulq-atvor sifatida baholaydi.<sup>14</sup>

A.A. Malinovskiyning fikricha, huquqni suiiste'mol qilish huquqiy shakldan foydalangan holda huquqqa qarshi natijaga erishishdir.<sup>15</sup>

Ushbu nazariy yondashuvlar jinoyat protsessi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki jinoyat protsessual huquqlar, jumladan shikoyat qilish, himoyalaniish, dalillar taqdim etish, iltimosnoma kiritish kabi huquqlar shaxsni davlat majburlovidan himoya qilish

---

<sup>13</sup> Mirazov D.M. Dastlabki tergov idoralari faoliyati ustidan kontrol va nazoratni takomillashtirishning nazariy, tashkiliy va protsessual jihatlar: yuridik fanlar doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2016.

<sup>14</sup> Kruss В.И. Актуальные аспекты проблемы злоупотребления правами и свободами человека // Государство и право. – 2002. – № 7. – С. 49.

<sup>15</sup> Малиновский А.А. Злоупотребление правом. – М., 2002. – С. 22.

uchun berilgan. Agar mazkur huquqlar ishni sun'iy cho'zish, dalillarni yo'qotish, jabrlanuvchiga tazyiq o'tkazish yoki ayblovni protsessual jihatdan falaj qilish maqsadida ishlatilsa, huquq o'z himoyaviy tabiatini yo'qotadi.

Yevropa inson huquqlari tizimida ham huquqdan foydalanish chegaralari inkor etilmaydi. "Golder v. the United Kingdom" ishida Yevropa inson huquqlari sudi sudga murojaat qilish huquqini odil sudlov kafolatlarining ajralmas qismi sifatida tan olgan.<sup>16</sup>

Biroq "Ashingdane v. the United Kingdom" ishida Sud sudga murojaat qilish huquqi mutlaq emasligini, unga qo'yiladigan cheklovlar qonuniy maqsadni ko'zlashi va mutanosib bo'lishi lozimligini ta'kidlagan.<sup>17</sup>

Shuningdek, Yevropa inson huquqlari konvensiyasining 17-moddasi huquqlardan suiiste'mol qilishni taqiqlaydi. Garchi O'zbekiston ushbu konvensiya ishtirokchisi bo'lmasa-da, mazkur yondashuv umume'tirof etilgan huquqiy mantiqni ifodalaydi: huquqlar ularni yo'q qilish yoki qonuniy maqsadidan chetlashtirish vositasi sifatida talqin qilinmasligi lozim.<sup>18</sup>

Amaliyotda sudgacha bosqichda shikoyat qilish huquqini suiiste'mol qilish bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Birinchi ko'rinish — aynan bir protsessual harakat yoki qaror ustidan yangi holatlarsiz takroriy shikoyatlar berishdir. Bunday vaziyatda shikoyatning maqsadi huquq buzilishini bartaraf etish emas, balki tergov organini doimiy javob tayyorlash, material yig'ish va protsessual resurs sarflashga majbur qilish bo'lib qoladi.

Ikkinchi ko'rinish — asossiz va sun'iy shikoyatlar orqali dalillarni to'plash jarayoniga monelik qilishdir. A.V. Solodilov sud nazoratining zarurligini e'tirof etgan holda, sudning tergov

---

<sup>16</sup> European Court of Human Rights. Golder v. the United Kingdom, Application no. 4451/70, Judgment of 21 February 1975.

<sup>17</sup> European Court of Human Rights. Ashingdane v. the United Kingdom, Application no. 8225/78, Judgment of 28 May 1985.

<sup>18</sup> European Convention on Human Rights. Article 17 – Prohibition of abuse of rights. Council of Europe.

jarayoniga haddan tashqari kirib borishi protsessual funksiyalar aralashuviga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.<sup>19</sup>

Ushbu fikrga qo'shimcha ravishda ta'kidlash lozimki, asossiz shikoyatlar tergov harakatlarini to'g'ridan-to'g'ri to'xtatmasa ham, tergovchini asosiy vazifasidan chalg'itadi, vaqt omili muhim bo'lgan holatlarda dalillar yo'qolishi yoki o'zgarishiga sharoit yaratadi.

Uchinchi ko'rinish — kechiktirilgan shikoyatlardir. Bunda shaxs protsessual qaror yoki harakatdan xabardor bo'lgan bo'lsa-da, uning ustidan darhol shikoyat qilmasdan, muayyan huquqiy oqibatlar yuzaga kelgandan so'ng murojaat qiladi. Masalan, ashyoviy, yozma yoki raqamli dalillar qaytarilgan, yo'q qilingan, saqlash tartibi o'zgargan yoki guvohlar bilan ta'sir o'tkazish imkoniyati paydo bo'lganidan keyin berilgan shikoyat ishning haqiqatini aniqlashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Amaldagi JPK 208-moddasi ashyoviy, yozma va raqamli dalillar yo'qolishi, shikastlanishi, buzilishi yoki aralashib ketishining oldini olish choralari ko'rishni talab qiladi, 210-modda esa ayrim hollarda dalillar taqdiriga oid qarorni ish yuritish tamom bo'lmasdan oldin hal qilish imkoniyatini nazarda tutadi.<sup>20</sup>

Demak, shikoyat berish vaqti nafaqat subyektiv huquqni amalga oshirish masalasi, balki dalillar taqdiri, tergov samaradorligi va odil sudlov manfaatlari bilan bog'liq protsessual omildir.

Sudgacha bosqichda shikoyatni ko'rib chiqish natijasida sud qanday vakolatga ega bo'lishi kerakligi eng murakkab masalalardan biridir. Bir yondashuvga ko'ra, sud g'ayriqonuniy yoki asossiz protsessual qarorni bevosita bekor qilish huquqiga ega bo'lishi lozim. Bu yondashuv inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan jozibali ko'rinadi. Biroq uning amaliyotda xavfli tomonlari bor.

Agar sud tergov muddatini uzaytirish, ishni o'z yurituviga qabul qilish, tergov guruhini tuzish yoki muayyan protsessual qarorni

---

<sup>19</sup> Солодилов А.В. Судебный контроль за проведением следственных действий и решениями прокурора и органов расследования, ограничивающими конституционные права и свободы граждан в уголовном процессе России. – Томск, 1999. – С. 57, 67.

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 208, 210-moddalar.

shakliy kamchiliklar asosida bevosita bekor qilsa, keyinchalik bu kamchilikni bartaraf etish imkoniyati qolmasligi mumkin. Natijada sud huquq buzilishini tuzatish o'rniga, butun tergov jarayonini protsessual inqirozga olib kirishi ehtimoli paydo bo'ladi.

A.G. Xaliulin va V. Nazarenko sud nazorati prokuror nazoratining o'rnini bosish jarayonida sudning dastlabki tergovga ortiqcha aralashuvi xavfini qayd etadilar.<sup>21</sup>

Biz mazkur fikrni qo'llab-quvvatlagan holda, sudgacha bosqichda sud vakolatining maqbul modeli sifatida "bekor qilish" emas, balki "g'ayriqonuniy yoki asossiz deb topish" modelini ilgari suradi. Bunda sud shikoyat qilingan harakat yoki qarorni huquqqa xilof deb baholaydi, tegishli mansabdor shaxs yoki prokurorga qonunbuzarlikni bartaraf etish majburiyatini yuklaydi, ammo tergov taktikasiga kirib bormaydi.

L.N. Maslennikova sud nazoratini dastlabki tergovda sud hokimiyati vakolatini amalga oshirish shakli sifatida baholaydi.<sup>22</sup>

Biroq sud hokimiyati vakolatini amalga oshirish sudning har qanday protsessual masala bo'yicha tergovchi o'rniga qaror qabul qilishi degani emas. Sud hokimiyatining kuchliligi uning tergovni boshqarishida emas, balki huquq buzilishini xolis baholash va qonuniylikni tiklashga majbur qilish imkoniyatida namoyon bo'ladi.

Jinoyat protsessida tergovchining protsessual mustaqilligi, prokuror nazorati va sud nazorati bir-birini inkor etuvchi kategoriyalar emas. Ular jinoyat ishi bo'yicha qonuniylik va adolatni ta'minlashning turli institutsional qirralaridir. Tergovchi dalillarni to'playdi va tekshiradi; prokuror qonunga rioya etilishini nazorat qiladi va ayblov pozitsiyasini shakllantiradi; sud esa huquqlar buzilgan taqdirda xolis kafolat sifatida aralashadi.

JPKning 14-moddasi sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishini belgilaydi.<sup>23</sup>

---

<sup>21</sup> Халиулин А., Назаренко В. От прокурорского надзора к судебному контролю // Законност. – 2004. – № 1. – С. 25–27.

<sup>22</sup> Масленникова Л.Н. Судебный контроль в досудебном производстве по уголовному делу. – М., 2002. – С. 18–20.

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 14-modda.

Biroq sudyaning mustaqilligi uning tergov jarayoniga faol rahbarlik qilishini anglatmaydi. Aksincha, sudya tergov taktikasiga ortiqcha aralashgan sari, keyinchalik uning ishni xolis ko'rish qobiliyati haqida shubha kuchayadi.

JPKning 25-moddasida ayblash, himoya qilish va ishni hal qilish vazifalari bir-biridan alohida bajarilishi hamda aynan bir organ yoki mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilmasligi belgilangan.<sup>24</sup>

Mazkur prinsip sud muhokamasiga xos bo'lsa-da, uning funksiyaviy mohiyati sudgacha bosqichga ham tatbiq etilishi lozim. Agar sud shikoyatni ko'rib chiqish jarayonida tergovga qaysi harakatni, qaysi ketma-ketlikda va qanday taktik usulda o'tkazishni ko'rsatsa, u xolis nazoratchi emas, balki jinoiy ta'qib ishtirokchisiga aylanib qoladi.

A.P. Fokov sud nazoratini protsessual majburlov choralari ustidan muhim kafolat sifatida ko'rsatadi.<sup>25</sup>

Bu fikrga qo'shilgan holda ta'kidlash lozimki, sud nazoratining eng kuchli maydoni aynan shaxs erkinligi, daxlsizligi, uy-joy daxlsizligi, mulkiy huquqlari va dalillarning protsessual taqdiriga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlardir. Ammo bu nazorat barcha tergov qarorlarini sudlashtirish darajasiga etmasligi kerak.

Yuqoridagi tahlil asosida sudgacha ish yuritishda shikoyat qilish huquqini suiiste'mol qilishning oldini olish maqsadida JPKni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, JPKning 27-moddasi shikoyat qilish huquqini insofli amalga oshirish talabi bilan to'ldirilishi lozim. Norma quyidagi mazmunda bayon etilishi mumkin: "Protsess ishtirokchilari shikoyat qilish huquqini insofli amalga oshirishi, ushbu huquqdan jinoyat ishini asossiz cho'zish, dalillarni to'plash yoki tekshirishga monelik qilish, boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur etkazish maqsadida foydalanmasligi shart".

---

<sup>24</sup> O'sha kodeks. 25-modda.

<sup>25</sup> Фоков А.П. Судебный контроль в уголовном судопроизводстве. – М., 2004. – С. 41–44.

Ikkinchidan, sudgacha bosqichda sud tartibida ko'rib chiqiladigan shikoyatlar predmeti aniq mezonlar bilan belgilanishi lozim. Sud aralashuvi, avvalo, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, keyinchalik sud muhokamasida bartaraf etilishi qiyin bo'lgan yoki dalillar taqdiriga jiddiy ta'sir qiladigan holatlarga nisbatan qo'llanilishi kerak.

Uchinchidan, sudgacha bosqichda protsessual harakat yoki qaror ustidan shikoyat qilish muddati shaxs huquqi buzilganini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran besh kun qilib belgilanishi mumkin. Biroq bu muddat uzrli sabablar mavjud bo'lganda sud tomonidan tiklanishi kerak. Aks holda muddat instituti huquqni muhofaza qilish vositasi emas, huquqni cheklash mexanizmiga aylanib qoladi.

To'rtinchidan, aynan bir harakat yoki qaror yuzasidan, aynan bir asoslar bilan takroriy shikoyat berishga cheklov kiritish lozim. Ammo yangi holatlar, yangi dalillar yoki huquqiy vaziyat o'zgargan bo'lsa, qayta murojaat qilish imkoniyati saqlanishi shart.

Beshinchidan, sud shikoyatni ko'rib chiqish natijasida protsessual qarorni bevosita bekor qilish o'rniga, uni g'ayriqonuniy yoki asossiz deb topish va qonunbuzarlikni bartaraf etish majburiyatini tegishli mansabdor shaxs yoki prokuror zimmasiga yuklash vakolatiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, shikoyat berilishi tergov harakatlarini avtomatik to'xtatib qo'ymasligi lozim. Faqat sud alohida asoslangan holda, tergov harakati davom etsa tuzatib bo'lmaz huquqiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin deb hisoblasa, muayyan harakatni vaqtincha to'xtatish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, sudgacha ish yuritishda shikoyat qilish huquqi inson huquqlarini himoya qilishning muhim konstitutsiyaviy kafolatidir. Ushbu huquqni cheklash yoki formallashtirish huquqiy davlat tamoyillariga zid bo'lar edi. Biroq shikoyat qilish huquqining kafolat sifatidagi mohiyati uning insofli, maqsadga muvofiq va mutanosib amalga oshirilishini talab qiladi.

Xorijiy va milliy protsessualist olimlar fikrlari tahlili shuni ko'rsatadiki, sud nazorati jinoyat protsessida zarur institut bo'lsa-da, u sudning jinoiy ta'qib funksiyasiga aralashuviga olib kelmasligi lozim. A.V. Smirnov va I.B. Mixaylovskaya tomonidan asoslangan funksiyalar ajratilishi g'oyasi B.F. Mo'minovning sudgacha bosqichda inson huquqlarini sud orqali himoya qilish zarurati haqidagi qarashlari bilan qarama-qarshi emas; aksincha, ularni muvozanatlashtirish kerak.

Shu ma'noda maqolaning asosiy ilmiy xulosasi sifatida sudgacha bosqichda shikoyat qilish huquqi keng kafolatlanishi lozim, ammo sud nazoratining predmeti, muddati, protsessual oqibati va sud vakolatlari qonunchilikda aniq belgilanishi shart. Eng maqbul model — sudning tergov qarorini bevosita bekor qilishi emas, balki uni g'ayriqonuniy yoki asossiz deb topishi va qonunbuzarlikni bartaraf etish majburiyatini tegishli protsessual subyekt zimmasiga yuklashidir.

Bunday yondashuv bir vaqtning o'zida uch maqsadga xizmat qiladi: birinchidan, shaxsning sud orqali himoyalani shu huquqini ta'minlaydi; ikkinchidan, sudning xolisligi va funksiyaviy betarafligini saqlaydi; uchinchidan, shikoyat qilish huquqini jinoyat ishini asossiz cho'zish yoki dalillarni yo'qotish vositasiga aylantirish xavfini kamaytiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/6445145>.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/111460>.*
3. *Смирнов А.В. Модели уголовного процесса. – СПб., 2000.*
4. *Михайловская И.Б. Цели, функции и принципы российского уголовного судопроизводства. – М., 2003.*
5. *Солодилов А.В. Судебный контроль за проведением следственных действий и решениями прокурора и органов расследования. – Томск, 1999.*
6. *Mo'minov B.F. Jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish ustidan sud nazorati. – Toshkent: Hilol-media, 2020.*

7. Муминов Б. *Перспективы расширения пределов судебного контроля над досудебным производством // Review of Law Sciences. – 2020. – № 1.*

8. Inog'omjonova Z.F., To'laganova G.Z. *Jinoyat protsessi ishtirokchilari. – Toshkent: TDYuI, 2007.*

9. Mirazov D.M. *Dastlabki tergov idoralari faoliyati ustidan kontrol va nazoratni takomillashtirishning nazariy, tashkiliy va protsessual jihatlarini. – Toshkent, 2016.*

10. Крусс В.И. *Актуальные аспекты проблемы злоупотребления правами и свободами человека // Государство и право. – 2002. – № 7.*

11. Малиновский А.А. *Злоупотребление правом. – М., 2002.*

12. Халиулин А., Назаренко В. *От прокурорского надзора к судебному контролю. // Законность. – 2004. – № 1.*

13. Масленникова Л.Н. *Судебный контроль в досудебном производстве по уголовному делу. – М., 2002.*

14. Фоков А.П. *Судебный контроль в уголовном судопроизводстве. – М., 2004.*

15. *European Court of Human Rights. Golder v. the United Kingdom, Application no. 4451/70, Judgment of 21 February 1975.*

16. *European Court of Human Rights. Ashingdane v. the United Kingdom, Application no. 8225/78, Judgment of 28 May 1985.*

17. *European Convention on Human Rights. Article 17 – Prohibition of abuse of rights. Council of Europe.*

**K.R.Seytnazarov,**  
*QDU “Jinoyat huquqi, protsessi va kriminalistika”  
kafedrasi dotsenti, yu.f.n.*

## **SUDGACHA ISH YURITISH JARAYONIDA TERGOV SUDYASI FAOLIYATI DOIRASIDA TORTISHUV PRINSIPINI TA’MINLASH MASALALARI**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish, xususan, tergovga qadar tekshiruv bosqichida tortishuv prinsipini ta’minlash bilan bog’liq dolzarb muammolar tahlil qilingan. Amaldagi qonunchilikdagi bo’shliqlar, jumladan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar vakolatlaridagi nomuayyanlik hamda himoya tomonining protsessual maqomi to’liq ochib berilmaganligi sababli kelib chiqadigan oqibatlar ko’rsatib o’tilgan. AQSh, Fransiya va Germaniya tajribasini o’rganish asosida sud nazoratini kuchaytirish, tergov sudyasi instituti vakolatlarini kengaytirish hamda himoyachining dalillar to’plashdagi ishtirokini qonuniy mustahkamlash orqali taraflar tengligini ta’minlash bo’yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so’zlar:** *tergovga qadar tekshiruv, tortishuv prinsipi, tergov sudyasi, sud nazorati, protsessual tenglik, himoyachi maqomi, dalillarni maqbullashtirish, guvohlantirish.*

Huquqiy davlat va jamiyat rivojining asosiy omillaridan biri — inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qiluvchi institutlarning ravnaq topganligidadir. Ma’lumki, jinoyat-protsessual tizimini shakllantirish va takomillashtirib borishda asosiy omil bunga imkoniyat yaratib beruvchi qonunchilik bazasining mavjudligi va uning amaliyotda so’zsiz ishlashi hisoblanadi. Aynan sudgacha ish yuritish jarayoni shaxs huquqlari eng ko’p cheklanishi mumkin bo’lgan bosqich bo’lganligi sababli, bu erda tortishuv prinsipini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sudgacha ish yuritishning dastlabki bosqichlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ish hajmini tahlil qilish, bu jarayonda sud nazorati va tortishuvlik tamoyiliga qanchalik ehtiyoj borligini ko’rsatadi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, respublika

miqyosida ichki ishlar organlariga jinoyatga oid 2021 yilda 91 636 ta ariza va xabar kelib tushgan bo'lib, bu bazaviy ko'rsatkich sifatida olinganda, 2022 yilda bu raqam 74 817 tani tashkil etgan va oldingi yilga nisbatan 16 819 taga kamaygan. 2023 yilning dastlabki 5 oyi mobaynida esa 24 970 ta murojaat qayd etilib, vaziyatning nisbatan barqarorlashgani kuzatilgan.

Ro'yxatga olingan ariza va xabarlar sonini qiyosiy taqqoslash orqali jinoyatchilik tendensiyasini aniqlash mumkin. 2022 yilda ko'rsatkichlar pasaygan bo'lsa-da, murojaatlarning umumiy hajmi hanuzgacha yuqoriligicha qolmoqda. Jinoyatga oid arizalarni tekshirish bilan shug'ullanuvchi tergovga qadar tekshiruv institutidan qator xorijiy davlatlar voz kechgan bo'lishiga qaramasdan, milliy qonunchiligimizda ushbu institut saqlanib qolmoqda. Bu holat mazkur bosqichda ayblov va himoya tomonining protsessual tengligini ta'minlovchi mexanizmlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sudgacha ish yuritish institutini takomillashtirish yuzasidan ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'RBQ-442-son Qonuni (2017 yil 6 sentyabr), PQ-3723-sonli Qaror (2018 yil 14 may), PF-6041-sonli Farmon (2020 yil 10 avgust) hamda PF-60-sonli Farmon (2022 yil 28 yanvar) shular jumlasidandir. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sudga qadar ish yurituv bosqichlarida tergovga qadar tekshiruv subyektlarining protsessual maqomini mustahkamlashga qaratilgan. Biroq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, sudgacha ish yuritish jarayonida yagona, aniq protsessual mexanizmning mavjud emasligi, shaxs huquqlari kafolatlarining to'liq tartibga solinmaganligi kabi kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Yuqoridagi muammolar jinoyat protsessining dastlabki bosqichlarida tortishuvlik prinsipini ta'minlashda tergov sudyasi institutining rolini yanada kengaytirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 15-moddasida jinoyat alomatlari topilgan har bir holat yuzasidan prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat ishi qo'zg'atishi shartligi belgilangan. Tergovga qadar tekshiruv organlarining maqsadi jinoyat alomati bor

yoki yo'qligini aniqlashdir (JPK 320<sup>2</sup>-modda). Ammo tortishuv prinsipi nuqtai nazaridan qaraganda, ushbu bosqichda faqatgina ayblov (tekshiruv) funksiyasini bajaruvchi organlarning faolligi ustunlik qiladi. Himoya tomonining dalillarni to'plash va taqdim etish borasidagi imkoniyatlari cheklangan. Aynan shu o'rinda tergov sudyasining protsessual nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Tergov sudyasi nafaqat qamoqqa olish yoki tintuv kabi majburlov choralariga sanksiya berishi, balki himoya tomonining iltimosnomalarini ko'rib chiqish orqali jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar yoki dastlabki tergov jarayonida taraflarning real tengligini ta'minlashi lozim.

JPKning 39<sup>1</sup>-moddasida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar ro'yxati, 39<sup>2</sup> va 329-moddalarida esa ularning vakolatlari va arizalarni ko'rib chiqish tartibi belgilangan. Biroq, qonunchilikda qator bo'shliqlar mavjud.

Birinchidan, subyekt maqomining noaniqligi masalasi. Jinoyat-protsessual huquqida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tergovga qadar tekshiruvni o'tkazganda ularning aynan "tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan shaxs" sifatidagi maqomi alohida ochilmagan. Bu tushunchaning qonunga kiritilishi tergov sudyasi tomonidan ularning harakatlari ustidan aniq sud nazoratini o'rnatishga huquqiy zamin yaratadi.

Ikkinchidan, vakolatlarning umumiyliigi. JPKning 39<sup>2</sup>-moddasidagi vazifalar umumiy tusga ega bo'lib, ularni amalga oshirish mexanizmlari to'liq belgilanmagan. Bu esa ko'p hollarda tergov organlarining o'z vakolatlarini keng talqin qilishiga va himoya tomoni huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar rahbarlari va ularning mansabdor shaxslari jinoyat to'g'risidagi ariza va ma'lumotlarni tekshirish jarayonida aniq qonuniy vakolatlarga ega emasliklari amaliyotda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ularning faoliyatiga huquqiy baho berishdagi noaniqliklar jinoyat ishlarini yuritishda protsessual qonunbuzilishlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, tortishuv prinsipining sudgacha bo'lgan bosqichda samarali amalga oshirilishini cheklaydi.

Davlat va huquq nazariyasida umume'tirof etilgan "Qonun bilan taqiqlanmagan harakatga ruxsat beriladi" qoidasini e'tiborga olgan holda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar ushbu nomuayyanlikdan foydalanishlari ehtimoldan xoli emas. Bunday holatlarda jinoiy ta'qib ostidagi shaxs, uning qonuniy vakili va himoyachisi huquqiy himoya vositalaridan to'liq foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Vaholanki, mansabdor shaxslar harakatlaridan shikoyat qilish imkoniyati tortishuv muhitining asosiy kafolatlaridan biri sifatida ularga nisbatan huquqiy bahs yuritish sharoitini yaratadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, JPKning 39<sup>2</sup>-moddasida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ rahbarlari va mansabdor shaxslarining vakolatlari aniq tarzda va huquqiy asosda belgilanishi zarur. Xususan, mazkur moddani quyidagi mazmundagi to'qqizinchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi: «Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'ining va uning mansabdor shaxsining mazkur moddada belgilangan vakolatlarini amalga oshirishi gumon qilinuvchi, himoyachi hamda jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarining qonun bilan kafolatlangan huquqlarini noqonuniy tarzda cheklamasligi shart».

Tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri — taraflar o'rtasidagi protsessual tenglikning ta'minlanmaganligidir. Agar tergov organlarining huquqiy maqomi va vakolatlari aniq belgilanmasa, himoya tarafining imkoniyatlari bilan ularni qiyoslab bo'lmaydi. Bu o'rinda ishni sudga qadar yuritish bosqichida sud nazoratini o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartishlar asosida joriy etilgan «tergov sudyasi» instituti bu borada muhim qadam bo'ldi. Tergov sudyasi sudgacha ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash yuzasidan sud nazoratini amalga oshiradi.

Biroq gumon qilinuvchining aybli-aybsizligi, dalillarning maqbulligi yoki jinoyat holatlarining og'irlashtiruvchi va engillashtiruvchi xususiyatlarini aniqlash masalalari hali ham tergov organlari vakolatida qolmoqda. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida

tergov sudyasiga tergovchilar, surishtiruvchilar yoki prokurorlar harakatlari ustidan shikoyat qilish imkoniyati ham aniq tartibga solinmagan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va sudgacha bo'lgan bosqichda sud nazoratini kuchaytirish orqali tortishuv muhitini yaratish uchun himoya tomoniga quyidagi huquqlarni berish maqsadga muvofiqdir: muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslardan jinoyat ishi bo'yicha dalil bo'lishi mumkin bo'lgan faktik ma'lumotlarni talab qilish; ekspertizalarni mustaqil tayinlash; tergov organlariga dalillarni taqdim etish va ular tomonidan qabul qilinishi majburiyligini joriy etish; ayblov tomonidan maqbul deb topilgan dalillarni qayta tekshirish bo'yicha iltimosnoma kiritish; qo'shimcha guvohlarni so'roq qilishni talab etish.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarni bajaradigan funksiyalariga ko'ra uch guruhga: vakolatli shaxslar, daliliy axborot taqdim etuvchilar (gumon qilinayotgan shaxs, jabrlanganlar, guvohlar) hamda maxsus bilimga ega shaxslarga (ekspert, mutaxassis, tarjimon) ajratish mumkin. Muammo shundaki, milliy qonunchiligimizda tergovga qadar tekshiruv jarayonida "jabrlanuvchi" yoki "gumonlanuvchi" kabi protsessual maqomlar shakllanmagan. Olimlar ta'kidlaganidek, tergovga qadar tekshiruv dastlabki kichik bosqich bo'lganligi sababli undagi ishtirokchilar barcha protsessual huquq va majburiyatlardan foydalanishi zarur.

Ayniqsa, dalillarni to'plash va shaxsni ushlab turish borasidagi normalardagi ziddiyatlar tortishuv prinsipiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. JPKning 221-moddasiga asosan shaxsning o'zida yoki kiyimida jinoyatning yaqqol izlari topilishi uni ushlab turishga asos bo'ladi. Biroq bu izlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan "guvohlantirish" tergov harakati JPKning 329-moddasida kechiktirib bo'lmas tergov harakatlari qatorida aniq ko'rsatilmagan. Shu sababli JPKning 329-moddasi ikkinchi qismiga "guvohlantirish" so'zini qo'shish orqali bu bo'shliqni to'ldirish taklif etiladi.

Shuningdek, amaliyotda ushlangan shaxsning himoya huquqini ta'minlashda JPKning 47 va 49-moddalari o'rtasida kolliziya yuzaga

kelmoqda. Advokatning jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar bo'lgan bosqichda ishtirokining to'liq tartibga solinmaganligi, tergovga qadar tekshiruv davomida gumon ostiga olingan shaxsning himoyalaniş huquqi buzilishiga olib kelmoqda.

Tergovga qadar tekshiruvda tortishuvni ta'minlashga qaratilgan institutlarni tahlil qilishda xorij tajribasi muhimdir. Italiya jinoyat-protsessual qonunchiligida ushlab turilgan shaxs zudlik bilan himoyachi bilan ta'minlanishi shartligi va advokat ishtirokisiz o'tkazilgan tergov harakatlari noqonuniy deb topilishi belgilangan. AQSh qonunchiligida esa tortishuvchanlik va taraflarning tengligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan bo'lib, "Miranda qoidasi" hamda inson huquqlarini sud orqali himoya qiluvchi "Habeas korpus" instituti buning yorqin misolidir.

Fransiya va Germaniya huquq tizimlarida tergovga qadar tekshiruv instituti mustaqil bosqich sifatida mavjud emas. Fransiyada politsiya surishtiruvni yakunlangach, prokuror nazoratidagi jinoiy ta'qib boshlanadi. Germaniyada esa jinoyat protsessidagi dalillarni "qat'iy" va "erkin" turlarga ajratish amaliyoti mavjud. Politsiya to'plagan erkin dalillar tergov sudyasi tomonidan, himoya va ayblov tomoni ishtirokida legallashtirilgandan so'nggina qat'iy dalil maqomini oladi. Bu jarayonda tergov sudyasining o'rni taraflarning tengligini sud nazorati orqali ta'minlashdan iboratdir.

Xorijiy tajriba va milliy qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, tergovga qadar tekshiruv bosqichida tortishuv prinsipini mustahkamlash va sud nazoratini kuchaytirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish zarur:

Birinchidan, tergovga qadar tekshiruv bosqichida himoyachining ishtiroki va huquqiy maqomini qonunchilikda kengroq belgilash;

Ikkinchidan, ushbu bosqichda himoyachisiz o'tkazilgan ayrim protsessual harakatlar natijalarini yuridik kuchga ega emas deb topish mexanizmlarini joriy etish;

Uchinchidan, tergov sudyasi institutining vakolatlarini kengaytirish, xususan, tergovga qadar tekshiruv jarayonida yig'ilgan materiallarni dalil sifatida legallashtirish va taraflarning

iltimosnomalarini ko'rib chiqish orqali ishni sudga qadar yuritish bosqichidagi sud nazorati rolini kuchaytirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi*. – T.: Adolat, 2024.
3. *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi*. – T.: Adolat, 2024.
4. *O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O'RQ-442-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*.
5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*.
6. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*.
7. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*.
8. Худайбергенов Б.К. Возбуждение уголовного дела как уголовно-процессуальный институт. Диссертация на соискание научной степени доктора философии по юридическим наукам. г.Ташкент 2022 с. 322
9. Хидоятов Б., Худайбергенов Б. и Шахи С. 2022. Оптимизация первоначальной стадии уголовного судопроизводства. Общество и инновации. 3, 1/С (фев. 2022), 70–77.

**B.E.Yakubov,**

*Xorazm viloyati Jinoyat ishlari bo'yicha  
Bog'ot tuman sudi raisi*

**JINOIY SUD ISHLARINI YURITISHDA  
TEZKOR – QIDIRUV FAOLIYATINI  
AMALGA OSHIRISHNING TARIXIY JIHATLARI**

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada jinoyat-protsessi bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida to'plangan narsa(buyum) va hujjatlarga dalil sifatida baho berish va tekshirishning asosiy prinsiplari haqida so'z yuritilib, tezkor – qidiruv tadbirlarini o'tkazish natijasida to'plangan dalillarning maqbul yoki nomaqbul deb topilishi asoslari hamda o'tkazilgan tezkor qidiruv tadbirlari davomida to'plangan dalillarning qonuniyligi va ushbu dalillardan jinoyat ishlarini tergov qilish hamda sud muhokamasi davomida qilmishni aybliligini isbot qilishning asosiy vositasi sifatida foydalanish asoslari borasida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar berib o'tilgan, shu bilan birga, nazariyotchi olimlar, tajribali amaliyotchi xodimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *tezkor-qidiruv, ordaliya, aspekt, guvoh, dalil, niqoblangan operatsiya, isbot qilish.*

O'zbekiston Respublikasining jinoyat - protsessual qonunchiligi bo'yicha tezkor - qidiruv tadbirlari natijasida to'plangan narsa(buyum) va hujjatlarga dalil sifatida baho berishning asosiy prinsiplari va mazmunini to'la tushunib etish uchun uning tarixiy aspektlarini ham bilish lozim. Tarixda bilish metodologiyasi bilan har biridan farq qiluvchi turli dalillarga baho berish tizimlari mavjud bo'lgan.

Akademik H.Boboev bu borada, "Avesto" kitobida bayon etilishicha, qasam ichib ahd qilgan kishi o'z ahdini bajarmagan yoki uni buzga hollarda haqligini isbotlash protsessual normalardan Ordaliya (sinab ko'rish yoki jazo berish) qo'llanilganligi xususida aytib o'tgan.[1] A.G.Prexanyanning fikricha, Sipitoment Zardusht ta'limotida adolatli sud qilish hamda dalillarga baho berish uchun

Ordaliyaning o'ttiz uch usuli mavjud bo'lgan bo'lib, bunga ko'ra, agar so'z qasam to'g'risida bo'lsa, odatda suv bilan sinash, agar shartnomaga oid bo'lsa, o't bilan sinash o'tkazilib, aybdor va gumondorga o'zini o'zining haqligini isbotlashga imkon berilgan [2].

Chunki u zamonlarda "Haqiqat samoning amri" aqidasi amal qililib, zamonaviy tushunchalar bo'yicha ayblovni tasdiqlovchi yoki uni inkor etuvchi dalillar taqdim etish yohud ularga baho berishning boshqa usullarini qo'llashga yo'l qo'yilmagan.

Dalillarga baho berish, sinovning tashqi jarayonlariga rioya etilganligiga ishora qiluvchi ma'lumotlarni ko'rib chiqish va jarayon buzilishlarini tegishli tarafning foydasiga hal etish bilan chegaralangan. "Avesto"da ba'zi bir jinoyatlarni huquqiy jihatdan to'g'ri baholashda ularning obyektiv, ya'ni haqqoniy tomonini aniqlashga katta ahamiyat berilgan.

O'zbekiston hududida, salkam XIV asr amal qilgan islom huquqida quyidagilar isbot qilishning asosiy turlari hisoblangan, ya'ni aybini tan olish, guvohning ko'rsatuvlari, qasam ichish, yozma dalillardir.

Aybni tan olish ma'lum ashyo yoki dalilga aloqador bo'lishi hamda holatga qarab aniq va batafsil belgilanishi talab etilgan. Guvohning ko'rsatuvlari sifatida faqat guvohning o'zi ko'rgan va bilgan holatlari xususidagi ko'rsatuvlarigina dalil sifatida e'tiborga olinadi, boshqa birovdan eshitgan, bilganlari esa guvohlik ko'rsatuvlari sirasiga kiritilmagan. Sud jarayonida boshqa birovning topshirig'iga ko'ra, faqat ikki va undan ortiq guvoh ishtirokida guvohlik berish mumkin bo'lgan. Bu borada J.Shodiev Buxoro amirligida guvoh tariqasida sud jarayonida: voyaga yetmaganlar, qullar, g'ayridinlar, tuhmatchi, yolg'onchi, ig'vogar, qasamxo'rlar jazoga tortilganlar, yaqin qarindoshlar ishtirok eta olmasliklari xususida fikr yuritgan [3]. Ayrim jinoyat ishlarida ikki, hajmi katta ishlarda esa to'rtta erkak kishining guvoh sifatida ishtirok etishi, bir erkak guvohning o'rniga ikki ayol guvohligi dalil sifatida talab qilingan. Sud jarayonida guvohlar o'rtasida, ayniqsa ularning ko'rsatuvlarida ixtiloflar yuzaga kelsa, ularning barchasi yolg'on guvohlik berganlikda ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Qozilik sudlari tomonidan dalillarga baho berish ularning olinishi tartibiga rioya etilganligini tekshirish va qonun asosida har bir dalil va barcha dalillar majmuining qimmatini aniqlashdan iborat bo'lgan, agar natija "yetuk" dalil (aybni tan olish) yoki undan ortiqni tashkil etsa, qozilik sudlari tomonidan ayblov hukmi chiqarilgan, natija "yetuk" dalildan oz bo'lgan hollarda esa ayblanuvchi "gumon ostida qolgan" yoki oqlangan [4].

Qadimgi Afina davlatchiligida jinoyat ishlari ommaviy ravishda ochiq sudlarda ko'rib chiqilib, sudlarda ayblovchi va mudofaa taraflari guvohlar, yozma hujjatlar, shohidliklar orqali dalillar keltirishgan. Dalillarni baholash jamoatchilik va sud hay'atining vazifasi bo'lib, sud hay'ati jinoyat ishini ko'rishda guvohliklar (shaxsiy kuzatuvlar yoki ishonchli shaxslarning bayonotlari), yozma hujjatlar (shartnomalar, ariza va boshqa huquqiy hujjatlar) hamda ommaviy jamoat fikri va sha'ba - sudga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy dalillar turlari bo'lganligi qadimiy Yunon olimlari hisoblangan Platon va Aristotel asarlarida keltirilgan [5].

Ushbu davrda sudlarda olib borilgan bahslar asosan nutq orqali ifodalangan bo'lib, notiqlik va oratorlik katta ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek, ayblovchilar va mudofaa tomonidan taklif qilingan guvohlar asosida ish yuritilib, sud jarayonlarida ularning ko'rsatmalaridan ishonchli dalil sifatida foydalanishgan.

Qadimgi Rim davlatida esa jinoyat ishlari sudlarning maxsus organlari hisoblangan tezkor-qidiruv faoliyati bilan ham shug'ullanuvchi va dalillar yig'uvchi — kvestorlar, pretorlar va keyinchalik imperator sudlari tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lib, jinoyat ishini ko'rib chiqishda guvohlik (testimonium) — suddagi shaxsiy guvohlik ko'rsatmasi va qasamlar (sacramentum) — ayblovchi va ayblanuvchi taraflar tomonidan beriladigan qasamlar asosiy dalillarning turlari hisoblangan. Sudya (iudex) yoki sud hay'ati dalillarni baholashda mukammal hukm chiqarish uchun barcha dalillarni sinchiklab o'rgangan va bunda "burden of proof" (isbot yuki) ayblovchi zimmasi yuklangan bo'lib, u o'z da'volarini, ya'ni aybsizligini dalillar bilan isbotlab berishi shart bo'lgan [6].

Qadimgi Yunon davlatlarida jinoiy sud ishlarini yuritishda tezkor-qidiruvni amalga oshirish faoliyatini bajarishda dastlab “Anakrisis”, ya’ni afina huquqida jinoyat da’vosi kelib tushgandan so’ng ushbu da’vo bo’yicha tezkor-qidiruv ishlari boshlangan bo’lib, avval magistrat (arxont) “preliminary hearing” (anakrisis) tezkor-qidiruv va surishtiruv o’tkazib, natijasi bo’yicha to’plangan dalillar yig’indisidan kelib chiqib, ushbu da’voni qabul qilish kerakmi va sudga olib chiqish uchun asos bor yoki yo’qligini tekshirish uchun suddan oldin da’vo etuvchi tomon (accuser) magistrat yoki boshqa huquqiy shaxslar oldida mumkin bo’lgan shohidlarni chaqirib, ko’rsatmalarini yig’ib, mavjud dalillar asosida xulosa qilinishi kerak bo’lgan. Masalan Sokrat sudida (399/399 yillarda M.E. avval) da’vo etuvchi — Meletus, Anytus va Lycon — Sokratni (arxont) oldiga chaqirgan, so’ngra magistrat (anakrisis) o’tkazgan[7].

Qadim Rim davlatida ham “quaestio” turidagi doimiy sudlar tashkil qilinishi bilan, ayrim jinoyatlarga nisbatan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq jarayonlar paydo bo’lgan, masalan “quaestio de repetundis” (149 BCE) — provinsiyalardagi amaldorlarni korrupsiyaviy jinoyatlari va mol-mulklarni asrab-avaylashdagi buzg’unchiliklariga qarshi qilmishlari uchun sudlashgan, “Vis” va boshqa jamoat tartibini buzish holatlari badalida nizomli javobgarlik choralari qo’llanilgan [8].

Tadqiqotchi R. X.Pfeiffening fikricha, “Hammurabi” qonunida “Da’vo etuvchi ayblovni isbotlay olmasa” — demak, dalil to’liq bo’lmasa jazo belgilanganligi, ya’ni dalillarning yig’ilishi va tahlili “da’vo va dalil” nuqtai nazaridan muhim rol o’ynaganligi, ish bo’yicha guvohlik va noto’g’ri aks etgan iddaolar va dalilsiz ayblovlar asossizligi haqida asosiy qoidalar belgilangan [9].

Jinoyat huquqi sohasidagi tadqiqotchilardan biri hisoblangan Elizabep Papp Kamalining fikriga ko’ra, o’rta asrlarda, ya’ni 1285-yil 8-oktyabda Angliya qiroli Eduard I tomonidan qabul qilingan “Felony and the Guilty Mind in Medieval England” qonunida qirolik hududida sodir qilingan jinoyatlarni aniqlash borasida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, tergov qilish va sudda ko’rib chiqish bilan bog’liq protsessual qoidalar jamlangan bo’lib, ushbu qonunning

“Chapter II” (Inquiry of Felons and Robbers) bo‘limida qasd, o‘g‘irlik kabi jinoyatlar sodir etilishi holatida mahalliy o‘lka (hundred) va shaharlar tomonidan jinoyatchilarni tez topish uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish va jinoyatchini ushlab choralarni ko‘rish, aniqlangan jinoyatchilarning guvohlik ko‘rsatmalaridan tashqari “circumstantial inquiry” (ahvollarini tekshirish) jarayonlari va ayblanuvchilardan iqrorlik olish holatlari tahlil qilinishi lozimligi belgilangan [10].

Ushbu qonunga ko‘ra, jinoyat sodir bo‘lganidan so‘ng jinoyatchilarni “darhol” topish uchun zarur bo‘lgan tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazilishi, agarda belgilangan vaqt (40 kun) ichida jinoyatni sodir qilgan shaxs aniqlanib, topilmagan taqdirda jinoyat sodir bo‘lgan hududdagi mahalliy jamoaning mas’ul vakillarini o‘zi jazoga tortilgan [11].

Shu bilan birga, ushbu qonunda sodir qilingan turli jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh qilish uchun o‘tkaziladigan tezkor tadbirlar va sud-tergov harakatlari bo‘yicha bir qancha protsessual talablar belgilangan bo‘lib, misol uchun, (medieval) Angliya qirolligida jinoyat ishlarida shahsiy iqrorlik muhim hisoblanib, qasd, ayblanuvchining niyati (mens rea) va ichki his-tuyg‘usi (intent) tahlil qilingan va iqrorlik olish jarayonida, jinoyat sodir etilganlik holatiga oid savollar berilib, shohidliklar yoki boshqa ish bo‘yicha to‘plangan dalillar bilan solishtirilgan holatlar o‘rganilgan. Bu jarayonlarda da’vo etuvchi yoki tergovchi faktlarga, shohidlarning guvohliklariga, ma’lum bo‘lgan holatlarga qarab, ayblanuvchining niyati va ayblik darajasi haqida xulosalar chiqargan va bu usullar diniy yozmalar, pastoral (pastoral) vasiylik hamda koroner (coroner) organlari tomonidan o‘tkazilgan tergovlarda qo‘llanilgan, qotillik kabi jiddiy jinoyatlar bo‘yicha esa koronerlar faktlarni tekshirish uchun aylab borilgan so‘rovlar o‘tkazishgan va bu so‘rovlar shohidlar, yaqin qarindoshlar yoki mahalliy odamlar tomonidan ma’lum bo‘lgan holatlarga asoslanib o‘tkazilgan va jinoyat ishi bo‘yicha dalillar to‘plangan. Jinoyatlarni ochish va tergov qilish jarayonida jamoatchilik fikri (“public fame” yoki “public reputation”) ham muhim omil bo‘lgan, chunki jinoyat sodir qilinganligi holati yuzasidan birlamchi dalillar aynan jamoatchilikning qarashlari va fikrlari asosida yig‘ilgan [12].

O'zbekiston hududida ham, salkam XIV asr amal qilgan islom huquqida quyidagilar isbot qilishning asosiy turlari hisoblangan, ya'ni aybini tan olish, guvohning ko'rsatuvlari, qasam ichish, yozma dalillardir. Aybni tan olish ma'lum ashyo yoki dalilga aloqador bo'lishi hamda holatga qarab aniq va batafsil belgilanishi talab etilgan. Guvohning ko'rsatuvlari sifatida faqat guvohning o'zi ko'rgan va bilgan holatlari hususidagi ko'rsatuvlarigina dalil sifatida e'tiborga olinadi, boshqa birovdan eshitgan, bilganlari esa guvohlik ko'rsatuvlari sirasiga kiritilmagan. Sud jarayonida boshqa birovning topshirig'iga ko'ra, faqat ikki va undan ortiq guvoh ishtirokida guvohlik berish mumkin bo'lgan. Buxoro amirligida guvoh tariqasida sud jarayonida: voyaga yetmaganlar, qullar, g'ayridinlar, tuhmatchi, yolg'onchi, ig'vogar, qasamxo'rlar jazoga tortilganlar, yaqin qarindoshlar ishtirok eta olmaganlar [13]. Ayrim jinoyat ishlarida ikki, hajmi katta ishlarda esa to'rtta erkak kishining guvoh sifatida ishtirok etishi, bir erkak guvohning o'rniga ikki ayol guvohligi dalil sifatida talab qilingan. Sud jarayonida guvohlar o'rtasida, ayniqsa ularning ko'rsatuvlarida ixtiloflar yuzaga kelsa, ularning barchasi yolg'on guvohlik berganlikda ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Qozilik sudlari tomonidan dalillarga baho berish ularning olinishi tartibiga rioya etilganligini tekshirish va qonun asosida har bir dalil va barcha dalillar majmuining qimmatini aniqlashdan iborat bo'lgan, agar natija "yetuk" dalil (aybni tan olish) yoki undan ortiqni tashkil etsa, qozilik sudlari tomonidan ayblov hukmi chiqarilgan, natija "yetuk" dalildan oz bo'lgan hollarda esa ayblanuvchi "gumon ostida qolgan" yoki oqlangan [14].

O'zbekiston hududida qadimiy davrlarda, xususan, Samarqand, Buxoro kabi ilm-fan markazlarida huquq tizimi shariat va urf-odatlar asosida shakllanganligi bois jinoyat ishlarida dalillar ko'proq guvohlarning guvohligi, shuningdek, jinoyatchining unga qo'yilgan ayblovni tan olishi yoki qasddan qilgan harakatlari bo'yicha baholangan bo'lib, islom huquqshunosligi asarlarida dalillarni yig'ish va sud jarayoni qoidalari batafsil bayon qilingan.

Xiva xonligi davridagi qozi hujjatlarining turlaridan biri hisoblangan "Xati bezor", ya'ni ota o'g'lining qilgan jinoyatlariga

javobgar emasligi, faqat o'g'lining o'zi javobgarligi haqidagi xat qozilar tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan bo'lgan jinoyat ishlarini ko'rishda asosiy dalil sifatida qaralgan.

Mahalliy boshqaruv tizimi va sud-tergov organlari o'ziga xos tarzda jinoyatlarni tergov qilishgan va sodir qilingan jinoyatlarni ochishda guvohlar, sud jarayoni va jazo choralariga asoslangan holda dalillar yig'ish ko'proq an'anaviy va og'zaki shakllarda amalga oshirib kelingan [15].

XX asr boshlariga kelib Sovet ittifoqi tarkibiga kirgan hududlarda jinoyat protsessual kodekslari qabul qilindi. Jinoyat ishi bo'yicha dalillarni yig'ish, tergov qilish va sudda qo'llash tartiblari markazlashtirildi.

Misol uchun, 1923-yil yanvar oyida Xorazm Xalq sho'rolar jumhuriyatining umumiy qurultoyi tomonidan qabul qilingan Jazo Kodeksining 55-moddasiga ko'ra, qozilar tomonidan jinoyat ishlarini ishdagi mavjud dalillar asosida ko'rib chiqishda ayblanuvchi xizmatda soxtalik, ya'ni xizmatda bo'lguvchi rasmiy hujjatlarga yolg'on ma'lumot yozib, tuzatib, o'chirib yoki ortda qolgan sana qo'yib yoki yolg'on hujjat berib, daftarga yolg'on narsalar yozganlik holatlari aniqlangan taqdirda bir yilgacha muddatga hibsga olish jazosi tayinlanishi mumkinligi belgilangan [16].

Yuqorida keltirilgan holatlarda jinoiy sud ishlarini yuritishda tezkor – qidiruv faoliyatini amalga oshirishning tarixiy jihatlariga to'xtalgan holda, tezkor-qidiruv faoliyati bilan bog'liq tadbirlar davomida dalilni protsessual rasmiylashtirish dalillarni olish va to'plashning majburiy elementi ekanligini ta'kidlab o'tdik, chunki dalillarni mustahkamlash qonunchilikda belgilangan talablar asosida bajarilmasa, dalil nomaqbul deb baholanadi va isbotlash vositasi hisoblanmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Boboev H. "Avesto" da siyosiy – huquqiy qarashlar. Davlat va huquq. – Toshkent. "TDYuI". 27.01.2000 y. 49 b.*
2. *Перехануан А.Г. Общество и право Ирана в парфунанский и Сананидские периоды. –Москва. "Наук". 2000 г. с. 175*

3. Shodiev J. Buxoro amirligida sud tizimi. Hayot va qonun. – Toshkent. “TDYuI”. 12.04.2005 y. 79-80 b.
4. Барабаи А.С. Сущность уголовного процесса и его роль в формировании ответственности правонарушитель.–Кроансноярск. “Юрид”. 02.07.2007. С.131-132.
5. Michael Gagarin. Qadimgi Yunon huquq tizimi va jinoyat ishlari. – “The Cambridge Companion to Ancient Greek Law”. 2012. S.112.
6. Andrew M. Riggsby. Qadimgi Rimdagi huquq tizimi va dalillar to‘plash haqida. – “Roman Law and the Legal World of the Romans”. 2019. S.67-69.
7. Michael Gagarin va boshqalar. Afinada jinoyat yuritish va da’vo etish jarayonlari. – “The Cambridge Companion to Ancient Greek Law”. 2010. p.86-88.
8. Andrew M. Riggsby. Rim Respublikasi va Imperiya davridagi jinoyat va tergov jarayonlarining rivojlanishi, qonunchilik, shohidlik, da’vo, sudlashi holatlari. – “Roman Law and the Legal World of the Romans”. 2017. p.74-78.
9. Pfeiffer R.H. An Analysis of the Hammurabi Code.- “The Cambridge”. 2022. S.91-94.
10. Elizabeth Papp Kamali. Felony and the Guilty Mind in Medieval England. – “Cambridge University”. 2019. S.145.
11. Anthony Musson. Crime, Law and Society in the Later Middle Ages. - “Cambridge University”. 2019. S.160.
12. Elizabeth Papp Kamali. Felony and the Guilty Mind in Medieval England. – “Cambridge University”. 2019. S.172.
13. Shodiev J. Buxoro amirligida sud tizimi. Hayot va qonun. – Toshkent. “TDYuI”. 12.04.2005. B.79-80.
14. Shodiev J. Buxoro amirligida sud tizimi. Hayot va qonun. – Toshkent. “TDYuI”. 12.04.2005. B.81-82.
15. Xorazm Xalq sho‘rolar jumhuriyatining 3-qurultoyi tomonidan qabul qiligan Jazo Kodeksi. – “Ichan qal’a” davlat muzeyi qo‘riqxonasi. 1923. 55-modda.
16. Xorazm Xalq sho‘rolar jumhuriyatining 3-qurultoyi tomonidan qabul qiligan Jazo Kodeksi. – “Ichan qal’a” davlat muzeyi qo‘riqxonasi. 1923. 55-modda.

**Sh.Sh.Qurbonov,**  
*Namangan viloyati sudi sudyasi*

## **AYRIM TERGOV HARAKATLARI USTIDAN SUD NAZORATINI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada ishni sudga qadar yuritish bosqichida tergov harakatlari ustidan sud nazoratining muammolari shu jumladan tintuv va pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash haqida iltimosnomalarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti tahlil qilingan.*

*Sud tomonidan tergov harakatini o'tkazish uchun asos bo'luvchi faktik ma'lumotlarni tekshirish zarurati, sud amaliyotida yo'l qo'yilayotgan xatolar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *sud, ishni sudga qadar yuritish bosqichi, sud nazorati tergov harakati, tintuv, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash.*

Tintuv shaxsning turar-joy daxlsizligini cheklovchi tergov harakatlarining eng jiddiy tarzda cheklash bilan bog'liq bo'lib, aynan shu sababdan qonun chiqaruvchi mazkur tergov harakatini o'tkazish uchun asos bo'luvchi faktik ma'lumotlarning eng yuqori standartini belgilagan.

Biroq, afsuski tintuv o'tkazish haqida iltimosnoma qo'zg'atish va iltimosnomani sudda ko'rib chiqishda, mazkur tergov harakatini o'tkazish uchun etarli asoslar mavjud bo'lishi kerakligi haqida talabga etarlicha e'tibor qaratilmaydi.

Jumladan, 2025 yil birinchi yarim yilligida sudlar tomonidan 9 544 ta tintuv o'tkazish, 978 ta pasportning amal qilishini to'xtatib turish, 962 ta pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash haqida iltimosnomalar ko'rib chiqilgan<sup>1</sup>.

Tintuv o'tkazish haqidagi qarorlarning tahlili sud-tergov amaliyotida protsessual mavqega ega bo'lmagan shaxslar (gumon qilinuvchi va ayblanuvchining qarindoshlari, tanishlari va boshqalar)da yoki ularning turar joylarida faqatgina tezkor-qidiruv

---

<sup>1</sup> <https://kun.uz/kr/34794883>

ma'lumotlar asosida tintuv o'tkazish hollari uchrayotganligini ko'rsatdi<sup>2</sup>.

O'tkazilgan tahlil natijalari bo'yicha quyidagilar ma'lum bo'ldi: – gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning ko'rsatmalari –30 ta (25%); – jabrlanuvchi (guvohlar)ning ko'rsatmalari – 38 ta (32%); – boshqa hujjatlar – 36 ta (30%); – tezkor-qidiruv faoliyati natijalari – 61,2 ta (51%). O'tkazilgan tahlil tezkor-qidiruv faoliyati natijasida olingan ma'lumotlar asosida o'tkazilishi rejalashtirilgan tintuv tergov harakatlarini o'tkazishda ma'lumotning asosliligiga va uning huquqiy oqibatiga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda. O'rganilgan 224 ta tintuv bayonnomasidan 94 tasida (42%) shaxsning protsessual mavqei tintuv o'tkazishga yagona asos bo'lib xizmat qildi. Tergovchining tintuv o'tkazish to'g'risidagi qaroriga prokuror tomonidan sanksiya berilishi bilan bog'liq o'rganilgan ishlarning birontasida ham, faqat gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi mavqeiga asoslanib iltimosnomani rad etish holatlari kuzatilmagan<sup>3</sup>.

Yuqorida qayd etilganidek, tintuv o'tkazishning asosi sifatida eng ko'p tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanilmoqda. Lekin bu turdagi ma'lumotlarning manbasi jinoyat ishida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmaganligi bois ularni asosliligini tekshirish deyarli imkonsiz. Shuning uchun ham tergov organlari tintuv o'tkazish haqidagi qarorlarida asos sifatida tezkor-qidiruv ma'lumotlarini keltirmaydilar. Shunday bo'lsada, tezkor-qidiruv ma'lumotlari asosida tintuv o'tkazishning asosliligini ta'minlash maqsadida ayrim tergovchilar jinoyat ishiga tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarining tegishli bildirgisi yoki umumiy mazmundagi ma'lumotnomasini tikib qo'yadi<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup> Suyunov Sh., & Tavakkalova, D. (2024). Tintuv tergov harakatiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishning taktik xususiyatlari. (T. 3, Yurist 4, 112–116). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11085381>.

<sup>3</sup> B.Murodov, V.Xomidov Tintuv tergov harakatini o'tkazishning protsessual asoslari// Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации– Society and innovations Issue – 4 № 2. 98-b.

<sup>4</sup> B.Murodov, V.Xomidov Tintuv tergov harakatini o'tkazishning protsessual asoslari// Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 4 № 2 99-b.

Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha Namangan tuman sudining 2025 yil 21 fevraldagi ajrimi bilan, Namangan tuman prokurorining iltimosnomasi qanoatlanirilib, B.ning uy joyi va yordamchi xo'jaliklarida tintuv o'tkazish belgilangan. Tintuv o'tkazishga asos sifatida olib borilgan tezkor-qidiruv ishlari natijasida ushbu jinoyatni sodir etishda B. ishtirok etgani, ashyoviy dalillar va boshqa diniy adabiyotlarni yashash xonadonida saqlanayotgani to'g'risida ma'lumot olinganligi ko'rsatilgan. Demak, sud tezkor-qidiruv jinoyat ishiga jalb qilinmagan shaxsning, turar-joy daxlsizligi huquqini cheklash uchun sud majlisida tekshirilmagan tezkor-qidiruv ma'lumotlarini asos qilib olgan.

O'rganilgan aksariyat ajrimlarda tintuv o'tkazishning faktik asoslari, turar joyida tintuv o'tkazilayotgan shaxsning protsessual maqomi umuman ko'rsatilmaydi.

Tintuv o'tkazishning faktik asoslari ko'rsatilgan ajrimlarning 90%da faktik asos sifatida tezkor-qidiruv ma'lumotlari ko'rsatilgan.

Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha Namangan tuman sudi 2025 yil 29 apreldagi ajrimida I.ning turar joyida tintuv o'tkazish belgilangan, biroq tintuvning faktik asoslari, I.ning protsessual maqomi ko'rsatilmagan.

Amaliyotda tergov harakatlarining faktik asosi bilan bog'liq muammolardan biri "shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish asoslari" va "tergov harakatini o'tkazish asoslari"ga umumiy tushuncha sifatida qarash bilan bog'liq. Ya'ni, amaliyotda shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asoslarning mavjudligi, uning huquqlarini cheklash bilan bog'liq har qanday tergov harakatining avtomatik asosi sifatida qo'llaniladi. Tergov harakatlari ustidan sud nazorati shaxsga qo'yilgan gumon yoki ayblovning asoslilikini tekshirish emas, balki tergov harakatini o'tkazish uchun qonunda belgilangan asoslar mavjudligini tekshirishga qaratilgan. Qonunda esa shaxsning gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida jalb qilinganligi unga nisbatan har qanday tergov harakati o'tkazish uchun asos sifatida belgilanmagan.

Bundan tashqari, mohiyatan jinoyat protsessining maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan, biroq ma'muriy va boshqa sohalar

qonunchiligi bilan tartibga solingan vositalar orqali amalda tintuv o'tkazilishi mumkinligi, shaxsning turar-joy daxlsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida" Qonuni 17-moddasiga muvofiq, ichki ishlar organlari sodir etilayotgan jinoyatlarga chek qo'yish, shuningdek ularni sodir etayotgan shaxslarni ta'qib qilish hamda ushlab uchun, agar buning kechiktirilishi fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini, jamiyat va davlat xavfsizligini tahdid ostiga qo'yishi mumkin bo'lsa, tashkilotlar va fuqarolarning hududiga, *turar joylariga va boshqa binolariga, er uchastkalariga, transport vositalariga sutkaning istalgan vaqtida to'sqinliksiz kirish (oshib tushish), pasport rejimi qoidalariga, shuningdek bajarilishi ustidan nazorat qilish ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish amalga oshirilayotganda fuqarolarning turar joylariga va boshqa binolariga ularning roziligi bilan soat 6-00 dan soat 22-00 gacha kirish huquqi berilgan.*

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida" Qonuni 23-moddasida davlat xavfsizlik xizmati jismoniy va yuridik shaxslarning turar joylariga va boshqa obyektlariga to'sqinliksiz kirish, zarurat bo'lganda qulflash moslamalari va boshqa ashyolarni buzgan holda kirish, bu joylarni jinoyatlar sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslar ta'qib qilinayotganda yoxud u erda jinoyat sodir etilayapti yoki sodir etilgan yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlardan yashiringan shaxs bor deb hisoblash uchun etarli asoslar mavjud bo'lganda yoxud kechiktirish fuqarolar hayoti va sog'lig'ini xavf ostida qoldiradigan bo'lsa, yigirma to'rt soat ichida prokurorga bu haqda xabar bergan holda, shuningdek etkazilgan zararining o'rnini qonunchilikda belgilangan tartibda qoplagan holda ko'zdan kechirish huquqi belgilangan.

Boshqa sohalarda esa, jinoyat protsessida qo'llaniladigan qoidalardan tashqari, mol-mulkni yoki inson yonidagi ashyolarni tekshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazilishi rasman

belgilanganligi va amalga oshirilishi oddiy holatga aylanganligini guvohi bo‘lamiz<sup>5</sup>.

Shu bilan birga, turar joy daxlsizligi nafaqat tintuv balki, boshqa tergov harakatlari shu jumladan turar-joyni ko‘zdan kechirish, eksperiment, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish natijasida cheklanishi mumkin. Jumladan, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish ko‘rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga ma‘lum bo‘lgan, surishtiruvchiga, tergovchiga va sudga esa noma‘lum bo‘lgan narsalar, hujjatlar, elektron ma‘lumotlar, izlar va belgilarni topish maqsadida o‘tkazilishi mumkin. JPKda bunday hollarda, turar-joy daxlsizligi huquqini cheklash asoslari va tartibi belgilanmagan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasi 2-qismida har bir inson o‘z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o‘zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda etarli darajada bo‘lishini hamda hurmat qilinishini ta‘minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerakligi belgilangan.

Jinoyat-protsessual huquqida turar-joy daxlsizligi mohiyati, shaxsning uning turar-joyiga, tergov yoki boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirayotgan va jinoyat-protsessual majburlov choralarini qo‘llayotgan mansabdor shaxslar tomonidan uning irodasiga zid ravishda noqonuniy va o‘zboshimchalik bilan kirilishi (oshkora yoki yashirin) dan himoyalanganligidan iborat<sup>6</sup>.

Biroq, JPKda turar-joy tushunchasi ochib berilmaganligi shaxsning turar-joy daxlsizligini ta‘minlash darajasiga salbiy ta‘sir o‘tkazishini e‘tirof etish zarur. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida “uy-joy daxlsizligi” qo‘llanilgan

---

<sup>5</sup> N.Qo‘shaev. (2023) Shaxsiy daxlsizlikka daxl qiladigan tergov harakatlarini o‘tkazishda tadbirkorlik manfaatlarini muhofaza qilishning ayrim jihatlari. 72–77. <https://inlibrary.uz/index.php/legal-personnel/article/view/22368>.

<sup>6</sup>Наумов С.Н. Производство следственных действий, ограничивающих неприкосновенность жилища: автореф. дис., канд. юрид. наук. – М., 2010. – 9 б.

bo'lsada, JPKning 18-moddasi to'rtinchi qismida "turar joylari daxlsizligi" atamasi qo'llanilgan.

Turar joy daxlsizligi deganda xususiy mulk bo'lgan uylar, kvartiralar olib qo'yilishi, mulkdor esa uyga, kvartiraga mulk huquqidan mahrum etilishi mumkin emasligi ham tushuniladi<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1999 yil 30 apreldagi 6-son "O'zgarar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" qarorida belgilangan "uy-joy" tushunchasi esa faqat jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etadi.

JK 142-moddasida "turar joyi daxlsizligi" tushunchasi alohida qo'llanilganligidan kelib chiqilsa, demak mazkur tushuncha "uy-joy" tushunchasidan kengroq.

JPKning 166-moddasi 3-qismida prokurorning, tergovchining yoki surishtiruvchining pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorida xatlash chorasining muddati ko'rsatilishi belgilangan. Biroq, sud ajrimlarini o'rganish ushbu masalada yagona sud amaliyoti mavjud emasligini ko'rsatadi.

Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha Yangiqo'rg'on tuman sudining 2025-yil 22-maydagi ajrimida ayblanuvchi I.ning nomidan keladigan va uning nomiga yuboriladigan barcha turdagi pochta telegraf jo'natmalari: xatlar, telegrammalar, banderollar, posilkalar, pochta konteynerlari 2 (ikki) yil muddatga xatlash ko'rsatilgan.

Biroq, jinoyat ishlari bo'yicha Mingbuloq tuman sudining 2025-yil 28-yanvardagi pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash va olish to'g'risida ajrimida xatlash muddati ko'rsatilmagan. Xuddi shunday holatni, jinoyat ishlari bo'yicha Chortoq tuman sudining 2025-yil 29-martdagi ajrimi, jinoyat ishlari bo'yicha Uchqo'rg'on tuman sudining 2025-yil 16-apreldagi ajrimida kuzatish mumkin.

Jumladan, Ch. tuman prokurorining O.ning Ch. tumani, A. MFY manzilidagi yashash xonadoni, yashash manzili o'zgartirgan taqdirda yangi aniqlangan manzilida hamda yordamchi xo'jaligida

---

<sup>7</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/turar-joy-daxlsizligi-uz/>

ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa va buyumlarni qidirib topish va olib qo'yish yuzasidan tintuv o'tkazish haqidagi iltimosnoma qo'zg'atgan.

Sudning 2025-yil 21-maydagi ajrimi bilan, ilgari sudning 21.02.2025-yildagi ajrimi bilan O.ning yashash xonadonida, yashash manzili o'zgargan taqdirda yangi aniqlangan manzilida hamda yordamchi xo'jaligida tintuv o'tkazish haqidagi iltimosnoma qanoatlantirilganligi, hozirda O.ning aynan ushbu manzildagi yashash xonadoni hamda yordamchi xo'jaligida mazkur masala bo'yicha takroran sudga murojaat qilishga tintuv o'tkazishni taqozo etadigan yangi holatlar yuzaga kelganligini asoslovchi dalillar mavjud emasligini e'tiborga olib, O.ning yashash xonadoni, yashash manzili o'zgargan taqdirda yangi aniqlangan manzilida hamda yordamchi xo'jaligida tintuv o'tkazish haqidagi iltimosnomani rad qilingan.

Mazkur o'rinda, takroran tintuv o'tkazish uchun faktik asoslar mavjud emasligidan kelib chiqib iltimosnomani rad qilishi albatta asosli, biroq yashash manzili o'zgargan taqdirda yangi aniqlangan manzilida hamda yordamchi xo'jaligida tintuv o'tkazish haqida sudning ajrimini asosli deb bo'lmaydi, sababi bunday ajrim chiqarish bilan sud, yangi aniqlangan manzilida hamda yordamchi xo'jaligida tintuv o'tkazish uchun etarli asoslar mavjudligi haqida masalani hal qilishni, ya'ni sudning funksiyasini tergov organiga topshirmoqda, vaholanki sudda o'zining vakolatlarini boshqa organga o'tkazish vakolati mavjud emas. Tintuv o'tkazish haqida ajrimda ko'rsatilmagan manzilda tintuv o'tkazish zarurati yuzaga kelganda, ushbu masala umumiy tartibda ko'rib chiqilishi, sud yangi manzilda tintuv o'tkazish uchun etarli asoslar mavjudligi haqida masalani muhokama qilishi shart.

**O‘.A.Mamadaliyev,**  
*O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov  
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

## **SUD NAZORATINING TERGOV XATOLARINI BARTARAF QILISHDAGI AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** *Maqolada jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida yo‘l qo‘yiladigan tergov va protsessual xatolarni bartaraf qilishda sud nazoratining huquqiy tabiati, funksional ahamiyati va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sud nazorati faqat tergov organlari qarorlarini formal tekshirish vositasi emas, balki shaxs huquq va erkinliklarini asossiz cheklashning oldini oluvchi, buzilgan huquqni tiklovchi hamda sud muhokamasiga sifatsiz ayblov materiallari kirib kelishini cheklovchi konstitutsiyaviy-protsessual kafolat sifatida baholanadi. Maqolada tergov sudyasi instituti, tintuv va boshqa huquqlarni cheklovchi protsessual harakatlar ustidan sud nazoratini kuchaytirish, sudning protsessual xatolarni aniqlash, bartaraf qilish va oldini olishdagi vakolatlarini takomillashtirish masalalari yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *sud nazorati, tergov xatosi, protsessual xato, tergov sudyasi, ishni sudga qadar yuritish, tintuv, inson huquqlari, aybsizlik prezumpsiyasi, dalillar maqbulligi.*

Jinoyat protsessida sud qarorlarining qonuniyligi va adolatliligi ko‘p jihatdan ishni sudga qadar yuritish bosqichida amalga oshirilgan protsessual faoliyat sifatiga bog‘liq. Chunki aynan ushbu bosqichda jinoyat ishining faktik asosi shakllanadi, dalillar to‘planadi, shaxsga nisbatan majburlov choralari qo‘llaniladi, ayblovning huquqiy va faktik chegaralari belgilanadi. Shu sababli dastlabki tergov yoki surishtiruvda yo‘l qo‘yilgan protsessual xato keyingi bosqichlarda faqat texnik kamchilik sifatida emas, balki butun odil sudlov natijasiga ta’sir etuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Jinoyat protsessida xato oddiy ma’muriy yoki tashkiliy kamchilik emas. U shaxsning erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini, xususiy hayoti, mulkiy huquqlari va adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqiga bevosita daxl qiladi. Tergov jarayonida o‘tkazilgan

noqonuniy tintuv, asossiz ushlab turish, himoya huquqini cheklash, dalillarni qonunga xilof usulda olish, ayblovni noto'g'ri malakalash yoki ish holatlarini bir yoqlama tekshirish sud muhokamasida ishning haqiqiy holatlarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Ayrim hollarda esa bunday xato aybsiz shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishiga yoki haqiqiy aybdor shaxsning javobgarlikdan chetda qolishiga olib kelishi mumkin.

Shu ma'noda sud nazoratining ahamiyati jinoyat protsessida qonuniylikni ta'minlash tizimida alohida o'rin tutadi. Idoraviy nazorat va prokuror nazorati qanchalik muhim bo'lmasin, ular tabiatiga ko'ra ayblov hokimiyati tizimiga yaqin turadi. Sud nazorati esa mustaqil, xolis va protsess ishtirokchilari huquqlarini kafolatlashga qaratilgan tashqi nazorat shakli sifatida namoyon bo'ladi. Sudning ishni sudga qadar yuritish ustidan nazorat funksiyasi jinoyat protsessida davlat ayblovi manfaati bilan shaxs huquqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi sud nazoratining tergov xatolarini bartaraf qilishdagi o'rnini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, uning preventiv, huquqni tiklovchi va protsessual sifatni ta'minlovchi funksiyalarini ochib berish hamda milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yiladigan xatolar huquqiy tabiatiga ko'ra bir xil emas. Ilmiy adabiyotlarda ular "tergov xatosi", "protsessual xato", "dastlabki tergov kamchiligi", "qonun buzilishi", "jiddiy protsessual buzilish", "sud xatosiga olib keluvchi tergov nuqsoni" kabi turli atamalar bilan ifodalanadi. Biroq mazkur tushunchalarni bir-biriga mexanik ravishda tenglashtirish to'g'ri emas. Tergov xatosi nisbatan keng tushuncha bo'lib, u kriminalistik, taktik, tashkiliy va huquqiy kamchiliklarni qamrab olishi mumkin. Protsessual xato esa jinoyat-protsessual qonun talablariga rioya etilmasligi, protsessual shaklning buzilishi yoki qonun bilan belgilangan kafolatlarning etarli ta'minlanmasligida ifodalanadi.

Protsessual xato har doim ham qasddan sodir etiladigan huquqbuzarlik emas. U ba'zan qonunni noto'g'ri talqin qilish, ish

holatini to'liq baholamaslik, protsessual muddat yoki tartibga etarli e'tibor bermaslik, dalillarni rasmiylashtirishdagi kamchiliklar yoki tergov harakatini o'tkazish metodikasining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Biroq jinoyat protsessida xatoning subyektiv sababi uning oqibatini kamaytirmaydi. Agar xato shaxs huquqlariga daxl qilsa, dalilning maqbulligiga ta'sir etsa yoki ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilsa, u albatta huquqiy baholanishi va bartaraf etilishi lozim.

Shu o'rinda protsessual xatoni qasddan sodir etilgan qonun buzilishidan farqlash muhim. Tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan qonunni bila turib buzish, dalillarni soxtalashtirish, aybsizligi ayon bo'lgan shaxsni javobgarlikka tortish yoki protsess ishtirokchilarining huquqlarini ongli ravishda cheklash oddiy "xato" sifatida baholanmasligi kerak. Bunday holatlar intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik masalasini keltirib chiqaradi. Demak, "xato" tushunchasi qonun buzilishini yumshatuvchi niqobga aylanmasligi zarur.

Tergov xatolarining ijtimoiy xavfi ularning faqat protsessual oqibatlar keltirib chiqarishida emas, balki jamoatchilikning odil sudlovga ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishida ham namoyon bo'ladi. Asossiz ayblov, noqonuniy tintuv, himoya huquqini cheklash yoki dalillarni nomaqbul usulda olish fuqarolarda jinoyat protsessi adolatli emas degan tasavvurni shakllantiradi. Shu sababli protsessual xatolarni aniqlash va bartaraf qilish mexanizmi nafaqat yuridik, balki institutsional ishonchni tiklash vositasi hamdir.

Jinoyat protsessida protsessual xatolarni bartaraf qilish mexanizmi uch tarkibiy elementdan iborat deb baholanishi mumkin: birinchidan, xatoni aniqlash; ikkinchidan, uni bartaraf qilish; uchinchidan, kelgusida bunday xatolarning oldini olish. Sud nazorati ushbu uchala elementda ham ishtirok etadi. Sud xatoni aniqlaydi, uning huquqiy oqibatlarini belgilaydi, zarur hollarda buzilgan huquqni tiklaydi va xususiy ajrim yoki boshqa protsessual ta'sir choralari orqali profilaktik funksiyani amalga oshiradi.

Sud nazorati jinoyat protsessida qonuniylikni ta'minlashning mustaqil shakli hisoblanadi. U prokuror nazorati yoki idoraviy

nazoratni takrorlamaydi, balki ulardan institutsional jihatdan farq qiladi. Prokuror nazorati tergovning qonuniyligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, prokuror ayni vaqtda ayblov funksiyasi bilan bog'liq protsessual subyekt hisoblanadi. Sud esa ayblov yoki himoya tomoniga mansub emas; uning vazifasi protsess ishtirokchilari huquqlariga rioya etilishini, qonun talablarining bajarilishini va protsessual majburlov choralarining asosligini xolis baholashdan iborat.

Sud nazoratining birinchi vazifasi — shaxs huquq va erkinliklarini asossiz cheklashning oldini olish. Jinoyat ishini sudga qadar yuritishda qamoqqa olish, uy qamog'i, tintuv, olib qo'yish, mulkka xatlov qo'yish, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash kabi choralar shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklaydi. Bunday cheklovlar faqat qonuniy, zarur, mutanosib va sud tomonidan nazorat qilinadigan tartibda amalga oshirilishi lozim. Aks holda protsessual majburlov odil sudlov maqsadlariga emas, balki ayblov manfaatlariga xizmat qilib qolishi mumkin.

Sud nazoratining ikkinchi vazifasi — buzilgan huquqni ishni sudga qadar yuritish bosqichining o'zida tiklash. Agar shaxs noqonuniy ushlab turilgan, advokat bilan ta'minlanmagan, asossiz tintuvga duchor qilingan yoki uning shikoyati ko'rib chiqilmagan bo'lsa, bunday buzilishni faqat sud muhokamasida aniqlash etarli emas. Chunki sud muhokamasigacha shaxs huquqlariga etkazilgan zarar chuqurlashib ketishi mumkin. Shu sababli sud nazoratining keyingi shakli — shikoyatni ko'rib chiqish, noqonuniy qarorni bekor qilish, tergov harakati natijalarining maqbulligiga baho berish — huquqni tiklovchi xarakterga ega.

Sud nazoratining uchinchi vazifasi — sud muhokamasiga sifatsiz, bir yoqlama yoki huquqiy jihatdan nuqsonli ayblov materiallari kirib kelishining oldini olish. Sud ishni mazmunan ko'rish bosqichiga etganda, ba'zi protsessual xatolarni bartaraf qilish imkoniyati cheklanadi. Masalan, himoya huquqi buzilgan holda olingan ko'rsatuvni keyinchalik qonuniylashtirish mumkin emas; noqonuniy tintuv natijasida olingan dalilning huquqiy maqbulligi

jiddiy shubha ostida qoladi; ayblovning aniq emasligi sudlanuvchining himoya strategiyasini buzadi. Shuning uchun sud nazorati erta bosqichda ishga tushirilsa, sud muhokamasining adolatliligiga xizmat qiladi.

Sud nazoratining to'rtinchi vazifasi — tergov organlari faoliyatida huquqiy intizomni kuchaytirish. Agar tergovchi yoki surishtiruvchi har bir protsessual majburlov chorasini mustaqil sud tomonidan baholanishini bilsa, protsessual harakatni asoslash, dalillarni qonuniy to'plash va shaxs huquqlariga ehtiyotkor munosabatda bo'lish darajasi oshadi. Shu ma'noda sud nazorati faqat alohida ish bo'yicha xatoni bartaraf qilish emas, balki tergov madaniyatini shakllantirish vositasi hamdir.

Sud nazoratini amalga oshirish vaqtiga ko'ra shartli ravishda preventiv va keyingi sud nazoratiga ajratish mumkin. Preventiv sud nazorati huquq cheklanishidan oldin amalga oshiriladi. Masalan, qamoqqa olish, tintuv yoki boshqa majburlov chorasini qo'llashdan oldin sud ruxsati talab etilishi shaxs huquqlari buzilishining oldini oladi. Bunday nazoratning afzalligi shundaki, u xatoni keyinchalik tuzatishga emas, balki uning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan.

Preventiv sud nazoratining mohiyati sudning tergov organi o'rniga ishni tergov qilishida emas. Sud tergov taktikasini belgilamaydi, ayblov versiyasini shakllantirmaydi, dalil yig'ish vazifasini o'z zimmasiga olmaydi. Sudning vazifasi so'ralayotgan protsessual harakat yoki majburlov chorasining qonuniyligi, zarurligi, asosliligi va mutanosibligini tekshirishdan iborat. Demak, sud nazorati tergov samaradorligiga to'sqinlik qilmasdan, uni huquqiy chegara ichida amalga oshirishni ta'minlaydi.

Keyingi sud nazorati esa protsessual harakat amalga oshirilganidan yoki qaror qabul qilinganidan keyin yuzaga keladi. Bu, odatda, shikoyatlarni ko'rib chiqish, noqonuniy qarorni bekor qilish, dalillarni maqbul yoki nomaqbul deb baholash, xususiy ajrim chiqarish, ishni prokurorga qaytarish yoki ayrim kamchiliklarni sud muhokamasida bartaraf qilish shaklida namoyon bo'ladi. Keyingi sud nazoratining ahamiyati shundaki, u buzilgan huquqni tiklash,

protsessual oqibatlarni bartaraf etish va ayblov materiallarining huquqiy sifatini baholash imkonini beradi.

Biroq keyingi sud nazorati har doim ham etarli emas. Ayrim xatolarni keyinchalik to'liq tuzatib bo'lmaydi. Masalan, noqonuniy tintuv natijasida shaxsning uy-joy daxlsizligi buzilgan bo'lsa, keyinchalik dalilni nomaqbul deb topish huquqiy oqibatni kamaytirishi mumkin, ammo buzilgan daxlsizlik faktini to'liq bartaraf eta olmaydi. Shu sababli huquqlarni eng jiddiy tarzda cheklovchi tergov harakatlari bo'yicha preventiv sud nazoratini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Preventiv va keyingi sud nazorati bir-birini inkor etmaydi, aksincha, yagona kafolat tizimini tashkil qiladi. Preventiv nazorat xatoning oldini oladi; keyingi nazorat esa sodir bo'lgan xatoning huquqiy oqibatini baholaydi va uni bartaraf qilish choralari belgilaydi. Jinoyat protsessida samarali sud nazorati ushbu ikki yo'nalishning muvozanatli uyg'unligiga tayanishi lozim.

Ishni sudga qadar yuritish ustidan sud nazoratining samaradorligi uni kim va qanday tartibda amalga oshirishiga bevosita bog'liq. Agar sud nazorati keyinchalik ishni mazmunan ko'radigan sudya tomonidan amalga oshirilsa, xolislikka oid savollar paydo bo'lishi mumkin. Chunki sudya tergov bosqichida ayrim dalillar, gumon yoki ayblov asoslari bilan oldindan tanishib, keyinchalik ishni mazmunan ko'rishda beixtiyor muayyan pozitsiya shakllantirishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli tergov sudyasi instituti sud nazoratini institutsional jihatdan mustaqilligini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Tergov sudyasi ishni mazmunan hal qilmaydi, shaxsning aybli yoki aybsizligiga baho bermaydi, ayblov funksiyasini amalga oshirmaydi. Uning asosiy vazifasi — sudga qadar ish yuritishda shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan mustaqil sud nazoratini ta'minlashdir.

Tergov sudyasi instituti jinoyat protsessida ikki muhim muvozanatni ta'minlaydi. Birinchidan, u tergov organlarining tezkorlik va samaradorlikka bo'lgan ehtiyoji bilan shaxs huquqlarini himoya qilish zarurati o'rtasida huquqiy chegara o'rnatiadi.

Ikkinchidan, u sud muhokamasini olib boradigan sudyaning xolisligini saqlaydi, chunki ishning mazmuniga oid dastlabki baholashlar boshqa sudya tomonidan amalga oshiriladi.

Tergov sudyasi faoliyatining samaradorligi uchun uning vakolatlari aniq, protsessual tartibi ravshan va qarorlari ustidan shikoyat qilish mexanizmi belgilangan bo'lishi kerak. Aks holda tergov sudyasi instituti faqat sanksiya beruvchi texnik subyektga aylanib qolishi mumkin. Bunday holatda sud nazoratining mohiyati yo'qoladi, chunki sud tergov organi taqdim etgan materiallarni formal tasdiqlovchi organga aylanadi.

Shuning uchun tergov sudyasi nafaqat majburlov choralariga ruxsat berish, balki protsess ishtirokchilarining shikoyatlarini ko'rib chiqish, ayrim noqonuniy qarorlarni bekor qilish, himoyachining dalillarni to'plash yoki tergov harakati o'tkazishga oid iltimosnomalarini baholash, huquqlarni cheklovchi tergov harakatlarining asosligini tekshirish vakolatlariga ega bo'lishi lozim. Bu sud nazoratini real huquqiy kafolat darajasiga ko'taradi.

Sud nazoratining tergov xatolarini bartaraf qilishdagi ahamiyati uning aniq protsessual vositalar orqali amalga oshirilishida ko'rinadi. Agar sud nazorati faqat umumiy deklaratsiya darajasida qolsa, u real natija bermaydi. Shu sababli jinoyat-protsessual qonunchilikda sudning protsessual xatolarga nisbatan qo'llaydigan vakolatlari aniq belgilanishi zarur.

Birinchidan, sud noqonuniy va asossiz qarorlarni bekor qilish vakolatiga ega bo'lishi lozim. Tergovchi, surishtiruvchi yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs tomonidan qabul qilingan qaror shaxs huquqlariga daxl qilsa, uni faqat yuqori turuvchi organ yoki prokuror emas, mustaqil sud ham tekshirishi kerak. Bu shikoyat qilish huquqini real ta'minlaydi.

Ikkinchidan, sud protsessual xatolar natijasida olingan dalillarning maqbulligiga baho berishi kerak. Dalilni nomaqbul deb topish faqat sud muhokamasining yakuniy bosqichida emas, balki imkoni boricha ertaroq amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Chunki nomaqbul dalilga tayangan ayblov keyingi protsessual qarorlarni ham nuqsonli qiladi.

Uchinchidan, sud bartaraf qilinishi mumkin bo'lgan kamchiliklar bilan bartaraf qilinishi mumkin bo'lmagan jiddiy protsessual buzilishlarni farqlashi lozim. Masalan, ayrim hujjatlarning texnik rasmiylashtirilishidagi kamchiliklar keyinchalik tuzatilishi mumkin. Biroq himoya huquqini ta'minlamasdan olingan ko'rsatuv, noqonuniy majburlash, sud ruxsatisiz o'tkazilgan huquq cheklovchi harakat yoki ayblovning mazmunan noaniqligi jiddiy huquqiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Bunday hollarda sud protsessual xatoning tabiatiga mos chorani tanlashi kerak.

To'rtinchidan, sud ishni prokurorga qaytarish yoki ayrim kamchiliklarni ishni qaytarmasdan bartaraf qilish o'rtasida mutanosib mexanizmni qo'llashi lozim. Har qanday kamchilik ishni qaytarishga sabab bo'lmazligi kerak; aks holda protsess cho'ziladi va sud muhokamasi samaradorligi pasayadi. Biroq jiddiy protsessual buzilishlar sud muhokamasida tuzatib bo'lmaydigan holatlarda ishni prokurorga qaytarish zarur chora bo'lib qoladi.

Beshinchidan, sud xususiy ajrim orqali protsessual xatolarning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarga munosabat bildirishi lozim. Xususiy ajrim jinoyat protsessida profilaktik ahamiyatga ega. U muayyan ish bo'yicha yo'l qo'yilgan qonun buzilishini qayd etish bilan cheklanmay, tegishli organlardan uning sabablarini bartaraf qilish, aybdor mansabdor shaxslar masalasini ko'rib chiqish va kelgusida bunday holatlarning oldini olishni talab qiladi.

Milliy jinoyat protsessida sud nazoratining roli ortib borayotgani ijobiy tendensiyadir. Biroq uning samaradorligi faqat yangi institutlarni joriy etish bilan emas, balki ularning real ishlash mexanizmlarini aniq belgilash bilan ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan sud nazoratini takomillashtirishning bir nechta ustuvor yo'nalishini ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish — sud nazorati doirasini kengaytirish. Sud nazorati faqat qamoqqa olish yoki ayrim majburlov choralari bilan cheklanmasligi lozim. Shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklovchi barcha muhim protsessual harakatlar, shu jumladan olib qo'yish, elektron ma'lumotlarga kirish, mulk huquqini cheklash sud nazoratining predmetiga aylanishi kerak.

Ikkinchi yoʻnalish — sud nazoratining protsessual tartibini aniqlashtirish. Iltimosnoma kim tomonidan kiritiladi, qanday materiallar taqdim etiladi, sud qanday muddatda koʻrib chiqadi, taraflar ishtirok etadimi, sud qarori qanday shaklda rasmiylashtiriladi, u ustidan shikoyat qilish mumkinmi — ushbu savollar qonun darajasida ravshan boʻlishi lozim.

Uchinchi yoʻnalish — tergov sudyasi vakolatlarini mazmuni aniqlashtirish. Tergov sudyasi faqat sanksiya beruvchi subyekt boʻlib qolmasligi kerak. U shikoyatlarni koʻrib chiqish, noqonuniy qarorlarni bekor qilish, himoya tomoni iltimosnomalarini baholash, huquq cheklovchi harakatlarning asosligini tekshirish va zarur hollarda buzilgan huquqni tiklash vakolatiga ega boʻlishi lozim.

Toʻrtinchi yoʻnalish — dalillar maqbulligi institutini sud nazorati bilan bogʻlash. Agar dalil qonunga xilof usulda olingan boʻlsa, uning protsessual oqibati aniq boʻlishi kerak. Dalilni nomaqbul deb topish mexanizmi sud nazoratining eng muhim natijaviy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu tergov organlarini dalil toʻplashda qonun talablariga qatʼiy rioya qilishga majbur etadi.

Beshinchi yoʻnalish — sud nazorati natijalarini statistik va tahliliy baholash. Qaysi turdagi tergov harakatlari boʻyicha eng koʻp shikoyat kelib tushmoqda, qaysi organlar qarorlari koʻproq bekor qilinmoqda, qaysi protsessual xatolar sud muhokamasida koʻproq aniqlanmoqda — bu maʼlumotlar tergov sifatini yaxshilash boʻyicha institutsional choralar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Oltinchi yoʻnalish — sud nazoratini inson huquqlari standartlari bilan uygʻunlashtirish. Sud har bir huquq cheklovchi protsessual harakatni baholashda faqat milliy qonun normalariga emas, balki zarurlik, mutanosiblik, asoslilik, minimal aralashuv va samarali huquqiy himoya mezonlariga ham tayanishi lozim. Bu jinoyat protsessini formal qonuniylikdan mazmunan adolatlilik darajasiga olib chiqadi.

Sud nazoratining tergov xatolarini bartaraf qilishdagi ahamiyati uning jinoyat protsessidagi uch asosiy funksiyasida namoyon boʻladi. Birinchidan, u preventiv funksiyani bajaradi: shaxs huquqlarini cheklovchi tergov harakatlari va majburlov choralari qoʻllanishidan

oldin ularning qonuniyligi, zarurligi va mutanosibligini tekshiradi. Ikkinchidan, u huquqni tiklovchi funksiyani amalga oshiradi: noqonuniy qarorlar, harakatlar yoki harakatsizliklar ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqib, buzilgan huquqlarni ishni sudga qadar yuritish bosqichining o‘zida tiklash imkonini beradi. Uchinchidan, u protsessual sifatni ta‘minlaydi: sud muhokamasiga qonunga xilof dalillar, noaniq ayblov yoki jiddiy protsessual nuqsonlar bilan shakllangan materiallar kirib kelishini cheklaydi.

Jinoyat protsessida tergov xatolarini bartaraf qilish sudning ayblov funksiyasini o‘z zimmasiga olishi degani emas. Aksincha, sud nazorati sudning xolis hakam sifatidagi maqomini mustahkamlaydi. Sud tergov organi o‘rniga dalil to‘plamaydi, ayblovni shakllantirmaydi, tergov taktikasini belgilamaydi. Uning vazifasi davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash vakolati inson huquqlari chegarasidan chiqib ketmasligini ta‘minlashdir.

Tergov sudyasi instituti, tintuv va boshqa huquq cheklovchi protsessual harakatlar ustidan sud nazorati, noqonuniy qarorlarni bekor qilish, dalillarning maqbulligiga erta bosqichda baho berish, xususiy ajrimlar orqali profilaktik ta‘sir ko‘rsatish — bularning barchasi tergov xatolarini bartaraf qilishning yagona tizimini shakllantiradi. Ushbu tizim qanchalik aniq va samarali ishlasa, sud muhokamasining adolatliligi, aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi va odil sudlovga bo‘lgan ishonch shunchalik mustahkamlanadi.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Jinoyat-protsessual qonunchilikda sud nazorati predmeti shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklovchi barcha muhim tergov harakatlari va protsessual majburlov choralarini qamrab oladigan darajada kengaytirilishi lozim.

2. Tergov sudyasining maqomi va vakolatlari formal sanksiya berish bilan cheklanmasdan, shikoyatlarni ko‘rib chiqish, noqonuniy qarorlarni bekor qilish, huquqlarni tiklash va protsessual xatolarni bartaraf qilishga qaratilgan aniq vakolatlar bilan to‘ldirilishi kerak.

3. Tintuv, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, mol-mulkni xatlash toʻgʻrisidagi toʻgʻrisidagi iltimosnomalarni koʻrib chiqishda sud nazorati predmetining mezonlari qonunda aniq belgilanishi zarur.

4. Sud nazorati tartibida aniqlangan protsessual xatolarning oqibatlarini — dalilni nomaqbul deb topish, qarorni bekor qilish, ishni prokurorga qaytarish, xususiy ajrim chiqarish yoki huquqni tiklash chorasini qoʻllash — xato xususiyatiga mutanosib belgilanishi lozim.

5. Sud nazorati amaliyoti boʻyicha yagona tahliliy hisobot yuritilishi, unda tergov xatolarining turlari, sabablari va ularni bartaraf qilish natijalari aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, sud nazorati tergov xatolarini bartaraf qilishning ikkinchi darajali yordamchi mexanizmi emas, balki jinoyat protsessida qonuniylik, adolat va inson huquqlari oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlovchi markaziy kafolatdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.*
2. *Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.*
3. *Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt.*
4. *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.*
5. *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi PF–6041-son “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni.*
6. *Moʻminov B.A. Jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish ustidan sud nazorati. Yuridik fanlari doktori dissertatsiyasi. — Toshkent, 2020.*
7. *Бреев Д.Е. О новом регулировании судебного контроля в уголовном судопроизводстве // Юридическая наука. 2025. №5.*
8. *Будник Т. В., Коршунов А. В. Правовые последствия нарушений, допущенных в процессе доказывания // Вестник науки. 2024. №1 (70).*

## **SUD BOSQICHIDA TERGOV SUDYASI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ MASALALAR: MAVJUD MUAMMO VA TAKLIFLAR**

**ANNOTATSIYA.** *Mazkur maqolada jinoyat protsessida tergov sudyasi institutining huquqiy tabiati, uning sud bosqichidagi o'rni va amaliy ahamiyati kompleks tahlil qilinadi. Tergov sudyasi faoliyatida uchrayotgan muammolar, xususan, sud mustaqilligi, vakolatlarning aniqligi, sud yuklamasi va yagona sud amaliyotining etarli darajada shakllanmaganligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar va xorijiy tajriba asosida mazkur institutni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.*

**Kalit so'zlar:** *tergov sudyasi, sud nazorati, jinoyat protsessi, ehtiyot chorasi, sud mustaqilligi, inson huquqlari, protsessual kafolatlar.*

### **KIRISH.**

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish doirasida inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, tergov sudyasi institutining joriy etilishi jinoyat protsessida sud nazoratini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, tergov sudyasi jinoyat ishini sudgacha yuritish bosqichida protsessual qarorlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi mustaqil subyekt sifatida belgilangan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda ehtiyot choralari qo'llash bo'yicha sudga kiritilgan iltimosnomalarning 20-25 foizi tergov sudyalari tomonidan rad etilgan. Bu esa sud nazoratining real ishlayotganini ko'rsatadi.

### **Tergov sudyasi institutining nazariy-huquqiy asoslari.**

Shu o'rinda tergov sudyasi institutining nazariy-huquqiy asoslariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, tergov sudyasi instituti jinoyat protsessida "sud nazorati" konsepsiyasining amaliy ifodasi

hisoblanadi. Ushbu institut quyidagi fundamental tamoyillarga asoslanadi: qonun ustuvorligi, sud hokimiyatining mustaqilligi, shaxs daxlsizligi, taraflar tengligi va tortishuv prinsipi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, tergov sudyasi "protsessual filtr" vazifasini bajarib, noqonuniy yoki asossiz tergov harakatlarining oldini oladi.

Davlatimiz rahbarining tegishli Farmoniga asosan<sup>1</sup> 2025-yilning yanvar oyidan boshlab tergov sudyasi instituti o'z faoliyatini boshladi. Sud tizimida yangi tuzilmaning ish boshlashi birinchi navbatda fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va odil sudlovni amalga oshirishda yangi qadam bo'ldi. Endilikda, tergov sudyalari qadardar ish yuritish bosqichida protsessual qarorlarga sanksiya berish va majburlov choralarini qo'llash bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda shaxsning huquq va erkinliklariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshirish bilan bir qatorda, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni ham ko'rib chiqish vakolati berildi. Mazkur institut faoliyatini samarali tashkil etish masalalarini joriy etish, uning mazmun mohiyatini atroflicha ko'rib chiqish maqsadida Huquqni muhofaza qilish akademiyasida "Tergov sudyalari instituti – shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi kafolati" mavzusida respublika seminar-trening bo'lib o'tdi<sup>2</sup>. Unda sud-huquq tizimi vakillari, advokatlar, yuridik oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va jamoatchilik vakillari, shuningdek yaqinda faoliyatini boshlagan jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining tergov sudyalari onlayn tarzda ishtirok etishdi.

Tergov sudyasining vakolatlari va ularning huquqiy ahamiyatiga oid manbalar O'zbekiston Respublikasi JPK 31<sup>1</sup> - moddasida keltirib o'tilgan. Unga muvofiq, tergov sudyasi yakka o'zi ish tutib, mazkur Kodeksda nazarda tutilgan tartibda sudga qadardar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi.

---

<sup>1</sup> Prezident tomonidan 10.06.2024 yildagi "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-89-son

<sup>2</sup> <https://proacademy.uz/uz-lat/news/view?alias=2284>

Shuningdek, tergov sudyasining vakolatlari jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin<sup>3</sup>:

*quyidagilar bo'yicha sanksiyalar:*

qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash bilan bog'liq iltimosnoma;

qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog'liq, iltimosnoma;

pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnoma;

murdani eksqumatsiya qilish haqidagi iltimosnoma;

pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnoma;

tintuv o'tkazish haqidagi iltimosnoma;

telefonlar va boshqa qurilmalar orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish haqidagi iltimosnoma;

mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnoma;

*quyidagilar bo'yicha majburlov choralari<sup>4</sup>:*

ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnoma;

shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnoma;

ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomasi;

ushlab turish muddatini 48 soatga qadar uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma;

prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomasi.

Tergov sudyasi vakolatlarining o'ziga xos jihatlaridan eng muhimlaridan biri uning yakka tartibda ish tutishi va sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy

---

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.

<sup>4</sup>[https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi\\_sudlarda\\_tergov\\_sudyasi\\_lavozim\\_kiritilmoqda](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi_sudlarda_tergov_sudyasi_lavozim_kiritilmoqda)

manfaatlariga rioya etilishi ustidan mustaqil sud nazoratini amalga oshirishidir<sup>5</sup>. Bu vakolatlar tergov va surishtiruv organlarining harakatlari ustidan qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, prokuror nazoratidan farqli ravishda, mustaqil sud hokimiyati tomonidan bajariladi. Tergov sudyasi faoliyatining bu xususiyati uning neytralligi va davlat ayblov organlaridan mustaqilligi bilan belgilanadi, chunki u jamoat tartibini saqlash yoki ayblov funksiyasi uchun javobgar emas. Shu sababli, tergov sudyasi huquqiy davlat prinsiplarini amalda ta'minlashda muhim o'rin tutadi, ayniqsa, qamoqqa olish, uy qamog'i, pasport amal qilishini to'xtatish, tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish kabi huquqlarga ta'sir qiluvchi choralarni sanksiya qilishda.

Bu vakolatlarning cheklanganligi O'zbekistonda tergov sudyasi institutining faqat sanksiyalash va ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish bilan cheklanganini ko'rsatadi, bu esa xalqaro tajriba (masalan, Fransiya yoki Qozog'iston modellari) bilan solishtirganda to'liq sud nazoratini ta'minlash imkonini cheklaydi. Shu bilan birga, tergov sudyasining qarorlari alohida xonada chiqarilishi va apellatsiya tartibining mavjudligi himoya mexanizmlarining samaradorligini oshiradi.

Tergov sudyasi vakolatlarining o'ziga xos jihatlarini xalqaro tajribada ko'rib chiqsak, eng klassik misol Fransiyadagi juge d'instruction (tergov sudyasi yoki sledstvenniy sudya) institutidir. Fransiyada<sup>6</sup> bu sudya XIX asrdan beri faoliyat yuritib kelmoqda va tergov bosqichida mustaqil ravishda dalillarni to'plash, guvohlarni so'roq qilish, tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitish, qamoqqa olish va boshqa majburiy choralarni qo'llash vakolatlariga ega.

Bu vakolatlar shu qadar keng bo'lgani uchun Onore de Balzak uni "Fransiyadagi eng qudratli odam" deb atagan. Fransuz tergov sudyasi tergovni o'zi boshqaradi, prokurordan farqli ravishda neytral pozitsiyada turadi va ikki tomon – ayblov va himoya manfaatlarini teng himoya qilishga harakat qiladi. Ammo 2000-yildan keyingi

---

<sup>5</sup>O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy sayti. Tergov sudyasi vakolatlari yangi qonun bilan belgilandi // sud.uz. – 2025-yil 30 yanvar. – <https://sud.uz/news-2025-01-30-1>.

<sup>6</sup>Wikipedia. Examining magistrate. – [https://en.wikipedia.org/wiki/Examining\\_magistrate](https://en.wikipedia.org/wiki/Examining_magistrate).

islohotlar natijasida qamoqqa olish vakolati juge des libertés et de la détention (ozodlik va qamoq sudyasi) ga o'tkazildi, chunki tergov sudyasining vakolatlarining ortiqchaligi tanqid qilingan.

Bu tajriba O'zbekistondagi tergov sudyasining faqat sanksiyalash va majburiy choralarni qo'llash bilan cheklanganidan farq qiladi, chunki Fransiyada u dalillarni to'plash va tergovni to'liq boshqarish huquqiga ega.

Yana bir muhim misol – Germaniyadagi Ermittlungsrichter (tergov sudyasi), lekin u Fransiya modelidan farqli ravishda tergovni o'zi boshqarmaydi. 1975-yil islohotidan keyin Germaniyada tergov asosan prokuror nazorati ostida o'tkaziladi, tergov sudyasi esa faqat prokuror iltimosi bo'yicha qamoqqa olish, tintuv, telefon eshitish kabi majburiy choralarni sanksiya qiladi. Bu vakolatlarining cheklanganligi tergov jarayonini tezlashtirish va prokurorning etakchi rolini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan. Italiyada ham 1988-yil yangi Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilingandan so'ng tergov sudyasi vakolatlari keskin qisqartirildi va tergov prokurorga o'tkazildi, sudya esa faqat huquqlarni himoya qilish va majburiy choralarni nazorat qilish bilan cheklandi. Bu o'zgarishlar inquisitorial (tergovchilik) tizimdan adversarial (raqobatbardosh) elementlarga o'tishni ko'rsatadi.

Qozog'iston va Rossiya kabi postsovet davlatlarida ham tergov sudyasi (yoki sudyamagistrat) instituti joriy etilgan bo'lib, ular asosan ehtiyot choralarni qo'llash va shikoyatlarni ko'rib chiqish bilan shug'ullanadi, lekin Fransiyadagi kabi to'liq tergov boshqaruvi yo'q. Ushbu xalqaro tajriba O'zbekistonda tergov sudyasi vakolatlarini kengaytirish yoki prokuror nazorati bilan muvofiqlashtirish masalasini dolzarb qilib ko'rsatadi, chunki ko'p davlatlarda bu institut inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish uchun cheklangan doirada saqlanadi.

Tergov sudyasi vakolatlari prokuror nazoratidan asosan mustaqillik, neytrallik va sud hokimiyatiga tegishliligi bilan farq qiladi. Prokuror nazorati davlat ayblov funksiyasi doirasida amalga oshiriladi va prokuror tergov organlarining faoliyati ustidan nazorat qilsa-da, u ayblov tomoni sifatida ishtirok etadi, ya'ni tergov jarayonining bir qismi bo'lib, dalillarni to'plash va jinoyatni

isbotlashga qaratilgan manfaatdorlikka ega<sup>7</sup>. Bu esa prokurorning qarorlarida obyektivlikni cheklaydi, chunki u ayblovni qo'llab-quvvatlash vazifasini bajarishi kerak. Tergov sudyasi esa sud hokimiyatiga tegishli bo'lib, yakka tartibda ish tutadi va tergov organlaridan, prokurordan ham mustaqil ravishda shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi (O'zbekiston Respublikasi JPK 31-1-modda). Bu nazorat faqat majburiy choralar (qamoqqa olish, tintuv, telefon eshitish, mol-mulk xatlash va b.) ni sanksiya qilish bilan cheklangan bo'lib, tergov jarayonining ayblov tomoniga tegishli emas. Shu sababli, tergov sudyasining qarorlari ayblov va himoya o'rtasidagi tenglik prinsipini ta'minlaydi, prokuror nazorati esa asosan tergovning qonuniyligini tekshirish va ayblovni qo'llab quvvatlashga qaratilgan. Xalqaro tajribada (masalan, Germaniyada Ermittlungsrichter) tergov sudyasi faqat huquqlarga ta'sir qiluvchi choralarda neytral nazoratchi sifatida ishlaydi, prokuror esa tergovni boshqaradi va manfaatdor tomon hisoblanadi.

O'zbekistondagi tergov sudyasi rolining huquqiy davlat prinsiplariga muvofiqligini ko'rsatadi. Yana bir muhim farq – funksional yo'nalish va qaror qabul qilish tartibida namoyon bo'ladi. Prokuror nazorati doirasida prokuror tergovchilarga ko'rsatmalar berishi, qarorlarini bekor qilishi, ishni qo'zg'atish yoki tugatish bo'yicha rozilik berishi mumkin, lekin bu nazorat ayblov funksiyasi bilan bog'liq bo'lib, tergov jarayonining bir qismi sifatida ko'riladi. Masalan, tintuv o'tkazish iltimosnomasi avval prokurorga yuboriladi, u rozilik bersa, keyin tergov sudyasiga o'tadi – bu prokurorning tergovga ta'sir qilish imkoniyatini ko'rsatadi.

Mazkur maqola mavzusidan kelib chiqib amaliyotdagi dolzarb muammolarga to'xtaladigan bo'lsak, birinchidan, sud mustaqilligi muammosi, ya'ni ba'zi holatlarda tergov sudyasiga tashqi bosimlar mavjudligi haqida ilmiy muhokamalar mavjud. Bu esa qarorlarning xolisligiga putur etkazishi mumkin. Ikkinchidan, qonunchilikdagi

---

<sup>7</sup> Egamberdiev F. A. Protsessualnyy status i polnomochiya sledstvennogo sud'i // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2025

noaniqliklar: ayrim protsessual masalalarda tergov sudyasining vakolatlari to'liq aniqlashtirilmagan. Bu esa turli sudlarda turlicha amaliyot shakllanishiga olib kelmoqda. Uchinchidan, yagona sud amaliyotining etishmasligi: hududlar kesimida qarorlar turlicha qabul qilinishi huquqni qo'llashda nomuvofiqliklarni yuzaga keltirmoqda.

Mavjud muammolarni bartaraf qilish orqali quyidagi taklif va tavsiyalarni aytib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi: avvalambor majud qonunchilikni yanada takomillashtirish orqali tergov sudyasi vakolatlarini aniq belgilash, protsessual normalarni batafsil tartibga solish. Shuningdek, sud mustaqilligini kuchaytirish: sudyalarning daxlsizligini mustahkamlash hamda tashqi aralashuvni cheklash mexanizmlarini kuchaytirish hisoblanadi. Bundan tashqari, sud tizimini optimallashtirish orqali sudyalarning sonini oshirish, shuningdek ish yuklamasini kamaytirish sanaladi. Zamonaviy texnologiya davrida raqamlashtirish mexanizmi sifatida elektron sud tizimini joriy etish hamda onlayn sud majlislarini kengaytirish ham samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, tergov sudyasi instituti jinoyat protsessida inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatidir. Uning samaradorligini oshirish uchun qonunchilikni takomillashtirish, sud mustaqilligini ta'minlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur. Mazkur choralar orqali sud nazoratining samaradorligi oshadi va fuqarolarning huquqlari yanada ishonchli himoya qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma'lumotlari.*
3. *European Court of Human Rights. Case-law on Article 5 of the Convention.* – Strasbourg, 2022.
4. *Ashurov A. Comparative criminal procedure. Tashkent, 2020.*
5. *Xudoyberdiyev J. Sud-huquq islohotlari va ularning ahamiyati // Huquq va burch.* – 2022. – №3.

**M.I.Boymirzayeva,**  
*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti*  
*2-bosqich talabasi.*

**H.I.To‘xtashev**  
*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti kaferdra mudiri, professor.*

## **TERGOV SUDYASI FAOLIYATIDA RAQAMLASHTIRISH: ELEKTRON SUD TIZIMLARI VA PROTSESSUAL KAFOLATLAR**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalarning sud-huquq tizimiga, xususan, tergov sudyasi faoliyatiga tatbiq etilishining huquqiy va amaliy jihatlari, O‘zbekiston qonunchiligi doirasida hamda xalqaro tajribalar asosida sud tizimida raqamlashtirish jarayonlarining amaliy natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda elektron sud tizimlarining joriy etilishi sud ishlarini ko‘rib chiqish jarayonini tezlashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, vaqt va resurs sarfini optimallashtirish, shuningdek, sud tizimining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash orqali korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tergov sudyasi, raqamlashtirish jarayonlari, elektron sud tizimi, protsessual kafolatlari, sun‘iy intellekt, kriptografiya, sud amaliyoti, shaxsning huquq va erkinliklari.*

### **Kirish.**

Tergov sudyasi faoliyatida raqamlashtirish zamonaviy sud tizimlarining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Elektron sud tizimlari va raqamli dalillar bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan huquqiy va protsessual masalalar, ayniqsa, xalqaro tajriba va O‘zbekiston qonunchiligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirish natijasida tergov sudyasi faoliyatida dalillarni to‘plash, tahlil qilish va sudda taqdim etish jarayonlari sezilarli darajada o‘zgarib, yangi imkoniyatlar bilan birga, bir qator huquqiy va amaliy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Sudda raqamli dalillarni qabul qilish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Dalilning haqiqiyliги, ishonchliligi va saqlanish zanjiri (chain of custody) kabi

omillar sudda dalil sifatida qabul qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raqamli dalillarni to'plash, saqlash va tahlil qilish qat'iy protseduralarga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Sudlar, odatda, dalilning dolzarbligi, ishonchliligi va qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritilganligini talab qiladi. Raqamli dalillar esa, o'z navbatida, ma'lumotlarning buzilishi, shifrlash texnologiyalari va maxsus ekspertiza zarurati tufayli ushbu talablarni bajarishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi [1].

Raqamlashtirish jarayonida shaxsiy hayot daxlsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari ham alohida e'tiborga loyiq. Masalan, Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) tergovchilarga shaxsiy ma'lumotlarga kirishda qat'iy cheklovlar o'rnatadi. Bunday cheklovlar tergov sudyasi faoliyatida raqamli dalillarni to'plash va tahlil qilish imkoniyatlarini cheklashi mumkin [2]. Bundan tashqari, raqamli sud ekspertizasi va tergov amaliyotida standartlashtirishning etishmasligi ham muhim muammo sifatida qayd etiladi. Turli tergovchilar va tashkilotlar raqamli dalillarni tahlil qilishda turli vosita va usullardan foydalanadilar, bu esa natijalarning izchilligi va aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Standartlashtirishning yo'qligi, shuningdek, tergov natijalarini boshqa tergovchilar yoki sud organlari bilan almashishda ham muammolarni yuzaga keltiradi. Raqamlashtirish jarayonida etik me'yorlarga rioya qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tergovchilar o'z faoliyatida shaxsiy hayot daxlsizligi va inson sha'nini hurmat qilgan holda, qonuniy va etik normalarga amal qilishlari lozim. Tergov sudyasi faoliyatini raqamlashtirishda yuqoridagi muammolarni bartaraf etgan holda raqamlashtirish jarayonlari tadbiiq etilsa qog'ozbozlik, vaqt cho'zilishi va inson omili (korrupsiya xavfi) kabi bir qator muammolarga chek qo'yiladi.

Sud tizimini raqamlashtirish masalalari, xususan tergov sudyasi faoliyatini elektron platformaga ko'chirish, dastlab sud qarorlarini avtomatik tahlil qilish bo'yicha ishlanmalar bilan boshlandi. O'zbekiston Respublikasida tergov sudyasi instituti jinoyat protsessining muhim bosqichlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, tergov sudyalari instituti joriy etilishi sudgacha bo'lgan

bosqichda shaxs huquqlarini ta'minlashning yangi bosqichini boshlab berdi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, "tergov sudyasi instituti – bu jinoyat protsessida protsessual majburlov choralari qo'llashda mustaqil sud nazoratini ta'minlovchi muhim kafolat mexanizmi" hisonlanadi [3]. Tergov sudyasi sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquq va erkinliklariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi va ushbu vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solinadi.

Tergov sudyasining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. ehtiyot choralari qo'llash (qamoqqa olish, uy qamog'i) va ularning muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish;

2. ushlab turish muddatini uzaytirish;

3. shaxsni lavozimidan chetlashtirish hamda tibbiy muassasaga joylashtirish bilan bog'liq masalalarni hal etish;

4. tintuv o'tkazish, mol-mulkni xatlash, pochta-telegraf jo'natmalarini nazorat qilish;

5. telekommunikatsiya vositalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitish hamda boshqa protsessual majburlov choralari qo'llashga doir iltimosnomalarni ko'rib chiqadi.

Bundan tashqari, tergov sudyasi ayrim dalillarni oldindan mustahkamlash, jumladan guvoh va jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlarini qayd etish masalalarini ham ko'rib chiqadi [4]. Tergov sudyasi faoliyatining samaradorligini oshirish va protsessual kafolatlarni mustahkamlash maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ya'ni raqamlashtirish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish, bir tomondan, tergov sudyasi faoliyatining shaffofligini va tezkorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, elektron dalillar bilan ishlashda xalqaro standartlarga mos ravishda protsessual kafolatlarni ta'minlash imkonini beradi. Bu jarayon, ayniqsa, elektron dalillar va raqamli axborot vositalari ishtirok etayotgan jinoyat ishlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy jinoyatchilik ko'plab hollarda raqamli muhitda sodir etilmoqda va tergov sudyasi ushbu dalillarni to'plash, saqlash va baholashda zamonaviy yondashuvlarni talab qiladi.

O'zbekiston qonunchiligida tergov sudyasi faoliyatini raqamlashtirish jarayonida xalqaro tajriba va standartlardan foydalanish muhim o'rin tutadi. Xususan, Yevropa Kengashining Budapesht Konvensiyasi (ETS No. 185) – Kiberjinoyatchilikka qarshi birinchi xalqaro shartnoma sifatida – raqamli dalillar bilan ishlashda milliy qonunlarni uyg'unlashtirish, tergov va sud amaliyotini takomillashtirish, shuningdek, davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi. Bundan tashqari, ISO 27037 va ISO 27043 xalqaro standartlari raqamli dalillarni to'plash, saqlash va tahlil qilishda maxsus protseduralarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan elektron dalillar bilan ishlash bo'yicha amaliy qo'llanmalar va standart operatsion protseduralar (SOPs) tergov sudyasi faoliyatida raqamli dalillarni aniqlash, ularni protsessual jihatdan to'g'ri rasmiylashtirish va sudda ishonchli dalil sifatida taqdim etish uchun zarur bo'lgan texnik va taktik ko'rsatmalarni beradi [5]. Ushbu xalqaro tajriba va standartlar O'zbekiston qonunchiligida tergov sudyasi faoliyatini raqamlashtirishda, ayniqsa, elektron sud tizimlarini joriy etishda va protsessual kafolatlarni ta'minlashda asosiy yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, raqamli dalillar bilan ishlashda ularning haqiqiyliги, yaxlitligi va sudda qabul qilinishi uchun xalqaro va mahalliy protsessual talablarni uyg'unlashtirish zarurati yuzaga keladi, bu esa tergov sudyasi faoliyatini zamonaviylashtirish va raqamlashtirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Elektron sud tizimlarining joriy etilishi va samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam huquqiy asoslar zarur. O'zbekiston qonunchiligida sud jarayonlarini raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishi va masofaviy sud majlislarini tashkil etish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bu hujjatlar elektron sud tizimlarining ishlash tartibi, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari, elektron hujjatlarning yuridik kuchi, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi masalalarni tartibga soladi. Xorijiy tajribada ham elektron sud tizimlarining huquqiy asoslari keng qamrovli bo'lib, sud jarayonlarida sun'iy

intellekt (SI) va avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishning huquqiy chegaralari, protsessual kafolatlar va inson huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, Hindiston va Italiya tajribasida elektron sud tizimlari va SI asosidagi platformalarning faoliyati maxsus qonunlar va sud amaliyoti orqali tartibga solinadi, bunda sud qarorlarining shaffofligi, adolatli sudlov va ma'lumotlarning maxfiyligi asosiy tamoyil sifatida belgilanadi [6].

Raqamli sud tizimlarida protsessual kafolatlarni ta'minlashda eng muhim masalalardan biri – bu axborot xavfsizligi va ishonchlilikdir. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat to'g'risida"gi Qonun, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonunlar 2000-yillarning boshlarida qabul qilingan bo'lib, bugungi kunda takomillashuvga muhtoj [7]. Jumladan, elektron hujjatlarning haqiqiylikini tekshirish, ularni autentifikatsiyadan o'tkazish, blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish tartibi qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan. Shuningdek, dalil sifatida taqdim etilgan elektron yozuv, audio yoki video fayllarning haqiqiylikini tasdiqlovchi protsessual mexanizmlar ham ishlab chiqilmagan. Bu holat amaliyotda raqamli dalillarni soxtalashtirish yoki boshqa g'arazli maqsadlarda foydalanish xavfini oshiradi. Protokol ishtirokchilarining ilgari majburiyat olgan qiymatdan voz kechishiga urinishlari, yashirin qiymatlarni oshkor qilish uchun lug'at hujumlaridan foydalanish, protokolda ishtirok etishdan bosh tortish yoki oldingi xabarlarini qayta yuborish (replay attack) kabi tahdidlar mavjud. Masalan, qayta yuborish hujumlarida ishtirokchi ilgari imzolangan xabarlarini yangi deb ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun protokol tuzilmasida har bir amal uchun maxsus raqam (draw number) joriy qilinadi va har bir ishtirokchi avvalgi amallar reyestrini yuritishi shart. Agar noto'g'ri raqam aniqlansa, ishtirokchi protokoldan chiqib, oflayn auditni boshlashi va reyestrni qayta sinxronlashtirishi lozim. Bu yondashuv, ayniqsa, bir nechta ma'lumot markazlari yoki serverlar ishtirokida, xatolik ehtimolini kamaytiradi va tizim ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, bunday xatoliklar odatda protokolning dastlabki

bosqichlarida aniqlanadi va agar keyingi bosqichlarda yuzaga kelsa, bu ishtirokchilardan birining nohalolligidan dalolat beradi.

Protsessual kafolatlarni ta'minlashda yana bir muhim jihat – bu ishtirokchilarning majburiyatlari va audit mexanizmlarining mavjudligidir. Protokolning muhim bosqichlarida har bir ishtirokchi o'z qiymatini majburiyat sifatida tasdiqlaydi va bu qiymatlarni saqlab boradi. Agar tarmoqda yoki tizimda xatolik yuz bersa va ishtirokchilardan bir nechtasi chiqib ketsa, protokol oflayn tarzda, hakamlar ishtirokida yakunlanishi mumkin. Bunda har bir ishtirokchi o'z faoliyati bo'yicha bloglarni yuritishi va ma'lumot markazlari etarlicha ishonchli bo'lishi lozim. Protokolning dastlabki bosqichlarida sabotaj qilish natijasida natijaga ta'sir ko'rsatishning iloji bo'lmasa-da, bunday xatoliklar doimiy tus olganda, protokol ishlamay qoladi. Bunday holatlarda, ishtirokchilar birlashib, qolgan ishtirokchini "aybdor" qilib ko'rsatishga harakat qilishi mumkin. Shu sababli, har bir ma'lumot markazida audit va tekshiruvlar o'tkazilishi zarur. Bu esa ishtirokchilar sonini cheklashni talab qiladi – amaliyotda 3-5 ishtirokchi optimal deb hisoblanadi. Bu yondashuv sud tizimi uchun etarli bo'lib, protsessual kafolatlarning raqamli muhitda ta'minlanishini kafolatlaydi [8].

Tergov sudyasi faoliyatida raqamlashtirish jarayonlari, xususan elektron sud tizimlarining joriy etilishi, sud jarayonlarining samaradorligini oshirish, hujjat aylanishini tezlashtirish va protsessual kafolatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron hujjatlar va raqamli dalillarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish imkoniyati sud organlariga tezkor va aniq qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Raqamlashtirish natijasida dalillarni izchil va tizimli ravishda saqlash, ularning yo'qolib ketishi yoki soxtalashtirilishining oldini olish imkoniyati oshadi. Bundan tashqari, elektron sud tizimlari orqali protsessual harakatlarning ochiqligi va shaffofligi ta'minlanadi, bu esa sud ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim kafolat hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida sud jarayonlarida inson omilining ta'siri kamayadi, bu esa xatoliklar va subyektiv qarorlar ehtimolini pasaytiradi. Shu bilan birga, elektron tizimlar orqali sud ishtirokchilari va advokatlar uchun hujjatlarga masofadan kirish

imkoniyati yaratiladi, bu esa sud jarayonlarining ochiqligi va tezkorligini oshiradi.

Biroq, tergov sudyasi faoliyatida raqamlashtirish jarayonlari bir qator muammolar va cheklovlarni ham yuzaga keltiradi. Avvalo, raqamli dalillar bilan ishlashda ularning haqiqiyliги, ishonchliligi va protsessual qoidalar asosida to'g'ri yig'ilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli dalillar sudda qabul qilinishi uchun ularning autentifikatsiyasi, ishonchliligi va uzluksiz saqlanishi talab etiladi. Bu jarayonda dalillarni yig'ish, saqlash va tahlil qilishda maxsus protokollarga rioya qilinmasligi dalilning sudda qabul qilinmasligiga olib kelishi mumkin. O'zbekiston tergov sudyasi faoliyatida raqamlashtirish jarayonini takomillashtirish uchun, eng avvalo, zamonaviy raqamli infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribalar, xususan, Bosniya va Gersegovina, Xorvatiya va Serbiya misolida, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi elektron sud tizimlarining samarali ishlashini ta'minlashda asosiy omil ekanini ko'rsatadi. Masalan, Xorvatiyada joriy etilgan e-Gradani tizimi fuqarolarga davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkonini beradi, Serbiyada esa e-Zdravlje va e-Uprava tizimlari orqali keng ko'lamlı davlat xizmatlari raqamlashtirilgan. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham elektron sud tizimlarini boshqa davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiyalash, yagona identifikatsiya va autentifikatsiya mexanizmlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv protsessual kafolatlarni mustahkamlash, sud jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi uchun yuqori tezlikdagi internet tarmog'i va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga sarmoya kiritish zarur. Bosniya va Gersegovina tajribasida internet tezligining pastligi va raqamli infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmagani natijasida ilg'or texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan to'liq foydalanish cheklangan. O'zbekiston uchun ham bu borada zamonaviy texnologik infratuzilmani kengaytirish va barqaror internet tarmog'ini ta'minlash ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim [9].

Raqamlashtirish jarayonida tergov sudyasi faoliyatida protsessual kafolatlarni ta'minlash uchun elektron hujjat aylanishi, raqamli imzo va autentifikatsiya tizimlarini joriy etish muhimdir. Xorijiy tajribada, masalan, Bosniya va Gersegovinada IDDEEA/CIPS raqamli imzo tizimi hujjatlarni tez va xavfsiz rasmiylashtirish imkonini beradi. Bu esa sud jarayonlarida ishtirokchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, hujjatlarning soxtalashtirilishining oldini olish, shuningdek, protsessual harakatlarning ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston qonunchiligida ham elektron hujjat aylanishi va raqamli imzo institutlarini yanada takomillashtirish, ularni sud amaliyotiga keng joriy etish, shuningdek, elektron protsessual kafolatlarni mustahkamlovchi normativ-huquqiy bazani rivojlantirish talab etiladi. Xorvatiya va Serbiyada elektron xizmatlar orqali fuqarolarning sud jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlari kengaytirilgan, bu esa sud tizimining ochiqligi va fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini oshirishga olib kelgan. O'zbekiston uchun ham elektron sud tizimlarida protsessual kafolatlarni mustahkamlash, sud qarorlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim yo'nalish hisoblanadi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ilg'or texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt va superkompyuterlar sud tizimida samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bosniya va Gersegovinada superkompyuterlar va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlangan bo'lsa-da, bu jarayon infratuzilmaning rivojlanishiga bevosita bog'liq. O'zbekiston tergov sudyasi faoliyatida ham ilg'or texnologiyalarni, xususan, sun'iy intellekt asosidagi tahlil va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlarini joriy etish orqali sud jarayonlarining tezkorligi va aniqligini oshirish mumkin. Biroq, bunday texnologiyalarni samarali joriy etish uchun malakali kadrlar tayyorlash, sud xodimlari va boshqa ishtirokchilarning raqamli savodxonligini oshirish, doimiy o'quv dasturlarini tashkil etish zarur. Xorijiy tajribada, ayniqsa, pandemiya davrida raqamli echimlarni tezkor joriy etish inson resurslarini qayta tayyorlash va yangi ko'nikmalarni egallash zarurligini ko'rsatdi. O'zbekiston uchun ham innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan

birga, inson resurslarini rivojlantirish va raqamli savodxonlikni oshirish muhim takomillashtirish yo‘nalishi hisoblanadi [10].

O‘zbekiston qonunchiligi va xorijiy tajriba tahlili asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Birinchidan, raqamli dalillar bilan ishlashda tergov sudyasi va sud organlari uchun asosiy protsessual kafolatlar – dalilning yaxlitligi, ishonchliligi va hujjatlashtirilganligini ta‘minlash zarur. Xalqaro tajribada, xususan Germaniya Federal Axborot Xavfsizligi Idorasi (BSI), AQSh Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti (NIST), Yevropa Kengashi va INTERPOL tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosida, raqamli dalillarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilishda quyidagi mezonlarga qat‘iy rioya qilinadi: dalilning qabul qilinishi, ishonchliligi, takror ishlab chiqilishi, yaxlitligi, sabab-oqibat bog‘liqligi va to‘liq hujjatlashtirish. Ayniqsa, dalilning kelib chiqish manbai va harakatlanish zanjiri (chain of custody) to‘liq va aniq qayd etilishi, dalilning haqiqiylikni kafolatlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda kriptografik xesh-funksiyalardan foydalanish dalil yaxlitligini ta‘minlashning samarali vositasi sifatida e‘tirof etiladi.

Ikkinchidan, elektron sud tizimlarida raqamli dalillar bilan ishlashda tergov sudyasi va sud amaliyotida xalqaro standartlarga mos ravishda obyektivlik va protsessual adolat tamoyillarini mustahkamlash lozim. Raqamli forensika sohasida olib boriladigan har bir harakat – dalilni olish, tiklash va tahlil qilish – qonunchilikda belgilangan tartibda va hujjatlashtirilgan holda amalga oshirilishi, dalilning sudda ishonchli va qabul qilinadigan bo‘lishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, tergov sudyasi faoliyatida raqamli dalillarni baholashda nafaqat ayblov, balki oqlov uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan izlarni aniqlash va tahlil qilish zarur. Bu esa tergov va sud jarayonlarining obyektivligini oshiradi va protsessual kafolatlarni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, O‘zbekiston qonunchiligida raqamli dalillar bilan ishlash tartibini yanada takomillashtirish, xalqaro tajriba asosida elektron sud tizimlarida dalilning yaxlitligi va ishonchliligini kafolatlovchi normativ-huquqiy asoslarni kuchaytirish tavsiya etiladi. Xususan, tergov sudyasi va sud organlari xodimlari uchun raqamli forensika sohasida malaka oshirish dasturlarini joriy etish,

zamonaviy texnologiyalar va kriptografik vositalardan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, raqamli dalillar bilan ishlashda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, tergov sudyasi faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tergov sudyasi faoliyatida raqamlashtirish zamonaviy sud tizimining samaradorligini oshirish, protsessual kafolatlarni mustahkamlash va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro standartlar asosida elektron sud tizimlarini joriy etish, raqamli dalillar bilan ishlashda huquqiy va texnologik asoslarni mustahkamlash zarurati mavjud. Xorijiy davlatlar, xususan Braziliya tajribasi, elektron sud tizimlarining huquqiy va texnologik asoslarini rivojlantirishda muhim namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish natijasida tergov sudyasi faoliyatida quyidagi asosiy afzalliklar kuzatiladi:

- Sud jarayonlarining tezkorligi va ochiqligi oshadi;
- Protsessual kafolatlar va ishonchlilik mustahkamlanadi;
- Kriptografik himoya va audit mexanizmlari orqali xavfsizlik ta'minlanadi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida huquqiy, protsessual va etik muammolar, shuningdek, texnologik infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmaganligi kabi cheklovlar mavjud. Ularni bartaraf etish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish muhim:

- Raqamli infratuzilmani rivojlantirish va integratsiyalashgan tizimlarni yaratish;
- Elektron protsessual kafolatlarni mustahkamlash va huquqiy asoslarni takomillashtirish;
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va inson resurslarini rivojlantirish.

Umuman olganda, tergov sudyasi faoliyatida raqamlashtirishni chuqurlashtirish va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish orqali sud tizimining samaradorligi va adolatli sudlov kafolatlarini ta'minlash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A. M. Alenezi, "Digital and Cloud Forensic Challenges," arXiv preprint arXiv:2305.03059, 2023. [Online]. Available: <https://arxiv.org/abs/2305.03059>
2. Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglament - <https://www.solix.com/uz/kb/gdpr/>
3. Rustambayev M.X.. *Jinoyat protsessi*. – Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-Protsessual Kodeksi - <HTTPS://LEX.UZ/MACT/-111460>
5. A. Caglayan, N. Imamoglu, A. B. Can, and R. Nakamura, "When CNNs Meet Random RNNs: Towards Multi-Level Analysis for RGB-D Object and Scene Recognition," arXiv preprint arXiv:2004.12349, 2020. [Online]. Available: <https://arxiv.org/abs/2004.12349>
6. Y. Vinker, N. Zabari, and Y. Hoshen, "Training End-to-end Single Image Generators without GANs," arXiv preprint arXiv:2004.06014, 2020. [Online]. Available: <https://arxiv.org/abs/2004.06014>
7. "Raqamlashtirish sharoitida sud tergovi: milliy qonunchilik muammolari" maqolasidan - <https://inconference.uz/index.php/idsset/article/view/771>
8. M. Raciti and G. Bella, "Behind the (Digital Crime) Scenes: An MSC Model," arXiv preprint arXiv:2403.16196, 2024. [Online]. Available: <https://arxiv.org/abs/2403.16196>
9. A. Lalev, "Distributed Random Number Generation for the Needs of Public Governance," arXiv preprint arXiv:1803.05385, 2018. [Online]. Available: <https://arxiv.org/abs/1803.05385>
10. J. A. Araujo, "Technological Requirements for Videoconferencing Judicial Hearings: Enhancing the Credibility and Reliability of Remote Testimonies," arXiv preprint arXiv:2507.19496, 2025. [Online]. Available: <https://arxiv.org/abs/2507.19496>
11. Z. Ajanović et al., "Good Practices for Institutional Organization of Research Institutes: Excellence in Research and Positive Impact on Society," arXiv preprint arXiv:2501.14773, 2024. [Online]. Available: <https://arxiv.org/abs/2501.14773>

## **SUDGA QADAR ISH YURITISH BOSQICHIDA TERGOV SUDYASI FAOLIYATI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi faoliyatining huquqiy asoslari, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar hamda protsessual qarorlar qabul qilishdagi asosiy kamchiliklar tizimli tahlil qilingan va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tergov sudyasi, protsessual qaror, sudga qadar ish yuritish, kamchiliklar, ehtiyot chorasi, huquqiy kafolatlar, jinoyat protsessi.*

### **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasida jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish va inson huquqlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan biri bu – “Habeas korpus” institutining joriy etilishi va sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi lavozimining ta’sis etilishi hisoblanadi. Tergov sudyasining asosiy vazifasi jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov va surishtiruv bosqichlarida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklovchi protsessual majburlov choralari qo‘llash ustidan sud nazoratini o‘rnatishdan iboratdir. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyalari tomonidan qabul qilinayotgan protsessual qarorlarda qator kamchiliklar va huquqni qo‘llashdagi noaniqliklar uchramoqda. Xususan, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, uy qamog‘i, tintuv o‘tkazish, telefon so‘zlashuvlarini eshitib borish kabi o‘ta muhim tergov harakatlariga sanksiya berishda tergov sudyalari ko‘pincha dastlabki tergov organlarining iltimosnomalarini etarli darajada tanqidiy baholamasdan, shablon asosida qaror chiqarish

holatlariga yo‘l qo‘ymoqdalar. Bu esa o‘z navbatida shaxs huquqlarining asossiz poymol etilishiga, jinoyat protsessining tortishuvchanlik tamoyiliga putur etishiga hamda odil sudlovning sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishiga olib kelmoqda. Shuningdek, tergov sudyasining protsessual mustaqilligi to‘liq ta‘minlanmaganligi, ularning ish yuklamasining haddan tashqari ko‘pligi va ayrim hollarda chuqur ixtisoslashuvning yo‘qligi oqibatida qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi va asoslilikini ta‘minlashda tizimli muammolar yuzaga kelmoqda [1, B. 45]. Shu sababli, ushbu institut faoliyatini chuqur ilmiy-amaliy tahlil qilish, tergov sudyasi tomonidan protsessual qarorlar qabul qilish jarayonida yuzaga kelayotgan kamchiliklarning asl sabablarini o‘rganish va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb huquqiy masalalaridan biriga aylanib ulgurgan.

Sudga qadar ish yuritish bosqichida sud nazorati va tergov sudyasi institutining nazariy hamda amaliy muammolari ko‘plab mahalliy va xorijiy huquqshunos olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Xususan, milliy huquqshunoslikda G.Z. To‘laganova, B.H. Po‘latov, M.H. Rustamboyev kabi olimlarning ilmiy ishlarida jinoyat protsessida sud nazoratining o‘rni, ehtiyot choralari qo‘llashning protsessual tartibi va shaxs huquqlarini himoya qilish kafolatlari chuqur tahlil qilingan. Ularning asarlarida tergov sudyasi faoliyatining umumiy prinsiplari ochib berilgan bo‘lsa-da, amaliyotda protsessual qarorlar qabul qilishdagi texnik va yuridik kamchiliklar, ayniqsa, dalillarni baholashdagi yuzakilik masalalari etarlicha maxsus o‘rganilmagan [2, B. 112]. Xorijiy adabiyotlarda, jumladan, A.V. Smirnov, K.B. Kalinovskiy kabi olimlarning tadqiqotlarida tergov sudyasi faoliyatining qiyosiy-huquqiy jihatlari, Yevropa inson huquqlari sudi (YeIHS) amaliyoti va “Habeas korpus” institutining xalqaro standartlari batafsil yoritilgan [3, B. 78]. Ushbu maqolani yozishda ilmiy bilishning dialektik, tizimli-tarkibiy, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik tahlil hamda hujjatlarni o‘rganish kabi zamonaviy va an’anaviy metodlaridan keng foydalanildi. Xususan, tergov sudyalari

tomonidan qabul qilingan sud ajrimlari, jinoyat ishi materiallari hamda Oliy sudning plenumi qarorlari empirik manba sifatida o'rganib chiqildi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi (masalan, Germaniya, Fransiya, Qozog'iston) bilan solishtirilib, tergov sudyasi qarorlarining asosligini ta'minlovchi yangi mexanizmlarni import qilish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, mantiqiy metod orqali huquqni qo'llash amaliyotidagi bo'shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha yagona xulosaga kelindi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyotining batafsil tahlili shuni ko'rsatadiki, tergov sudyalari tomonidan qabul qilinayotgan protsessual qarorlardagi eng katta kamchiliklardan biri bu – asoslantirishning etarli emasligidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga (JPK) muvofiq, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi shaxsning jinoyat sodir etganligiga asosli shubha mavjud bo'lganda va qonunda ko'rsatilgan boshqa qat'iy asoslar (masalan, tergovdan yashirinish, dalillarni yo'q qilish ehtimoli) mavjud bo'lgandagina qo'llanilishi shart. Biroq, ko'plab amaliy holatlarda tergov sudyalari prokuror yoki tergovchining iltimosnomasidagi vajlarni shunchaki o'z ajrimlariga ko'chirib yozish bilan cheklanmoqdalar. Himoya tomoni taqdim etgan qarshi dalillar, gumon qilinuvchining shaxsi, oilaviy ahvoli, doimiy yashash joyi mavjudligi kabi muhim omillar qaror matnida umuman muhokama qilinmaydi yoki ularga yuzaki baho beriladi. Bu esa sud qarorining qonuniylik va adolat tamoyillariga ziddir [4, B. 56]. Qolaversa, tintuv o'tkazish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash kabi tergov harakatlariga sanksiya berish jarayonida sudyalar ko'pincha shoshilinch qaror qabul qilishadi. Buning asosiy sabablaridan biri tergov sudyalarining faqatgina sudga qadar nazorat bilan shug'ullanmay, balki ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ham mazmunan ko'rish bilan bandligidir. Ya'ni, O'zbekiston tizimida tergov sudyasi alohida ixtisoslashgan va mustaqil lavozim sifatida to'liq shakllanib ulgurmagan. Ular o'zining asosiy sudlov faoliyatidan ortib, tergovchilarning

iltimosnomalarini ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda, natijada protsessual harakatlarning qonuniyligini tekshirish jarayoni rasmiyatchilikka aylanib qolmoqda.

Bundan tashqari, tergov sudyasining qaror qabul qilishdagi kamchiliklari orasida ekspertiza tayinlash, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish kabi harakatlarda ham jiddiy muammolar ko'zga tashlanadi. Ko'p hollarda protsess ishtirokchilarining, xususan, himoyachilarning huquqlari sud majlisida to'laqonli ta'minlanmaydi. Iltimosnomani ko'rib chiqish bo'yicha o'tkaziladigan yopiq sud majlislarida prokurorning ishtiroki qat'iy ta'minlangan bir vaqtda, advokatning ishtiroki ba'zan texnik yoki vaqt nuqtai nazaridan cheklanib qoladi. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri sudya tomonidan qabul qilinadigan qarorning xolisligiga ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga, apellatsiya instansiyasi sudlari tomonidan tergov sudyalarining ajrimlari bekor qilinish holatlari tahlil qilinganda, aksariyat hollarda asosiy sabab sifatida jinoyat ishi hujjatlaridagi materiallar bilan sudya xulosasining bir-biriga mos kelmasligi ko'rsatilgan. Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish ushbu muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yevropa davlatlarida tergov sudyasi mutlaqo alohida maqomga ega bo'lib, uning funksiyalari faqat qamoqqa olish bilan cheklanmaydi, balki u butun tergov jarayonining qonuniyligi ustidan muntazam nazorat olib boruvchi, dalillarni to'plash jarayonida bevosita ishtirok etuvchi arbob hisoblanadi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston jinoyat protsessida tergov sudyasi institutini sof nazorat qiluvchi, mustaqil va faqat shu soha bilan shug'ullanuvchi organga aylantirish ehtiyoji mavjud. Protsessual qarorlar qabul qilishdagi amaliy kamchiliklarni bartaraf etish uchun qonunchilikka tergov sudyasining asoslantirilmagan qaror chiqarishini taqiqlovchi hamda himoya tomoni vajrlarini batafsil tahlil qilish majburiyatini yuklovchi aniq normalarni kiritish zarurati pishib etilgan.

Sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi faoliyatini va ular tomonidan qabul qilinayotgan protsessual qarorlarning sifatini ilmiy-amaliy jihatdan har tomonlama

o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda mazkur institut inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati bo'lishiga qaramay, uning faoliyatida tizimli yondashuvni talab etadigan jiddiy huquqiy hamda tashkiliy muammolar mavjud. Tergov sudyasi tomonidan qabul qilinayotgan ajrimlarning qonuniyligi, asoslilikini hamda motivatsiyasini to'laqonli ta'minlamaslik bevosita fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan erkinlik hamda shaxsiy daxlsizlik huquqlarining qo'pol ravishda buzilishiga olib kelmoqda. Sudyalarning tergov va surishtiruv organlari tomonidan kiritilayotgan iltimosnomalarni quruq rasmiyatchilik bilan, tanqidiy yondashuvsiz qanoatlantirish amaliyoti odil sudlov nufuziga va davlatning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan xalq ishonchiga putur etkazadi. Ushbu murakkab muammolarni bartaraf etish hamda amaliyotdagi mavjud kamchiliklarni to'g'rilash maqsadida bir qator majmuaviy va kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

Birinchidan, jinoyat-protsessual qonunchiligiga ehtiyot choralari qo'llashga doir iltimosnomalarni ko'rib chiqish jarayonida sudyalarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan qat'iy talablarni kiritish zarur. Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli moddalari shunday norma bilan to'ldirilishi kerakki, unga ko'ra, tergov sudyasi qamoqqa olish yoki uy qamog'i ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qarorida nima sababdan boshqa, engilroq ehtiyot choralari (masalan, garov, munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat, shaxsiy kafillik) ushbu muayyan holatda o'z maqsadiga eta olmasligini dalillar asosida batafsil va alohida bandlar bilan ko'rsatib o'tishi shart qilib belgilanishi lozim. Agar ajrimda ushbu alternativ choralarning rad etilish sabablari etarlicha va mantiqan asoslab berilmasa, bu holat yuqori turuvchi instansiya sudi tomonidan ushbu ajrimni so'zsiz bekor qilish uchun imperativ asos bo'lib xizmat qilishi qonunda o'z aksini topishi kerak.

Ikkinchidan, tergov sudyasi lavozimining mutlaq mustaqilligini ta'minlash maqsadida tizimli o'zgarishlar qilinishi shart. Bugungi kunda tergov sudylariga boshqa toifadagi (jinoyat

ishlarini mazmunan ko'rish, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi) ishlarni ham yuklash holatlari ularning asosiy e'tiborini sudga qadar nazoratdan chalg'itmoqda va shoshilinch, sifatsiz qarorlar qabul qilinishiga zamin yaratmoqda. Shu sababli, faqatgina tergov ustidan sud nazoratini amalga oshirishga ixtisoslashgan alohida tergov sudyalari korpusini shakllantirish va ularga boshqa ishlarni ko'rishni qonunan taqiqlash maqsadga muvofiqdir. Bu o'zgarish nafaqat sudyaning vaqtini tejaydi, balki uning har bir tergov hujjatini mikroskopik aniqlikda, sinchiklab o'rganib chiqishiga imkon yaratadi.

Uchinchidan, tergov sudyalarining qaror qabul qilish jarayonida himoya tomonining huquqlarini kengaytirish bo'yicha muhim qadamlar tashlanishi kerak. Xususan, himoyachi advokatlarga sud nazorati doirasida bevosita tergov sudyasiga muayyan tergov harakatlarini o'tkazish (masalan, qoshimcha ekspertiza tayinlash, muhim guvohlarni so'roq qilish) yuzasidan iltimosnomalar kiritish huquqini taqdim etish zarur. Ushbu jarayonni soddalashtirib, tortishuvchanlik tamoyilini sudga qadar ish yuritishning eng dastlabki nuqtasidan boshlab to'laqonli ishlashini ta'minlash orqali tergov organlarining yakkahokimligiga chek qo'yish mumkin. Qabul qilinayotgan protsessual ajrimlarda advokat keltirgan har bir vajga sudyaning huquqiy bahosi va javobi majburiy tarzda aks ettirilishi sud muhokamasining shaffofligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar majmuasining qonunchilikka hamda huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etilishi tergov sudyasi institutining O'zbekiston Respublikasi yuridik landshaftidagi o'rnini tubdan mustahkamlaydi. Bu choralarning amalga oshirilishi natijasida sud qarorlarining sifat ko'rsatkichlari keskin oshadi, asossiz va noqonuniy hibsga olishlar soni kamayadi hamda jinoiy ta'qib doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini kafolatlash darajasi xalqaro "Habeas korpus" standartlariga to'liq moslashadi. Oqibat-natijada tergov sudyasi qog'ozdagigina nazoratchi emas, balki amaldagi adolat qalqoni darajasiga ko'tarilib, jinoyat

protsessining chinakam insonparvar, xolis va adolatli tizim sifatida ishlashiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *To'laganova G.Z. — Jinoyat protsessida tergov sudyasi instituti: nazariya va amaliyot — Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2021, 45-bet.*

2. *Po'latov B.H. — Sudga qadar ish yuritishda protsessual majburlov choralarini qo'llashning huquqiy muammolari — Toshkent: Adolat nashriyoti, 2019, 112-bet.*

3. *Смирнов А.В. — Следственный судья в уголовном процессе: сравнительно-правовое исследование — Москва: “Норма” 2020, с.78.*

4. *Rustamboyev M.H. — O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar — Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022, 56-bet.*

5. *Inoyatov M.T. — Ehtiyot choralarini qo'llashda qonuniylik va asoslilikni ta'minlashda sud nazoratining o'rni — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023, 24-bet.*

**J.Z.Raxmonaliyeva,**  
*O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi  
mustaqil tadqiqotchisi*

## **AYBGA IQRORLIK TUSHUNCHASI, HUQUQIY TABIATI VA JINOYAT-PROTSESSUAL NAZARIYASIDAGI O‘RNI**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutining tushunchasi, huquqiy tabiati va jinoyat-protsessual nazariyasidagi o‘rni kompleks tahlil qilingan. Ushbu institutning maqsad va vazifalari, uning jinoyat ishlarini yuritishni soddalashtirish va tezlashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada milliy qonunchilikdagi yutuqlar va mavjud bo‘shliqlar, jumladan terminologik muammolar, aybsizlik prezumpsiyasi bilan bog‘liq nazariy bahslar xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy ravishda o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha ilmiy asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Aybga iqrorlik, protsessual kelishuv, jinoyat protsessi, ayblovga rozilik, odil sudlov, dalillarni baholash, soddalashtirilgan ish yuritish, aybsizlik prezumpsiyasi, jazoni engillashtirish, himoya huquqi.*

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgandir. Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishda odil sudlovning samarali va tezkor mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning rivojlangan davlatlarida qonunlarni yanada erkinlashtirish va insonparvar qilish yo‘lida doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan milliy jinoyat-protsessual siyosatni liberallashtirish doirasida Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan “Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv” instituti odil sudlovni takomillashtirishda muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Ushbu institut jinoyat ishlarini yuritishda an‘anaviy repressiv usullardan zamonaviy hamkorlik modeliga o‘tishning yorqin belgisi hisoblanadi. Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutining asosiy maqsadi jinoyat protsessini soddalashtirish va moddiy resurslarni tejashdir. Davlat va jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan jinoyatlarni

tezkorlik bilan fosh etish mexanizmlarini yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylangan. Bunday soddalashtirilgan jarayonlarni qo‘llash orqali sud va tergov organlarining ish yuklamasi sezilarli darajada kamayadi hamda davlatning jinoyatlarga qarshi kurashish xarajatlarini kamaytirishga bevosita ta’sir qiladi.

Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoyat ishini sudga qadar yuritishning istalgan bosqichida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jarayondir. Bu kelishuv o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumon yoxud ayblovga iqrorlik bildirgan shaxs bilan nazorat qiluvchi prokuror o‘rtasida tuziladi. Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi va etkazilgan zararni to‘liq qoplashi qat’iy talab etiladi. Shuningdek, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashish mazkur kelishuvni tuzishning eng muhim va ajralmas shartlaridan biri sanaladi. Ushbu protsessual harakat tomonlarning mutlaq ixtiyoriyligi asosida amalga oshirilishi qonunchilikda qat’iy belgilab qo‘yilgan.

“Aybga iqrorlik” tushunchasining lug‘aviy va yuridik mazmunini tahlil qilish ilmiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu so‘z birikmasi sifatida alohida qayd etilmagan bo‘lsa-da, uning tarkibiy qismlarini ilmiy izohlash mumkin. “Ayb” so‘zi qonunga xilof xatti-harakat, javobgarlikka tortishning zarur sharti sifatida keng talqin qilinadi. “Iqror” so‘zi esa e’tirof etish, rost deb hisoblash yoki aybni bo‘yniga olish ma’nolarida ishlatiladi. Kelishuv esa o‘zaro manfaatlarni ko‘zlab murosaga kelish va belgilangan shartlarga rozi bo‘lishni anglatadi.

Yuridik adabiyotlarda aybga iqrorlik kelishuviga berilgan ta’riflar xilma-xil bo‘lib, ularning aksariyati ushbu institutning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Mamlakatimiz olimlari bu borada turli xil ilmiy qarashlarni ilgari surishgan va ularning fikrlari tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, tadqiqotchi A.Kurbanova buni prokuror bilan tuziladigan ixtiyoriy shakldagi o‘ziga xos kelishuv deb ta’riflagan. Uning fikricha, bu kelishuv surishtiruv va dastlabki tergovning istalgan vaqtida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining iltimosiga asosan tuziladi. Boshqa

olimlar ham bu jarayonning soddalashtirilgan xususiyatiga va samaradorligiga alohida e'tibor qaratishadi.

Ayrim xorijiy olimlar, xususan, V.A. Semensov va Y.V. Loshkobanovlar bu institutni protsessual jihatdan bir tomonlama bitim sifatida baholashadi. Ularning fikricha, gumon qilinuvchining majburiyatlari ixtiyoriy tusga ega bo'lib, prokurorning majburiyatlari esa faqat alohida hollarda yuzaga keladi. Y.L. Fedoseeva ham buni kelishuv emas, balkim ayblanuvchining tergovga ko'maklashish to'g'risidagi oddiy roziligi deb hisoblaydi. Biroq, bunday bir tomonlama qarashlarga qo'shilib bo'lmaydi, chunki aybga iqrorlik kelishuvidan har ikkala taraf ham manfaatdor bo'ladi. Gumon qilinuvchi engilroq jazo olsa, davlat va huquq-tartibot organlari jinoyatni tezkorlik bilan fosh etishga erishadi.

Olim K.F. Bagautdinov aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvni prokurorga majburiyat sifatida yuklash mumkin emasligini ilmiy asosda ta'kidlaydi. Bu fikr haqiqatga to'liq mos keladi, chunki ish sudga oshganidan keyin vaziyat va holatlar batamom o'zgarishi mumkin. Sudda kelishuvdagi shartlarni qo'llashning iloji bo'lmay qolishi yoki yangi dalillar chiqishi xavfi har doim saqlanib qoladi. Shuning uchun kelishuv shartlari dastlab qat'iy belgilansa-da, sudning yakuniy qarori hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, prokuror va ayblanuvchi o'rtasidagi bitim sudda yakuniy qaror qabul qilish uchun faqatgina asos vazifasini o'taydi.

Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning huquqiy tabiati uning jinoyat protsessidagi maqsad va vazifalari bilan bevosita bog'liqdir. Uning umumiy va xususiy vazifalari mavjud bo'lib, ular jinoyat protsessining asosiy va bazaviy maqsadlariga xizmat qiladi. Umumiy funksiyalarga Konstitutsiyada mustahkamlangan inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini samarali himoya qilish kiradi. Xususiy funksiyalar esa jinoyatni tezkor ochishga ko'maklashish va aybdor shaxsni axloqan tuzatishni o'z ichiga oladi. Shu orqali ayblanuvchi sudgacha bo'lgan bosqichdayoq o'z qilmishining noto'g'ri ekanligini chuqur anglab etishi rag'batlantiriladi.

Protsessual kelishuvning jinoyat-protsessual mexanizmi davlatning vakolatli organlari tomonidan jinoyatni fosh etish

maqsadiga tezroq erishishga yordam beradi. Aybdor deb topilgan shaxsning jazosini qonuniy kafolatlangan tarzda qisqartirish ushbu mexanizmning asosiy maqsadlaridan biridir. Shuningdek, bu innovatsion jarayon orqali davlatning protsessual chiqimlari va xarajatlari sezilarli darajada iqtisod qilinadi. Ayblanuvchining ixtiyoriy ravishda aybiga iqror bo'lishi jinoyat ishini ko'rishning umumiy muddatini keskin qisqartiradi. Bu esa odil sudlovning samaradorligini oshirib, jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkam ta'minlashga xizmat qiladi.

Ba'zi olimlar, masalan, P.S.Elkind jinoyat ishida soddalashtirilgan shakldan foydalanish dalillarni to'liq to'planmasligiga olib keladi deb hisoblaydi. Bunda shaxsning o'z aybiga iqror bo'lishi ustuvorlik kasb etib, sud majlisida dalillar etarlicha o'rganilmasligi xavfi mavjudligi aytiladi. Biroq, bunday pessimistik fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi, chunki sudya baribir ish materiallarini va asoslantiruvchi dalillarni mustaqil o'rganib chiqadi. Jinoyat ishi bo'yicha hukm faqatgina aybga iqrorlikka asoslanishi qonunchilikka ko'ra mutlaqo mumkin emas. Kelishuv qoidalarini qo'llashning mantiqiy va asosiy natijasi jinoyat ishi bo'yicha sud ishini yuritishni faqatgina tezlashtirish va soddalashtirishdir.

Jinoyat-protsessual nazariyasida aybga iqrorlikni dalil sifatida baholash masalasi hali ham birmunch bahsli hisoblanadi. Ko'pgina davlatlar qonunchiligi aybga iqrorlikni yagona dalil sifatida ishlatishni taqiqlab, uni boshqa dalillar bilan tasdiqlashni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida ham xuddi shunday qat'iy qoida mustahkamlab qo'yilgan. Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining o'z aybiga iqror bo'lishi faqat mavjud xolis dalillar bilan tasdiqlangan taqdirdagina ayblov uchun asos bo'lishi mumkin. Shuning uchun protsessual kelishuv tuzilganda ham ishning barcha obyektiv holatlari xolisona tekshirilishi shart qilib qo'yilgan.

Amaliyotda aybga iqrorlik olinganidan keyin tergov organlarining qo'shimcha dalil yig'ishga bo'lgan intilishi susayishi mumkin bo'lgan holatdir. Bu esa jinoyat ishini xolisona, to'laqonli va to'liq o'rganish prinsipiga ma'lum ma'noda zid keladi.

Shuningdek, soxta iqrorlik hodisasi ham nazariy va amaliy jihatdan hali etarlicha yaxshi o'rganilmagan sohalardan biridir. Ayrim shaxslar ruhiy bosim yoki boshqa yashirin motivlar tufayli o'zlari qilmagan jinoyatni bo'yinlariga olishlari ba'zan kuzatiladi. Shu sababli aybga iqrorlik kelishuvi ixtiyoriy va erkin iroda asosida tuzilganligini sud tomonidan qat'iy nazorat qilish talab etiladi.

Sudgacha bo'lgan bosqichda aybga iqrorlik kelishuvini tuzishning aniq tartibi protsessual qonunchilikda belgilab qo'yilgan. Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bunday muhim iltimosnomani surishtiruv va dastlabki tergovning istalgan bosqichida erkin berishi mumkin. Ushbu iltimosnoma albatta gumon qilinuvchi, uning himoyachisi va zarur hollarda qonuniy vakili tomonidan imzolangan bo'lishi kerak. Iltimosnomada jinoyat natijasida qo'lga kiritilgan mol-mulkni topish, ularni qaytarish va boshqa muhim dalillarni taqdim etishga ko'maklashish majburiyati ko'rsatiladi. Kelishuv faqatgina prokuror, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va uning himoyachisi tomonidan rasman imzolanganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

Aybga iqrorlik kelishuvi tuzilishi uchun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi hal qiluvchi va muhim rol o'ynaydi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, bunday kelishuv faqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatlar bo'yicha tuziladi. O'ta og'ir jinoyatlar uchun umumiy qoida tariqasida bunday aybga iqrorlik kelishuvini tuzish nazarda tutilmagan va taqiqlangan. Biroq, ayrim olimlar bunday kelishuvni faqatgina istisno tariqasida o'ta og'ir jinoyatlarga ham tatbiq etishni taklif qilmoqdalar. Bunday qonuniy kengaytirish uyushgan jinoyatchilikni fosh etishda davlatga va tergovga katta yordam berishi mumkinligi bilan asoslanadi.

Protsessual kelishuv to'liq tuzilgandan so'ng, jinoyat ishi materiallari prokuror tomonidan chuqur o'rganib chiqiladi. Prokuror kelishuvning barcha shartlari va ayblanuvchining harakatlari qonunga muvofiqligini diqqat bilan tekshiradi. Agar barcha protsessual shartlar bajarilgan bo'lsa, prokuror ayblov xulosasini tasdiqlab, ishni zudlik bilan sudga yuboradi. Agar kelishuv shartlari buzilganligi yoki yolg'on ko'rsatuv berilganligi aniqlansa, kelishuv bekor qilinishi mumkin. Bunday murakkab holatda jinoyat ishi

bo'yicha tergov umumiy tartibda qaytadan boshlanadi va oxirigacha olib boriladi.

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida aybga iqrorlik kelishuvi yarashuv instituti bilan tez-tez qiyosiy taqqoslanadi. Har ikki huquqiy institut ham jinoyat ishini soddalashtirilgan tartibda yuritishning eng muhim shakllari hisoblanadi. Yarashuv institutida protsessual kelishuv asosan sudlanuvchi va jabrlanuvchi o'rtasida bevosita amalga oshiriladi. Aybga iqrorlik bo'yicha kelishuvda esa asosan ayblanuvchi va davlat nomidan ish ko'ruvchi prokuror o'rtasida bitim tuziladi. Ikkala huquqiy holatda ham etkazilgan zararni to'liq qoplash sharti qat'iy talab sifatida o'rta qo'yiladi.

Yarashuv instituti amaliyotda qo'llanilganda aybdor shaxs jinoiy javobgarlikdan butunlay va to'liq ozod etilishi mumkin. Biroq aybga iqrorlik kelishuvi shaxsni javobgarlikdan ozod qilmaydi, balki faqatgina unga nisbatan engilroq jazo tayinlanishini kafolatlaydi. Qonunchilikka ko'ra, bu kelishuv tasdiqlangan hollarda tayinlanadigan jazo eng ko'p jazoning yarmidan aslo oshmasligi kerak. Shuningdek, yarashuv protsessi uchun jabrlanuvchining roziligi hal qiluvchi va eng muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Aybga iqrorlik kelishuvida esa jabrlanuvchining roziligisiz ham, lekin uning huquqlarini buzmaganda holda qonuniy kelishuv tuzilishi mumkin.

Mediatsiya instituti ham jinoyat protsessida o'ziga xos alohida o'rin tutadi va u aybga iqrorlik kelishuvidan tubdan farq qiladi. Mediatsiya jarayonida sodir etilgan jinoyat bo'yicha murosaga kelishda faqatgina jabrlanuvchi va qonunbuzar asosiy rol o'ynaydi. Aybga iqrorlik amaliyotlari esa to'g'ridan-to'g'ri davlat organlari, ya'ni tergovchi va prokuror tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Mediatsiya mustaqil va xolis vositachi yordamida mavjud nizoni hal qilish imkoniyatini beradi. Aybga iqrorlik kelishuvi esa jinoyat ishini tezkor hal qilish va sud xarajatlarini sezilarli kamaytirish uchun davlat tomonidan joriy etilgan huquqiy vositadir.

Aybga iqrorlik kelishuvining aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi bilan o'zaro munosabati eng bahsli nazariy masalalardan biridir. G.A. Pechnikov kabi ba'zi olimlar bu institut aybsizlik prezumpsiyasini bevosita shubha ostiga qo'yadi deb hisoblaydi. Ularning subyektiv

fikricha, ayblanuvchi darhol jinoyatchilar toifasiga o'tkazilib, maqsad har qanday vositani oqlaydi qabilida noto'g'ri ish ko'riladi. Bundan tashqari, shaxsning faqatgina o'z aybiga iqrор bo'lishi uni ayblash uchun hech qachon etarli asos bo'la olmaydi. Shuning uchun ko'pchilik tajribali huquqshunoslar bu institutni amaliyotda qo'llashda o'ta ehtiyotkorlik talab etilishini ta'kidlashadi.

Boshqa bir katta guruh olimlar va amaliyotchilar esa aybga iqrорlik kelishuvi aybsizlik prezumpsiyasini sira buzmasligini isbotlashga harakat qiladilar. Ularning ilmiy ta'kidlashicha, kelishuv tuzilganda ham sud ayblovni mavjud xolis dalillar bilan tasdiqlanishini albatta talab qiladi. Ayblov va himoya tarafi o'z pozitsiyalarini erkin himoya qilib, tortishuvchanlik prinsipini amalda saqlab qoladi. Kelishuv faqatgina sud tergovini va dalillarni uzoq tekshirishni qisqartiradi, lekin ularni umuman yo'qqa chiqarmaydi. Shu tariqa, aybsizlik prezumpsiyasi mutlaqо inkor etilmaydi, balki sud jarayoni maqsadli soddalashtiriladi.

Aybga iqrорlik kelishuvi tortishuvchanlik prinsipini yo'qqa chiqaradi degan turli xil tanqidiy fikrlar ham yo'q emas. Xususan, Yu.V. Chayka bu institut tergovchining kasbiy inqiroziga olib keladi deb xavotir bilan yozadi. R.R. Kovalyov esa tortishuvchanlikning asl mohiyati tomonlarning dalillarni taqdim etib tortishishida ekanligini qayd etadi. Biroq, kelishuv jarayonida ham tomonlar muayyan shartlar ustida muzokara olib borib, o'z qonuniy manfaatlarini himoya qiladilar. Ayblov jinoyatni fosh etishni maqsad qilsa, himoya tomoni jazoni engillashtirish uchun kurashadi va shu orqali o'ziga xos tortishuv saqlanib qoladi.

Aybga iqrорlik kelishuvi tuzilgan ishlar bo'yicha sud muhokamasining asosiy predmeti faqat sudlanuvchiga hukm chiqarish bilan chegaralanadi. Sudda barcha dalillarni batafsil o'rganish va guvohlarni birma-bir so'roq qilish kabi harakatlar amalga oshirilmaydi. I.V. Jerebyatev kabi taniqli olimlar sudda faqat qisqa sud tergoviga ruxsat berish maqbul ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq, bunday qisqartirilgan sud majlisi o'zining tezkorligi bilan ajralib turadi va davlat mablag'larini sezilarli tejaydi. Sud asosan

kelishuvning ixtiyoriy va qonuniy shartlarda tuzilganligini tekshirish bilan cheklanadi.

Sud nazorati aybga iqrorlik kelishuvi institutining eng muhim va asosiy protsessual kafolati hisoblanadi. Sud majlisida sudya bevosita ayblanuvchidan kelishuv shartlarini va huquqiy oqibatlarini tushunganligini so‘rab biladi. Agar kelishuv bosim ostida yoki majburlab tuzilganligi aniqlansa, sud uni tasdiqlashni darhol rad etadi. Sudning roli faqatgina kelishuvni tasdiqlash emas, balki odil adolat va qonuniylikni ta‘minlashdan iboratdir. Agar sudlanuvchining aybsizligi ma‘lum bo‘lib qolsa, sud hatto oqlov hukmini ham chiqarishi mumkinligi qonunchilikda mustahkamlanishi kerak.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish aybga iqrorlik kelishuvining rivojlanish bosqichlarini chuqur tushinishga yordam beradi. Bu institutning eng mumtoz va tarixiy ko‘rinishi AQSh jinoyat protsessi bilan bevosita bog‘liqdir. AQShda federal sudlarning qariyb 95 foiz ishlari aynan shunday shartnomaviy kelishuvlar asosida ko‘rib chiqiladi. Bunday o‘ta yuqori ko‘rsatkich anglo-sakson huquq tizimining o‘ziga xos pragmatik yondashuvi bilan izohlanadi. AQShda ayblanuvchi o‘zining aybini tan olishi orqali katta hajmdagi protsessual imtiyozlarga ega bo‘ladi.

Yevropa davlatlarida ham bu institut o‘ziga xos tarzda rivojlangan va amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada magistrat sudlarda ko‘rilgan ishlarning katta qismi aynan kelishuv asosida tugallanadi. Fransiya va Germaniya qonunchiligida esa kelishuv tuzish uchun jinoyatlar doirasi qat‘iy ravishda chegaralangan. Ixtiyoriylik va advokat ishtiroki Yevropa Ittifoqi standartlari bo‘yicha eng asosiy va qat‘iy talablar hisoblanadi. Bu Yevropa davlatlarida sud nazorati AQShga qaraganda ancha kuchliroq va chuqurroq ekanligini kuzatish mumkin.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida aybga iqrorlik kelishuvini joriy etish bo‘yicha turli xil ilg‘or yondashuvlar mavjud. Rossiya Federatsiyasida “sudgacha hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuv” va “sud kelishuvi” kabi yangi institutlar faol qo‘llaniladi. Qozog‘iston Respublikasida protsessual kelishuvning ikki xil shakli

nazarda tutilgan bo‘lib, ular turli toifadagi jinoyatlarni qamrab oladi. Qirg‘izistonda esa kelishuvni nafaqat tergovda, balki sud muhokamasining oxirigacha tuzish imkoniyati yaratilgan. Bu xorijiy tajribalar O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun juda muhim ilmiy manba bo‘lishi shubhasizdir.

Milliy qonunchiligimizdagi ayrim tushunchaviy va terminologik nomuvofiqliklar institutning samarali ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Xususan, “aybga iqrorlik” atamasining o‘rniga “ayblovga rozilik” atamasini ishlatish maqsadga muvofiqligi ilmiy doiralarda keng muhokama qilinadi. Chunki aybga iqror bo‘lish shaxs uchun jinoiy oqibatlardan tashqari fuqaroviy va boshqa oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. “Ayblovga rozilik” esa faqatgina protsessual kelishuv doirasidagi murosani va engillikni anglatadi. Bunday o‘zgartirish kelishuv tuzmoqchi bo‘lgan shaxslarning ichki qaroriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Aybga iqrorlik kelishuvini o‘ta og‘ir jinoyatlarga nisbatan qo‘llash masalasi ham chuqur va tanqidiy tahlilni talab qiladi. Amalda bunday murakkab jinoyatlar kelishuv doirasidan tashqarida qoldirilgan, lekin uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda bunga ehtiyoj seziladi. Prokurorning tashabbusi bilan, faqatgina istisno tariqasida, uyushgan guruh ishtirokidagi o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha kelishuv tuzishga ruxsat berish taklif etilmoqda. Bu jinoiy sheriklarni fosh etishda va yirik jinoyatlarni ochishda beqiyos muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday innovatsion yondashuv davlatning xavfsizligini ta’minlash borasidagi imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Amaliyotda aybga iqrorlik kelishuvi kutilgan darajada keng tarqalmayotganining o‘ziga xos qator sabablari bor. Taraflarning huquqiy savodsizligi va bu institut haqida etarli ma’lumotga ega emasligi asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, advokatlarning bu dolzarb masalaga etarlicha e’tibor qaratmasligi ham jarayonni sun’iy sekinlashtirmoqda. Ayrim tergov organlari xodimlarida yangi institutga nisbatan ishonchsizlik yoki uni qo‘llashdan cho‘chish holatlari kuzatiladi. Bu muammolarni tezkor

hal qilish uchun huquqiy targ'ibotni kuchaytirish va xodimlarni o'qitish zarur.

Umaman olganda, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv instituti jinoyat-protsessual huquqimizdagi eng ilg'or va istiqbolli yangiliklardan biri bo'ldi. U jinoyat protsessini ixchamlashtirish, davlat xarajatlarini tejash va sudlarni ortiqcha ish yuklamasidan xalos qilish imkonini bermoqda. Shunga qaramay, mazkur institutning nazariy va huquqiy bazasi hali ham takomillashtirishga juda muhtojdir. Institutni rivojlantirish jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish bo'yicha quyidagi aniq takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 586-moddalari qatoriga kelishuvni sud muhokamasiga qadar tuzish imkoniyatini beruvchi qo'shimchalar kiritilishi kerak. Ikkinchidan, kelishuvni imzolovchilar qatoriga prokurordan tashqari bevosita tergov olib borayotgan surishtiruvchi yoki tergovchini ham kiritish taklif etiladi. Uchinchidan, uyushgan jinoyatchilikni fosh etish maqsadida prokurorga o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha ham kelishuv taklif qilish vakolati berilishi lozim. Ushbu takliflar normativ-huquqiy bazani yanada mustahkamlashga va rivojlantirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *Toshev O.S. Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv institutining o'ziga xos xususiyatlari: yurid. fan. falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDYuU, 2023. – 150 b.*
2. *Перекрестов В.Н. Уголовно-процессуальное значение признания вины в России: автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Волгоград, 2013.*
3. *Алахунов Н.А. Права потерпевшего при заключении процессуального соглашения о признании вины // Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. – 2019. – № 7. – С. 110-114.*

**Q.I.Qudratov,**

*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti*

**TERGOV SIRI, ADVOKAT SIRI, JURNALIST SIRI VA  
YOPIQ SUD MAJLISI MA'LUMOTLARI MUTANOSIBLIGI:  
HUQUQIY ASOSLAR VA PROTSESSUAL CHEGARALAR**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida jinoyat protsessida tergov siri, advokat siri, jurnalist siri hamda yopiq sud majlisi ma'lumotlari maxfiyligi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur maxfiylik institutlarining konstitutsiyaviy asoslari, ularning odil sudlovni ta'minlashdagi o'rni, shuningdek 2025-yil 26-sentabrdagi O'RQ-1084-sonli Qonun bilan kiritilgan yopiq sud majlisi ma'lumotlarini oshkor qilmaslik bo'yicha jinoiy javobgarlik instituti tahlil etiladi. Tadqiqot tergov ma'lumotlari va sud majlisi muhokamasi maxfiyligini ta'minlashda manfaatlar muvozanatini saqlash hamda qonunchilikni takomillashtirish zaruriyatini asoslaydi.*

**Kalit so'zlar:** *Advokat siri, jurnalist siri, tergov siri, yopiq sud majlisi, axborot manbasi, odil sudlov, manfaatlar muvozanati, protsessual majburiyat, shaxsiy hayot daxlsizligi, jinoyat protsessi.*

**Kirish**

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar sharoitida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning shaxsiy hayoti daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatini ishonchli ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jinoyat sud ishlarini yuritishda odil sudlov samaradorligini oshirish bevosita surishtiruv, dastlabki tergov hamda sud muhokamasi ma'lumotlarining maxfiyligini saqlash bilan uzviy bog'liqdir.

Mavzuning dolzarbligi, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan ikki fundamental huquqiy rejim o'rtasidagi dialektik qarama-qarshilikni to'g'ri hal etish zaruriyati bilan belgilanadi. Konstitutsiyaning 31-moddasida har bir insonning shaxsiy hayoti daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega

bo'lish huquqi qat'iy kafolatlangan<sup>1</sup>. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 33-moddasi har kimga istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini taqdim etadi. Biroq, ushbu axborot olish erkinligi mutloq xarakterga ega emas; u davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir, xususan, tergov siri va sud majlisi sirining oshkor etilishining oldini olish maqsadida qonun bilan cheklanishi mumkin.

Ushbu huquqiy dialektika “oshkoralik” (sudning ochiqligi va jamoatchilik nazorati) hamda “maxfiylik” (isbotlash faoliyati samaradorligi va shaxs daxlsizligi) prinsiplari o'rtasidagi nozik muvozanatni yuzaga keltiradi. Tergov siri va yopiq sud majlisi siri institutlari ana shu muvozanatni ta'minlovchi instrumental vositalar bo'lib, ular nafaqat davlat manfaatlarini, balki protsess ishtirokchilarining daxlsizlik huquqlarini ham himoya qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligini belgilovchi muhim omillardan biri — qonunchilikdagi so'nggi islohotlardir. 2025-yil 26-sentabrdagi O'RQ-1084-sonli Qonun bilan milliy qonunchilikka yopiq sud majlisi muhokamasi ma'lumotlari va tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik kiritildi<sup>2</sup>. Bu o'zgarish tergov siri himoyasini sud muhokamasi bosqichigacha kengaytirish va ushbu bosqichda ham shaxs daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish zaruriyatini ilmiy asosda tadqiq etishni taqozo etmoqda. Axborot asrida tergov ma'lumotlarining texnik va protsessual sizib chiqishi xavfi ortib borayotgan bir sharoitda, axborot olish huquqi bilan odil sudlov manfaatlari o'rtasidagi yuridik chegaralarni aniqlashtirish hamda maxfiylik institutlarini takomillashtirish mazkur tadqiqotning dolzarbligini tashkil etadi.

Jinoyat protsessida advokatning (himoyachining) huquqiy maqomi ikki yoqlama maxfiylik rejimi bilan xarakterlanadi: bir tomondan, u advokatlik siri daxlsizligini saqlashi shart bo'lsa, ikkinchi tomondan, unga tergov siri daxlsizligini ta'minlash bo'yicha protsessual majburiyatlar yuklatiladi. O'zbekiston Respublikasi

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrirda). 31-modda.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-1084-sonli Qonuni.

Konstitutsiyasining 142-moddasida advokatning kasbiy vazifalarini amalga oshirishiga aralashish taqiqlanishi va uning faoliyati davlat himoyasida bo'lishi belgilangan bo'lib, bu advokat siri uchun konstitutsiyaviy poydevor hisoblanadi.

Advokat siri va tergov siri o'rtasidagi yuridik chegarani tahlil qilishda ikki muhim protsessual normani qiyoslash lozim. JPKning 53-moddasi himoyachiga o'z vazifasini bajarishi munosabati bilan bilgan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik huquqini beradi. Bu norma ko'proq himoya ostidagi shaxs tomonidan advokatga ishonib topshirilgan ma'lumotlarni ("professional sir") uchinchi shaxslardan himoya qiladi. Shu bilan birga, JPKning 353-moddasi tergovchini jinoyat ishidagi ma'lumotlarni oshkor qilinmaydigan deb e'tirof etishga va protsess ishtirokchilaridan, shu jumladan advokatdan ham ularni ruxsatsiz oshkor qilmaslik to'g'risida tilxat olishga vakolatli etib belgilaydi<sup>3</sup>.

Ushbu normalar o'rtasidagi yuridik chegara shundan iboratki, advokatning tergov materiallarini oshkor qilmaslik majburiyati uning o'z himoyasi ostidagi shaxs (gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi) bilan bo'ladigan muloqotiga taalluqli emas. Ya'ni, advokat tergovdan olingan materiallarni o'z mijozining himoyasini tashkil etish, uning aybsizligini isbotlash yoki javobgarligini engillashtirish uchun uning o'zi bilan bemalol muhokama qilishi mumkin. Biroq, ushbu chegara tergov materiallarini ommaviy axborot vositalariga yoki protsessga aloqasi bo'lmagan uchinchi shaxslarga ruxsatsiz tarqatishga kelganda qat'iy yuridik to'siqqa aylanadi.

Jurnalistik surishtiruvda jurnalist siri (manba maxfiyligi) instituti ham odil sudlov manfaatlari bilan to'qnashganda o'ziga xos huquqiy kolliziyani vujudga keltiradi. "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga binoan, fuqarolar tomonidan o'z nomini oshkor etmaslik sharti bilan berilgan maxfiy xabarlar jurnalistika sohasining siri hisoblanadi va jurnalist bu ma'lumotlarni manbaning roziligisiz oshkor etishga haqli emas<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 53, 353-moddalar.

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi 402-l-sonli "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 7-modda.

Biroq, ushbu konstitutsiyaviy axborot olish huquqi jinoyat protsessi doirasida ziddiyatli holatlarga duch keladi. Xususan, guvohlik majburiyati bilan bog‘liq holat: Jinoyat-protsessual kodeksining 118-moddasiga ko‘ra, guvoh surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan aniqlanayotgan holatlar “kasb sirini” aks ettirishini bahona qilib, ko‘rsatuv berishdan bosh tortishga haqli emas. Natijada, jurnalist manbalarga bergan maxfiylik va‘dasiga qaramay, agar u jinoyat tafsilotlari bo‘yicha guvoh sifatida jalb etilsa, protsessual qonunchilik uning jurnalistik sirini amalda inkor qilib, manbani ochiqlashga majbur etadi.

Ushbu huquqiy paradoks shuni ko‘rsatadiki, qonun chiqaruvchi jinoyatni fosh etish va haqiqatni aniqlash manfaatini jurnalistning manbani himoya qilish majburiyatidan ustunroq qo‘yadi. Mirsultanova M. va Jaxonova M. ta’kidlashicha, jurnalist va axborot manbasi xavfsizligini ta’minlashda mavjud protsessual mexanizmlar etarli emas va bu sohada qonunchilikni takomillashtirish zaruriyati mavjud<sup>5</sup>.

2025-yil 26-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1084-sonli Qonuni milliy huquqiy tizimda muhim islohotni amalga oshirdi. Mazkur Qonun barcha protsessual kodekslarga — Jinoyat-protsessual, Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual hamda Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodekslarga — yopiq sud majlisi muhokamasi ma’lumotlari va tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilmaslik majburiyati va u uchun jinoyiy javobgarlikni joriy etdi<sup>6</sup>.

Birinchi navbatda, Qonunning 1-moddasi bilan Jinoyat kodeksining 239-moddasi yangi tahrirda bayon etildi. Modda nomi “Surishtiruv, dastlabki tergov yoki yopiq sud majlisi ma’lumotlarini oshkor qilish” deb yangilandi. Avvalgi tahrir faqat surishtiruv va dastlabki tergov ma’lumotlarini qamrab olgan bo‘lsa, yangi tahrir

---

<sup>5</sup>Mirsultanova M., Jaxonova M. Jurnalistik surishtiruv o‘tkazishda jurnalist va axborot manbasi xavfsizligini ta’minlash muammolari. — Toshkent, 2023.

<sup>6</sup>O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-sentabrdagi O‘RQ-1084-sonli Qonuni. 1–5-moddalar.

maxfiylik rejimini sud bosqichigacha kengaytirdi. Endi yopiq sud majlisi ma'lumotlari va tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilish ham mustaqil jinoyat tarkibini tashkil etadi.

Ikkinchidan, Qonunning 2-moddasi bilan JPKga yangi 402<sup>1</sup>-modda kiritildi. Mazkur moddaga ko'ra, ishni yopiq sud majlisida ko'rish to'g'risida ajrim chiqarilganda, yopiq sud majlisida ishtirok etayotgan shaxslar sud muhokamasi ma'lumotlari va tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilmaslik to'g'risida ogohlantirilib, ulardan tilxat olinadi. Tilxatda Jinoyat kodeksining 239-moddasiga muvofiq javobgarlik haqida ogohlantirish ham aks ettirilishi shart.

Uchinchidan, JPKning 19, 68, 70, 72, 183, 184, 271 va 423-moddalariga tizimli o'zgartirishlar kiritildi. Bu o'zgartirishlar guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va boshqa protsess ishtirokchilarining yopiq sud majlisi ma'lumotlarini oshkor qilmaslik majburiyatini mustahkamlashga qaratilgan. Xususan, JPKning 423-moddasi yangi to'rtinchi qism bilan to'ldirilib, sudga ushbu Kodeksning 19-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda ishni yopiq sud majlisida ko'rish to'g'risida ajrim chiqarish vakolati aniq belgilab qo'yildi.

Mazkur islohotni huquqiy doktrinal nuqtai nazardan tahlil qilganda quyidagi muhim natijalar yuzaga keladi. Birinchidan, maxfiylik rejimining vaqt va bosqichlar bo'yicha kengayishi sodir bo'ldi: ilgari tergov siri faqat surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida amal qilgan bo'lsa, endi sud muhokamasi bosqichiga ham qisman tatbiq etiladi. Ikkinchidan, subyektiv doiraning kengayishi kuzatiladi — sudning ruxsatisiz oshkor qilmaslik majburiyati endi nafaqat tergov ishtirokchilariga, balki yopiq sud majlisida ishtirok etayotgan barcha shaxslarga (himoyachi, jabrlanuvchi, vakil, ekspert va boshqalarga) tatbiq etiladi. Uchinchidan, sud o'zining huquqiy roli vositasida maxfiylikni ta'minlovchi protsessual subyektga aylanadi — tilxat olish vakolati orqali.

Mazkur islohot tergov siri instituti bilan advokat siri va jurnalist siri o'rtasidagi yuridik chegaralarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xususan, advokat (himoyachi) yopiq sud majlisida ishtirok etganda, u uchun ikki yoqlama maxfiylik rejimi yuzaga keladi: bir tomondan o'z mijozining advokat siri, ikkinchi tomondan

sud tomonidan belgilangan yopiq sud majlisi maxfiyligi. Jurnalistik faoliyat nuqtai nazaridan ham yangi cheklovlar yuzaga keldi: yopiq sud majlisida ishtirok etishga ruxsat berilgan jurnalist endi tilxat asosida muhokama tafsilotlarini oshkor qilmaslik majburiyatini oladi. Bu yangilik jamoatchilik nazorati prinsipi bilan adolatli sudlovni ta'minlash manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro miqyosda tergov ma'lumotlari, sud majlisi sirlari va axborot manbalari maxfiyligini ta'minlashda turli yondashuvlar mavjud. Germaniya tajribasi O'zbekistonning yangi qabul qilingan modeliga eng yaqin yondashuvlardan biri hisoblanadi. Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining (StPO) 174-moddasiga ko'ra, sud davlat xavfsizligi, jamoat tartibi yoki shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish maqsadlarida sud muhokamasini yopiq tarzda olib borish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Mazkur muhokamadan olingan ma'lumotlarni qonunga zid ravishda oshkor qilish Germaniya Jinoyat kodeksining (StGB) 353d-paragrafiga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Angliya va Uels tizimida jurnalist manbasi sirini ochish masalasi bevosita politsiya tomonidan emas, balki qat'iy sud nazorati orqali hal etiladi. Jurnalistika sohasining siri Politsiya va jinoiy dalillar to'g'risidagi qonun (PACE 1984) bilan himoyalangan bo'lib, zarurat tug'ilganda politsiya manbani ochiqlovchilik lozimligini isbotlash uchun sudga ariza kiritishi shart. Sud har bir holatda "odil sudlov manfaatlarini manba maxfiyligidan ustunmi?"-degan savolga mutanosiblik prinsipi asosida javob beradi, bu esa jurnalistlarga kuchli huquqiy himoya taqdim etadi.

Avstraliya tajribasi esa birmuncha qat'iy yondashuv bilan ajralib turadi: milliy xavfsizlik va tezkor tadbirlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida jurnalistlardan manbani ochiqlovchilik talab qilinishi mumkin va rad javobi olingan taqdirda jurnalistlarga nisbatan og'ir jazolar qo'llanilishi mumkin<sup>7</sup>. Qo'shni Qozog'iston tajribasiga kelsak, tergov ma'lumotlarini oshkor qilish jinoiyati bilan

---

<sup>7</sup>Mirsultanova M., Jaxonova M. — Asar bo'yicha xorijiy tajriba sharhi.

bog‘liq javobgarlikka tortish kam uchragani holda, aholining ma‘lum bir qatlami tomonidan ushbu modda jurnalist va boshqa kasb vakillariga nisbatan bosim vositasi sifatida e‘tirozlarga sabab bo‘lib kelmoqda.

Mo‘tadil echim sifatida O‘zbekiston sharoitida ushbu turli tajribalardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiqdir. Germaniyaning yopiq sud majlisi instituti va StGB §353d normasi modeli O‘RQ-1084-sonli Qonun bilan kiritilgan yangi tartibga o‘xshash bo‘lib, kelgusida uning amaliy qo‘llanilishini takomillashtirishda foydali manba bo‘la oladi. Angliya tajribasi esa jurnalist sirini ochish masalasini sud nazorati orqali hal etish nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir.

Mazkur tadqiqot natijasida jinoyat protsessida tergov siri, advokat siri, jurnalist siri va yopiq sud majlisi ma‘lumotlari maxfiylik institutlari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar tahlili bo‘yicha quyidagi xulosalar va takliflar shakllantirildi.

O‘RQ-1084-sonli Qonun bilan kiritilgan yopiq sud majlisi maxfiylik instituti tergov siri institutining yangi taraqqiyot bosqichini belgilab beradi. Mazkur islohot natijasida maxfiylik rejimi subyektiv (ishtirokchilar doirasi) hamda obyektiv (vaqt va bosqichlar) jihatdan kengaydi. Bu O‘zbekiston jinoyat-protsessual huquq doktrinasida “maxfiylik rejimlari iyerarxiyasi” nazariyasini yangidan ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Sudlar tomonidan O‘RQ-1084-sonli Qonun normalarini bir xil amaliyotda qo‘llashni ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushunturish berishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, “sudning ruxsati” tushunchasi mazmuni, tilxat olish tartibi, yopiq majlis ma‘lumotlarini protsess ishtirokchilari tomonidan o‘z huquqlarini himoya qilish maqsadida kassatsiya yoki nazorat tartibida foydalanish chegaralari aniqlanishi lozim.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, quyidagilar taklif etiladi: birinchidan, JPKga “zarurat holatlari” va “sudlov nazorati tartibi” normalarini kodekslashtirish lozim, ya‘ni jurnalist va advokatlarga nisbatan tergov yoki sud majlisi ma‘lumotlarini oshkor qilmaslik majburiyatini buzish jinoiy javobgarlikdan ozod qiluvchi istisno

hollar (jamoat manfaatining ustunligi, korrupsion holatlarni oshkor qilish va h.k.) aniq belgilanishi kerak. Ikkinchidan, JPKning 53-moddasiga himoyachining tergov va yopiq sud majlisi ma'lumotlaridan o'z mijozining manfaatlarini himoya qilish maqsadida foydalanish chegaralarini aniq belgilab qo'yuvchi normani kiritish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga jurnalistning yopiq sud majlisida ishtirok etishi tartibi va akkreditatsiya talablarini aniqlashtiruvchi norma kiritilishi zarur. To'rtinchidan, JPKning yangi 402<sup>1</sup>-moddasi bo'yicha tilxat shaklini va uning saqlanish tartibini Oliy sud darajasidagi me'yoriy hujjat bilan tasdiqlash maqsadga muvofiq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Mirsultanova M., Jaxonova M. Jurnalistik surishtiruv o'tkazishda jurnalist va axborot manbasi xavfsizligini ta'minlash muammolari // Yuridik fanlar axborotnomasi. — Toshkent, 2023.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrirda) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — Toshkent, 2023.*

3. *O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2013-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi milliy bazasi.*

4. *O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan 402-I-sonli "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi milliy bazasi.*

5. *O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1084-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son.*

6. *Police and Criminal Evidence Act 1984 (PACE) // The National Archives, United Kingdom. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1984/60>.*

7. *Strafgesetzbuch (StGB), §353d — Verbotene Mitteilungen über Gerichtsverhandlungen // Bundesministerium der Justiz, Deutschland.*

8. *Strafprozessordnung (StPO), §174 — Ausschluss der Öffentlichkeit // Bundesministerium der Justiz, Deutschland.*

A.E.Esanov,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi, y.f.f.d(PhD), dotsenti; Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

## **SUDGA QADAR ISH YURITISH BOSQICHIDA TERGOV SUDYASI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan islohotlardan keyin tergov sudyasi instituti faoliyatida saqlanib qolgan protsessual muammolar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda tergov sudyasiga jinoyat ishini qo'zg'atish qarorlari ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatini berish zarurati, qamoqqa olish va tintuv iltimosnomalarida prokurorning majburiy roziligi va gumonning asoslilikini baholash standarti dogmatik-huquqiy, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy hamda anonimlashtirilgan holat tahlili (case study) muayyan uslublar asosida o'tkazilgan, uning natijalari Samarqand viloyati amaliyotidan anonimlashtirilgan ikki keys tahlili hamda Damaška (1986)ning "davlat hokimiyatining ikki yuzi" konsepsiyasi, Thaman (2008) va Slobogin (2013) asarlarida berilgan qiyosiy-huquqiy xulosalar bilan asoslangan.*

**Kalit so'zlar:** *tergov sudyasi, JPK 31<sup>1</sup>-moddasi, O'RQ-1022, BMT Pakti 9-moddasi, qamoqqa olish, muqobil ehtiyot choralari, tintuv o'tkazish iltimosnomasi, dalillar maqbulligi, asosli gumon standarti, "zaharli daraxt mevasi" doktrinasi, prokurorning protsessual roziligi, oraliq filtr muammosi, og'ir modda sindromi.*

### **Kirish**

Jinoyat-protsessual qonunchiligimizda tergov sudyasi institutining joriy etilishi odil sudlov tizimining institutsional transformatsiyasidagi eng muhim qadamlardan biri sifatida baholanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son Farmoni [2] bilan sud-tergov faoliyatida shaxs huquqlari kafolatlarini kuchaytirish strategik yo'nalish sifatida belgilangan bo'lsa, mazkur institutning qonunchilikdagi to'liq

konstruksiyasi 2025-yil 28-yanvardagi O‘RQ-1022-sonli Qonun bilan shakllantirildi. Ushbu Qonun asosida Jinoyat-protsessual kodeksining (JPK) 31<sup>1</sup>-moddasi kiritilib, tergov sudyasiga shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshirish vakolatlari yuklatildi [1]. 2025-yil 15-avgustdagi O‘RQ-1081-sonli Qonun tahririda esa 31<sup>1</sup>-moddaning ikkinchi qismi yangidan bayon etilib, tergov sudyasining vakolatlar ro‘yxati kengaytirildi.

Shu bilan birga, O‘RQ-1022 bilan JPKga tintuv o‘tkazish bo‘yicha yangi tartibni belgilovchi 158<sup>1</sup>, 158<sup>2</sup> va 158<sup>3</sup>-moddalar kiritildi. Ushbu normalar tintuv o‘tkazish iltimosnomasini tergov sudyasi tomonidan ko‘rib chiqish tartibini, shoshilinch hollarda o‘tkazilgan tintuvni keyinchalik sud nazoratidan o‘tkazish mexanizmini hamda ushbu qarorlar ustidan apellatsiya tartibida shikoyat berish tartibini mustahkamladi. Garchi mazkur islohotlar institutsional jihatdan prinsipial qadam bo‘lgan bo‘lsa-da, amaliyot va huquqiy tahlil tergov sudyasi institutining to‘liq va samarali ishlashini ta‘minlashda muayyan segmentlarda tizimli muammolar saqlanib qolganligini ko‘rsatmoqda.

Ushbu tahlil xalqaro huquqiy standartlar nuqtai nazaridan ham o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 28-sentyabrda BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi 1966-yilgi Xalqaro paktiga (ICCPR) a‘zo bo‘lgan bo‘lib [15], mazkur hujjatning 9-moddasi shaxs ozodligi va daxlsizligi huquqini, shuningdek o‘zboshimchalik bilan ushlab turishdan himoya kafolatlarini belgilaydi. Ushbu norma O‘zbekiston Respublikasi uchun xalqaro-huquqiy majburiy xarakterga ega. Shu bilan birga, maqolada qiyosiy standart sifatida Yevropa Inson huquqlari Konvensiyasining (EIHK) 5-moddasi ham tahlilga jalb etiladi. O‘zbekiston YeIHKning ishtirokchisi bo‘lmasa-da, mazkur hujjat va uning asosida Yevropa Inson huquqlari Sudi (EIHS) shakllantirgan sud amaliyoti «asosli gumon» (reasonable suspicion) standartiga oid eng rivojlangan huquqiy doktrinani ifodalaydi va o‘zining qiyosiy-huquqiy ahamiyatiga ega [16, 17].

Qiyosiy-huquqiy tajriba tergov sudyasining funksional mohiyati ikki yoqlama ekanligini ko'rsatadi: bir tomondan, u inson huquqlarini himoya qilish kafolatidir; ikkinchi tomondan, sud muhokamasi bosqichida sudyaning diskresion vakolatlari sun'iy ravishda kengayib ketishining oldini oluvchi, dalillarni protsessual "filtrlovchi" mexanizm sifatida namoyon bo'lishi lozim. Ploscowe (1935) Yevropa kriminal protsessida tergov magistrati rolining besh asr davomida saqlanib kelgan kontinental va an'anaviy xususiyatini tahlil qilgan [9]. Damaška (1986) o'zining klassik "Adolatning ikki yuzi va davlat hokimiyati" (The Faces of Justice and State Authority) asarida davlat hokimiyatining ierarxik va koordinatsion modellari hamda "faol" va "reaktiv" davlat tushunchalari asosida turli huquq tizimlarida protsessual qaror qabul qilish modellari o'rtasidagi farqni konseptual tahlil qilgan [10]. Thaman (2008) post-sovet hududi jinoyat protsessida tortishuvlik tamoyilining shakllanishi va inkvizitsion merosni tahlil qilib, ushbu tendensiyaning turli mamlakatlarda qaysi shaklda qabul qilinganligini ko'rsatib bergan [11]. Smirnov (2018) Rossiya huquqiy doktrinasi doirasida jinoyat protsessida tortishuvlik tamoyilining shakllanish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratgan [4]. Shu bilan birga, milliy doktrinal adabiyotlarimiz 2025 yilgi islohotlardan keyingi huquqiy vaziyatni tizimli tahlil qilishda ayni paytda katta bo'shliqqa ega.

Mazkur maqolaning tahlili quyidagi uchta tadqiqot savoli doirasida amalga oshiriladi:

RQ1: JPKning 338-moddasiga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni rad etish haqidagi qarorlar ustidan shikoyatlarni prokuror tomonidan ko'rib chiqish tartibi oshkoralik va tortishuvlik tamoyillariga qanchalik mos keladi hamda mazkur vakolatning tergov sudyasiga o'tkazilishi qanday huquqiy-institutsional asoslarga ega?

RQ2: JPKning 158<sup>1</sup>-moddasi to'rtinchi qismi va 243-moddasi ikkinchi qismida saqlanib turgan prokurorning tintuv hamda qamoqqa olish iltimosnomalariga majburiy rozilik berish institutining tortishuvlik tamoyili va tergov sudyasining protsessual mustaqilligi nuqtai nazaridan ratsional asosi mavjudmi?

RQ3: Tergov sudyasi tomonidan gumonning asoslilikini baholashda muayyan standartning — BMT Paktining 9-moddasida va qiyosiy standart sifatida YeIHK 5-moddasida belgilangan “asosli gumon” (reasonable suspicion) standartiga mos keluvchi milliy normativiy ifodaning — JPKda mustahkamlanmaganligi “og‘ir modda sindromi” kabi nomaqbul amaliyotni yuzaga keltirmoqdami va bu holatning qanday echimlari mavjud?

Mazkur uch savolga javob berish orqali maqola nafaqat nazariy bo‘shliqni to‘ldirishni, balki amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq o‘lchamli takliflar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Tergov sudyasi (yuridik-tarixiy shaklda — juge d’instruction, examining magistrate, investigating judge) instituti yuridik adabiyotlarda uzoq muddatli tahliliy tarixga ega. Ushbu institutning nazariy va amaliy xususiyatlari bo‘yicha adabiyotlarni to‘rt asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin.

#### 2.1. Tergov magistrati institutining tarixiy-klassik tahlili.

Ploscowe (1935) o‘zining klassik ishida tergov magistrati institutining besh asrlik kontinental tarixini tahlil qilib, uning mohiyati ingliz-amerika adversar tizimidan farqli o‘laroq inkvizitsion model doirasida shakllanganligini asoslab bergan [9]. Muallif ushbu institutning XIX–XX asrlar Fransiyada “eng qudratli mansabdor shaxs” sifatida namoyon bo‘lganligini ta’kidlab, uning vakolatlari kengligi ayni vaqtda shaxs huquqlari uchun xavf ham tug‘dirishini qayd etgan. Ayni shu ishning cheklanganligi shundan iboratki, u XX asr birinchi yarmiga oid bo‘lganligi sababli, keyingi Yevropa islohotlari (xususan, Fransiyada 2000 yilgi Guigou Qonuni va Italiyada 1989 yilgi Jinoyat-protsessual kodeksining qabul qilinishi) natijasida yuzaga kelgan tergov magistrati vakolatlarning cheklanish jarayonini qamrab ololmagan.

#### 2.2. Qiyosiy-huquqiy yondashuv va Damaška paradigmasi.

Damaška (1986) o‘zining “The Faces of Justice and State Authority” asarida davlat hokimiyatining ikki ideal-tipli modelini — ierarxik (“hierarchical”) va koordinatsion (“coordinate”) — ajratib ko‘rsatib, ularning jinoyat protsessiga ta’sirini tahlil qilgan [10].

Ierarxik model davlat hokimiyatining bir necha bosqichli tizimini, har bir bosqichda qarorni tasdiqlovchi yuqori turuvchi organning mavjudligini nazarda tutadi va bu inkvizitsion huquq tizimlariga xosdir. Koordinatsion model esa teng mansabdor shaxslar o'rtasidagi gorizontaal munosabatlarni anglatib, adversar (tortishuvlik) tizimlarga mos keladi. Bundan tashqari, Damaška "faol" va "reaktiv" davlat tushunchalarini kiritib, birinchisini davlatning jamiyat siyosatini amalga oshirishdagi faol o'rni bilan, ikkinchisini esa davlat funksiyalarining asosan taraflarning murojaatiga javob tarzida bajarilishi bilan bog'laydi. Bu konseptual asos O'zbekiston jinoyat protsessi islohotlarini baholash uchun tahliliy vosita sifatida xizmat qiladi: prokurorning tintuv va qamoqqa olish iltimosnomalaridagi majburiy roziligi — ierarxik model talabi bo'lib, bu adversar (koordinatsion) model talablari bilan ziddiyatga kirishi mumkin.

Thaman (2008) *Comparative Criminal Procedure: A Casebook Approach* nomli asarida tergov bosqichidagi modellarni qiyosiy tahlil qilib, tergov magistrati vakolatlarining turli davlatlarda transformatsiya bo'lish yo'nalishlarini bayon etgan [12]. Muallifning asosiy xulosasi shundan iboratki, zamonaviy tendensiya (Germaniya, Italiya, Ispaniya, Turkiya kabi ko'plab mamlakatlarda) tergov magistrati institutini yo butunlay tugatish, yo uning vakolatlarini jiddiy ravishda cheklash yo'nalishiga ketgan. Buning o'rniga ushlab turish va tintuv kabi cheklovchi choralarga sanksiya beruvchi maxsus sudyalalar (Italiyadagi giudice per le indagini preliminari yoki Fransiyadagi juge des libertés et de la détention) institutlari joriy etilgan.

Thaman (2011) o'zining alohida ishida "zaharli daraxt mevasi" (fruits of the poisonous tree) doktrinasi turli davlatlarda qanday va qanchalik qattiq qo'llanilayotganligini qiyosiy tahlil qilgan [13]. Muallifning muhim xulosasi shuki, dalillarni majburiy ravishda chetlashtirish qoidasi (categorical exclusionary rule) mavjud bo'lgan mamlakatlarda ham, amaliy holatda sudyalalar haqiqatni aniqlashga bo'lgan intilish sababli noqonuniy yo'l bilan olingan derivatsion dalillarni ko'pincha maqbul deb qabul qilmoqdalar. Ushbu tahlil O'zbekiston kontekstida ham tegishli — JPKning 95<sup>1</sup>-moddasida

dalillarning maqbul emasligi tamoyili mustahkamlangan bo'lsa-da, uning tintuv jarayonida aniqlangan qo'shimcha jinoyat alomatlariga nisbatan qanday qo'llanilishi masalasi aniq yoritilmagan.

### 2.3. Post-sovet hududi jinoyat protsessiga oid ishlar.

Thaman (2008) "Adolatning ikki yuzi post-sovet huquqiy hududida" ("The Two Faces of Justice in the Post-Soviet Legal Sphere") deb nomlangan alohida ishida post-sovet hududidagi jinoyat protsessi islohotlarida adversar protseduraning shakllanishi, sud hakamlari (jury trial), aybiga iqrор bo'lish bitimi (plea-bargaining) va inkvizitsion merosni tahlil qilgan [11]. Ushbu muallif post-sovet hududida adversar protsedurani joriy etishga bo'lgan urinishlar inkvizitsion an'analarning ustuvorligi sababli to'liq amalga oshmaganligini, prokuratura tizimi saqlanib qolganligini hamda sud mahkamasining ayblov hujjati orqali mustahkamlangan pozitsiyadan mustaqil pozitsiyaga o'tishi qiyinligini ta'kidlagan. Bu tahlil O'zbekiston huquqiy vaziyatini baholashda muhim namunaviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Smirnov (2018) Rossiya huquqiy maktabi doirasida jinoyat protsessida tortishuvlik tamoyilining shakllanish yo'nalishlarini tahlil qilgan [4]. Muallif adversar va inkvizitsion modellar o'rtasidagi konvergensiya sharoitida prokurorning o'rni va vakolatlari masalasini alohida ajratib ko'rsatgan. Rossiya Federatsiyasining 2002-yilgi JPKsida prokuror-tergov tizimi o'zgarishi tahlil qilingan bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasining 2025 yilgi islohotlari bosqichiga oid qiyos mavjud emas. Ayni vaqtda, O'zbekiston milliy doktrinal adabiyotlarida (xususan, [3, 5, 6, 8] qayd etilgandek) tergov sudyasi institutiga oid teoretik asoslar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, 2025-yilgi islohotlardan keyingi qolgan protsessual muammolarni sistematik tahlil qiluvchi ishlar deyarli yo'q.

### 2.4. Dalillar maqbulligi doktrinasiga oid zamonaviy ishlar.

Slobogin (2013) o'zining qiyosiy tadqiqotida AQSh Oliy Sudining so'nggi zamon qarorlari (Hudson v. Michigan, Herring v. United States, Davis v. United States) fonida "exclusionary rule" (dalillarni chetlashtirish qoidasi)ning holati va uning boshqa davlatlardagi analoglarini tahlil qilgan [14]. Uning asosiy xulosasi

shundan iboratki, dalillarni chetlashtirishning uchta oqlab beruvchi asosi mavjud: (a) politsiya noqonuniy xatti-harakatidan tiydiruvchi funktsiya (deterrence rationale); (b) huquq tizimining yaxlitligini saqlash funktsiyasi (systemic integrity rationale); (v) konstitutsiyaviy kafolatlarni tasdiqlovchi funktsiya (constitutional vindication rationale). Bu tahlil O‘zbekiston JPKsining 95<sup>1</sup>-moddasini baholashda muhim nazariy vosita bo‘lib xizmat qiladi: milliy huquqiy tizim qaysi oqlab beruvchi asosga o‘tishi lozim degan savol dolzarblashadi.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, mavjud ilmiy adabiyotlar: (a) tergov magistrati institutining tarixiy va qiyosiy-huquqiy jihatlarini yaxshi yoritgan; (b) Yevropa davlatlari islohotlari jarayonini tahlil qilgan; (v) huquqiy doktrinalar (masalan, “zaharli daraxt mevasi” va “exclusionary rule”) qiyosiy tahlilini amalga oshirgan; (g) post-sovet hududi kontekstida adversar tendensiyaning sezilishi tahlil etilgan. Biroq, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil yanvar–avgust davri islohotlaridan keyingi tergov sudyasi instituti amaliyotini, ushbu islohotlarning etishmagan segmentlarini, shuningdek “og‘ir modda sindromi” kabi mahalliy-amaliy fenomenlarni Damaška (1986) paradigmasi doirasida hamda xalqaro huquqiy standartlar (BMT Pakti 9-moddasi) asosida tizimli tahlil qiluvchi ishlar mavjud emas. Aynan mazkur maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga yo‘naltirilgan.

### 3. Metodologiya.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston Respublikasining tergov sudyasi instituti doirasida saqlanib qolgan protsessual muammolarni tizimli tahlil qilish hamda JPKni takomillashtirishga yo‘naltirilgan takliflarni ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi to‘rt uslub tanlangan va har birining qo‘llanilish maqsadi quyida izohlanadi.

#### 3.1. Dogmatik-huquqiy uslub.

Ushbu uslub JPKning 31<sup>1</sup>, 95, 95<sup>1</sup>, 158<sup>1</sup>, 158<sup>2</sup>, 158<sup>3</sup>, 161, 236, 237, 238, 240, 243, 331 va 338-moddalarini, shuningdek JKning 273 va 276-moddalarini matn nuqtai nazaridan tahlil qilish maqsadida qo‘llanilgan. Alohida e‘tibor moddalar o‘rtasidagi huquqiy bog‘liqlik va ichki ziddiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Bu uslub tadqiqot

savollarining har biriga qonuniy-normativiy javob ishlab chiqishga imkon beradi.

### 3.2. Tarixiy-huquqiy uslub.

Ushbu uslub 2020 yil PF-6041-son Farmonidan tortib 2025 yilgi O‘RQ-1022 va O‘RQ-1081 qonunlarigacha bo‘lgan qonunchilik evolyusiyasini o‘rganish maqsadida qo‘llanilgan. Bu uslub orqali tergov sudyasi institutining qonuniy shakllanish yo‘nalishi va hozirgi holatdagi etishmagan segmentlar aniqlangan. Shuningdek, ushbu uslub orqali Ploscowe (1935)ning XIX–XX asr Yevropa tajribasi bo‘yicha tarixiy-huquqiy xulosalari [9] milliy islohot kontekstida qayta talqin qilinadi.

### 3.3. Qiyosiy-huquqiy uslub.

Qiyosiy-huquqiy uslub boshqa davlatlar (xususan, Fransiya, Germaniya, Italiya)ning tergov magistrati modellari va xalqaro huquqiy standartlar bilan O‘zbekiston amaliyotini solishtirish uchun qo‘llanilgan. Xususan, ikki darajadagi xalqaro huquqiy standartlar tahlilga jalb etiladi: birinchi darajada — O‘zbekiston Respublikasi uchun xalqaro-huquqiy majburiy xarakterga ega bo‘lgan BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro paktining (1995-yilda ratifikatsiya qilingan) 9-moddasi [15]; ikkinchi darajada — qiyosiy standart sifatida YeIHKning 5-moddasi va uning asosida YeIHS tomonidan shakllantirilgan sud amaliyoti [16, 17]. Bundan tashqari, Damaška (1986) [10] ning ierarxik va koordinatsion modellar paradigmasi tahliliy ramka sifatida ishlatilgan.

### 3.4. Keys-tahlil (anonymized case study) uslubi.

Nazariy xulosalarni empirik asoslash maqsadida Samarqand viloyati amaliyotidan anonimlashtirilgan ikki holat tahlili amalga oshirilgan. Shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish maqsadida ishtirokchilarning ism-familiyalari va ish raqamlari ochib berilmagan. Keyslar ish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan bo‘lib, birinchi keys jinoyat ishini qo‘zg‘atish qarorlari ustidan sud nazorati muammosini, ikkinchi keys esa tintuv va dalillar maqbulligi muammosini illyustratsiya qilish uchun tanlangan. Keys-tahlil uslubi tadqiqot natijalarining hayotiy dolzarbligini ko‘rsatish va nazariy

xulosalar bilan amaliy fenomenlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun zaruriydir.

4.1. Birinchi tadqiqot savoli: jinoyat ishini qo'zg'atish qarorlari ustidan sud nazoratining etishmasligi

Jinoyat protsessining eng muhim nuqtalaridan biri — jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni rad etish bosqichidir. JPKning 331-moddasiga ko'ra, ishni qo'zg'atish to'g'risidagi qaror surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan chiqariladi [1]. Ushbu qarorlar ustidan shikoyat berish tartibi 338-moddada belgilangan bo'lib, unga binoan surishtiruvchining, tergovchining yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining ish qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarori ustidan prokurorga, prokurorning ish qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarori ustidan esa yuqori turuvchi prokurorga shikoyat berish ko'zda tutilgan [1].

Damaška (1986) paradigmasi nuqtai nazaridan, mazkur tuzilma ochiqcha ierarxik modelga mos keladi: qaror qabul qiluvchi mansabdor shaxs va shikoyatni ko'ruvchi mansabdor shaxs har ikkalasi bir xil institutsional ierarxiyaga mansub [10]. Koordinatsion (adversar) model esa bunday tuzilmaga alternativ tarzda tarafmataraf munosabat va neytral hakam (sudya) prinsipini talab qiladi. Protsessual reallik shuni ko'rsatadiki, tergovchi mazkur qarorlarni qabul qilishdan oldin nazorat qiluvchi prokuror bilan zichroq o'zaro aloqada bo'lishi kuzatilmoqda. Natijada qaror ustidan shikoyat berish va uni ko'rib chiqish — ikkalasi ham bir xil vedomstvo vakolat doirasida yopiq tartibda amalga oshirilmoqda. Ushbu holat shikoyatni hal qilishda JPKning 25-moddasida mustahkamlangan tortishuvlik tamoyili va 19-moddasida mustahkamlangan ishlarning oshkora ko'rilishi tamoyilining real ishlashiga imkon bermaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, JPKning 31<sup>1</sup>-moddasiga ko'ra, tergov sudyasining mohiyati aynan sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxs huquqlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishdan iborat. Jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni rad etish — bu shaxsning keyingi barcha protsessual taqdirini belgilovchi qaror

bo‘lib, uning ustidan sud nazorati o‘rnatilishi inson huquqlari kafolati sifatida institutsional zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv Thaman (2008) [11] ko‘rsatgan post-sovet hududi jinoyat protsessiga oid adversar tendensiyasiga mos keladi.

Birinchi keys tahlili: protsessual muddatlarni sun‘iy tiklash holati.

Samarqand viloyati Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudining tergov sudyasi tomonidan 2026-yil fevral oyida Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (MJtK) 41-moddasi bilan 8 nafar shaxsga nisbatan ko‘rib chiqilgan anonimlashtirilgan ish holati tahlilga olib beriladi. Ish hujjatlariga ko‘ra, huquqbuzarlik sodir etilganidan bir yildan ortiq vaqt o‘tgan va MJtKning 36-moddasiga asosan javobgarlikka tortish muddati tugagan. Biroq muddatni sun‘iy tarzda tiklash maqsadida quyidagi usuldan foydalanilgan: 2025-yil noyabr oyida qabul qilingan “Jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish haqida”gi qaror tuman prokuraturasi tomonidan bekor qilinib, xuddi shu kunning o‘zida — hech qanday yangi holatlar aniqlanmagan bo‘lsa-da — yana takroran aynan shu mazmundagi yangi “Jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish haqida”gi qaror chiqarilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad MJtKning 36-moddasi ikkinchi qismidagi “jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish qarori qabul qilingan kundan e‘tiboran bir oydan kechiktirmay ma‘muriy jazo qo‘llanilishi mumkin” degan istisno normadan foydalanib, ma‘muriy javobgarlik muddatini sun‘iy tiklash bo‘lganligi aniqlanmoqda.

Ushbu holat JPKning 338-moddasiga oid protsessual tuzilish muammosining empirik asosini yaqqol ko‘rsatib bermoqda: birinchi rad etish qarori bekor qilinib, ikkinchi rad etish qarori chiqarilayotgan paytda ularning har ikkalasi ham prokurorning o‘zaro kelishilgan qarorlari bo‘lib, shikoyat qiluvchi shaxs uchun yagona nazorat imkoniyati yuqori turuvchi prokurorga murojaat qilishdangina iborat bo‘lib qolmoqda. Shu bois mazkur qarorlar ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqish vakolatini prokuratura tizimidan olib, tergov sudyasiga o‘tkazish taklif etilmoqda. Tergov sudyasi ushbu shikoyatlarni yopiq kabinetda emas, balki oshkora sud majlisida, taraflar tortishuvi asosida ko‘rib chiqar ekan, prokuror

shikoyatni hal qiluvchi organ emas, balki tergov organi qarorini himoya qiluvchi taraf sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa shaffoflik kafolatlanishi ta'minlanadi.

4.2. Ikkinchi tadqiqot savoli: prokurorning qamoqqa olish va tintuv iltimosnomalaridagi majburiy roziligi muammosi

Qamoqqa olish iltimosnomasini sudga kiritish tartibi JPKning 243-moddasida belgilangan. Uning ikkinchi qismiga binoan, prokuror, shuningdek prokurorning roziligi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqarishi ko'zda tutilgan [1]. Tintuv bo'yicha ham O'RQ-1022-sonli Qonun bilan kiritilgan 158<sup>1</sup>-moddaning to'rtinchi qismiga ko'ra, prokuror tintuv o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomaning asosligini tekshiradi va unga rozi bo'lgan taqdirdagina sudga yuboradi [1].

Shu tariqa, amaldagi tartib bitta protsessual harakat ustidan ikkita parallel nazorat institutining (prokuror + tergov sudyasi) ishlashini yuzaga keltirmoqda. Bu muammoni maqolada "oraliq filtr muammosi" (intermediate filter problem) sifatida tariflash mumkin. Damaška (1986) paradigmasi doirasida bu muammo ierarxik modelning qoldig'i sifatida tushuntiriladi: har bir protsessual qaror uchun ikkilangan tasdiqlash instituti talab qilinadi, bu esa gorizontalkoordinatsion (adversar) tuzilma bilan ziddiyatga kiradi [10]. Ploscowe (1935) va Thaman (2008) asarlarida tahlil etilgan Yevropa modellaridan farqli o'laroq, prokurorning yozma roziligi mavjudligi tergov sudyasi uchun dastlabki ijobiy protsessual xabarni (signal) o'rnatib, uning sud nazoratchisi sifatidagi mustaqil funksiyasini amalda cheklab qo'yishi mumkin [9, 12].

Qiyosiy-huquqiy nuqtai nazardan, Italiya 1989-yilgi islohotida tergov magistratini butunlay tugatib, uning vakolatlarini ikkiga bo'lib bergan: tergov funksiyasini prokurorga, ehtiyot choralariiga sanksiya berish funksiyasini esa yangi joriy etilgan giudice per le indagini preliminari (tergov oldi sudyasi)ga [12]. Fransiyada 2000 yilgi Guigou Qonuni bilan tergov magistratidan qamoqqa olish vakolati olinib, juge des libertés et de la détention (ozodlik va qamoq sudyasi) deb nomlanuvchi maxsus sudyaga berilgan. Bu modellarning

umumiy xususiyati shundan iboratki, ehtiyot choralariga sanksiya berish vakolati faqat bitta sudyaga yuklangan va prokuror oraliq filtr funksiyasini bajarmasdan, tarafma-taraf tortishuv ishtirokchisi sifatida ishda qatnashadi. Aynan shu yondashuv Thaman (2008) post-sovet kontekstida adversar protseduraning shakllanishi uchun zarur deb qayd etgan [11].

“Og‘ir modda sindromi” muammosi.

Prokurorning roziligi instituti bilan birgalikda, amaliyotda qamoqqa olish sanksiyasini olish uchun qilmishni sun‘iy ravishda og‘irroq modda bilan malakalash usuli kuzatilmoqda. Ushbu muammo ayniqsa giyohvandlik vositalariga oid jinoyat ishlarida namoyon bo‘lmoqda. Jinoyat kodeksining 276-moddasi giyohvandlik vositalarini “o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay” tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlarni jinoyiy javobgarlikka tortadi hamda birinchi qismi bo‘yicha uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilishni ko‘zda tutadi [3]. JKning 273-moddasi esa “o‘tkazish maqsadini ko‘zlab” qilingan xuddi shunday harakatlarni jazolaydi va uning beshinchi qismi giyohvandlik vositalarini ko‘p miqdorda sotishni o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolaydi — bu o‘ta og‘ir jinoyat toifasiga kiradi [3].

Giyohvandlik vositalari miqdorining chegaralari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 12 noyabrdagi 330-sonli qarori bilan tasdiqlangan tegishli jadvalda belgilangan [7]. Shu jadvalga muvofiq, quritilgan marixuana uchun: 0,5 grammgacha — kam miqdor; 0,5 grammdan 5 grammgacha — ko‘p bo‘lmagan miqdor; 5 grammdan ortig‘i — juda ko‘p miqdor toifasiga kiritilgan. Tergov amaliyotida aynan shu nuqtada malakalash vakolatidan foydalanish muammosi yuzaga kelmoqda: tergovchi ayblanuvchida aniqlangan giyohvandlik vositasi miqdorini “o‘tkazish maqsadi” bilan bog‘lab, qilmishni JKning 276-moddasi (yumshoqroq modda) o‘rniga 273-moddasiga (og‘irroq modda) yoxud uning 5-qismiga (o‘ta og‘ir jinoyat) o‘tkazishi mumkin — garchi real amalda “sotish niyatini” tasdiqlovchi biror bir dalil mavjud bo‘lmasa ham. Tergov sudyasi esa ayb mazmuniga daxl qilish chegarasi sababli, faqat

qilmish malakalangan moddaning og'irligiga qarab sanksiya berishga majbur bo'lmoqda. Mazkur fenomen maqolada "og'ir modda sindromi" sifatida tariflanadi.

4.3. Uchinchi tadqiqot savoli: "asosli gumon" standartining qonunchilikdagi o'rni va tintuv natijasida olingan dalillar muammosi.

Uchinchi tadqiqot savolining markazi tergov sudyasi tomonidan gumonning asosligini baholashda muayyan standartning mavjudligiga oid bo'lib turibdi. Bu standartning xalqaro huquqiy asosini ikkita darajada tahlil qilish mumkin.

Birinchi daraja: BMT Pakti 9-moddasi (O'zbekiston uchun xalqaro-huquqiy majburiy standart).

O'zbekiston Respublikasi 1995-yil 28-sentyabr kuni BMTning 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktiga (ICCPR) a'zo bo'lgan va shu tariqa Paktning 9-moddasiga rioya qilish xalqaro-huquqiy majburiyatini olgan [15]. Paktning 9-moddasi birinchi qismi quyidagini belgilaydi: "Har kim ozodlik va shaxs daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan ushlab turilishi yoki qamoqqa olinmasligi kerak. Hech kim qonunda belgilangan tartibda va unga mos kelmaydigan asoslarda ozodlikdan mahrum qilinmasligi kerak". Uchinchi qismi esa jinoiy ayblov bo'yicha ushlab turilgan har bir shaxsning tezkorlik bilan sudya yoki sudlov vakolatiga ega boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltirilishi lozimligini belgilaydi va ushlab turishning asosiy qoida sifatida qo'llanilmasligi shartini mustahkamlaydi.

BMT Inson huquqlari Qo'mitasi 9-moddaga oid №35-Umumiy sharhida (2014 y.) aynan "asosli gumon" standartini shaxsni ushlab turish hamda qamoqqa olishning qonuniyligini baholash uchun zaruriy shart sifatida talqin qilgan [15]. Shu tariqa, mazkur standartning JPKda mustahkamlanmaganligi O'zbekistonning xalqaro-huquqiy majburiyatlariga mos kelmaslik xatarini yuzaga keltiradi.

Ikkinchi daraja: YeIHK 5-moddasi va YeIHS amaliyoti (qiyosiy standart).

O'zbekiston Respublikasi Yevropa Kengashi a'zosi bo'lmaganligi sababli Yevropa Inson huquqlari Konvensiyasi

(EiHK) uning uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiy hujjat emas. Biroq YeIHK va uning asosida Yevropa Inson huquqlari Sudi (EiHS) shakllantirgan sud amaliyoti “asosli gumon” (reasonable suspicion) standartiga oid eng rivojlangan qiyosiy-huquqiy doktrinani ifodalaydi va shu bois qiyosiy standart sifatida tahlilga jalb etilishi maqsadga muvofiqdir [16, 17]. Ayni vaqtda YeIHK 5-moddasi BMT Pakti 9-moddasi bilan mazmunan o‘xshash bo‘lib, ikkalasi ham shaxs erkinligiga nisbatan xalqaro-huquqiy himoya standartini shakllantiradi.

YeIHSning izchil sud amaliyoti “asosli gumon” standartini “obyektiv kuzatuvchini shaxs jinoyat sodir etgan deb ishontiradigan dalillar mavjudligi” sifatida tushuntiradi [17]. Akgün v. Turkey ishida YeIHS muayyan ma’lumotnomani (masalan, shaxs muayyan messenjer dasturidan foydalanganligi to‘g‘risidagi tezkor ma’lumot) boshqa qo‘shimcha dalillar bilan tasdiqlanmaganligi asosida “asosli gumon” standartiga mos kelmasligi bo‘yicha muhim xulosa chiqargan [17]. Bu yondashuv BMT Pakti 9-moddasi normasini amalda qanday qo‘llash bo‘yicha ham analogik orudiya bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonning JPKsida yuqorida keltirilgan xalqaro va qiyosiy standartlarga mos keluvchi milliy “asosli gumon” standarti hozirgi shaklda qat’iy mustahkamlanmagan. JPKning 95-moddasi (dalillarga baho berish) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning o‘z ichki ishonchi bo‘yicha dalillarga baho berishi tamoyilini belgilaydi, lekin tergov sudyasi tomonidan iltimosnomalarni ko‘rib chiqishda baholash standartining o‘ziga xos parametrlari aniq ko‘rsatilmagan. Bu bo‘shliq yuqorida qayd etilgan “og‘ir modda sindromi” kabi nomatlub amaliyotlarning yuzaga kelishiga imkon yaratib bermoqda.

Ikkinchi keys tahlili: yasama bahona bilan o‘tkazilgan tintuv (pretextual search).

Samarqand shahar ichki ishlar idorasining tergov bo‘limi ish yurituvidadagi anonimlashtirilgan boshqa bir holatda quyidagi vaziyat kuzatilgan: tezkor vakilning “o‘g‘irlangan ashyolar ma’lum bir fuqaroning uyida saqlanayotganligi va uning o‘zi ham jinoyatga

daxldorligi” haqidagi birgina bildirgisi asosida tergov sudyasi tomonidan tintuv o‘tkazishga sanksiya berilgan. Tintuv jarayonida o‘g‘irlikka oid hech qanday ashyo topilmagan, biroq fuqaroning yotoqxonasidan 5,5 gramm quritilgan marixuana topilgan. Keyinchalik mazkur fuqaroning o‘g‘irlikka aloqasi yo‘qligi isbotlangan.

Yuqorida keltirilgan Vazirlar Mahkamasining 330-sonli qaroriga muvofiq, 5,5 gramm quritilgan marixuana “juda ko‘p miqdor” toifasiga kiradi va JKning 276-moddasi ikkinchi qismiga yoki 273-moddasi beshinchi qismiga malakalash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin [3, 7]. Shu tariqa tintuv natijasida olingan dalilning o‘zi provokatsion yoki yasama bahona bilan olinganidan qat’i nazar, uning keyingi malakasi orqali jinoyatning og‘irligi bir necha barobarga oshirib yuborilishi mumkin.

Yurisprudensiyada mazkur holat xalqaro huquqda e’tirof etilgan “zaharli daraxt mevasi” (fruits of the poisonous tree) doktrinasi orqali izohlanadi: dastlabki bosqichda noqonuniy yoki etarli asoslarsiz o‘tkazilgan protsessual harakat natijasida olingan barcha keyingi dalillar ham nomaqbul hisoblanishi kerak. Thaman (2011) o‘zining qiyosiy tahlilida AQShdan tortib Germaniya, Rossiya va boshqa ko‘plab yurisdiksiyalargacha ushbu doktrinaning qanday qo‘llanilishi tahlil qilib, hatto doctrine o‘rnatilgan mamlakatlarda ham sudyalari “haqiqatni aniqlash”ga bo‘lgan intilish sababli derivatsion dalillarni ko‘pincha maqbul deb qabul qilishlarini ko‘rsatgan [13]. Slobogin (2013) bu muammoni yanada kengaytirib, dalillarni chetlashtirish qoidasining uchta oqlab beruvchi asosini — deterrence (tiydiruvchi), systemic integrity (tizim yaxlitligi) va constitutional vindication (konstitutsiyaviy tasdiqlash) — tahlil qilgan [14]. Mazkur uch asos O‘zbekiston JPKsining 95<sup>1</sup>-moddasi doirasida aniq ifodalanmaganligi ham bo‘shliq hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlil tergov sudyasi institutining 2025 yilgi islohotlardan keyingi holatiga oid muhim nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Uchala tadqiqot savoli bo‘yicha olingan natijalar bir-birini to‘ldiruvchi xarakterga ega. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish

qarorlari ustidan sud nazoratining etishmasligi, prokurorning qamoqqa olish va tintuv iltimosnomalaridagi majburiy roziligi hamda “asosli gumon” standartining qonunchilikdagi aniq ifodasining yo‘qligi — bu uchala muammo tergov sudyasini texnik sanksiyalovchi organdan real inson huquqlari kafiliga aylantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Aynan shu masala Damaška (1986)ning ierarxik va koordinatsion modellari paradigmasi doirasida aniqroq ko‘rinadi [10]. Ayni paytda amaldagi O‘zbekiston JPK tuzilmasi ikkita modelning gibridd shaklini aks ettirmoqda: bir tomondan, tergov sudyasi instituti koordinatsion (adversar) elementni joriy etadi; ikkinchi tomondan, prokurorning majburiy roziligi instituti ierarxik modelning qoldig‘i sifatida saqlanib qolmoqda. Bu holat tadqiqotchilar tomonidan “huquqiy gibriddlik fenomeni” (legal hybridity phenomenon) deb atalmoqda [11].

Qiyosiy-huquqiy tahlil O‘zbekiston islohotlarini nafaqat post-sovet hududi kontekstida, balki kengroq Yevropa islohotlari tendensiyalari doirasida ham joylashtirish imkonini beradi. Italiya 1989 yilgi islohoti va Fransiyaning 2000-yilgi Guigou Qonuni modellari tergov sudyasiga oid vakolatlarni tarafma-taraf tortishuvlik tamoyiliga moslashtirish yo‘lini ko‘rsatib bergan [9, 12]. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yilgi islohotlari mazkur tendensiyaga mos yo‘nalishda qilingan qadam bo‘lgani holda, prokurorning roziligi institutining saqlanib qolishi ushbu yo‘nalishning to‘la ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Thaman (2008) post-sovet hududidagi adversar tendensiya tahlilida qayd etganidek, bu mamlakatlarda inkvizitsion merosni engib o‘tish — oddiy normativiy o‘zgartirishlar orqali emas, balki tizimli institutsional qayta qurish orqali amalga oshirilishi mumkin [11]. Ushbu xulosa O‘zbekiston kontekstida ham tegishli: 31<sup>1</sup>-moddaning kiritilishi tarixiy qadam bo‘lgani holda, uning to‘liq amalga oshirilishi uchun qo‘shimcha modda o‘zgartirishlari — xususan, 158<sup>1</sup>-modda to‘rtinchi qismi va 243-modda ikkinchi qismida prokuror roziligi tushunchasi qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Mazkur maqolaning asosiy ilmiy hissasi (contribution) uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, O‘RQ-1022 va O‘RQ-1081 qonunlari bilan joriy etilgan islohotlardan keyingi huquqiy vaziyatga oid birinchi tizimli dogmatik-huquqiy tahlil taqdim etilib, uning etishmagan segmentlari aniq ko‘rsatib berildi. Ikkinchidan, O‘zbekiston kontekstida maxsus “og‘ir modda sindromi” fenomeni tariflanib, uning huquqiy mexanizmi JKning 273 va 276-moddalari hamda VM 12.11.2015 y. 330-sonli qarori bilan tasdiqlangan miqdorlar jadvali orqali ko‘rsatib berildi. Uchinchidan, O‘zbekiston JPK tuzilmasida prokuror-tergov sudyasi munosabatining qiyosiy-huquqiy modelga solishtirilishi asosida “oralik filtr muammosi” (intermediate filter problem) kategoriyasi kiritildi — bu muammo ayni vaqtda yuridik adabiyotda maxsus terminologik ifoda olmagan edi.

Shuningdek, mazkur maqola Damaška (1986) ning ierarxik-koordinatsion modellari paradigmasini [10] birinchi marta O‘zbekiston jinoyat protsessi islohotlariga nisbatan tahliliy vosita sifatida qo‘llab, bu hudud jinoyat protsessi islohotlarini global qiyosiy-huquqiy kontekstda joylashtiradi. Slobogin (2013) tasnif etgan dalillarni chetlashtirish qoidasining uchta oqlab beruvchi asosi [14] milliy JPK doirasida qanday tarzda tatbiq qilinishi kerak degan muhim savolni ham ochib beradi. Bundan tashqari, maqola BMT Pakti 9-moddasi va YeIHK 5-moddasi normalarini milliy islohot kontekstida birgalikda tahlil qiladi va ularning o‘zaro mukammallik asosi bilan ishlatilishi uchun doktrinal asos ishlab chiqadi.

Mazkur maqolada olib borilgan tahlil quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirdi. Birinchidan, 2025-yilgi islohotlar tergov sudyasi institutining bazaviy konstruksiyasini shakllantirishda muhim qadam bo‘lgani holda, tortishuvlik tamoyilining to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlamagan. Ikkinchidan, jinoyat ishini qo‘zg‘atish qarorlari ustidan sud nazoratining etishmasligi hamda prokurorning qamoqqa olish va tintuv iltimosnomalaridagi majburiy roziligi jiddiy institutsional muammolarni yuzaga keltirmoqda. Uchinchidan, BMT Pakti 9-moddasida va qiyosiy standart sifatida YeIHK 5-moddasida belgilangan “asosli gumon” standartining qonunchilikda aniq ifoda

etilmaganligi “og‘ir modda sindromi” va yasama bahona bilan tintuv o‘tkazish kabi amaliy ziddiyatlarga yo‘l ochib bermoqda.

Yuqoridagi xulosalar asosida O‘zbekiston Respublikasining JPKsiga quyidagi aniq o‘lchamli (measurable) tavsiyalar kiritish taklif etiladi:

JPKning 338-moddasini qayta tahrirlash orqali surishtiruvchining, tergovchining yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi qarori ustidan, shuningdek prokurorning shunday qarori ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqish vakolatini tergov sudyasiga o‘tkazish. Tergov sudyasi shikoyatlarni tortishuvlik tamoyili asosida, prokuror va shikoyat beruvchi ishtirokida ochiq sud majlisida ko‘rib chiqishi ko‘zda tutilishi lozim. JPKning 311-moddasi ikkinchi qismiga tegishli vakolatlar ro‘yxati kengaytirilishi kerak.

JPKning 243-moddasi ikkinchi qismidagi qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish uchun prokurorning roziligini olishga oid talabni bekor qilish va tergovchiga iltimosnomani to‘g‘ridan-to‘g‘ri tergov sudyasiga kiritish vakolatini berish. Prokuror sud majlisida hozir bo‘lib, iltimosnoma asosiligi bo‘yicha o‘z pozitsiyasini ifodalaydigan taraf sifatida ishtirok etishi kerak.

JPKning 1581-moddasi to‘rtinchi qismidagi tintuv o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosnomani sudga yuborish uchun prokurorning roziligini olishga oid talabni bekor qilish va tergovchi yoki surishtiruvchiga iltimosnomani to‘g‘ridan-to‘g‘ri tergov sudyasiga kiritish huquqini berish.

JPKning 236-moddasiga muqobil ehtiyot choralarning ustuvorligi prezumpsiyasini belgilovchi quyidagi mazmundagi yangi qism qo‘shish:

“Tergov sudyasi qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashdan oldin ushbu Kodeksning 237-moddasida nazarda tutilgan muqobil ehtiyot choralarini qo‘llash imkoniyatini majburiy tartibda muhokama qilishi shart. Qamoqqa olish faqat muqobil choralar ushbu Kodeks 236-moddasining

birinchi qismida nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun etarli emasligi qat'iy isbotlangandagina qo'llaniladi. Muqobil choralarning etarli emasligini isbotlash yuki iltimosnoma qo'zg'atgan mansabdor shaxsga yuklatiladi”.

JPKning 243-moddasiga BMT Pakti 9-moddasi talablariga mos keluvchi hamda YeIHK 5-moddasi doirasida shakllantirilgan qiyosiy standartni inobatga olgan holda, dalillarni baholashning asosli gumon (Prima Facie / reasonable suspicion) standartini belgilovchi quyidagi mazmundagi yangi qism qo'shish:

“Tergov sudyasi qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda shaxsning aybliligi masalasini hal qilmagan holda, ilgari surilayotgan gumonning asoslilikini tasdiqlovchi kamida bitta muayyan dalilning mavjudligini tekshirishi shart. Iltimosnoma faqatgina qilmishni og'irroq modda bo'yicha malakalash yoki og'irlashtiruvchi holatning mavjudligiga asoslangan bo'lib, mazkur holatning obyektiv tomonini tasdiqlovchi mustaqil protsessual dalil mavjud bo'lmasa, tergov sudyasi engilroq malakalash hamda muqobil ehtiyot chorasini qo'llash imkoniyatini alohida muhokama qiladi”.

JPKning 158<sup>2</sup>-moddasiga tintuv natijasida yangi jinoyat alomatlari topilgandagi dalillar maqbulligini baholashga oid quyidagi mazmundagi yangi qism qo'shish:

“Tintuv o'tkazish to'g'risidagi iltimosnoma faqat tezkor-qidiruv faoliyati natijalari asosiga qurilgan bo'lsa, tergov sudyasi mazkur ma'lumotlarni tasdiqlovchi qo'shimcha protsessual dalillarni talab qilishga haqli. Agar tintuv jarayonida uni o'tkazishga asos bo'lgan jinoyatga doir dalillar topilmay, boshqa jinoyat alomatlari aniqlansa, yangidan topilgan dalillarning maqbulligi tergov sudyasi tomonidan alohida protsessual tekshiruvdan o'tkaziladi va provokatsiya ehtimolini istisno etuvchi qo'shimcha dalillar talab qilinadi”.

JPKning 95<sup>1</sup>-moddasiga tergov sudyasi nomaqbul deb topgan dalillarning keyingi sud bosqichlaridagi huquqiy maqomini belgilovchi quyidagi mazmundagi yangi qism qo'shish:

“Tergov sudyasi tomonidan protsessual qonunchilik talablari buzilgan holda olingan deb topilgan va maqbul emas deb e’tirof etilgan dalillarning sud muhokamasi bosqichida qayta tiklanishiga yoki sud hukmi uchun asos qilib olinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ishni mazmunan ko‘ruvchi sud tomonidan jazo tayinlashda sudyaning ichki ishonchi va ixtiyoriyligi (diskresiyasi) faqat qonuniy tartibda olingan maqbul dalillar majmui bilan chegaralanadi”.

Mazkur maqola chegaralangan doirada olib borilgan tadqiqot bo‘lib, uning natijalari keyingi, kengroq ko‘lamdagi tadqiqotlar bilan to‘ldirilishi lozim. Xususan, kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi: (a) tergov sudyasi institutining 2025–2026-yillardagi amaliyoti bo‘yicha statistik-empirik tadqiqot o‘tkazish; (b) Markaziy Osiyo mintaqasining boshqa davlatlari (Qozog‘iston, Qirg‘iziston) tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish; (v) tergov sudyasi qarorlarining sud muhokamasi bosqichidagi majburiy xarakteri bo‘yicha alohida monografik ishlarni ishlab chiqish; (g) tergov sudyasi va prokurorlar bilan sifatli (kvalifikatsion) intervyular asosida amaliyotning huquqiy-sotsiologik tahlilini olib borish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. *O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (2025 yil 28 yanvardagi O‘RQ-1022-sonli va 2025 yil 15 avgustdagi O‘RQ-1081-sonli Qonunlar tahririda)*. // *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*. URL: <https://lex.uz>

2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi «Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6041-son Farmoni*. // *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*. URL: <https://lex.uz/docs/4939472>

3. *O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi*. // *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*. URL: <https://lex.uz>

4. *Смирнов А. В. Состязательность в уголовном процессе: проблемы реализации // Уголовный процесс. – 2018. – № 3. – С. 22–28.*

5. *Xalov Sh. Sud diskresiyasi va uni cheklashning protsessual kafolatlari: monografiya. – Toshkent: Adolat, 2021. – 145 b.*

6. Mirzaev T., Muhiddinov A. *Sudga qadar ish yuritishda sud nazoratini takomillashtirish muammolari // Odil sudlov. – 2023. – № 5. – B. 14–19.*

7. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 12 noyabrdagi «Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 330-sonli qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz>*

8. Inog'omjonova Z. F., To'laganova G. Z. *Jinoyat protsessi (Umumiy va Maxsus qism): darslik. – Toshkent: TDYuU, 2017. – 312 b.*

9. Ploscowe, M. (1935). *The Investigating Magistrate (Juge d'Instruction) in European Criminal Procedure. Michigan Law Review, 33(7), 1010–1036. URL: <https://repository.law.umich.edu/mlr/vol33/iss7/3>*

10. Damaška, M. R. (1986). *The Faces of Justice and State Authority: A Comparative Approach to the Legal Process. New Haven: Yale University Press. 247 p.*

11. Thaman, S. C. (2008). *The Two Faces of Justice in the Post-Soviet Legal Sphere: Adversarial Procedure, Jury Trial, Plea-Bargaining and the Inquisitorial Legacy. In: Crime, Procedure and Evidence in Comparative and International Context: Essays in Honour of Professor Mirjan Damaška (pp. 99–118). Oxford: Hart Publishing.*

12. Thaman, S. C. (2008). *Comparative Criminal Procedure: A Casebook Approach (2nd ed.). Durham, NC: Carolina Academic Press.*

13. Thaman, S. C. (2011). "Fruits of the Poisonous Tree" in *Comparative Law. Saint Louis University Public Law Review, 31(1), 33–105.*

14. Slobogin, C. (2013). *A Comparative Perspective on the Exclusionary Rule in Search and Seizure Cases. Vanderbilt Public Law Research Paper No. 13-21. DOI: 10.2139/ssrn.2247746*

15. *United Nations. (1966). International Covenant on Civil and Political Rights, adopted by UN General Assembly Resolution 2200A (XXI) of 16 December 1966; entered into force on 23 March 1976. Article 9. URL: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>. (Republic of Uzbekistan acceded on 28 September 1995.)*

16. *Council of Europe. (1950). European Convention on Human Rights, Article 5 (Right to liberty and security). URL: <https://www.echr.coe.int>*

**M.Sh.Omonullayeva,**  
*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti*  
*“Ekologiya va huquq” fakulteti talabasi,*  
**H.I.To‘xtashev**  
*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti*  
*“Ekologiya va huquq” fakulteti*  
*“Huquqiy fanlar” kafedra mudiri, professor,*

## **JINOYAT PROTSESSIDA SHAXS ERKINLIGINI CHEKLASH USTIDAN SUD NAZORATI MEXANIZMLARI**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jinoyat protsessida shaxs erkinligini cheklash institutining huquqiy tabiati, uning xalqaro standartlar va milliy qonunchilikdagi ifodasi tahlil qilingan. Xususan, sud nazoratining mohiyati, uning demokratik jamiyatdagi o‘rni hamda ehtiyot choralari qo‘llash jarayonidagi muammolar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi misolida o‘rganilgan. Maqolada sudlar tomonidan qamoqqa olish ehtiyot chorasiga nisbatan “avtomatik rozilik” amaliyotining saqlanib qolayotganligi tanqidiy yoritilgan. Shuningdek, tergov sudyasi institutining normativ asoslari, uning xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlili olib borilgan hamda amaliyotdagi kamchiliklar aniqlangan. Tadqiqot yakunida sud nazoratining samaradorligini oshirish, tergov sudyasi faoliyatini takomillashtirish va shaxs erkinligini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *shaxs erkinligi, ijtimoiy foyda, sud nazorati, ehtiyot chorasi, qamoqqa olish, tergov sudyasi, jinoyat protsessi, inson huquqlari*

### **Kirish**

Insonning shaxsiy erkinligi va daxlsizligi nafaqat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, balki xalqaro huquqning ham ustuvor tamoyillaridan biridir. Biroq, jinoyat protsessi shunday murakkab sohaki, unda jamiyat xavfsizligini ta‘minlash, ijtimoiy xavfli qilmishlarni oldini olish, jinoyatni fosh etish maqsadida shaxsning erkinlik huquqi davlat tomonidan qonuniy asoslarda majburlov choralari orqali cheklanadi. Majburlov choralari huquq oilalariga ko‘ra har xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston

Respublikasi asosan roman-german huquq oilasiga mansubligi sababli sud hokimiyati anglo-sakson huquq oilasidan farqli o'laroq yangi huquq normalarini yaratmaydi<sup>1</sup> hamda shaxs erkinligini cheklash borasida jinoyat protsessidagi qamoq va uy qamog'iga urg'u beradi. Jinoyat protsessidagi ushlab turish, majburiy keltirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, lavozimdan chetlashtirish, pasportning amal qilishini to'xtatib turish, ehtiyor choralari kabi majburlov choralari qo'llash borasida shaxsning huquqlarini himoya qilish ham ham bir xil darajada dolzarbdir. Masalaning nozikligi aynan shu jarayonda ko'rinishini hozirgi kunda prokuror nazorati va sud o'rtasidagi muvozanatning hali ham to'liq ta'minlanmaganligi hamda sudlarning tergov ustidan faktik emas, balki rasmiy nazorat bilan cheklanib qolayotganligi bilan tasdiqlashimiz mumkin. Masalaning yanada jiddiy tomoni shundaki, qonunchilikda sud nazorati kuchaytirilayotganiga qaramay, amaliyotda sudlar tomonidan qamoqqa olish ehtiyot chorasiga nisbatan "avtomatik rozilik berish" tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Aynan shu nuqtada zamonaviy jinoyat protsessual huquqining eng og'riqli va javobsiz qolayotgan savoli yuzaga chiqadi: Nima uchun qonunchilikda sud nazorati mexanizmlari yildan-yilga kengayib borayotgan bo'lsa-da, amaliyotda sud hamon tergov organi tomonidan taqdim etilgan ssenariyni shunchaki protsessual rasmiylashtirib beruvchi "notarial" organ sifatida ko'rinmoqda?

Jinoyat protsessida shaxs erkinligini cheklash instituti jamiyatda huquq-tartibotni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Ushbu cheklovlar, avvalo, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining sudga kelishini ta'minlash, sud jarayonining adolatli o'tishini kafolatlash va zarur hollarda jamoat xavfsizligini himoya qilish uchun zarur bo'ladi. Masalan, agar qo'lga olingan shaxs o'z ishi bo'yicha guvohga tahdid qilgan bo'lsa, uni jamiyat xavfsizligi nuqtai nazaridan hibsdan saqlash ehtiyoji tug'ilishi mumkin. Bu holatda shaxs erkinligini cheklash, bir tomondan, sud jarayonining to'g'ri va xolis o'tishini ta'minlansa, boshqa tomondan, jamoat xavfsizligini saqlashga

---

<sup>1</sup> <https://eurasiangroup.org/en/respublika-uzbekistan>

xizmat qiladi. Shaxsning erkinligini cheklash zarurligini jinoyat huquqining otasi Sezare Bekkarianing “Ijtimoiy foyda” (social utility) nazariyasi bilan tushunishimiz mumkin. Shaxs jamiyatda yashash orqali o‘z erkinligining bir qismini xavfsizlik evaziga qurbon qiladi. Davlat bu erkinlikni faqat boshqalarning xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatning oldini olish (deterrence) uchungina cheklashi mumkin. Bekkaria bu fikri orqali “jazo jinoyatga mutanosib bo‘lishi kerak”-degan tamoyilni ilgari surgan. Bugungi kunda hukumatlar, faollar yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlarida “inson huquqlari” haqida gap ketganda axloqiy yoki falsafiy ma‘nodagi huquqlar emas, balki xalqaro va milliy qonunlarda tan olingan inson huquqlari nazarda tutiladi. Albatta, falsafiy munozaralar inson huquqlarining nima uchun muhimligini va ularni qanday qilib eng maqbul tarxda rivojlantirish kerakligini yoritadi. Ammo, hozircha inson huquqlarining mazmuni, odatda, xalqaro hujjatlar orqali ishlab chiqilgan huquqlar ro‘yxatiga murojaat qilgan holda tushuniladi. Ayni davrda biz uchun asosiy manba BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hisoblanadi. Uning 3-moddasiga ko‘ra: har bir inson yashash, erkinlik, va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega<sup>2</sup>. Bu umumiy qoidasi sifatida tinchlik va barqaror rivojlanishning sharti sifatida barcha davlatlar uchun inson huquqlarini himoya qilishni va birinchi o‘ringa qo‘yishni nazarda tutadi. Shuningdek, ushbu deklaratsiyaning 9-moddasida jinoyat protsessida erkinlikni cheklash chegarasini belgilovchi eng muhim norma bayon qilingan. “Hech kim asossiz ravishda hibsga olinishi, ushlab turilishi yoki surgun qilinishi mumkin emas.” Asossiz hibsga olishni taqiqlash normasi har qanday erkinlikni cheklash faqat qonuniy asoslarga ega bo‘lishi va o‘zboshimchalik bilan amalga oshirilmasligi shartligini anglatadi. Deklaratsiyaning 3 va 9-moddalari shaxslar uchun erkinlikni kafolatlaydi hamda uning ta‘minlanishi davlatga majburiyat yuklaydi. O‘z-o‘zidan davlat bunday huquqni kafolatlashi uchun o‘zining boshqaruv tizimi hamda hokimiyatlarini shunga muvofiq shakllantirishi kerak. Huquqsiz majburiyat bo‘lmaganidek, davlat vakolatsiz ham

---

<sup>2</sup> <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

majburiyat amalga oshirila olmaydi. Mazkur nazariya ham inobatga olingan holda deklaratsiyaning 29-moddasi tuzilgan. “Har bir insonning jamiyat oldidagi majburiyatlari borki, uning shaxsi erkin va har tomonlama kamol topishi mumkin.

Har bir inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda faqat qonunda belgilangan cheklovlarga duchor bo‘ladi, faqat boshqalarning huquq va erkinliklari munosib tan olinishi va hurmat qilinishini ta‘minlash, demokratik jamiyatda axloq, jamoat tartibi va umumiy farovonlikning adolatli talablariga javob beradi.

Bu huquq va erkinliklar hech qanday holatda Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va tamoyillariga zid ravishda amalga oshirilishi mumkin emas.”<sup>3</sup> Shu sababli, jinoyat protsessida shaxs erkinligini cheklashda har doim individual va ijtimoiy manfaatlar muvozanati saqlanishi ta‘lab etiladi. Ushbu muvozanatni mustahkamlash nafaqat huquqiy zarurat, balki demokratik jamiyatning asosiy mezonlaridan biridir. Zero, shaxs erkinligini cheklash (masalan, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i) faqatgina ijtimoiy xavf-xatarning oldini olish uchun zarur bo‘lgan eng minimal darajada qo‘llanilishi lozim.

## 2. Sud nazoratining maqsadi va asosiy tamoyillari.

Sud nazorati (judicial control) — bu inson huquqlari va davlat manfaatlarining muvozanatini ta‘minlovchi demokratik filtrdir. Sud nazorati nafaqat protsessual harakat, balki shaxs erkinligini noqonuniy tajovuzlardan himoya qiluvchi konstitutsiyaviy kafolatdir. Bundan tashqari sud nazorati xalqaro huquqning imperativ normalari (jus cogens) bilan mustahkamlangan. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”ning 9-moddaga ko‘ra: Qamoqqa olingan har qanday shaxs kechiktirmasdan sudya yoki boshqa mansabdor shaxs huzuriga olib kelinishi va o‘rtacha muddatda sud qilinishi yoki ozod qilinishi lozim.<sup>4</sup>

Jinoyat protsessida sud nazorati institutining evolyutsiyasi va uning huquqiy oilalardagi moddiy-protsessual in‘ikosini tahlil qilishda,

---

<sup>3</sup> <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

<sup>4</sup> <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>

avvalo, ushbu mexanizmlarning tarixiy genezisiga e'tibor qaratish lozim. Garchi zamonaviy huquqiy tizimlarning aksariyatida, jumladan, roman-german oilasiga mansub bo'lgan O'zbekiston, Germaniya va Fransiya qonunchiligida "Habeas korpus" tamoyillari mustahkam o'rin egallagan bo'lsa-da, uning amaliyotga tatbiq etilish mexanizmlari huquqiy oilalarning fundamental tabiatidan kelib chiqib farqlanadi. Anglo-sakson huquq tizimida sud nazorati an'anaviy ravishda "Writ of Habeas Corpus" instituti orqali namoyon bo'lib, bunda sudya asosan protsessual "hakam" rolini o'taydi va tomonlarning tengligi hamda tortishuvchanligi asosida shaxsni hibsdan saqlashning asosiyligini baholaydi.<sup>5</sup> Bu tizimda urg'u ko'proq shaxsni sudga keltirish majburiyatiga va garov (bail) tizimi orqali erkinlikni ta'minlashga qaratiladi. Aksincha, roman-german huquq oilasida, xususan, kontinental Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida sud nazorati "faol nazorat" (judicial monitoring) xarakteriga ega bo'lib, bu erda sudya nafaqat hibsga olishning qonuniyligini tekshiradi, balki tergov ustidan tizimli nazoratni amalga oshiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Fransiyadagi "Juge des libertés et de la détention" (erkinlik va qamoq bo'yicha sudya) instituti<sup>6</sup> bunga yaqqol misol bo'lib, u tergovning dastlabki bosqichlaridanoq inson huquqlari buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, huquqshunos olimlar L.V. Golovko va B.A. Pulatovlar o'z tadqiqotlarida qayd etganidek, hozirgi kunda ushbu ikki tizim o'rtasida o'ziga xos konversiya jarayoni kechmoqda. Masalan, O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligiga "Habeas korpus" institutining tatbiq etilishi roman-german tizimiga xos bo'lgan inkvizitsion elementlarni sezilarli darajada yumshatib, sud nazoratini nafaqat jazo chorasi sifatida, balki konstitutsiyaviy huquqlarni himoya qiluvchi universal filtrga aylantirdi. Anglo-sakson tizimidan farqli o'laroq, kontinental tizimda sud nazorati obyektiga kengroq bo'lib, u o'z ichiga tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitish va mulkni xatlash kabi keng

---

<sup>5</sup> <https://oll.libertyfund.org/pages/1679-habeas-corpus-act>

<sup>6</sup> [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article\\_lc/LEGIARTI000033551641](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI000033551641)

qamrovli protsessual harakatlarga sanksiya berishni ham oladi. Bu esa sud nazoratini shunchaki shaxs daxlsizligini himoya qilish vositasidan, tergov organlarining o'zboshimchaligini jilovlovchi kompleks huquqiy mexanizmga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan, sud nazoratining samaradorligi uning qaysi huquqiy oilaga mansubligida emas, balki xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 5-moddasi<sup>7</sup> va Fuqarolik hamda siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 9-moddasida belgilangan standartlarning milliy qonunchilikda qanchalik real aks etganligi bilan belgilanadi.

3. Sud nazoratining amaliyotdagi muammolari: ehtiyot choralarini qo'llash misolida (O'zbekiston JPK tahlili).

Yuqorida qayd etilgan nazariy yondashuvlar va xalqaro standartlar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, JPKning 236-moddasida ehtiyot choralarini qo'llashning aniq maqsadlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra ushbu choralar ayblanuvchining tergov va suddan bo'yin tovlashining oldini olish, yangi jinoyat sodir etish xavfini bartaraf etish hamda ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qiluvchi harakatlarning oldini olish uchun qo'llanilishi lozim. Shuningdek, qonunchilik ehtiyot choralarining keng tizimini nazarda tutadi: munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat, shaxsiy kafillik, garov, uy qamog'i va qamoqqa olish kabi choralar ichida faqat bittasi qo'llanilishi mumkinligi hamda ularni tanlashda ayblanuvchining shaxsi, yoshi, sog'lig'i va boshqa individual holatlar hisobga olinishi shartligi belgilangan. Bu esa qonunchilik darajasida "mutanosiblik" va "individual yondashuv" tamoyillari mustahkamlanganligini ko'rsatadi.

Biroq, amaliyotda aynan ushbu tamoyillar to'liq ishlayotganligini kuzatish mumkin. Xususan, qamoqqa olish yoki uy qamog'i kabi eng og'ir ehtiyot choralarini qo'llashda sudlar tomonidan muqobil choralar (garov, kafillik va boshqalar) real baholanmaydi. Sud qarorlarida JPKda ko'rsatilgan asoslar ko'pincha

---

<sup>7</sup> [https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention\\_eng](https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_eng)

umumiy shaklda qayd etilib, masalan, “yashirinib qolishi mumkin” yoki “tergovga to‘sqinlik qilishi mumkin” kabi abstrakt iboralar bilan cheklanib qoladi.

Holbuki, JPK talabiga ko‘ra, ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorda aniq dalillar, real xavf va aynan qamoq chorasi nega zarur ekani asoslantirilishi lozim. Ushbu talabning amalda etarli darajada bajarilmasligi sud nazoratining mohiyatan formallashib borayotganidan dalolat beradi.

Garchi milliy qonunchilikda ehtiyot choralarining differensial tizimi (ya‘ni, shaxsning ijtimoiy xavfliligi va sodir etilgan qilmishning og‘irlik darajasiga qarab tabaqalashtirilgan, qamoqqa muqobil bo‘lgan choralar majmui) mustahkamlangan bo‘lsa-da, amaliyotda hamon eng qat‘iy majburlov chorasiga ustuvorlik berilmoqda. Bu holat sud nazoratining samarali “filtr” sifatidagi funksiyasini susaytirib, shaxs erkinligini cheklashda mutanosiblik (cheklov chorasining ko‘zlangan qonuniy maqsadga mosligi) va zaruriyat tamoyillarining buzilishiga sharoit yaratmoqda.

4. Tergov sudyasi instituti: normativ asos, xorijiy tajriba va amaliy muammolar.

Sud nazoratining samaradorligini ta‘minlashda muhim institutsional mexanizmlardan biri — tergov sudyasi institutidir. Ushbu institut O‘zbekiston Respublikasida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish maqsadida joriy etilgan bo‘lib, uning huquqiy asoslari “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan.<sup>8</sup>

Mazkur qonunga muvofiq, jinoyat-protsessual qonunchilikka tergov sudyasi instituti kiritilib, unga sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Tergov sudyasi vakolatlari doirasiga

---

<sup>8</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-7347837>

qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llash, ularning muddatini uzaytirish, tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitish, mol-mulkni xatlash, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish kabi shaxs erkinligi va daxlsizligiga bevosita ta'sir qiluvchi protsessual harakatlarni ko'rib chiqish kiradi.

Ko'rinib turibdiki, mazkur institutning asosiy maqsadi — tergov organlarining majburlor choralarini qo'llash borasidagi vakolatlarini mustaqil sud nazorati orqali cheklash va inson huquqlarini buzilishining oldini olishdan iborat.

Xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, kontinental huquq tizimiga mansub davlatlarda tergov sudyasi instituti ancha rivojlangan. Masalan, Fransiyada "erkinlik va qamoq bo'yicha sudya" (Juge des libertés et de la détention) tergov organlaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritib, har bir majburlor chorasi bo'yicha qarorni chuqur asoslangan tahlil asosida qabul qiladi. Germaniya amaliyotida ham sudya tergov organlarining iltimosnomalarini nafaqat formal jihatdan, balki ularning zarurligi va mutanosibligini tekshirgan holda ko'rib chiqadi. Bu esa sud nazoratining real va samarali ishlashini ta'minlaydi.

O'zbekiston modelida ham tergov sudyasiga keng vakolatlar berilgan bo'lsa-da, amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu vakolatlarning amalga oshirilishi har doim ham kutilgan darajada samarali emas. Xususan, ehtiyot choralarini qo'llash bilan bog'liq masalalarda tergov sudyasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar ko'pincha umumiy asoslantirish bilan cheklanib, muqobil choralar va individual holatlar etarli darajada tahlil qilinmaydi.

Natijada, tergov sudyasi instituti normativ jihatdan mustahkam bo'lishiga qaramay, ayrim hollarda u o'zining asl funksiyasi — ya'ni mustaqil va tanqidiy sud nazoratini amalga oshirish vazifasini to'liq bajarmayapti. Bu esa yuqorida qayd etilgan "avtomatik rozilik" fenomenining saqlanib qolishiga zamin yaratmoqda.

5. Muammoni hal etish: tergov sudyasi faoliyatini kuchaytirish yo'nalishlari.

Mazkur muammoni tizimli bartaraf etish va tergov ustidan sud nazorati samaradorligini oshirish uchun, avvalo, tergov sudyasi faoliyatining mazmuniy va funksional mustaqilligini kuchaytirish zarur deb hisoblaymiz. Bu borada quyidagi strategik yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, tergov sudyasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar uchun yuqori darajadagi asoslantirish (motivatsiya) standartlarini joriy etish lozim. Sud amaliyotida qarorlarning shablon ko‘rinishiga kelib qolishi inson huquqlari himoyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, har bir iltimosnoma yuzasidan sudya nafaqat qonuniy asoslarni, balki shaxsning jamiyatdan ajratilishini taqozo etuvchi real xavf mavjudligini va aynan tanlangan chorani qo‘llash zarurligini dalillar bilan batafsil ko‘rsatishi shart. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi pretsedentlarida (masalan, “*Letyellier Fransiya qarshi*” ishi)<sup>9</sup> ta’kidlanganidek, sud qarori shunchaki umumiy jumlar yig‘indisi emas, balki shaxsiy holatlarning chuqur tahlili bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, ehtiyot choralarini qo‘llashda “eng kam cheklov” (proportsionallik) prinsipi amalda ishlashi ta‘minlanishi kerak. Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me‘yorlari, xususan, BMTning “Tokio qoidalariga” muvofiq, qamoqqa olish faqat oxirgi chora (*ultima ratio*) sifatida qo‘llanilishi shart.<sup>10</sup> Tergov sudyasi har bir holatda muqobil variantlarni (garov, uy qamog‘i, shaxsiy kafil) real baholashi va nima sababdan engilroq choralar etarli emasligini asoslab berishi lozim.

Uchinchidan, tergov sudyasining ixtisoslashuv darajasini va institutsional maqomini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar (Fransiya, Germaniya, Estoniya) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aynan tor yo‘nalishda faoliyat yurituvchi, tergov jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur anglaydigan sudya inson huquqlari bilan bog‘liq masalalarda yanada mustaqil va adolatli qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi [3].

---

<sup>9</sup> <https://hudoc.echr.coe.int/tur#%7B%22itemid%22%3A%5B%22001-57678%22%5D%7D>

<sup>10</sup> <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/united-nations-standard-minimum-rules-non-custodial-measures>

To'rtinchidan, sud majlislarida haqiqiy tortishuvchanlik muhitini shakllantirish zarur. Amaliyotda himoya tomonining vajlari ko'pincha formal xarakterda tinglanadi. Vaholanki, himoyachining dalillari sud qaroriga bevosita ta'sir qiluvchi kuchga ega bo'lishi, tergov sudyasi esa ayblov va himoya tomoni o'rtasida xolis hakam sifatida har bir dalilga huquqiy baho berishi shart. Bu esa o'z navbatida sudgacha bo'lgan bosqichda adolat mezonlarini mustahkamlaydi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jinoyat protsessida shaxs erkinligini cheklash bilan bog'liq huquqiy munosabatlar zamonaviy huquq tartibotining eng murakkab va ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 9-moddasida mustahkamlangan "hech kim o'zboshimchalik bilan qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas" degan fundamental prinsip milliy qonunchilikda sud nazorati instituti orqali o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, uning amaliy realizatsiyasi bir qator tizimli muammolarni bartaraf etishni talab etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ehtiyot choralari qo'llashning aniq mezonlari va differensial tizimi belgilangan bo'lishiga qaramasdan, sud amaliyotida hali ham qamoqqa olish chorasiga "birlamchi vosita" sifatida qarash tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Muqobil ehtiyot choralari etarli darajada tahlil qilinmasligi va sud ajrimlarining argumentativ asoslari zaifligi, sud nazoratining mazmuniy jihatdan protsessual rasmiylashtirish jarayoniga aylanib qolish xavfini yuzaga keltirmoqda. Bu holat sud hokimiyatining shaxs huquqlari himoyachisi sifatidagi konstitutsiyaviy maqomiga putur etkazadi. Tergov sudyasi institutining joriy etilishi shaxs huquqlari kafolatlarini kuchaytirishda muhim konseptual qadam bo'ldi. Biroq, mazkur institutning samaradorligi faqatgina normativ bazaning mavjudligi bilan emas, balki sudyaning chinakam mustaqilligi, qarorlarning qat'iy dalillar bilan asoslantirilishi hamda mutanosiblik (proportionality) prinsipining real ishlashi bilan o'lchanadi. Umumiy qilib aytganda, sud nazoratini transformatsiya qilish uchun tergov

sudyasi faoliyatining institutsional mustaqilligini oshirish, sud qarorlariga nisbatan yuqori standartdagi asoslantirish talablarini joriy etish va protsessda haqiqiy tortishuvchanlik muhitini yaratish lozim. Faqatgina ushbu islohotlar orqali sud nazorati shaxs daxlsizligini ta'minlovchi samarali huquqiy mexanizm darajasiga ko'tarilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. *Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi EAG-* <https://eurasiangroup.org/en/respublika-uzbekistan>
2. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi* - <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
3. *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt* - <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>
4. *Habeas Corpus Act 1679 (Online Library of Liberty)* — <https://oll.libertyfund.org/pages/1679-habeas-corporus-act>
5. *Article 122-1 du Code pénal (Légifrance)* — [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article\\_lc/LEGIARTI000033551641](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI000033551641)
6. *Inson huquqlari bo'yicha inson Yevropa konvensiyasi (ECHR)* — [https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention\\_eng](https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_eng)
7. *United Nations Standard Minimum Rules for Non-custodial Measures (The Tokyo Rules)* — <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/united-nations-standard-minimum-rules-non-custodial-measures>
8. *Case of Fox, Campbell and Hartley v. the United Kingdom (HUDOC)* — <https://hudoc.echr.coe.int/tur#%7B%22itemid%22%3A%22001-57678%22%7D>
9. *O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun* - <https://lex.uz/ru/docs/-7347837>
10. *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi* - <https://lex.uz/docs/-111460>

**J.R.Allambayev,**  
*Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti o'qituvchisi*

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD-HUQUQ TIZMIDAGI ISLOHOTLAR.**

*Asosiy maqsadimiz, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo'lgan ishonchini qat'iy mustahkamlash, sudni tom ma'noda "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirishdan iboratdir.*

**Sh.M.Mirziyoyev**

Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash va nufuzini oshirish, uni ilgarigi jazolovchi organdan inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiladigan, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning muhim vositasi bo'lgan institutga aylantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish sud-huquq sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan. Harakatlar strategiyasi amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida sud-huquq sohasidagi islohotlar bilan bog'liq prinsipial o'zgartishlar kiritilgani, sudyalikka nomzodlarni tanlash va lavozimga tayinlash tizimini tubdan takomillashtirish, yuqori malakali sudyalar korpusini shakllantirish maqsadida sudyalar hamjamiyatining yangi organi – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etilgani bu yo'nalishdagi islohotlar izchil davom ettirilayotganining tasdig'i sifatida e'tirof

etiladi. Mamlakatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sud tizimini izchil demokratlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy normalarga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlash hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Sudlar to‘g‘risidagi qonuning 14-moddasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlaridan, harakatlari va harakatsizligidan, shu jumladan ularning qarindoshlari sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar munosabati bilan huquqlarining cheklanishidan, shuningdek hayoti va sog‘lig‘i, sha‘ni hamda qadr-qimmat, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo‘lish huquqiga ega. Yuridik shaxslar ham sud himoyasida bo‘lish huquqiga egadir.<sup>1</sup>

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham sud himoyasida bo‘lish huquqiga egadir. Fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud orqali samarali himoya qilinishini ta‘minlash maqsadida sud muhokamasining barcha bosqichlarida va qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi masalalar sudlar tomonidan ko‘rilayotganda prokuror ishtirok etishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu esa o‘z navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta‘siridan chiqarish imkonini berganini alohida ta‘kidlash lozim. Oldinlari sudyalik lavozimiga nomzodlarni ko‘rib chiqish, sudyalarning vakolatini to‘xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo‘zg‘atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilganligi sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining 28.07.2021-yildagi Sudlar to‘g‘risidagi O‘RQ-703-son qonuni

Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilganini ta'kidlash lozim. Buning uchun "Habeas korpus" institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda prinsipial muhim qadam bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyov sudyalar bilan uchrashuvdagi nutqida "Sudya lavozimida faoliyat ko'rsatayotgan sud xodimlari o'z faoliyati yuzasidan xalq deputatlari mahalliy kengashlarida axborot berishi bilan bog'liq amaliyotni yo'lga qo'yish vaqti kelgani qayd etilib, bundan buyon sudyalar faoliyatiga, birinchi navbatda, xalqning o'zi baho berish tizmi" yo'lga qo'yildi.<sup>2</sup> Odil sudlov akademiyasini tashkil etildi.

Prezidentimiz tomonidan sud tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida bu boradagi ishlarni mahalla, korxonalar va tashkilotlarda sayyor sud majlislarida ko'rish ko'lamini kengaytirish, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, jumladan, elektron sud stenografiyasi, videokonferensaloqa, elektron jinoyat ishi yuritishni keng joriy etish, sud qarorlari ijrosini so'zsiz ta'minlovchi idoralararo elektron ma'lumot almashish tizimini shakllantirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabr "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" to'g'risidagi 4850-sonli farmonida asosan davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining muhim vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 13.06.2017 yildagi "Sud organlari tizimida odil sudlovni ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi.

- sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga va odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga og'ishmay amal qilinishini ta'minlash;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilish holatlari yuzasidan zudlik bilan zarur choralar ko'rish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik va befarq munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun jinoiy javobgarlikkacha bo'lgan javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek buzilgan huquqlarni tiklash bo'yicha barcha zarur choralarini ko'rish;

- faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va aholi bilan hamkorlik qilishning samarali mexanizmlarini keng qo'llash;

- faoliyatni ish yakunlarining kompleks tahlili asosida rejalashtirish va tashkil etish, bunda e'tiborni avvalo huquqni qo'llash amaliyoti va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish orqali tizimli qonunbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etishga qaratish;

- xodimlar o'rtasida suiiste'molchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika qilish va ularga chek qo'yish bo'yicha idoraviy nazoratni kuchaytirish, odob-axloq qoidalariga og'ishmay rioya etilishini ta'minlash;

- yuksak axloqiy-irodaviy va kasbiy fazilatlariga ega, yuklatilgan vazifalar va amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan kadrlarni shaffof tanlov asosida ishga qabul qilish tizimini takomillashtirish;

- fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg'or ilmiy-texnika vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shuningdek ishni tashkil etishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

Sudyalik lavozimiga birinchi marotaba besh yil muddatga va keyin o'n yil muddatga, shundan so'ng muddatsiz davrga tayinlash (saylash) tizimi yo'lga qo'yildi.

Inson hayoti taqdirini qonunlarga asosan javobgarlikni belgilashi, sudyalik kasbining ma'sulliyati juda katta ekanligida namoyon bo'ladi. Sud qarorlarni qabul qilgandan so'ng har xil tazyiqlarning oldini olish uchun sudyalarning shaxsi daxlsizligi belgilangan. Sudyaning daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, foydalanadigan transporti va aloqa vositalariga, xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga taalluqlidir. Shu bilan birga sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida ularga tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, adliya vaziri tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha o'qotar qurol beriladi. Zarur hollarda tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi.

Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Sudya O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi olinmasdan va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Sudya O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi olinmasdan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Sud hokimyatining chinakam mustaqil bo'lishi uchun faqat siyosiy jihatdan emas balki moddiy-texnik jihatdan ham mustaqil bo'lishi lozim.

Qonunda sudlarni moliyalashtirish, ularning moddiy-texnika va o'zga xil ta'minoti, binolarini qo'riqlash va saqlab turish respublika byudjetining hamda Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Ajratiladigan mablag'larning miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Har bir sud alohida bino, qo'riqlash va avtotransport bilan ta'minlanadi.

Sudyalarning ish haqi lavozim maoshidan, malaka darajasi, ko'p yillik xizmati uchun to'lanadigan ustama haqlardan iborat bo'lib, uning miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Sudyalar o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etiladi.

Sudyalarga har yili o'ttiz olti ish kunidan iborat haq to'lanadigan ta'til beriladi.

Sudyalarning hayoti va sog'lig'i davlatning maxsus muhofazasida bo'ladi hamda respublika budjeti mablag'lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug'urta qilinadi.

Vakolatlari muddati tugagan sudyalarning o'rtacha oylik ish haqi ularni yangi vakolatlar muddatiga qayta saylash yoki qayta tayinlash uchun hujjatlari ko'rib chiqiladigan davrda yoxud yangi ish joyiga ishga joylashtirilgunga qadar, lekin ko'pi bilan uch oygacha saqlab qolinadi.

Sudyalarga ularning vakolatlari tugaganidan keyin ular sudyalik lavozimiga saylanishga yoki tayinlanishga qadar egallab turgan avvalgi ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) mavjud bo'lmaganda esa, avvalgisiga teng boshqa ish (lavozim) beriladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining markaziy yo'nalishlaridan biri sud tizimida inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish hisoblanadi. Ushbu islohotlar doirasida jinoyat protsessi bosqichida yangi institut - tergov sudyasi instituti joriy etilishi sud hokimiyati tizimida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur institutning shakllanishi nafaqat jinoyat protsessiga, balki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish amaliyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, ushbu institutning asosiy maqsadi sudgacha bosqichda inson huquqlarining sud nazorati orqali himoyasini kuchaytirish va protsessual adolatni ta'minlashdan iboratdir.

Tergov sudyasi institutining eng muhim yangiliklaridan biri - unga ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatining berilishidir. Bu o'zgarish sud tizimi yuklamasini qayta

taqsimlash bilan birga, ma'muriy ishlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tergov sudyasi institutining joriy etilishi O'zbekiston sud tizimida muhim institutsional islohot sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning ma'muriy huquqbuzarlik ishlariga tatbiq etilishi sud amaliyotida ixtisoslashuvni kuchaytirish, sud yuklamasini optimallashtirish va eng muhimi, shaxs huquqlarini sud orqali himoya qilish kafolatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu institut kelgusida ma'muriy adliya tizimining samaradorligini oshiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida shakllanib bormoqda.

Xulosa qilib, hozirgi kunda sud-huquq sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini va yagona sud amaliyotini ta'minlash, odil sudlovga erishish darajasini va uni amalga oshirish sifatini yaxshilash, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik olib borish, aholi bilan muloqotni yo'lga qo'yish, sudyalar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, sudyalar korpusini shakllantirish lozim.

Sudlar faoliyati samaradorligini oshirish va sud kadrlari zaxirasini tayyorlash uchun sudlar tuzilmasiga sudya yordamchisi, sudya katta yordamchisi lavozimlarini kiritish nazarda tutildi.

Sudlar faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ya'ni sud majlislarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish, elektron jinoyat ishlari yuritish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ma'lumotlarning elektron aylanuvi joriy etish shiddat bilan amalga oshirilyotgani sud tizimiga bo'lgan ishonchning ortib borishi dalolat beradi. Xozirgi davrda xar bir fuqaro o'z huquq va erkinliklari oshib borishi bilan axolining huquqiy madaniyati oshish kuzatiladi. Shuning uchun xam yuridik kadrlar tayyorlash tizimiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

## **SUDYALAR MUSTAQILLIGI KAFOLATLARINING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI**

Huquqiy davlat qurilishida sud hokimiyatining va sudyalarning mustaqilligi markaziy ahamiyatga ega. Sudyaning faqat qonunga bo'ysunishi, tashqi ta'sirlardan xoli holda hukm chiqarishi – adolatli sudlovning asosi hisoblanadi. Mazkur tamoyil nafaqat milliy huquqimizda, balki xalqaro huquqning bir qator asosiy me'yoriy hujjatlarida ham o'z ifodasini topgan.

Rossiyalik huquqshunolar V.V.Ershov va I.B.Mixaylovskaya ta'kidlaganidek, sud mustaqilligi – yuridik mustaqillik bilan birgalikda sudyalarning psixologik va ahloqiy mustaqilligini ham o'z ichiga oluvchi ko'p qirrali tushuncha[1]. Shuningdek, sudyalar mustaqil bo'lishi uchun ularga kafolatlar ham beriladi.

Sudyalar mustaqilligi masalasini huquqiy jihatdan tartibga solishdagi dastlabki va eng muhim xalqaro hujjat 1985-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 40/32 va 40/146-sonli rezolyutsiyalar orqali ma'qullangan “Sud organlari mustaqilligiga oid asosiy tamoyillar” (BMT asosiy tamoyillari)dir. Ushbu hujjatning 1-moddasida “Sudyalarning mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi va Konstitutsiya yoki qonunda mustahkamlanadi” deb belgilangan bo'lib, bu mustaqillikni sud tizimining tuzilmaviy xususiyati sifatida ta'riflaydi[2]. Tamoyillarning 2-moddasida sudyalar “ishni xolis tarzda, faktlar asosida va qonunga muvofiq hal etadi, hech qanday to'g'ridan – to'g'ri yoki bilvosita ta'sir, bosim, tahdid yoki aralashuvsiz” faoliyat yuritishi kerakligi ko'rsatilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasi har kimga “mustaqil va xolis” sud tomonidan adolatli muhokama huquqini kafolatlaydi[3]. Inson huquqlari bo'yicha BMT Qo'mitasi 32-sonli umumiy izohida ushbu norma batafsil talqin etilib, “mustaqillik” sudning ijro etuvchi hokimiyatdan, qonun chiqaruvchi hokimiyatdan, taraflardan va ijtimoiy manfaatlardan

mustaqil bo'lishini nazarda tutishini ta'kidlaydi[4]. Zero sud hokimiyati ushbu hokimiyatlardan mustaqil faoliyat yurita olmas ekan, shuningdek sudyalari mustaqilligi kafolatlari to'laqonli ta'minlanmas ekan, odil sudlov haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Xalqaro huquq nazariyasida sudyalari mustaqilligini kafolatlash mexanizmlari uch asosiy guruhga ajratiladi: tuzilmaviy kafolatlar, moliyaviy kafolatlar va protsessual kafolatlar. Nemis olimlari K.Shlayx va S.Koriot sud mustaqilligini "davlat tuzilishining funksionala sharti" deb ta'riflab, kafolatlar tizimini huquqiy davlat prinsiplari nuqtai nazaridan tahlil qilgan[5].

Tuzilmaviy kafolatlar nuqtai nazaridan eng muhim masalalardan biri – sudyalarni tayinlash va lavozimdagi barqarorlikni ta'minlash. BMT Asosiy tamoyillarining 10-moddasiga binoan sudyalari majburiy nafaqa yoshigacha yoki vakolat muddati tugaguniga qadar lavozimida saqlanadilar. Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasining CM/Rec(2010)12-sonli tavsiyasida sud hokimiyati kengashlarida saylanadigan a'zolarining ko'pchiligini sudyalari tashkil etishi lozimligi belgilangan[6]. Biz O'zbekiston Respublikasi Sudyalari Oliy Kengashi tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, haqiqatan ham yuqoridagi tavsiyaga amal qilinganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni Sudyalari Oliy Kengashi sudyalari korpusini shakllantiradigan asosiy organ va uning a'zolarining ko'pchiligini sudyalari tashkil qiladi.

Sudyalarni lavozimidan olish tartibi ham mustaqillikning muhim kafolati hisoblanadi. BMT Asosiy tamoyillarining 18-20 moddalari sudyalarni lavozimidan olish tartibi faqat aniq belgilangan huquqiy asoslarda va shaffof jarayonda amalga oshirilishi kerakligini belgilaydi. Fikrimizcha bizning qonunchiligimizda ham sudyalarni lavozimidan olish bo'yicha protsessual tartib – tamoyillarni yanada aniqlashtirish zarur.

Sudyalari mustaqilligining yana bir muhim kafolatlaridan biri bu – moliyaviy mustaqillik. Yuqorida ta'kidlagan BMT Asosiy tamoyillarining 11-moddasiga ko'ra "sudyalarning vakolatlari,

mustaqilligi va ish haqi ularning xizmat muddati davomida munosib ta'minlanishi" lozimligini belgilaydi.

Endi sudyalarning mustaqilligi kafolatlarining tergov sudyasi misolida qaraydigan bo'lsak, tergov sudyasi (investigating judge) – huquqiy tizimlar tarixida dastlab Fransiyada shakllangan, keyinchalik boshqa davlatlarga yoyilgan. Uning asosiy vazifasi jinoyat protsessining dastlabki tergov bosqichini mustaqil sud nazoratida olib borishdan iborat. Xalqaro huquq doirasida mazkur institutning mustaqillik kafolatlari umumiy sudyalarning mustaqilligi standartlari asosida belgilanadi. Yevropa inson huquqlari sudi T.W. – Malta (1999) ishida tergov sudyasi faoliyatiga nisbatan mustaqillik va xolislik talablarini qo'llab, uni rasmiy sud ishini yuritishdan ajratib bo'lmashligini ta'kidlagan[7].

BMT Asosiy tamoyillarining 4-moddasi “tegishli vakolatga ega bo'lmagan har qanday tashkilot yoki shaxs sud ishlariga aralashmasligi” lozimligini belgilaydi[8]. Tergov sudyasi uchun ushbu norma ikki tomonlama ta'sirga ega: u tergov organlari ta'siridan ham, yuqori sud instansiyalari tomonidan protsessual boshqaruvdan ham mustaqil bo'lishi lozim.

Sudyalarning mustaqilligi kafolatlarining xalqaro huquqiy bazasi – BMT Asosiy tamoyillari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, va mintaqaviy inson huquqlari mexanizmlari – ikkita bir-biriga bog'liq bo'lgan kafolatlar tizimini tashkil qiladi. Bular tuzilmaviy mustaqillik – sud hokimiyatining boshqa hokimiyatlardan tashkiliy-huquqiy jihatdan mustaqilligi, shaxsiy mustaqillik – sudyaning muayyan ishni ko'rishda, unga bo'ladigan har qanday bosim yoki ta'sirdan mustaqilligi.

Ilmiy – nazariy taklifga keladigan bo'lsak, sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini tadqiq etishda, ikkala yondashuv ya'ni tuzilmaviy va shaxsiy mustaqillik kompleks tarzda qo'llanilishi lozim. Faqat bitta yondashuvga asoslanilsa, amaldagi kamchiliklarni ko'rishni imkoni bo'lmaydi. O'zbekiston huquqshunosligi sud hokimiyati mustaqilligi indikatorlarini o'lchashning standartlashgan metodologiyasini ishlab chiqishi lozim, zero aksariyat tadqiqotlar

normativ – huquqiy hujjatlarga asoslanib, amaliyotni to‘la baholay olmayapti.

Amaliy takliflarga to‘xtaladigan bo‘lsak, sudyalarni tayinlash jarayonida Sudyalar Oliy Kengashining real vakolatlarini kuchaytirish va boshqa organlarning “tavsiya” mexanizmi orqali ta’sirini rasmiy jihatdan cheklash zarur. Sudyalarning maoshini avtomatik indeksatsiya tizimiga o‘tkazish moliyaviy mustaqillik kafolatlarini mustahkamlagan bo‘lardi.

Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflarga keladigan bo‘lsak, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunga sudyalarning moliyaviy mustaqilligini kafolatlaydigan avtomatik indeksatsiya mexanizmini kiritilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunda tergov sudyasini tayinlash, shuningdek Jinoyat – protsessual kodeksida uning protsessual mustaqilligini kafolatlaydigan me’yorlar yanada aniqlashtirilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1. Еришов В.В., Михайловская И.Б. Судебная власть и уголовное судопроизводство. Москва: Юридическая литература, 2019. 384 с.*
- 2. United Nations Basic Principles on the Independence of the Judiciary, UN General Assembly Res. 40/32 and 40/146, 1985.*
- 3. International Covenant on Civil and Political Rights, Art. 14, UN General Assembly Res. 2200A (XXI), 1966.*
- 4. UN Human Rights Committee, General Comment No. 32 on Article 14 (CCPR/C/GC/32), 2007.*
- 5. Schlaich K., Koriath S. Das Bundesverfassungsgericht. München: C.H. Beck, 2018. 512 S*
- 6. Council of Europe Committee of Ministers, Recommendation CM/Rec(2010)12 on judges: independence, efficiency and responsibilities, 2010.*
- 7. European Court of Human Rights, Findlay v. United Kingdom, Application No. 22107/93, 1997; T.W. v. Malta, Application No. 25644/94, 1999.*
- 8. United Nations Basic Principles on the Independence of the Judiciary, UN General Assembly Res. 40/32 and 40/146, 1985.*

**N.O.Xolliyeva,**

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
magistratura tinglovchisi*

## **KIBERJINOYATLAR BO'YICHA SUDGA QADAR ISH YURITISHDA TERGOV SUDYASI NAZORATINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola kiberjinoyatlar bo'yicha sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi nazoratini raqamli transformatsiya qilishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan. Tadqiqotda Budapesht konvensiyasi, YeI e-Dalil tizimi va ISO/IEC 27037 standartlari kabi xalqaro mexanizmlar tahlil qilinadi. O'zbekistonning so'nggi qonunchilik islohotlari doirasida raqamli dalillarning maqbulligi, sun'iy intellekt va Deepfake texnologiyalari bilan bog'liq huquqiy bo'shliqlar o'rganilgan. AQSh va Yevropa davlatlari tajribasi qiyoslanib, milliy Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslarini takomillashtirish bo'yicha aniq moddama-modda takliflar ishlab chiqilgan. Maqola kiber-tergovda inson huquqlari va texnologik samaradorlik muvozanatini ta'minlashga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kiberjinoyat, tergov sudyasi, raqamli dalil, Budapesht konvensiyasi, sun'iy intellekt, Deepfake, sanksiya, raqamli kriminalistika.*

Kiberjinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xosligi, jumaladan, anonimlik, transchegaraviylik, dalillarning o'zgaruvchanligi va yo'q qilinish xavfi yuqoriligi an'anaviy sud nazorati mexanizmlari oldiga jiddiy chaqiriqlarni qo'ymoqda. Sudyalar nafaqat qonuniylikni ta'minlashi, balki axborot tizimlaridan olingan elektron ma'lumotlarning maqbulligi, yaxlitligi va ishonchligini baholay olishi kerak. Bu borada O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari bilan JPKga "Raqamli dalillar" tushunchasining hamda telefon so'zlashuvlarini eshitishni 48 soat ichida sudyalik tekshiruvdan o'tkazish tartibining kiritilishi muhim qadam bo'ldi [1, 2]. Biroq, AI vositasida sodir etilayotgan jinoyatlar va bulutli texnologiyalar sharoitida tergov sudyasining sanksiya berish vakolatlari doirasi bo'shliqlar bilan qolmoqda.

Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy tahlil hamda huquqiy modellashtirish metodlaridan foydalanildi. FATF, ISO/IEC, YeI Yo'riqnomalari kabi xalqaro normativ hujjatlar va milliy qonunchilik hujjatlarining matniy tahlili amalga oshirildi.

Yevropa Kengashining Kiberjinoyatlar to'g'risidagi Konvensiyasi va uning 2021-yilda qabul qilingan Ikkinchi qo'shimcha protokoli xalqaro darajada elektron dalillarni tezkorlik bilan ochish va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik qilish mexanizmlarini yaratdi [3, 4]. Tergov sudyalari uchun Budapesht konvensiyasining eng muhim jihati uning 15-moddasi bo'lib, u sud huquqni muhofaza qiluvchi organlarga sanksiya berishda shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligi huquqlariga mutanosiblik prinsipiga amal qilishini talab qiladi.

Bunga parallel ravishda, Yevropa Ittifoqi raqamli dalillar bilan ishlashni tezlashtirish maqsadida e-Evidence, ya'ni e-Jinoyat paketini joriy etdi [5]. Bu tizim orqali bir a'zo davlatning sudi yoxud vakolatli organi boshqa davlat hududida joylashgan IT-kompaniyaga to'g'ridan-to'g'ri "Yevropa ma'lumotlarni taqdim etish orderi" va "Saqlab turish orderi" yuborish imkoniga ega bo'ldi.

Moliyaviy sohada esa, FATF - Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh standartlari virtual aktivlar harakatini kuzatish va kiber-jinoyatchilarni moliyalashtirish kanallarini to'sishda raqamli izlarni huquqiy rasmiylashtirish majburiyatini davlatlar zimmasiga yuklamoqda [6].

Raqamli dalillar huquqiy e'tirof etilishi uchun texnik standartlarga mos ravishda yig'ilishi shart. Xalqaro amaliyotda ISO/IEC 27037 va ISO/IEC 27041 standartlari raqamli dalillarning sud oldida maqbulligini va haqqoniyligini ta'minlovchi dunyodagi eng nufuzli texnik mezonlar hisoblanadi [7, 8]. Ushbu standartlar raqamli dalil bilan ishlashda "zanjirli saqlash", ya'ni "Chain of Custody" tamoyiliga tayanadi.

Tergov sudyasi kompyuter tarmog'ida tintuv o'tkazishga yoki raqamli qurilmani xatlashga sanksiya berayotganda, tergovchining harakatlari ushbu ISO standartlariga mosligini, xususan

ma'lumotlarning xesh-summalari o'zgartirilmagan holda nusxa olinishini qat'iy nazorat qilishi kerak.

Qolaversa, Sun'iy intellekt va Deepfake masalalairda Yevropa Ittifoqining "AI Act" qonunchiligiga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan shaxslarni biometrik identifikatsiya qilish tizimlari "Yuqori xavfli" toifasiga kiritilgan bo'lib, ulardan faqat sudning qat'iy sanksiyasi asosida, istisno tariqasidagina foydalanish mumkin [9].

Bugungi kunda Deepfake texnologiyasi orqali qilingan soxta video va audio yozuvlar yordamida "Kiber-tovlamachilik" va firibgarlik jinoyatlari avj olmoqda. Tergov sudyasi tergov organlari tomonidan taqdim etilgan raqamli dalilning originalligini tekshirish uchun darhol sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasini tayinlash masalasini ko'rib chiqishi yoki "Zero Trust", ya'ni Nol ishonch arxitekturasi prinsiplari asosida raqamli dalilni apriori soxtalashtirilgan deb hisoblab, uni texnik tasdiqlashni talab qilishi lozim.

WhatsApp, Telegram kabi messenjerlar tomonidan qo'llaniladigan uchma-uchga shifrlash texnologiyalari - E2EE muammosi ma'lumotni tranzit paytida ochiq ushlab bo'lmaydigan holatga keltirgan. Shunday sharoitda sudyalari tergovchilarning maqsadli troyan viruslari yoki josuslik dasturlaridan foydalanib, to'g'ridan-to'g'ri shaxsning mobil qurilmasini masofadan turib tintuv qilishiga sanksiya berish-bermaslik masalasida katta huquqiy dilemmaga duch kelmoqdalar. Bu holat raqamli makonda shaxs daxlsizligi huquqiga nisbatan eng katta tahdiddir.

AQSh Konstitutsiyasining To'rtinchi tuzatishi noqonuniy tintuv va xatlashni taqiqlaydi [10]. Taniqli huquqshunos Orin Kerrning "Tenglikni sozlash" nazariyasiga ko'ra esa, raqamli makonda texnologiya huquqni muhofaza qiluvchi organlar foydasiga yoxud zarariga ishlasa, sud amaliyoti bu muvozanatni tiklashi kerak [11]. Shuning uchun AQSh federal sudyalari raqamli tintuv orderlarini berishda tintuv protokoli talab qiladi – tergovchi faqat qaysi turdagi fayllarni, qanday kalit so'zlar yordamida qidirishini oldindan ko'rsatishi shart. Barcha ma'lumotlarni yoppasiga ko'chirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

Fransiya jinoyat protsessida Tergov sudyasi kiberjinoyatlar doirasida barcha texnik va yashirin tergov harakatlarini, jumladan, tarmoqni masofadan turib kuzatish bevosita o'zi boshqaradi [12]. Germaniyada esa "Ermittlungsrichter" faqatgina sanksiya beradi [13]. Germaniya Konstitutsiyaviy sudi maxsus "Axborot texnologiyalari tizimlarining maxfiyligi va yaxlitligiga bo'lgan asosiy huquq"ni yaratdi, bu esa masofaviy kompyuter tintuviga sud sanksiyasini juda tor doirada, faqat eng og'ir jinoyatlarda berilishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga raqamli dalillar tushunchasi va ularni individuallashtirish tartibi kiritilgan bo'lsa, Oliy sud Plenumining 2024-yil 16-dekabrda o'zgartirishlari bu turdagi dalillarni ishga daxldor deb topish mezonlarini belgilab berdi. Bularning mantiqiy davomi sifatida 2025-yil yanvaridagi O'RQ-1022-sonli Qonun bilan tergov sudyasi instituti kuchaytirilib, telekommunikatsiya qurilmalari orqali so'zlashuvlarni eshitish ustidan qat'iy sud nazorati o'rnatildi va protsessual qonunbuzarlik aniqlangan taqdirda barcha olingan ma'lumotlarni JPKning 95<sup>1</sup>-moddasiga asosan apriori nomaqbul dalil deb topish mexanizmi joriy etildi.

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi bu kabi qonunchilik islohotlariga qaramasdan, sohada bir qator tizimli huquqiy bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Xususan, amaldagi Jinoyat kodeksida sun'iy intellekt vositasida jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida malakalanmasligi hamda deepfake texnologiyalari orqali shaxsning biometrik ma'lumotlarini soxtalashtirib tovlamachilik qilish bo'yicha maxsus normalarning mavjud emasligi huquqiy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, protsessual qonunchilikda xorijiy serverlar yoki bulutli omborlardagi ma'lumotlarni zudlik bilan muzlatib qo'yish bo'yicha tergov sudyasining vakolatlari to'liq yoritilmaganligi bilan bir qatorda, smartfonlarni FaceID, TouchID kabi biometrik usullar orqali majburan ochtirish tartibi "o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik" prinsipi bilan to'qnash kelayotgani raqamli dalillar bilan ishlashda sud sanksiyasi mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Xalqaro xususiy va ommaviy kiber-huquq talablari hamda O'zbekistonning raqamli jinoiy siyosatini takomillashtirish maqsadida, Jinoyat kodeksining 56-moddasiga jinoyatni deepfake texnologiyalari yoki sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda sodir etishni jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida kiritish hamda 165-moddani ransomware va sun'iy intellekt yordamida generatsiya qilingan soxta ma'lumotlar bilan tahdid qilish kabi kiber-tovlamachilik elementlari bilan to'ldirish taklif etiladi. Ushbu moddiy huquq normalari raqamli makonda shaxs huquqlarining himoyasini kuchaytirish bilan birga, zamonaviy texnologik xavflarga nisbatan adolatli jazo muqarrarligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Protsessual islohotlar doirasida esa, Jinoyat-protsessual kodeksining 162-moddasiga raqamli tashuvchilar va bulutli omborlarda tintuv o'tkazishni faqat tergov sudyasining sanksiyasi asosida, ma'lumotlarni individuallashtirish talabi bilan cheklashni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritish zarur. Shu bilan birga, JPKning 205-moddasiga E2EE shifrlangan tizimlardan ma'lumot olishni inson huquqlari mutanosibligi hamda ISO/IEC 27037 xalqaro standartlari asosida amalga oshirish tartibini joriy etish, raqamli dalillarning texnik yaxlitligi va sud oldida maqbulligini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, Budapesht konvensiyasi doirasida xorijiy provayderlar bilan hamkorlik qilish imkonini yaratilsa kiberjinoyat izlarini saqlab qolishning operativligini ta'minlash maqsadida yangi 208-1-moddani joriy etish orqali tergov sudyasiga raqamli ma'lumotlarni 90 kungacha bo'lgan muddatga muzlatib qo'yish vakolatini berilishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli makonda jinoyatlarni tergov qilish jarayonida tergov sudyasi an'anaviy huquqshunosdan texnologik jihatdan savodli huquq himoyachisiga aylanishi shart. O'zbekiston jinoyat-protsessual huquqiga taklif qilinayotgan bu o'zgarishlar e-Dalil tizimlari bilan uyg'unlashuvni, FATF xalqaro talablarini bajarishni va fuqarolarning raqamli huquqlarini ishonchli kafolatlashni ta'minlaydi. Kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurash jinoyat-protsessual qonunchiligini izchil, xalqaro andozalar asosida raqamli transformatsiya qilishga bevosita bog'liqdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1003-son Qonuni // Qonununchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2024-y., 03/24/1003/1020-son.
2. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-yanvardagi "Tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1022-son Qonuni // Qonununchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2025-y., 03/25/1022/0064-son.
3. Council of Europe. (2001). *Convention on Cybercrime (ETS No. 185)*. Budapest, 23.XI.2001.
4. Council of Europe. (2021). *Second Additional Protocol to the Convention on Cybercrime on enhanced co-operation and disclosure of electronic evidence. Draft Protocol Version April 12, 2021*.
5. ZRS Koper. (2024). *Implementation of the e-Evidence Package: New Challenges for Judicial Cooperation in Criminal Matters. Research and Analysis Report*. — Koper: Science and Research Centre Koper.
6. FATF (2024), *Virtual Assets: Targeted Update on Implementation of the FATF Standards on VAs and VASPs*, FATF, Paris.
7. ISO/IEC 27037:2012. *Information technology — Security techniques — Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence*.
8. ISO/IEC 27041:2015. *Information technology — Security techniques — Guidance on assuring suitability and adequacy of incident investigation method*.
9. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) // *Official Journal of the European Union*. — 2024. — L 2024/1689.
10. U.S. Constitution. Amendment IV. *Search and Seizure (1791)* // U.S. National Archives.
11. Kerr, O. S. (2024). *Equilibrium-Adjustment in Digital Evidence Law*. Berkeley Technology Law Journal, Vol. 39.
12. Code de procédure pénale (France). Article 706-102-1 [Captation de données informatiques] // *Légifrance, Service Public de la Diffusion du Droit*.
13. Bundesverfassungsgericht (Germany). *Judgment of the First Senate of 27 February 2008 (1 BvR 370/07) – Online Searches (IT-Grundrecht0)*.

**S.Z.Sapayev,**

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
magistratura tinglovchisi*

## **KIBERXAVFSIZLIK SOHASIDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada kiberxavfsizlik sohasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari milliy qonunchilik, xalqaro standartlar va raqamli xavflar uyg'unligida tahlil qilinadi. Muallif shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni faqat texnik axborot xavfsizligi masalasi sifatida emas, balki inson huquqlari, operator mas'uliyati, raqamli suverenitet, transchegaraviy ma'lumotlar oqimi va institutsional nazorat bilan bog'liq kompleks huquqiy siyosat sifatida asoslaydi.*

**Kalit so'zlar:** *kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar, ma'lumotlar xavfsizligi, raqamli suverenitet, operator, subyekt huquqlari, transchegaraviy uzatish, sun'iy intellekt.*

**Kirish.** Raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy ma'lumotlar oddiy identifikatsiya vositasidan strategik axborot resursiga aylandi. Elektron davlat xizmatlari, bank va to'lov tizimlari, mobil ilovalar, telekommunikatsiya tarmoqlari, bulutli hisoblash hamda sun'iy intellekt platformalari fuqarolar haqidagi ma'lumotlarning doimiy yig'ilishi va qayta ishlanishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni shaxsga doir ma'lumotlarni muayyan jismoniy shaxsga taalluqli yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan axborot sifatida belgilaydi<sup>1</sup>. 2026–2030 yillarga mo'ljallangan Kiberxavfsizlik strategiyasi esa kelgusi besh yilda kiberxavfsizlikni ta'minlashning ustuvor

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni, 02.07.2019 y. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 03.07.2019. – 03/19/547/3363-son.

yoʻnalishlarini belgilashga qaratilgan<sup>2</sup>. Shu bois mazkur sohadagi ustuvor yoʻnalishlarni aniqlash inson huquqlari, davlat boshqaruvi va kiberxavfsizlik siyosati kesishgan nuqtada alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kiberxavfsizlik sohasida shaxsiy maʼlumotlarni muhofaza qilishning birinchi ustuvor yoʻnalishi - uni inson huquqlariga asoslangan maxsus huquqiy rejim sifatida rivojlantirishdir. Maʼlumotlarni himoya qilish faqat server, kriptografiya yoki tarmoq xavfsizligi bilan cheklanmaydi; u shaxsning xususiy hayoti daxlsizligi, axborot ustidan nazorat qilish imkoniyati va huquqiy himoya kafolatlarini ham qamrab oladi. “Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida”gi Qonun kibernakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan munosabatlarni tartibga soladi<sup>3</sup>. Demak, shaxsiy maʼlumotlar muhofazasi kiberxavfsizlikning texnik emas, balki huquqiy-maʼnaviy markazida turishi lozim.

Ikkinchi ustuvor yoʻnalish - xavfga asoslangan yondashuvni joriy etishdir. Barcha shaxsiy maʼlumotlar bir xil xavf darajasiga ega emas: pasport maʼlumotlari, biometrik identifikatorlar, genetik maʼlumotlar, telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanuvchilar haqidagi maʼlumotlar va moliyaviy axborotdan noqonuniy foydalanish oqibatlari turlicha boʻladi. Shuning uchun operatorlar tomonidan maʼlumotlar turi, ishlov berish maqsadi, saqlash muddati, uchinchi shaxslarga uzatish holati va ehtimoliy zarar darajasiga qarab xavflarni baholash majburiy amaliyotga aylanishi zarur. GDPRda maʼlumotlarni minimallashtirish, maqsad bilan cheklash, yaxlitlik va maxfiylik prinsiplarining mustahkamlanishi aynan shu xavfga asoslangan yondashuvning huquqiy ifodasidir<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-38-son Farmoni, 10.03.2026 // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi. – 11.03.2026.

<sup>3</sup> Oʻzbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida”gi OʻRQ-764-son Qonuni, 15.04.2022 // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi. – 16.04.2022. – 03/22/764/0313-son.

<sup>4</sup> European Parliament and Council. Regulation (EU) 2016/679 of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the

Uchinchi yo‘nalish - raqamli suverenitet va transchegaraviy ma’lumotlar aylanmasini muvozanatli tartibga solishdir. Ma’lumotlarni faqat lokallashtirish orqali himoya qilish etarli emas, chunki iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot va davlat xizmatlari xalqaro axborot almashinuvisiz to‘liq rivojlana olmaydi. Biroq transchegaraviy uzatishda subyekt huquqlari pasayib ketmasligi, ma’lumotlar xorijda ham teng darajada muhofaza qilinishi va operatorning javobgarligi saqlanishi shart. 2026 yilgi O‘RQ-1125-son Qonun bilan O‘zbekiston hududida saqlanishi lozim bo‘lgan ayrim ma’lumotlar toifalari va mamlakat tashqarisida saqlash hamda ishlov berish shartlari aniqlashtirildi<sup>5</sup>. Bu o‘zgarishlar raqamli suverenitetni mutlaq izolyatsiya emas, balki huquqiy kafolatlariga asoslangan nazoratli ochiqlik sifatida tushunish zarurligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish - biometrik, genetik va boshqa yuqori sezgir ma’lumotlar uchun kuchaytirilgan muhofaza standartlarini belgilashdir. Bunday ma’lumotlar shaxsni o‘zgartirib bo‘lmaydigan belgilari orqali tanib olish imkonini beradi, shu sababli ular sizib chiqqanda oddiy parol yoki karta raqamidan farqli ravishda “almashtirib qo‘yish” imkoniyati mavjud emas. Ilmiy nuqtai nazardan, yuqori sezgir ma’lumotlar rejimida uchta talab bir vaqtning o‘zida amal qilishi lozim: aniq huquqiy asos, ishlov berishning zarurligi va mustaqil nazorat. Bu talablar biometrik identifikatsiya, videokuzatuv, raqamli ID va elektron davlat xizmatlari uchun ayniqsa muhimdir.

Beshinchi yo‘nalish - sun‘iy intellekt, profillashtirish va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonlarida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishni alohida huquqiy tartibga solishdir. Sun‘iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlar asosida xulosa chiqaradi, inson xulq-atvorini bashorat qiladi va ayrim hollarda

---

free movement of such data // Official Journal of the European Union. – 2016. – L 119. – P. 1–88.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqidagi O‘RQ-1125-son Qonuni, 26.03.2026 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 27.03.2026.

kredit, ishga qabul qilish, ta'lim, tibbiy xizmat yoki huquqni muhofaza qilish sohalarida shaxs taqdiriga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun "qora quti" algoritmlariga nisbatan shaffoflik, izohlanuvchanlik, inson nazorati va algoritmik audit talablarini milliy qonunchilikda bosqichma-bosqich mustahkamlash maqsadga muvofiq. Convention 108+ zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni kuchaytirish va konvensiyaning amaliy ijrosini mustahkamlashni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilaydi<sup>6</sup>. AI Act loyihasi yuzasidan ilmiy tahlillarda ham yuqori xavfli algoritmik tizimlar uchun shaffoflik va nazorat mexanizmlari zarurligi ta'kidlanadi<sup>7</sup>.

Oltinchi ustuvor yo'nalish - kiberinsidentlarga javob berish va ma'lumotlar sizib chiqishi haqida xabardor qilish mexanizmlarini kuchaytirishdir. Amalda ma'lumotlar muhofazasining samaradorligi faqat qonun mavjudligi bilan emas, balki insident yuz berganda operator, vakolatli organ va ma'lumotlar subyekti qanday harakat qilishi bilan baholanadi. Ma'lumotlar sizib chiqishi yashirilsa, subyekt o'zini himoya qilish choralari o'z vaqtida ko'ra olmaydi; davlat organi esa tizimli kamchilikni bartaraf etish imkoniyatini yo'qotadi. Budapesht konvensiyasi kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish, ma'lumotlarga zarar etkazish va kiberjinoyatlarga qarshi davlatlararo hamkorlik uchun muhim protsessual asos yaratadi<sup>8</sup>. Milliy tizimda ham insidentlarni majburiy qayd etish, xabar berish va keyingi tekshiruv natijalarini tahlil qilish tartibi aniqlashtirilishi kerak.

---

<sup>6</sup> Council of Europe. Convention for the Protection of Individuals with regard to Automatic Processing of Personal Data (Convention 108+) [Electronic resource]. <https://www.coe.int/en/web/data-protection/convention108/modernised>.

<sup>7</sup> Veale M., Borgesius F.Z. Demystifying the Draft EU Artificial Intelligence Act // Computer Law Review International. – 2021. – Vol. 22. – No. 4. – P. 97–112.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'QR-764-son Qonuni, 15.04.2022 // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 16.04.2022. – 03/22/764/0313-son.

<sup>8</sup> Council of Europe. Convention on Cybercrime (ETS No. 185). – Budapest, 23 November 2001 [Electronic resource]. – URL: <https://www.coe.int/en/web/cybercrime/the-budapest-convention>.

Yettinchi yoʻnalish - institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirishdir. Shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish sohasi bir vaqtning oʻzida adliya, axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, ichki ishlar, prokuratura, bank, telekommunikatsiya va sogʻliqni saqlash sohalari bilan bogʻliq. Shu sababli yagona vakolatli organning nazorati bilan birga, sektorlararo maʼlumot almashish, qoʻshma tekshiruvlar, yagona metodik tavsiyalar va kiberinsidentlar boʻyicha tezkor hamkorlik protokollari zarur. OECD xalqaro privacy enforcement hamkorligida vakolatli organlar oʻrtasida samarali transc chegaraviy hamkorlik privacy qonunlarini amalda ijro etishning markaziy sharti ekanini taʼkidlaydi<sup>9</sup>.

Sakkizinchi ustuvor yoʻnalish - operatorlar va protsessorlar uchun hisobdorlik madaniyatini shakllantirishdir. Zamonaviy maʼlumotlar muhofazasida “qonunni buzmaslik” etarli emas; operator har bir ishlov berish jarayonining maqsadi, huquqiy asosi, xavf bahosi, xavfsizlik chorasi va subyekt huquqlarini taʼminlash tartibini hujjatlashtirishi lozim. Bu amaliyot compliance, ichki audit, xodimlarni oʻqitish, maʼlumotlarni minimallashtirish, psevdonimlashtirish, shifrlash va kirish huquqlarini tabaqalashtirish orqali amalga oshiriladi. OECDning 2023 yilgi tahlili generativ sunʼiy intellekt, ekstraterritorial qonunlar va yangi biznes modellar privacy qonunlarini ijro etishda yangi hamkorlik mexanizmlarini talab qilayotganini koʻrsatadi<sup>10</sup>.

Toʻqqizinchi yoʻnalish - fuqarolarning raqamli huquqiy madaniyatini oshirishdir. Koʻp hollarda shaxsiy maʼlumotlar xavfi faqat xakerlik hujumi natijasida emas, balki fuqarolarning fishing havolariga ishonishi, kuchsiz parollardan foydalanishi, shaxsiy hujjatlarini ochiq messengerlarda tarqatishi yoki ilovalarga ortiqcha ruxsat berishidan ham yuzaga keladi. Shuning uchun maktab, oliy

---

<sup>9</sup> OECD. Recommendation on Cross-Border Co-operation in the Enforcement of Laws Protecting Privacy. – Paris: OECD, 2007 [Electronic resource]. – URL: <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0352>.

<sup>10</sup> OECD. Review of the OECD Recommendation on Cross-Border Co-operation in the Enforcement of Laws Protecting Privacy // OECD Digital Economy Papers. – 2023. – No. 359.

ta'lim, davlat xizmatlari va ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlar gigienasi, rozilik berish madaniyati, elektron identifikatsiyadan xavfsiz foydalanish va shaxsiy ma'lumotlar buzilganda murojaat qilish tartibi bo'yicha doimiy ta'lim dasturlari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Ilmiy-nazariy jihatdan mazkur mavzuning yangiligi shundaki, kiberxavfsizlik sohasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni uchburchak model asosida tushuntirish mumkin: birinchisi - inson huquqlari va subyekt nazorati; ikkinchisi - axborot infratuzilmasi va texnik xavfsizlik; uchinchi - operator hisobdorligi va institutsional nazorat. Ushbu uch elementdan biri zaif bo'lsa, shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi to'liq ta'minlanmaydi. Masalan, kuchli texnik himoya mavjud bo'lsa-da, subyekt huquqlari ta'minlanmasa, himoya insonparvarlik mazmunini yo'qotadi; aksincha, huquqlar e'lon qilinsa-yu, operatorlarda audit va xavfsizlik mexanizmi bo'lmasa, qonun amalda deklaratsiya bo'lib qoladi.

Kiberxavfsizlik sohasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq kompleks tizimni tashkil etadi. Nazariy jihatdan shaxsiy ma'lumotlar muhofazasini inson huquqlari, raqamli suverenitet va axborot xavfsizligini birlashtiruvchi mustaqil huquqiy institut sifatida e'tirof etish lozim. Amaliy jihatdan operatorlar uchun xavfga asoslangan baholash, ichki audit, insidentlar reestri, xodimlarni o'qitish, ma'lumotlarni minimallashtirish va shifrlash mexanizmlari majburiy standartlarga aylantirilishi maqsadga muvofiq. Qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha esa quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, yuqori xavfli ishlov berish jarayonlari uchun majburiy Data Protection Impact Assessment (shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga ta'sirni baholash tartibi) institutini joriy etish; ikkinchidan, ma'lumotlar sizib chiqishi haqida vakolatli organ va subyektlarni xabardor qilish muddatlarini aniq belgilash; uchinchidan, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilishda inson nazorati, izohlanuvchanlik va algoritmik audit talablarini mustahkamlash; to'rtinchidan, biometrik va genetik ma'lumotlar uchun alohida kuchaytirilgan huquqiy rejimni ishlab

chiqish; beshinchidan, transchegaraviy ma'lumot uzatishda "teng darajada himoya" mezonlarini ochiq va amaliy tartibda belgilash. Ushbu yo'nalishlar milliy huquqiy tizimni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, fuqarolar ishonchini mustahkamlash va raqamli iqtisodiyotning xavfsiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Council of Europe. Convention for the Protection of Individuals with regard to Automatic Processing of Personal Data (Convention 108+)*. – URL: <https://www.coe.int/en/web/data-protection/convention108/modernised>.

2. *Council of Europe. Convention on Cybercrime (ETS No. 185)*. – Budapest, 23 November 2001. URL: <https://www.coe.int/en/web/cybercrime/the-budapest-convention>.

3. *European Parliament and Council. Regulation (EU) 2016/679 of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data // Official Journal of the European Union*. – 2016. – L 119. – P. 1–88.

4. *OECD. Recommendation on Cross-Border Co-operation in the Enforcement of Laws Protecting Privacy*. Paris: OECD, 2007. URL: <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0352>.

5. *OECD. Review of the OECD Recommendation on Cross-Border Co-operation in the Enforcement of Laws Protecting Privacy // OECD Digital Economy Papers*. – 2023. – No. 359.

6. *Veale M., Borgesius F.Z. Demystifying the Draft EU Artificial Intelligence Act // Computer Law Review International*. 2021. Vol. 22. No. 4. – P. 97–112.

7. *O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ-764-son Qonuni, 15.04.2022 y. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*.

8. *O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni, 02.07.2019 y. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*.

9. *O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqidagi O'RQ-1125-son Qonuni, 26.03.2026 // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 27.03.2026 y.*

10. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-38-son Farmon*.

**Sh.Davlatova,**  
*TermDU Yuridik fakulteti*  
*katta o'qituvchisi y.f.f.d. (PhD)*

## **IBN XALDUNNING “MUQADDIMA” ASARIDA QOZILAR VA ULARNING VAKOLATLARI HAQIDAGI FIKRLAR**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada arab tarixchisi Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida bayon qilingan o'rta asrlarda arab davlatlarida qozi vazifasi va uning vakolatlari haqidagi fikrlar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *qozi, sudya, muftiy, hukmdor, imomlik, shar'iy mahkama, fuqarolik ishlari, shikoyat, da'vo, nizo, hukm, guvohlar, advokatlar, javobgarlik, da'vogar, adolat.*

Sud (slavyanacha sud – ish) – odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni ko'rib chiqadi va hal qiladi. [1, [https:// uz wikipedia.org](https://uz.wikipedia.org)] Ayrim shaxslar o'rtasida, ular bilan davlat idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilot ma'muriyati, jamoat birlashmalari o'rtasida mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar, tashkilot huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi.

Sud tizimi dunyoda eng qadimgi sivilizatsiyalar, xususan, miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda (Qadimgi Misr, Mesopotamiya) davlat boshqaruvi shakllana boshlagan davrdan yuzaga kelgan. Dastlabki sudlov funksiyalarini hukmdorlar, ruhoniylar yoki jamoa oqsoqollari amalga oshirgan bo'lib, keyinchalik ixtisoslashgan sud hokimiyati tizimi rivojlanib borgan.

Sud tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlari:

Birinchi bosqich – Qadimgi davr (M.avv. III-I ming yillik): Mesopotamiyada Hamurappi qonunlari (m.avv. XVIII asr) kabi huquqiy normalar sudlovni tartibga solgan.

Ikkinchi bosqich – Antik davr: Qadimgi Rimda sud tizimi (pretorlar, sudya hay’atlari) rivojlangan va hozirgi huquqiy tizimlarga asos bo’lgan.

Uchinchi bosqich – O’rta asrlar va yangi davr: Yevropada qirollik sudlari va kanonik (cherkov) sudlari faoliyati kuchaygan.

To’rtinchi bosqich – Zamonaviy davr: XVIII-XIX asrlardan boshlab mustaqil sud hokimiyati, sud-huquq tizimining ixtisoslashuvi va demokratik tamoyillar shakllangan. [2, [https:// google com](https://google.com)]

“Qozi” atamasi arabcha so’z bo’lib ijro etuvchi, hukm chiqaruvchi degan ma’noni bildiradi. Qozi – musulmon davlatlarida shariat asosida sud ishlarini yurituvchi, hukmdor tomonidan tayinlanadigan sudyadir. U adolatni ta’minlovchi, nizolarni hal qiluvchi shar’iy mahkama raisi hisoblangan. Ba’zi qozilar ilm bilan shug’ullangan. Ba’zan imomlik vazifasini ham bajargan. Javobgar yuksak maqom egasi va iqtidorli kishi bo’lganda unga tegishli ish mazolim qozisiga (mazolim volisiga) topshirilgan. Shikoyatlar bilan shug’ullanuvchi bu idoraga davlat rahbari yoki u tayinlagan obro’li kishi boshchilik qilgan. Mazolim sudida da’vogar va javobgardan tashqari qozilar, muftiylar, salohiyatli kotib, ichki ishlar rahbarlari, xavfsizlik xodimlari ishtirok etishgan. Mazolim qozisi hokimlar, davlat mulozimlari, soliqchilardan shikoyatlar bo’yicha ishlarni, zo’ravonlik bilan tortib olingan shaxsiy mulk yoki vaqf mulklariga oid ishlarni, qozilar chiqargan qarorlarning bajarilmasligi hollari, ko’pchilik manfaatiga qarshi qilingan tajovuzlarga doir ishlarni ko’rib chiqqan. Qozi musulmon bo’lmagan fuqarolarning ishlarini ularning diniy kitoblari (Tavrot, Injil) asosida hal qilgan. Qozining hukmi ustidan xalifaga shikoyat qilish mumkin bo’lgan. VIII asrning ikkinchi yarmida Abbosiylar davlatida oliy qozi – qozi ul-quzzot lavozimi joriy qilingan. [3, <https:// google com>]

Qozi lavozimiga tayinlangan shaxs uchun bir qancha talablar bo’lgan. Bu lavozimga qo’yiladigan shaxs o’z obro’siga dog’ tushirmagan, ilm-u idrokli va shariat qonunlarini yaxshi o’zlashtirgan, etarlicha biladigan, ko’zga ko’rinib turagan jismoniy nuqsoni bo’lmagan sog’lom, adolatli, ishini odillik asosida hal

qiladigan, erkin (qul bo‘lmagan) musulmon bo‘lishi lozim hisoblangan.

Qozi davlat g‘aznasidan ta‘minlab turilgan. Ba‘zan qozi umumiy vakolatga ega bo‘lib, butun mamlakat bo‘yicha hukm chiqara olgan, ba‘zan uning vakolati bir viloyat yoki shahar hududi bilan cheklangan. Qozi o‘z shahri yoki viloyatidagi barcha fuqarolik va jinoiy ishlarni olib borish, jamoatchilik axloqi saqlanishini nazorat qilish, zarur bo‘lgan taqdirda odamlar va mulkka vasiylikni tayinlash, vaqf mulklarini nazorat qilish, jamoat binolari va inshootlar, yo‘llar, ko‘chalar va maydonlarning holatini kuzatib turish, meros bo‘linishini va vasiyatga rioya qilinishini, qozi hukmlari to‘g‘ri bajarilishi va to‘g‘ri jazo belgilanishini kuzatish, huquqni muhofaza qilish idoralari va turma nozirlarini nazorat qilish, zakot, sadaqa va boshqa jamoat mablag‘lari to‘g‘ri yig‘ilishi hamda taqsimlanishini kuzatib borish, zarbxona, bayt ul-molni (dashsht xazinasini) nazorat qilish kabi ishlarni bajargan. Qo‘shinlar qozisi qo‘lga kiritilgan harbiy o‘ljani baholashi va uning to‘g‘ri taqsimlanishini kuzatishi kerak bo‘lgan. Buning uchun u harbiy huquqni yaxshi bilishi lozim edi. [4, [https:// uz wikipedia. org](https://uz.wikipedia.org)]

Islom davlatlarida “qozi” atamasi ishlatilgan bo‘lsa, dunyoviy davlatlarda bu so‘z sudya atamasi bilan yuritiladi.

Ushbu ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, jamiyat tarixiy taraqqiyotida qozi, zamonaviy tilda aytganda sud tizimi va uning faoliyat yuritishi uzoq tarixga ega, ya‘ni davlatlar paydo bo‘libdiki, sud tuzilmasi, sudyalarning xizmati mavjud. Sud tizimi antik davrda shakllangan bo‘lsa, ana shundan buyon hozirgi vaqtgacha bu sohaga taalluqli bir qancha manbalar yaratildi, kitoblar nashr etildi, turli shakldagi adabiyotlar paydo bo‘ldi. Jumladan, o‘rta asr islom dunyosining tarixchisi va mutafakkiri Ibn Xaldun tomonidan yozilgan “Muqaddima” asarining XXIX fasli “Ma‘naviy rahbarlik bilan bog‘liq vazifalar” deb nomlanib, uning tarkibida “Sud” bandi kiritilgan. Ibn Xaldun o‘zi yashagan davrda arab davlatlarida qozi, qozilik vazifasi kimning zimmasida bo‘lganligi, bu ishni bajaruvchi mas‘ul qanday vakolatlarga egaligi haqida ma‘lumot bergan. Ibn Xaldun bu soha haqida fikr yuritib, sudyalikka ta‘rif beradi va

sudyalarning vakolatini quyidagicha tushuntirishga harakat qiladi: “Sudyalik (qozilik) ma’naviy rahbarlik lavozimlaridan bo‘lgan. Zero u nizolarni bartaraf qilish va kelishmovchiliklarni hal etish maqsadida xalq orasida turli da’volar bo’yicha yakuniy qaror chiqaruvchi muassasa bo‘lgan. Teokratik boshqaruvda diniy qonun-qoidalarga asoslanib qarorlar chiqarilgan. Shu sababli u teokratik davlat rahbariga tegishli vazifalar darajasiga kirgan. [5, 72]

Muallifning ta’kidlashicha, islomning ilk davrlaridagi hukmdorlar qozilik vazifasini ham o‘zlari bajaranganlar. Bu sohaga tegishli masalalarda hakamlilik qilishga ular hech kimga ruxsat bermaganlar. Arab davlatlarida qozilik vazifasini bajarish hukmdor vakolatidan chiqarilgan va bu vakolatli ishni bajarishni tayinlagan birinchi rahbar Umar bo‘lgan. U Abu Dardonni o‘zi bilan birga Madinada qozi etib tayinlagan. Umar Madinadan tashqari Shurayhni Basraga va Abu Muso Ash’riyni Kufaga qozi lavozimiga tayinlagan.

Umar Abu Muso Ash’ariyga maktub yo‘llab, unda qozilik vazifasini olib borishning yo‘l-yo‘riqlari haqida ko‘rsatma bergan. Mazkur ko‘rsatmalar bo’yicha qozi quyidagi tartiblarga rioya qilishi shunday tavsiyalar orqali bayon etilgan:

“Huzuringga keltirilgan da’volarni yaxshilab tushunib ol! Asossiz da’voni ko‘rib chiqishning foydasi yo‘q;

Huzuringda, majlisingda va adolatingda ham barcha odamlarga teng munosabatda bo‘l, toki zodagon sendan tarafkashlik kutmasin va zaif kishi adolat qilishingdan umidini uzmasin;

Da’vogar dalil keltirishi shart, qasam esa, javobgar tomondan talab qilinadi;

Odamlar o‘rtasida kelishuv bo‘lishi mumkin, ammo qonunan ta’qiqlangan narsaga ruxsat, ruxsat etilgan narsani taqiqlash borasida kelishuv bo‘lishi mukiin emas”. [6, 72-73]

Ibn Xaldun bulardan tashqari qozi bir kun oldin bir hukm chiqarib, ertasi kun uni qayta o‘ylab ko‘rib, to‘g‘ri qarorga kelsa, avvalgi hukm uni to‘g‘ri yo‘lga qaytishdan to‘xtatib qolmasligi kerakligini, adolat azaliy ekanligi, noto‘g‘ri fikrda qattiq turishdan ko‘ra to‘g‘ri yo‘lga qaytish afzalligini qayd etadi. Agar qozi qonunchilikda aniq javob topilmaydigan murakkab masalalarda

echim topishda qiynalib qolsa aql-idrokini ishga solishi, buning uchun o'sha ishga o'xshash holatlarni o'rganishi, ularni qiyoslashi, undan keyin vaziyatni baholashi lozim, deb hisoblaydi. Umarning maktubida yana "Agar kimdir isbotlay olish-olmasligi noma'lum bo'lgan da'vo bilan kelsa, unga muddatni belgila. Agar belgilangan muddat ichida dalil keltirsa, da'vosini qabul qil, aks holda, unga qarshi hukm chiqarishig mumkin. Bu har qanday shubhani bartaraf etishning eng yaxshi yo'li". [7, 73] ekanligi ta'kidlanadi.

Ibn Xaldun Umarning maktubi orqali sud ishida guvohlik beruvchilar nimaga rioya qilishlari xususida fikr yuritib, barcha musulmonlar bir-biriga nisbatan odilona guvohlik bera olishlari, faqat qonuniy jazoga tortilganlar yolg'on guvohlik berishgani isbotlanganligi, qarindoshligi yoki valiylik munosabati tufayli xolisligiga shubha tug'ilishi mumkinligini, dalil va qasamlar bilan isbotlangan holatlardan tashqari insonlarning ayblari berkitilgan holda qolishini aytadi.

"Muqaddima" da sudyaga yana shunday tavsiya beriladi: "Muhokama jarayonida ikki totrtishayotgan tarafning birortasiga nisbatan o'z bezovtaliging, tajangliging va nafratingni izhor qilishdan qattiq ehtiyot bo'! Haqiqat o'z o'rnida qaror topsa, senga ulug' mukofot va yaxshi nom ato etiladi. Vassalom". [8, 73] Bu fikrlar orqali sudya sud jarayoni olib borilayotgan vaqt davomida jabrlanuvchilar yoki jinoyatchilarga nisbatan betarafligini, adolat asosida ish tutishini, agar u qaysi tomonning xatti-harakatlaridan norozi bo'lsa ham bu holat uning o'zini tutishi, kayfiyatida namoyon etilmasligi, nimadandir bezovta bo'lsa, nafratlansa uni jarayonda ishtirok etayotganlarga sezdirmasligi zarur, – deydi.

Manbada "Sud vazifasi shaxsan davlat rahbarining vazifasi bo'lsa-da, davlat rahbari umumdavlat siyosati bilan shug'ullangani uchun bu vazifani boshqalarga topshirgan. Davlat rahbarlari davlat boshqaruvi bilan bog'liq harbiy harakatlar, fathlar, chegara hududlarini himoya qilish va markazni muhofaza etish bilan juda band bo'lganlar. Bu ishlar o'ta muhimligi sababli ularni boshqalar bajara olmasdi. Rahbarlar odamlar o'rtasida nizolarni hal qilish va bu

yukni o‘zlaridan oz bo‘lsa-da engillashtirish uchun sud ishlarini boshqalarga topshirmaganlar”. [9, 74]

Ibn Xaldun asarda qozilarning vakolatlari haqida ham to‘xtalgan. “Muqaddima” da keltirilishicha, Roshid xalifalar davrida qozining vazifasi faqat o‘zaro nizolarni hal qilishdan iborat bo‘lgan. Davlat rahbarlari va hukmdorlar tobora katta siyosat bilan band bo‘la boshlaganlaridan keyin qozilarga yuklatiladigan topshiriqlar ko‘payib borgan. Bu o‘z navbatida qozilarga o‘zaro nizolarni hal etishdan tashqari umumiy fuqaroviy huquqlarni kafolatlash vakolatini shakllanishiga olib kelgan. Natijada qozining zimmasidagi vazifalar ortib, quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

1. aqli nosog‘lom kishilar, etimlar, kasodga uchragan va muomalaga layoqatsiz kabi vasiylar qaramog‘idagi shaxslarning mol-mulkini nazorat qilish;

2. vasiyatnomalar va vaqf mulklarini nazorat qilish;

3. ba‘zi ulamolar tutgan yo‘lga ko‘ra valiyisini yo‘qotgan, oila qurmoqchi bo‘lganlarni nikohlab qo‘yish;

4. jamoat yo‘llari va binolarini nazorat qilish;

5. guvohlar, advokatlar va qozi o‘rinbosarlarining qay darajada ilmi va salohiyatli ekanini aniqlash uchun ularni tekshirib turish, toki ularga nisbatan mustahkam ishonch hosil qilish. [10, 74-75]

Hukmdorlar huquqbuzarlik va jinoyatlar ustidan nazorat qilish, ya‘ni tergovni ham ilgari o‘zlari amalga oshirgan bo‘lsalar, bu ishni ham qozilarga topshirganlar. Azal-azaldan dunyo davlatlarida jinoyatchini jilovlash va tajovuzkorni tiyib turish uchun kuchli talab, tartib va katta vakolat talab qilingan. Bu holat sudyalarga dalillarni o‘rganish, ularni tekshirish, ashyoviy dalillar va biror holatni isbot etuvchi hujjatlardan foydalanish, haqiqat oydinlashmaguncha hukmni kechiktirish, da‘vogarlar o‘rtasida kelishuv yo‘llarini izlash va guvohlarga qasam ichirish ishlaridan iborat bo‘lgan. Asardagi ma‘lumotlarga binoan Abbosiy xalifa Maxdiyning davrigacha, bu ishlarini hukmdorlarning o‘zlari amalga oshirgan, ba‘zan bu vazifa qozilarga yuklatilgan. “Masalan, Umar o‘z qozisi Abu Idris Xavloniyga, Ma‘mun esa Yahyo ibn Aksamga, Mu‘tasim esa Ibn Abu Du‘odga bu vazifani topshirgan. Bir necha bor davlat rahbarlari yozgi

harbiy amaliyotlarda qo‘shinlarga rahbarlik qilish vazifasini ham qozilarga ishonib topshirganlar. Xalifa Ma‘mun davrida Yahyo ibn Aksam Vizantiyaga qarshi yozgi harbiy amaliyotga boshchilik qilgan. [11, 75]

Xullas, sudya vazifasi antik davrlardan mavjud, dastlab bu ish davlat hukmdorlari tomonidan ado etilgan. Davlat boshqaruv masalasida davlat rahbarlarining ishlari ko‘payib borganidan keyin ular hukmdor vakolatidan qozilikni ajratishgan. Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida qayd etilishiga ko‘ra, arab davlatlarida qozilik Muhammad payg‘ambar, undan keyin xalifa Umar davrlarida hukmdorlar vakolatidan chiqarilgan, qozilar davlat boshliqlari tomonidan tayinlagan. Vaqt o‘tishi bilan qozilarning vakolatlari kengayib borgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *Ибн Халдун. Муқаддима. (Саид Комил Муҳаммад Карим таржимаси, Тошкент, “Trust and Support”, 2025, 72-75-бетлар.*
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. <https://google.com>

**VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN JINOYAT ISHLARI YURITUVINI DIFFERENSIATSIYA QILISHNING NAZARIY MODELLARI**

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari yurituvining avtonom modelini yaratish masalasi jinoyat-protsessual fanning mustaqil va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaldagi ilmiy qarashlarda yuvenal adliya ko‘pincha jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq jazo tayinlash orqali tartib-intizomni ta‘minlashga qaratilgan jazolovchi odil sudlov modeliga qarshi qo‘yiladi. Bunday yondashuv, qator tadqiqotlar ko‘rsatishicha, voyaga etmagan shaxsni tuzatishga emas, aksincha, ular o‘rtasida jinoyatchilik residivi ko‘rsatkichlarining oshishiga xizmat qiladi.

Dunyo amaliyotida hozirgi bosqichda voyaga etmaganlarga nisbatan ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishning uch modeli mavjud:

– voyaga etmaganlarga nisbatan ularga doir maxsus qonunlar asosida hamda voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha maxsus sudlarda odil sudlovni amalga oshirish;

–qisman ixtisoslashtirilgan model ya‘ni maxsus qonunchilik bo‘lmasada voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha sudlarda odil sudlovni amalga oshirish;

– voyaga etmaganlarga nisbatan kattalar bilan umumiy asoslarda sud organlari tomonidan odil sudlovni amalga oshirish.

A.Bazarovning fikricha, voyaga etmaganlarning huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan jinoyat-protsessual kafolatlarni belgilashda shuni inobatga olish zarurki, ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ushbu huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishga xizmat qiladigan davlat-huquqiy shart-sharoitlar hamda vositalar majmuasini tashkil etadi. Biroq fikrimizcha protsessual kafolatni asosan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati bilan bog‘liq mexanizm sifatida talqin qilish kafolatlarning institutsional plyuralizmini inkor etadi.

Zamonaviy xalqaro standartlar kafolat sifatida faqat davlat organi emas, balki: mustaqil bola vakili (child advocate), advokat, nodavlat institutlar orqali ham ta'minlanishi ya'ni gorizontal va aralash modellarni nazarda tutadi.

Yuvenal adliya ko'pincha jamiyatdan ajratish bilan bog'liq jazo tayinlash natijasida shaxsni tuzalishi emas balki, voyaga etmaganlar jinoyatchiligi residivi ko'rsatkichlari ortishiga xizmat qiluvchi jazolovchi odil sudlovga qarama-qarshi qo'yiladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari yurituvining alohida jinoyat protsessual shakli umumiy protsessual shakldan:

- 1) Isbotlash predmeti doirasining kengligi;
- 2) Qo'shimcha protsessual kafolatlar, shu jumladan qonuniy vakil va himoyachining ishtiroki;
- 3) Voyaga etmaganlarni so'roq qilishning alohida tartibi;
- 4) Faqat voyaga etmaganlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ehtiyot choralarining mavjudligi;
- 5) Voyaga etmagan ayblanuvchini qamoqqa olish yoki uy qamog'iga joylashtirishning alohida tartibi;
- 6) Voyaga etmagan shaxsni ish materiallari bilan tanishtirishning alohida tartibi;
- 7) Voyaga etmagan shaxsga nisbatan sud muhokamasining alohida tartibi;
- 8) Hukm chiqarishda sud tomonidan hal etiladigan masalalarning qo'shimcha predmeti;
- 9) Voyaga etmagan shaxsni javobgarlikdan yoki jazodan majburlov choralarini qo'llagan holda ozod qilish tartibi bilan farqlanadi.

Sh.Xamraevaning fikriga ko'ra, voyaga etmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning maqsadi bu toifadagi ishlarni jinoyat protsessining umumiy vazifalaridan tashqari yana alohida protsessual vazifalar asosida bajarishi lozim

Biroq, voyaga etmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari yurituv mexanizmidagi bo'shliqlar, shu jumladan isbotlash predmetiga kiruvchi holatlarni aniqlash usul va vositalari to'liq tartibga solinmaganligi natijasida, amalda voyaga etmagan shaxslarga nisbatan ishlar umumiy tartibga tergov qilinadi va sudda ko'riladi.

Voyaga etmaganlarga nisbatan sud ishlari yurituvining tarbiyaviy, qayta tiklovchi, profilaktik maqsadlari deyarli amalga oshmaydi.

Bolalikning shaxs shakllanishining alohida bosqichi ekanligi va mazkur bosqichning inson shaxsiga beqiyos ta'sirini anglash voyaga etmaganlarga nisbatan odil sudlovning poydevorini tashkil qiladi.

Voyaga etmaganlarda xulq og'ishi kelib chiqishida asosiy psixologik holatlardan irodaviy zo'riqish, refleksiya, kayfiyatning o'zgaruvchanligi, emansipatsiyaning pubertat yoshi davriga ta'siri "psixik beqarorlik", "depressivlik", "qaysarlik"ni yuzaga kelishiga asoslanib, ularning xulqida namoyon bo'lishi, shaxs sifatida rivojlanish jarayoniga ko'p vektorli ta'sir ko'rsatishi va xulq og'ishining ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik xususiyatlari davr nuqtai nazaridan o'rganishni talab etadigan dolzarb masaladir.

Voyaga etmaganlarga nisbatan odil sudlov tizimi yuvenal adliya atamasi bilan bevosita bog'liq. E.B. Melnikovaning fikriga ko'ra, yuvenal adliya 3 xil ma'noda ishlatiladi 1) odil sudlov sifatida; 2) alohida huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajaruvchi organlar tizimi; 3) ijro etuvchi hokimiyat tizimidagi davlat boshqaruv organi.

Boshqa olimlarning fikriga ko'ra mazkur atama voyaga etmaganlarning ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshiruvchi, voyaga etmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik va jinoyatlar haqida ishlarni muhokama qilish vazifasi qo'yilgan sud tizimini anglatadi.

Professor A.S. Avtonomovning fikriga ko'ra, yuvenal adliya tizimi o'zlarining maqomi va vakolatlari doirasida, ham formal-huquqiy (shu jumladan majburlov) ham ruxiy, pedagogik, ijtimoiy ta'sirdan iborat choralar ko'rish orqali bolalarning qonun bilan ixtilofga olib kelgan qiyin hayoti vaziyatdagi muammolarini xal qilishga yo'naltirilgan, ixtisoslashgan sud organlari, boshqa davlat va munitsipial organlar va muassasalar, nodavlat tashkilotlarini o'z ichiga oluvchi odil sudlovni amalga oshirish tizimi tushuniladi.

M.3.Ilchikov yuvenal adliya tizimiga voyaga etmaganlar bo'yicha komissiya, bola huquqlari bo'yicha vakil, yoshlarga oid siyosat, voyaga etmaganlarning huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq organ va muassasalar, voyaga etmaganlarga nisbatan xomiylik va

vasiylik organlari, voyaga etmaganlarga nisbatan tergov va surishtiruv organlari, voyaga etmagan huquqbuzarlarni jamiyatdan ajratuvchi muassasalarni kiritgan.

I.I. Martinovich yuvenal adliya tizimiga davlat organlari bilan birga advokatura, malakali psixolog va ijtimoiy xodimlar, shuningdek tarbiya va penitensiar muassasalarni ham kiritgan.

Binobarin, yuqoridagi modellarda yuvenal adliya tizimida markaziy o'rinni sud egallaydi, boshqa davlat va nodavlat muassalar yordamchi funksiyalarni bajaradi.

Sovet tizimida esa, voyaga etmaganlar bo'yicha komissiyaning faoliyati voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha markaziy o'rinni egallagan, xatto ayrim toifadagi ishlar bo'yicha komissiyaga odil sudlov bilan bog'liq funksiyalar yuklatilgan.

Ilk bor XX asrning 30 yillarida Yevropada jazolovchi adliyadan voz kechib, jinoyatning ijtimoiy va psixologik sabablarini o'rganishga qaratilgan, "mehr va himoya" g'oyasi paydo bo'ldi.

Ijtimoiy yondoshuvga asoslangan jazo tizimining asosi sifatida:

1) bolalarning jinoyat sifatida baholanadigan qilmishlari sonini kamaytirish;

2) jinoiy javobgarlikka tortish yoshini 18 yoshgacha ko'tarish;

3) bolalar tomonidan jinoyat hisoblanmaydigan qilmishlar sodir etilgan taqdirda bolalarning xulq atvorini nazorat qiluvchi muassasalar tashkil qilish;

4) voyaga etmaganni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud bo'lganda umumiy tartibni emas, voyaga etmaganni qayta tarbiyalash va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga qaratilgan odil sudlovning alohida tartib tamoyillarini qo'llash, yuvenal sudlarni tashkil qilish;

5) Muqobil jazo choralarini keng qo'llagan holda, ozodlikdan mahrum qilish jazosini favqulodda hollarda qo'llash.

Biroq, XX asrning 70 yillariga kelib, g'arbda ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va individualizmning kuchayishi natijasida ijtimoiy yondoshuv(welfare)ning samaradorligi yuzasidan munozaralar kuchaydi. Natijada shaxsning ijtimoiylashuvi emas,

balki etkazilgan ziyonga mutanosib ravishda jazolash (just desert) g'oyasi ustuvor bo'la boshladi.

Mazkur konsepsiyaning asosiy xususiyatlari:

Voyaga etmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari yurituv tartib-tamoyillarining aniq belgilanishi;

Voyaga etmaganlarga nisbatan kuchaytirilgan protsessual kafolatlar;

Voyaga etmaganlarning malakali yuridik yordamga bo'lgan huquqini ta'minlash va voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha ixtisoslashgan advokaturani tashkil qilish;

Voyaga etmaganlarga nisbatan ayrim toifadagi ishlarni yopiq sud majlisida ko'rish;

Tarbiyaviy ta'sir choralari va jazo choralari tanlash yuzasidan sudning ixtiyorini cheklash;

Mutaxassislar (pedagog, vrach, ijtimoiy xodimlar) ning xulosalari sud uchun tavsiyaviy xarakterga egaligi;

Voyaga etmaganlarga nisbatan maxsus muassalarda saqlash bilan bog'liq jazo choralari qo'llash.

Umuman, L. Shestakovaning fikriga ko'ra, yuvenal adliyaning quyidagi tarixiy "ideal" modellari mavjud:

1) muomalani individuallashtirish yoki reabilitatsiya modeli (XVIII asr oxiri - XX asr birinchi choragi). Bundan voyaga etmagan davlat tomonidan tibbiy reabilitatsion ta'sir obyekti sifatida ko'rilgan. Bunda, jinoyat sodir etilishida voyaga etmaganning aybdorligi emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlarga birlamchi sabab sifatida qaralib, shaxsni tuzatish yoki reabilitatsiya qilish davlatning majburiyati sifati qaralgan;

2) jazolovchi model (XX asrning 20 yillaridan 50-yillariga qadar). Mazkur modelda voyaga etmaganlarning jinoyatlariga jazolovchi munosabat ko'zda tutilgan, mansabdor shaxslarning jinoiy ta'qibni amalga oshirish turli shakldagi jazolar shu jumladan qamoqda saqlash bo'yicha bo'yicha vakolatlari kengaytirildi;

3) neoreabilitatsion model (XX asrning 50 yillaridan 70-yillariga qadar).

Mazkur modelning xususiyatlari jinoyat-protsessual faoliyatga pedagogika va psixologiya sohasida mutaxassislarni faol jalb qilish, bolalarning jinoyat sifatida baholanadigan qilmishlari sonini qisqartirish, jinoiy javobgarlikka tortish yoshini 18 yoshga qadar ko'tarish, jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tizimini rivojlantirishdan iborat.

4) qayta tiklovchi yoki muqobil model (XX asrning 70 yillaridan hozirgacha qadar). Qayta tiklovchi model doirasida voyaga etmaganni jinoiy javobgarlikka tortish jabrlanuvchiga etkazilgan zararning majburiy qoplanishi, voyaga etmagan huquqbuzar bilan ishlash uchun pedagog, psixolog, mediator, ijtimoiy xodimlarni jalb qilish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Voyaga etmaganlar yoshga doir guruh sifatida, umumiy jihatdan psixo-fiziologik va ijtimoiy o'sish, balog'atga etish (pubertatsiya) davrida hisoblanadi. Ular tomonidan olamni va o'zlarini qabul qilish, mazkur o'sish orqali amalga oshadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKda voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishni tartibga soluvchi kompleks qoidalarni nazarda tutadi. Bunda xalqaro standartlarda belgilangani kabi voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish muayyan ma'noda differensiyalashgan shaklga ega, ushbu toifa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishi va himoya qilinishining qo'shimcha kafolatlari yaratilgan. Ushbu kompleks normalar voyaga etmaganlarning jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvda yuqori yuridik himoyasini ta'minlashga qaratilgan.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligimizda voyaga etmaganlarga doir jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvni olib borayotgan mansabdor shaxslarning kasbiy tayyorgarligi, bu toifa ishlarni ko'ruvchi organlar, xususan sudlar ixtisoslashuvi belgilanmagan. Shuningdek, voyaga etmaganlarning ishlari sudda yopiq ko'rilishiga doir xalqaro standartlar milliy qonunchilikda imperativ norma shaklida o'z aksini topmagan.

Voyaga etmaganlar huquqlarining xalqaro standartlari asosini voyaga etmagan shaxslar manfaatini eng yuqori darajada ta'minlash prinsipi tashkil etadi.

Garchi, umumiy ma'noda qo'llanilsada, "yuvenal adliya" va "bolalarga nisbatan odil sudlov" tushunchasida farq mavjud.

Yuvenal adliya voyaga etmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari yurituvchi shakllarini belgilasa, bolalarga nisbatan odil sudlov deganda nafaqat jinoyat ishlari yurituvchi, balki sud ishlari yurituvining boshqa shakllari shu jumladan fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy sud ishlari yurituvchi guvoh, huquqbuzar, jabrlanuvchi, da'vogar, javobgar, uchinchi shaxs sifatida sud ishlari yurituviga jalb qilingan bolalar bilan bog'liq ishlar yuzasidan protsessual faoliyat tushunilishi zarur. Misol uchun, bolalarga nisbatan vasiylik belgilash, bolalar ishtirokidagi mulkiy nizolar yuvenal adliyaga taalluqli emas, biroq bolalarga nisbatan odil sudlov tushunchasi bilan qamrab olinadi.

Aynan shu sababdan BMT Bosh sekretarining 2008 yildagi Rahbariy ko'rsatmalari va Yevropa kengashi vazirlar qo'mitasining 2010 yildagi qo'llanmasida "bolalarga nisbatan do'stona odil sudlov" atamasi qo'llaniladi.

Konvensiyaning 40-moddasi 3-qismida davlatlardan protsessual qabul qilish, qonun bilan muammosi bo'lgan bolalar bilan shug'ullanuvchi organ va muassalalar tizimini yaratish kutilishi ko'rsatilgan. Soddaroq aytganda Konvensiyaning imzolagan davlatlarga yuvenal adliya tizimini yaratish tavsiya qilingan.

Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaning fikriga ko'ra buning uchun, politsiya, sud tizimi va prokuratura ichida maxsus bo'linmalar tashkil qilinishi, shuningdek bolalar huquqiy va boshqa yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashgan himoyachilar talab qilinadi. Bundan tashqari, davlatlar alohida tuzilma shaklida yoki mavjud sudlar doirasida voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha sudlar tashkil qilishi zarur. Agar, ushbu vazifani (zudlik bilan) amalga oshirishning imkoni bo'lmaganda, ishtirokchi davlatlar yuvenal adliya tizimiga oid bo'lgan ishlarni ko'rib chiqish uchun, maxsus sudyalarni tayinlanishini ta'minlashi zarur.

Aynan shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-22-son Farmoni bilan tasdiqlangan mahalla infratuzilmasini yanada takomillashtirish va ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish bo'yicha ustuvor

islohotlar dasturida voyaga etmagan shaxslar va xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik bilan bog'liq ishlarni tergov qilish va ko'rish maxsus tayyorgarlikdan o'tgan tergovchi va sudyalardan tomonidan amalga oshirilishini yo'lga qo'yish belgilangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Базаров А.А. Процессуальные гарантии обеспечения прав и законных интересов несовершеннолетних на стадии предварительного расследования: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 2011. – С. 15.

2. Ражабова Ф.П. Вояга етмаганларда хулқ оғишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати -Т. 2022. 7-б.

3. Мелникова Э.Б. Ювенальная юстиция: учеб. Пособие. -М., 2001.- 149 б.

4. Мищенко Е. В. Проблемы дифференциации и унификации уголовно-процессуальных форм производств по отдельным категориям уголовных дел: дис. ... д-ра юрид. наук. – Оренбург, 2014. – С. 181; Замышляев Д. М. Перспективы ювенальной юстиции в России: исторические аспекты // Вопросы ювенальной юстиции. – 2012. – № 5. – Доступ из СПС «КонсультантПлюс»; Яровая С. В. Ювенальные суды: за и против // Юрист. – 2003. – № 11 (31). – С. 9.

5. Автономов А. С. Ювенальная юстиция: учебное пособие. – М., 2009. – С. 6.

6. Ермаков В. Д., Абросимова Е. А., Ильчиков М. З. Федеральный закон «Основы законодательства о ювенальной юстиции Российской Федерации». Авторский проект. – М., 1999.

7. Мартинович И. И. В Беларуси созрели предпосылки создания ювенальной юстиции // Российская юстиция. – 2002. – № 8. – С. 49–51.

8. Шестакова Л. А. Реализация концепции ювенальной юстиции в производстве по делам несовершеннолетних в Российской Федерации: генезис, современность и перспективы: дис. ... канд. юрид. наук. – Самара, 2015. – С. 59.

**M.Q.Komiljonov,**

*O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov  
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

**YURIDIK SHAXSLARNING ISHCHANLIK OBRO'SIGA  
YETKAZILGAN ZARAR UCHUN JAVOBGARLIK  
MASALALARI: O'ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR  
TAJRIBASI**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada yuridik shaxslarning ishchanlik obro'sini huquqiy himoya qilish masalalari, xususan ishchanlik obro'siga yetkazilgan zarar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik institutlarining nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik, ma'muriy va jinoyat qonunchiligi normalari o'rganilib, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Fransiya va AQSh tajribasi bilan qiyosiy-huquqiy tahlil amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasida yuridik shaxslarning ishchanlik obro'sini himoya qilishda fuqarolik-huquqiy vositalarning ustuvorligi, ma'muriy javobgarlik choralariining raqobat munosabatlaridagi ahamiyati hamda jinoiy javobgarlikning cheklangan qo'llanishi asoslab berilgan. Shuningdek, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ishchanlik obro'si, yuridik shaxs, nomoddiy ne'matlar, obro'ga putur yetkazish, tuhmat, haqorat, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, fuqarolik-huquqiy himoya, insofsiz raqobat.*

Ma'lumki, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida yuridik shaxslarning ishchanlik obro'si ularning eng muhim nomoddiy aktivlaridan biri bo'lib, u tadbirkorlik subyekting bozordagi mavqei, iste'molchilar va hamkorlarning ishonchi, investitsion jozibadorligi hamda raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va internet tarmoqlarining rivojlanishi natijasida yuridik shaxslar

faoliyati to'g'risida yolg'on yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarning tarqalishi nafaqat fuqarolik-huquqiy, balki ma'muriy va ayrim hollarda jinoiy-huquqiy oqibatlarini ham keltirib chiqarmoqda. Shu sababli yuridik shaxslarning ishchanlik obro'sini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, xususan ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarning o'rni hamda samaradorligini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 100-moddasiga muvofiq, fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlarining ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni rad etishni talab qilish huquqiga ega<sup>1</sup>. Biroq ishchanlik obro'siga zarar yetkazganlik uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik masalalari milliy qonunchilikda alohida va mustaqil institut sifatida yetarli darajada rivojlanmagan.

Amaldagi qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ishchanlik obro'siga zarar yetkazish bilan bog'liq munosabatlarning asosiy qismi fuqarolik-huquqiy vositalar orqali tartibga solinadi. Jumladan, sud orqali:

- haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarni rad ettirish;
- yetkazilgan mulkiy zararni undirish;
- ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi materiallarni olib tashlash;
- ommaviy axborot vositalarida raddiya berishni talab qilish mumkin.

Biroq, ma'muriy va jinoiy javobgarlik masalasida vaziyat nisbatan murakkabroq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida va Jinoyat kodeksida haqorat hamda tuhmat uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa-da, ushbu normalar asosan jismoniy shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism. 100-modda. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. <https://lex.uz/docs/-111189>

Jinoyat kodeksining 139-moddasida tuhmat, 140-moddasida esa haqorat uchun javobgarlik belgilangan<sup>2</sup>. Lekin, ushbu jinoyatlar obyekt sifatida insonning shaʼni va qadr-qimmatini nazarda tutiladi. Yuridik shaxs shaʼn va qadr-qimmat egasi boʻla olmasligi sababli mazkur normalarni toʻgʻridan-toʻgʻri yuridik shaxslarning ishchanlik obroʻsini himoya qilishga tatbiq etish imkoniyati cheklangan. Natijada Oʻzbekiston huquq tizimida yuridik shaxslarning ishchanlik obroʻsiga zarar yetkazilgan hollarda maʼmuriy yoki jinoiy javobgarlikdan koʻra fuqarolik-huquqiy himoya usullari ustuvor hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, xususan Rossiya Federatsiyasi fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxslarning ishchanlik obroʻsi mustaqil fuqarolik-huquqiy himoya obyekt sifatida eʼtirof etiladi. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 152-moddasida ishchanlik obroʻsini himoya qilishning batafsil mexanizmlari nazarda tutilgan<sup>3</sup>.

Rossiya tajribasining muhim jihati shundaki, 2011-yildan boshlab tuhmat uchun jinoiy javobgarlik qayta tiklangan boʻlsa-da, mazkur jinoyat tarkibi asosan fuqarolarga nisbatan qoʻllaniladi. Yuridik shaxslarning ishchanlik obroʻsiga zarar yetkazish holatlari odatda fuqarolik sud ish yurituvchi doirasida koʻrib chiqiladi.

Rossiyalik huquqshunos olimlar E.A.Suxanov va A.P.Sergeyevning taʼkidlashicha, ishchanlik obroʻsi yuridik shaxsning iqtisodiy faoliyati bilan uzviy bogʻliq boʻlgan nomoddiy neʼmat sifatida eʼtirof etiladi<sup>4</sup>. Rossiya qonunchiligida tuhmat uchun jinoiy javobgarlik mavjud boʻlsa-da, korporativ obroʻga yetkazilgan zarar aksariyat hollarda fuqarolik-huquqiy vositalar orqali bartaraf etiladi. Shu bilan birga, xoʻjalik yurituvchi subyekt toʻgʻrisida yolgʻon maʼlumotlar tarqatish insofsiz raqobat sifatida baholanib, maʼmuriy javobgarlikka sabab boʻlishi mumkin.

---

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 139-140-moddalar. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2026-y., 03/26/1138/0397-son, <https://lex.uz/docs/-111453>

<sup>3</sup> "Гражданский кодекс Российской Федерации (часть первая)" от 30.11.1994 N 51-ФЗ (ред. от 31.07.2025, с изм. от 25.03.2026) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.08.2025). Статья 152. Защита чести, достоинства и деловой репутации.

<sup>4</sup> Суханов Е.А. Гражданское право. Том 1. – М.: Статут, 2023. – Б. 415–418.

Germaniya huquq tizimida korporativ obro'ni himoya qilish masalalari asosan fuqarolik huquqi va raqobat huquqi normalari orqali tartibga solinadi. Germaniya Fuqarolik kodeksi hamda insofsiz raqobatga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini samarali himoya qilishga qaratilgan.

Germaniya sud amaliyotida korxonalar faoliyati to'g'risida yolg'on ma'lumotlar tarqatish natijasida yuzaga kelgan zararlarni qoplash bo'yicha da'volar keng tarqalgan. Shu bilan birga, jinoiy javobgarlik institutlari asosan jismoniy shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, yuridik shaxslar manfaatlari odatda fuqarolik-huquqiy vositalar bilan himoya qilinadi<sup>5</sup>.

Fransiyada ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatish bilan bog'liq masalalar matbuot erkinligi va obro'ni himoya qilish o'rtasidagi muvozanat tamoyili asosida hal etiladi. Fransiya qonunchiligida diffamatsiya (diffamation) uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, ayrim hollarda yuridik shaxslar ham jabrlanuvchi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Sud amaliyotida kompaniya yoki tashkilot haqida ataylab yolg'on ma'lumotlar tarqatilishi natijasida uning ishchanlik obro'siga putur yetgan bo'lsa, zararlarni undirish hamda ma'lumotlarni rad etish choralaridan foydalaniladi. Ayrim holatlarda ommaviy axborot vositalari yoki internet-resurslar egalari ham javobgar deb topilishi mumkin<sup>6</sup>.

AQShda ham korporatsiyalar ishchanlik obro'sini himoya qilish huquqiga ega. Defamatsiya (defamation) institutlari doirasida kompaniyalar o'zlariga nisbatan tarqatilgan yolg'on ma'lumotlar sababli sudga murojaat qilishlari mumkin. Biroq, AQShda so'z erkinligi konstitutsiyaviy darajada kuchli himoya qilinganligi sababli da'vogar kompaniya ma'lumotning yolg'onligini, uning tarqatilganligini hamda yetkazilgan zararni isbotlashi talab etiladi. Aksariyat hollarda ishchanlik obro'siga zarar yetkazish bilan bog'liq

---

<sup>5</sup> Basil S. Markesinis and Hannes Unberath. *The German Law of Torts A Comparative Treatise*. <http://ndl.ethernet.edu.et/bitstream/123456789/49396/1/15.pdf>

<sup>6</sup> *Business Reputation and Defamation*. – Oxford University Press, 2021.

munosabatlar fuqarolik da'volari orqali hal qilinadi va jinoiy javobgarlik deyarli qo'llanilmaydi<sup>7</sup>.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarning aksariyatida yuridik shaxslarning ishchanlik obro'siga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik ustuvor ahamiyatga ega. Ma'muriy javobgarlik asosan raqobat munosabatlari bilan bog'liq huquqbuzarliklarda qo'llaniladi. Jinoiy javobgarlik esa ko'pincha jismoniy shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan.

Mazkur yondashuv korporativ obro'ning iqtisodiy mohiyati bilan izohlanadi. Chunki ishchanlik obro'siga yetkazilgan zarar odatda mulkiy yo'qotishlar ko'rinishida namoyon bo'ladi va uni qoplashning eng maqbul usuli fuqarolik-huquqiy kompensatsiya hisoblanadi. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, yuridik shaxs inson emasligi sababli uning sha'ni va qadr-qimmati emas, balki ishchanlik obro'si himoya qilinadi.

Ikkinchidan, korporativ obro'ga yetkazilgan zarar odatda iqtisodiy xarakterga ega bo'lib, uni kompensatsiya qilishning eng maqbul usuli fuqarolik-huquqiy javobgarlik hisoblanadi.

Uchinchidan, jinoiy javobgarlikning keng qo'llanilishi so'z va axborot erkinligining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, ko'plab davlatlarda raqobatchilar tomonidan yolg'on ma'lumotlar tarqatilishi, iste'molchilarni chalg'itish yoki korporativ obro'ga qasddan zarar yetkazish holatlari ma'muriy huquqbuzarlik yoki insofsiz raqobat sifatida baholanadi.

Demak, O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning ishchanlik obro'sini himoya qilish asosan fuqarolik-huquqiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Xorijiy davlatlar tajribasi ham korporativ obro'ga yetkazilgan zarar uchun jinoiy javobgarlikdan ko'ra fuqarolik-huquqiy va ma'muriy-huquqiy mexanizmlarning samaraliroq ekanligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, milliy qonunchilikni takomillashtirish nuqtai nazaridan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

**Birinchidan**, yuridik shaxslarning ishchanlik obro'siga qasddan zarar yetkazishga qaratilgan harakatlarni insofsiz raqobatning alohida shakli sifatida yanada aniqroq tartibga solish lozim.

---

<sup>7</sup> United Nations Commission on International Trade Law. Legal Guide on International Commercial Practice. – New York, 2022.

**Ikkinchidan**, internet tarmoqlari va ijtimoiy media platformalarida tarqatilgan yolgʻon maʼlumotlarni tezkor rad etishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

**Uchinchidan**, ishchanlik obroʻsiga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Toʻrtinchidan**, yuridik shaxslarning ishchanlik obroʻsiga zarar yetkazish oqibatida yuzaga keladigan iqtisodiy zararlarni hisoblash boʻyicha yagona sud amaliyotini shakllantirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuridik shaxslarning ishchanlik obroʻsi zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning muhim nomoddiy boyligi hisoblanadi. Oʻzbekiston qonunchiligida ushbu neʼmat asosan fuqarolik-huquqiy vositalar orqali himoya qilinadi. Xorijiy davlatlar tajribasi ham korporativ obroʻni himoya qilishda fuqarolik-huquqiy va maʼmuriy-huquqiy mexanizmlar ustuvor ekanligini koʻrsatadi. Shu sababli Oʻzbekistonda ham ishchanlik obroʻsiga zarar yetkazish bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga solishda fuqarolik-huquqiy himoya vositalarini takomillashtirish, raqamli makondagi huquqbuzarliklarga qarshi samarali mexanizmlarni joriy etish hamda insofsiz raqobatga qarshi kurash choralarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. *Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi*. – T.: Adolat, 2025.
2. *Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi*. – T.: Adolat, 2025.
3. *Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi*. – T.: Adolat, 2025.
4. “Гражданский кодекс Российской Федерации (часть первая)” от 30.11.1994 N 51-ФЗ (ред. от 31.07.2025, с изм. от 25.03.2026) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.08.2025)
5. *Суханов Е.А. Гражданское право. Том 1*. – М.: Статут, 2023. – Б. 415–418.
6. *Basil S. Markesinis and Hannes Unberath. The German Law of Torts A Comparative Treatise*. <http://ndl.ethernet.edu.et/bitstream/123456789/49396/1/15.pdf>
7. *Business Reputation and Defamation*. – Oxford University Press, 2021.
8. *United Nations Commission on International Trade Law. Legal Guide on International Commercial Practice*. – New York, 2022.

**Z.A.Jurayev**

*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi,  
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya instituti  
mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi,*

## **SUDGA QADAR ISH YURITISH BOSQICHIDA TERGOV SUDYASI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR: O'G'IRLIK JINOYATI MISOLIDA**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sudga qadar ish yuritish jarayonida tergov sudyasining o'g'irlik jinoyatlariga oid ishlarni ko'rishidagi huquqiy vakolatlari, faoliyat yuritish tartibi va amaliyotda yuzaga keladigan muammolarga doir ilmiy tahlil amalga oshirilgan. Tergov sudyasi institutining O'zbekiston Respublikasi jinoiy protsessual qonunchiligidagi o'rni, uning prokuratura va tergov organlari bilan munosabati, shuningdek o'g'irlik jinoyatlari bo'yicha qo'llanilayotgan ehtiyot choralarini sanksiyalash amaliyoti ko'rib chiqilgan. Tergov sudyasining vakolat doirasi kengaytirilishi va mustaqilligini ta'minlash zarurligini asoslovchi taklif va mulohazalar ilgari surilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tergov sudyasi, sudga qadar ish yuritish, o'g'irlik, ehtiyot chorasi, jinoiy protsess, huquqiy nazorat, himoya huquqi, sanksiya.*

### **KIRISH.**

O'zbekiston Respublikasida 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamlı sud-huquq islohotlari doirasida jinoiy protsessual qonunchilik tizimida tub o'zgarishlar yuz berdi. Shulardan eng muhimi — tergov sudyasi institutining joriy etilishi bo'lib, bu institut sudga qadar ish yuritish bosqichida fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil sudyaviy nazorat mexanizmi sifatida e'tirof etilmoqda. [1]

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) tergov sudyasining huquqiy maqomini, vakolatlarini va faoliyat yuritish tartibini batafsil tartibga soldi. Ushbu kodeksning 27-moddasi tergov sudyasini sudga qadar ish yuritish bosqichida

shaxs huquq va erkinliklariga daxl etuvchi protsessual harakatlarni sanksiyalaydigan, nazorat qiladigan va zarur hollarda bekor qiladigan mustaqil sudyaviy subyekt sifatida belgiladi. [2]

Jinoyat ishlarining sezilarli qismini tashkil etuvchi o'g'irlik jinoyatlari (JPK 169-moddasi) bo'yicha tergov sudyasining amaliy faoliyati bir qator muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Mazkur muammolar nafaqat tergov sudyasining vakolat chegaralarini, balki jinoyat protsessining umumiy maqsad va vazifalarini ham ko'rsatib beradi. Shu bois ushbu mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. [3]

## **2. ADABIYOTLAR SHARHI VA MUAMMO TAHLILI**

Tergov sudyasi instituti o'zining ilmiy-nazariy asoslarini XIX asr kontinental Evropa huquqshunosligidan, xususan, fransuz "juge d'instruction" (tergov magistrati) modelidan oladi. Mazkur model keyinchalik 1966 yilgi Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksida qayta ko'rib chiqilib, "juge des libertés et de la détention" (erkinliklar va qamoq sudyasi) institutiga aylantirildi.

O'zbekistondagi tergov sudyasiga oid ilmiy tadqiqotlar bir qator huquqshunos olimlarimizning asarlarida o'z aksini topgan. Ushbu tadqiqotchiling xulosalariga ko'ra, tergov sudyasining joriy etilishi bilan sudga qadar bosqichda qonuniylikni ta'minlash va shaxs huquqlarini himoya qilish sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Biroq amaliyotda bir qator tizimli muammolar mavjudligini ham e'tirof etishadi. [4]

Qiyosiy huquqshunoslik nuqtai nazaridan Germaniya, Qozog'iston va Ukrainaning jinoiy protsessual qonunchiligida ham tergov sudyasi modellari mavjud bo'lib, ular o'zaro farqlanuvchi vakolat chegaralari va nazorat mexanizmlari bilan ajralib turadi. Xususan, Qozog'iston JPKning 55-56-moddalarida tergov sudyasiga keng diskresion vakolat berilgan bo'lsa, O'zbekiston modelida protsessual doira ancha qattiqroq chegaralangan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 27-moddasi va 6-bo'limiga muvofiq, tergov sudyasi o'g'irlik jinoyatlariga oid ishlarda quyidagi asosiy vakolatlarni amalga oshiradi:

Birinchiidan, ehtiyot choralarini sanksiyalash. O'g'irlik jinoyatlarida — ayniqsa, uyushgan guruh tomonidan yoki katta miqdorda sodir etilgan o'g'irliklarda — tergov sudyasi hibsga olish (qamoqqa olish), uy qamog'i yoki garov kabi ehtiyot choralariga sanksiya berish yoki rad etish vakolatiga ega. JPKning 241-moddasi bo'yicha, hibsga olish to'g'risidagi iltimosnoma sudyaga 24 soat ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Ikkinchiidan, mulkka xatlovga ruxsat berish. O'g'irlik jinoyatlarida mulkni izlab topish va musodara qilish maqsadida tergovchi tergov sudyasidan tegishli mulkni xatlash to'g'risida qaror chiqarishni talab qilishi mumkin. Ushbu vakolat shaxs mulkiy huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan ayniqsa muhimdir.

Uchinchiidan, tintuv o'tkazishga sanksiya berish. JPKning 202-moddasiga asosan, uy-joy va undagi bo'lmalarda tintuv o'tkazish tergov sudyasining qarori asosida amalga oshiriladi. Amaliyotda o'g'irlik ishlarida ushbu vakolat eng ko'p murojaat qilinadigan vakolat sifatida e'tirof etilmoqda. [5]

#### **4. AMALIYOTDA YUZAGA KELADIGAN ASOSIY MUAMMOLAR**

Tergov sudyasining o'g'irlik jinoyatlariga oid ishlardagi faoliyatini tahlil qilish asosida bir qator tizimli muammolar aniqlanadi:

##### **4.1. Tergov sudyasining mustaqilligi masalasi**

Tergov sudyasining institusional mustaqilligi uning samarali faoliyat yuritishi uchun asosiy shartdir. Biroq amaliyotda tergov sudyalari ba'zida prokuratura va tergov organlari bilan bitta binoda faoliyat yuritishadi, bu esa ular o'rtasidagi rasmiy muloqotning norasmiy ta'sir kanaliga aylanib qolish xavfini keltirib chiqaradi. Xususan, o'g'irlik jinoyatlarida qo'llanilayotgan hibsga olish bo'yicha iltimosnomalarning mutlaq ko'pchiligi tergov sudyalari tomonidan qabul qilinishi ana shunday ta'sir xavfining mavjudligini ko'rsatadi.

2022-2023 yillarda Toshkent shahar sudlari tomonidan olib borilgan monitoring ma'lumotlariga ko'ra, o'g'irlik jinoyatlari

bo'yicha hibsga olish iltimosnomalarining 87 foizi tergov sudyalari tomonidan qoniqtirilgan. Ushbu ko'rsatkich bir tomondan tergovchi va prokuratura ishining sifatini, ikkinchi tomondan esa tergov sudyasining etarlicha mustaqil bo'la olayotganligini savol ostiga qo'yadi. [6]

#### 4.2. Muddatlar va ish yuki muammosi

JPK tergov sudyasiga bir qator protsessual vazifalarni bajarishda qattiq muddatlar belgilaydi. Xususan, hibsga olish to'g'risidagi iltimosnomani 24 soat, tintuv sanksiyasi to'g'risidagi iltimosnomani 12 soat ichida ko'rib chiqish talabi nazariy jihatdan shaxs huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Biroq amaliyotda, ayniqsa yirik shaharlarda, bir tergov sudyasining kuniga o'ndan ortiq iltimosnomani ko'rib chiqishi, sifatli ko'rib chiqishga imkon bermasligi mumkin.

Bu muammo o'g'irlik jinoyatlari kontekstida yanada keskinlashadi, chunki ushbu jinoyat turi jinoyat ishlarining eng katta ulushini tashkil etadi. O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda ro'yxatga olingan barcha jinoyatlarning 34 foizini mulkiy jinoyatlar, ularning katta qismini esa o'g'irlik tashkil etgan. [7]

#### 4.3. Ehtiyot choralari tanlashda proporsionallik tamoyili

O'g'irlik jinoyatlari, og'irlashtiruvchi holatlar bo'lmasa, o'rta darajadagi jinoyat sifatida tasniflanadi. Shunga qaramay, amaliyotda bu toifadagi ishlar bo'yicha ham hibsga olish kabi og'ir ehtiyot choralari tez-tez qo'llanilmoqda. Tergov sudyasining vazifasi — proporsionallik tamoyilini ta'minlash bo'lsa-da, tergov organlarining iltimosnomalarini to'liq asoslantirilganligini va alternativ ehtiyot choralari ko'rib chiqilganligini tekshirish amaliyotda etarlicha amalga oshirilmayapti.

Evropa Insoniylik Huquqlari Mahkamasi (OIHM) o'z pretsidentlarida, xususan Buzadji — Moldova ishida (2016), hibsga olish asoslarining ko'r-ko'rona qabul qilinishi va ehtiyot chorasining proporsionalligini baholash majburiyati borligi tergov sudyalariga nisbatan alohida ta'kidlanganini ko'rib chiqqan. Mazkur standart O'zbekiston sudlari amaliyotiga ham asta-sekin kirib kelmoqda.

#### 4.4. Himoya tomoni bilan munosabatlar

Tergov sudyasi teng huquqlilik tamoyiliga asoslanishi lozim: ya'ni iltimosnomani ko'rib chiqishda nafaqat tergov tomoni, balki himoya tomoni ham o'z pozitsiyasini etarlicha bayon etishi ta'minlanishi kerak. Biroq o'g'irlik jinoyatlariga oid amaliyotda himoya vakili ko'plab hollarda tergov sudyasi majlisida qatnasha olmaslik yoki qisqa vaqt ichida pozitsiyasini yetarlicha asoslab bera olmaslik holatlariga duch kelmoqda.[8]

Bundan tashqari, tergov sirini saqlash talabi bilan himoya tomoni huquqlari o'rtasidagi muvozanat muammosi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **5. TAKLIF VA MULOHAZALAR**

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchi taklif: tergov sudyasining institusional mustaqilligini kuchaytirish maqsadida ularni alohida, mustaqil ma'muriy binolarda joylashtirishni tartibga soluvchi normani JPKga kiritish maqsadga muvofiq. Bu chora institutning tashkiliy va psixologik jihatdan mustaqilligini ta'minlaydi.

Ikkinchi taklif: o'g'irlik jinoyatlari bo'yicha hibsga olish iltimosnomalarini ko'rib chiqishda tergov sudyasining proporsionallik baholashini kuchaytirish lozim. Ya'ni tergov sudyasi hibsga olish iltimosnomalarini ko'rib chiqishdan avval muqobil choralar (garov, uy qamog'i) ko'rilganligini tekshirish majburiyatini olishi kerak.

Uchinchi taklif: tergov sudyasining ish yukini tartibga solish uchun har bir tergov sudyasiga kuniga ko'rib chiqishi mumkin bo'lgan iltimosnomalar soni bo'yicha yuqori chegarani belgilash va bu maqsadda tergov sudyalari sonini bosqichma-bosqich oshirib borish zarur. Bunday chora Qozog'iston tajribasida ham o'zini oqlagan bo'lib, ushbu davlatda tergov sudyalari uchun maxsus kadrlar zaxirasi yaratilgan.

To'rtinchi taklif: tergov sudyasi himoya tomonini to'liq qatnashishini ta'minlash uchun iltimosnomalar haqida himoya

tarafini oldindan xabardor qilish muddatini real kafolatlash mexanizmi bilan mustahkamlash tavsiya etiladi. Bu taklif Venetsiya komissiyasining O'zbekiston jinoiy protsessual qonunchiligi bo'yicha 2022 yilgi xulosasida ham alohida ta'kidlangan.[9]

## **6. XULOSA**

Tergov sudyasi instituti O'zbekiston jinoiy protsessida sudga qadar bosqichda huquqiy nazoratni ta'minlashning samarali mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O'g'irlik jinoyatlariga oid ishlar bo'yicha tergov sudyasining faoliyatini tahlil qilish ushbu institutning nafaqat qonuniy, balki amaliy asoslarida ham bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Tergov sudyasining institusional mustaqilligi, ish yuki va muddatlar ziddiyati, ehtiyot choralari tanlashdagi proporsionallik printsipi va himoya tomoni bilan munosabatlardagi muvozanat masalalari — bular hal etilishi zarur bo'lgan asosiy muammolar sifatida ajralib turadi. Ushbu muammolarga yechim topish uchun qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarga hamda sud amaliyotiga aniq, ilmiy asoslangan takliflar kiritilishi lozim.[10]

Kelgusida tergov sudyasi instituti faoliyatini yanada samarali bo'lishi uchun qiyosiy huquqiy tajribani o'rganish, sud statistikasini monitoring qilish va amaliyotchilar bilan muntazam muloqot o'rnatib borish ilmiy hamjamiyat, amaliyotchilar va qonun chiqaruvchilar uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. *O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 2021 yil 1 iyul. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2021.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 168-modda (O'g'irlik). 1994 yil 22 sentyabr (2023 yil o'zgartirishlar bilan).*

3. Jomurzaev U.A. *O'zbekiston jinoiy protsessida tergov sudyasining huquqiy maqomi.* — Toshkent: Akademiya, 2022. — 184 b.

4. Xasanov B.X., Mirzayev M.S. *Sudga qadar bosqichda himoya huquqi: nazariya va amaliyot.* // *O'zbekiston huquqi jurnali.* — 2023. — №2. — B. 45-58.

5. *Венецианская комиссия. Заключение по проекту Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан.* CDL-AD(2022)018. — Venice: Council of Europe, 2022.

6. ECtHR. *Buzadji v. Moldova.* Application no. 23755/07. *Grand Chamber Judgment,* 5 July 2016.

7. Смирнов А.В., Калиновский К.Б. *Уголовный процесс: учебник.* — М.: Проспект, 2021. — 736 с.

8. *Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 55-56-moddalar (Tergov sudyasi).* 2014 yil 4 iyul.

9. *O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Jinoyatchilikning ahvoliga oid 2023 yilgi statistik ma'lumotlar.* — Toshkent, 2024.

10. Rasulev A.X. *Protsessual mustaqillik va sudyaviy nazorat: qiyosiy tahlil.* // *Davlat va huquq.* — 2022. — №4. — B. 12-26.

**H.A.Akmalov**

*Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti” mutaxassisligi magistranti,  
O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi xodimi.*

## **JINOYAT HUQUQIDA JAZODAN OZOD QILISH INSTITUTINING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada jazodan ozod qilish institutining ibtidoiy jamoa tuzumidan to O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik davrigacha bo‘lgan tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayoni ketma-ket tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida qadimgi huquqiy manbalarda uchraydigan “talion”, “xun”, “tovon puli” kabi dastlabki institutlardan boshlab, islom huquqidagi afv etish va jazoni yumshatish an‘analari, mo‘g‘ul-temuriy davrlarning o‘ziga xos huquqiy yondashuvi, sovet jinoyat qonunchiligi bosqichlari va nihoyat mustaqil O‘zbekistonning milliy jinoyat kodekslari izchil ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot xulosasi sifatida jazodan ozod qilish institutining tarixiy rivojlanishini besh mustaqil bosqichga ajratish taklif qilingan bo‘lib, bu tasnif institutning evolyutsion mantiqini yanada aniqlay beradi.*

**Kalit so‘zlar:** *jazodan ozod qilish, jinoyat qonunchiligi, talion prinsipi, xun, tovon puli, muddatidan ilgari shartli ozod qilish, islom huquqi, Avesto, sovet jinoyat qonunchiligi, jazoni engilrog‘i bilan almashtirish, insonparvarlik prinsipi.*

Jinoyat va jazo masalalari azal-azaldan jamiyat hayotining ajralmas qismini tashkil etib kelgan. Insoniyat o‘z tarixining ilk bosqichlaridan boshlab qilmish va uning oqibatlari o‘rtasidagi muvozanatni izlashga, jazoning muqarrarligi bilan adolat o‘rtasidagi nozik chegarani belgilashga harakat qilgan. Jazodan ozod qilish instituti ham aynan shu izlanishlar mahsuli sifatida yuzaga kelib, asrlar davomida o‘zining murakkab tarixiy takomillashuv yo‘lini bosib o‘tgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida keng tarqalgan tovon puli to‘lash va kechirish amaliyotidan boshlab, islom huquqidagi afv etish an‘analari, o‘rta asrlar jinoyat-huquqiy

ta'limotlari va nihoyat zamonaviy jinoyat kodekslarida mustahkamlangan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mexanizmlarigacha bo'lgan bu uzoq evolyutsion yo'l jamiyatning huquqiy ongidagi chuqur va izchil o'zgarishlarning timsoli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu institutning rivojlanish tarixini ilmiy jihatdan o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tahlil joriy qonunchilikdagi kamchiliklarni aniqlash, xalqaro tajribadan foydalanish va huquqiy islohatlarga asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Rim huquqida — xususan XII jadval qonunlarida — jazo munosabatlari uch bosqichda rivojlangan: birinchi bosqich shaxsiy qasos davri bo'lib, zarar ko'rgan shaxs aybdorni o'zi jazolagan; ikkinchi bosqichda xususiy qasos zarar o'rnini qoplash kelishuvi bilan almashtirilgan; uchinchi “kompozitsiya” davrida esa davlat tomonidan shartli jarimalar o'rnatilgan va zarar etkazgan shaxs belgilangan miqdorni to'lash orqali jazodan ozod etilgan.

Ilk o'rta asrlarda Yevropada anglo-saksonlar huquqida ham tovon to'lash va qasamyod orqali jazodan ozod bo'lish amaliyoti mavjud bo'lgan. Jazo jarohatning jiddiyligi va jabrlanuvchining holatiga qarab belgilangan. Qiziqarli holat sifatida shuni qayd etish mumkinki, agar jinoyat sodir etgan shaxs dorga osish paytida arqon uzilib ketsa, bu ilohiy kechirish belgisi sifatida qaralib, mahkum jazodan ozod qilingan.

Milliy davlatchiligimiz tarixida Avesto muhim huquqiy manba hisoblangan. 348 bobdan iborat ushbu asarda jinoyat, fuqarolik va sud huquqi normalari ham mavjud. Tadqiqotchi A.G.Xalikov ta'kidlaganidek, Avestoda jinoyatlar subyektiv tomon (qasd yoki ehtiyotsizlik), jinoyatning tugallanganlik darajasi (tamom bo'lgan yoki bo'lmagan), shuningdek jazoning tabiati (jazoni sotib olish imkoniyati, amnistiya qo'llanilishi) bo'yicha tasniflangan.

Avestoda jazodan ozod qilishda “ordaliya” — ya'ni sinash usulidan foydalanilgan. O't bilan sinash yoki suvga sho'ng'ish orqali aybdorning muayyan shartni bajarishi “xudo tomonidan afv etilishi” deb baholangan va jinoyatchi jazodan ozod qilingan. Bu

usullar o'sha davr huquqiy tafakkurida diniy va huquqiy me'yorlarning qanchalik chambarchas bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davlatida islom huquqi manbalari asosida boshqaruv amalga oshirilgan. Qur'oni Karimga asoslanib, qasos olishni "diya" (xun haqi) to'lash bilan almashtirib, jinoyatchilar jazodan ozod qilingan yoki jazolari engillashtirilgan. Bu qoida islom huquqida jazodan ozod qilishning asosiy shakllaridan birini tashkil etgan.

Chingizxon va Amir Temur davlatlarida "Yaso" qonunlari jinoyat va jazo masalalarini tartibga solgan. Mayda o'g'rilik uchun o'g'irlangan narsaning uch baravari miqdorida jarima undirib, uni to'lay olmagan holda qamchi jazosi belgilangan. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida esa jinoyat sodir etilganidan bir necha yil o'tsa ham javobgarlik muqarrarligi ta'minlanganiga doir misollar keltirilgan.

O'zbekiston 70 yilga yaqin sovet davlatlari ittifoqi tarkibida bo'lganligi sababli, qonunchiligimizga sovet huquqining ta'siri katta bo'lgan. 1924-yilda qabul qilingan "SSSR davlatlari jinoyat qonunchiligi asoslari" va 1926-yilda qabul qilingan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi bu davrning asosiy huquqiy hujjatlari hisoblanadi. 1926-yilgi O'zbekiston SSR JKning 54-moddasiga ko'ra muddatli ijtimoiy himoya chorasiga hukm etilgan va o'zini tuzalganligini ko'rsatgan shaxslar muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod etilishi mumkin bo'lgan.

1929-yilgi o'zgartirishlar bilan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun jazoning kamida uchdan ikki qismini o'tash talabi belgilandi. 1930-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshiga qadar totalitar siyosiy tuzum sharoitida jinoyat qonunining amalda qo'llanishi cheklanib, jazoni ijro etish masalalari qonun osti hujjatlar bilan tartibga solingan. Mahkumlarning mehnatidan maksimal darajada foydalanish maqsadida jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish bosqichma-bosqich qisqartirib borilgan. Tadqiqotchi I.D.Perlov ta'kidlaganidek, bu institutning bekor

qilinishi mahkumlarning huquqlarini jiddiy ravishda cheklab, ularning tezroq tuzalishga bo'lgan intilishini susaytirdi.

1959-yilda "SSSR va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunchiligining asoslari" yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida 1959-yil 21-mayda O'zSSR Jinoyat kodeksi ham yangi tahrirda qabul qilindi. Kodeksda jazodan ozod qilishning quyidagi shakllari mustahkamlandi: shartli ravishda hukm qilish (43-modda); muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish va jazoni engilrog'i bilan almashtirish (50-modda); ozodlikdan mahrum etish joylaridan shartli ravishda ozod qilish (50<sup>2</sup>-modda); voyaga etmagan shaxslarni jazodan ozod qilish (51-modda).

1977-yilgi farmonga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o'tayotgan shaxslar, agar ularni jamiyatdan ajratib qo'ymagan holda nazorat ostida tuzatish imkoni bo'lsa, shartli ravishda ozod qilib mehnatga jalb qilish chorasi joriy etildi. Shu bilan birga muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilmaydigan shaxslar doirasi ham qonunlarda qayd etilgan bo'lib, bu doira turli siyosiy vaziyatlarga bog'liq holda o'zgarib turgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, 1994-yilda yangi Jinoyat kodeksi qabul qilindi. Ushbu kodeksda ashaddiy va oddiy jinoyatchilar javobgarligini differentsiyalashtirish tamoyili asosida jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning yangi shakllari mustahkamlandi. Jazodan ozod qilish alohida bobda tartibga solinib, muddatidan ilgari shartli ozod qilish (73-modda) va jazoni engilrog'i bilan almashtirish (74-modda) alohida normalar sifatida kiritildi.

1994-yilgi JKda muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo turlari kengaytirildi: ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan ushbu ozod qilish turi qo'llanishi mumkin bo'ldi. Shuningdek, muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanishi ta'qiqlangan shaxslar doirasi sovet davriga nisbatan ancha qisqartirildi.

2007-yil 24-sentabrda O‘RQ-115-son Qonunga ko‘ra giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni kontrabanda qilish hamda ularni g‘ayriqonuniy ravishda sotish uchun hukm qilinganlar ham jazodan ozod qilishning ushbu turidan foydalanish huquqiga ega bo‘ldi. Bu islohat insonparvarlik tamoyilini joriy etish yo‘lida muhim qadam sifatida baholanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib jazodan ozod qilish institutining rivojlanish tarixini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

– islomgacha bo‘lgan davr – zardushtiylik dinining ta’siri bilan tavsiflanadi;

– shariat normalari amal qilgan davr – islomning tarqalishi va islom jinoyat huquqining ta’siri bilan bog‘liq;

– chor Rossiyasi hukmronligi davri – shariatning ta’siri va 1903-yil JK normalari amal qilishi;

– sovet davri – 1926 va 1959-yildagi jinoyat qonunlarining amal qilishi;

– mustaqillik davri – 1994-yilda O‘zbekiston Respublikasining JK qabul qilinishi bilan boshlanadi.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning tarixini o‘rganish asnosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Jazodan ozod qilishning mazkur turi jinoyat qonunchiligimiz tarixidagi 1926, 1959, 1994-yillardagi Jinoyat kodekslarining barchasida nazarda tutilgan;

barcha davlarda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun jazoning amalda o‘talgan qismi va mahkumning mehnatga halol munosabatda bo‘lishi va tuzalish yo‘liga o‘tgan bo‘lishi talab etilgan;

jazodan ozod qilish sudlar tomonidan jazoni ijro etuvchi muassasa taqdimnomasiga ko‘ra amalga oshirilgan;

jazodan ozod qilish qo‘llanishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasi turli vaqtlarda davlatdagi siyosat, mavjud vaziyatdan kelib chiqib o‘zgarib borgan.

Ushbu tadqiqot jazodan ozod qilish institutini yanada takomillashtirish, insonparvarlik tamoyilini mustahkamlash va xalqaro standartlarga muvofiq huquqiy islohot o'tkazish yo'lida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *M.Usmonaliyev. Jinoiyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T.: "Yangi asr avlodi", 2005, B.662.*

2. *Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoiyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. B.198.*

3. *Перлов И. Д. Исполнение приговора. – М., 1963. – С. 100.*

4. *O'zbekiston SSRning Jinoiyat kodeksi (1971-yil 1-yanvargacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). – T.: O'zbekiston, 1971. – B.235.*

5. *Akramova M.T. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning maxsus asoslari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2022. –B.21.*

6. *Niyazova Sh.G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. Toshkent.: 2010.*

7. *Turgunboyev E. Jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish masalalari. Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi. Toshkent – 2023.*

**V.To‘lqinova,**  
*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi*

## **JINOYAT QONUNCHILIGIDA JAZODAN OZOD QILISH TUSHUNCHASI VA MOHIYATI**

**Annotasiya:** *Mazkur maqolada jinoiy jazodan ozod qilish institutining nazariy-huquqiy tabiati hamda uni amaliyotda qo‘llashning dolzarb masalalari tadqiq etilgan. Muallif tomonidan jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida insonparvarlik va odillik prinsiplarini ta‘minlashda mazkur institutning o‘rni ochib berilgan. Jazodan ozod qilishning huquqiy tasnifi, uning to‘la, qisman va aralash shakllari yuzasidan ilmiy qarashlar tizimlashtirilgan. Shuningdek, jazoni engilrog‘i bilan almashtirish va muddatidan ilgari shartli ozod qilish normalarini qo‘llashdagi mavjud muammolar tahlil qilinib, qonunchilik va sud amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *jinoiy jazo, jazodan ozod qilish, liberallashtirish, insonparvarlik prinsipi, rag‘batlantiruvchi normalar, shartli hukm qilish, muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni engilrog‘i bilan almashtirish.*

Bugungi kunda mamlakatimizda jinoyat qonunchiligini izchil takomillashtirish, shaxsga adolatli jazo tayinlash va insonparvarlik tamoyillari asosida jazodan ozod qilish institutining samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, mahkumlarning ijtimoiy foydali xulq-atvorini rag‘batlantirish bilan bir qatorda, ijtimoiy xavfi katta bo‘lgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazodan ozod qilish tartibini qat‘iylashtirish orqali huquqiy ta‘sir choralarning mutanosibligi ta‘minlanmoqda.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan jinoyat qonunchiligiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish va qonun ustuvorligini ta‘minlashga oid strategik yo‘nalishlar jazodan ozod qilish institutining huquqiy asoslarini ilmiy jihatdan qayta tadqiq etishni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, jazodan ko‘zlangan maqsadlarga erishish va mahkumlarni resotsializatsiya qilish jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Huquqshunos olimlarning ta'kidlashicha, jinoiy jazoni o'tashdan ozod qilish kompleks jinoyat-huquqiy institut bo'lib, u nafaqat jinoyat-huquqiy, balki jinoyat-prosessual hamda jinoyat-ijroiya huquqlariga oid normalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur institut mahkumning ahvolini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, uning qonunga itoatkor xulq-atvorining ifodalaydi.

Huquqiy tabiatiga ko'ra jazodan ozod qilish jinoyat sodir etgan shaxsning o'z aybini tan olishi, uning sudlanishi hamda javobgarlikdan ozod qilishdan farqli ravishda jazodan ozod qilish sud tomonidan qo'llanilishini taqozo etadi.

Huquqshunos olim M.Rustambayevning ta'kidlashicha, jinoyat huquqi nafaqat sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash, balki sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligini jiddiy kamaytiradigan ijobiy xarakterlanadigan hatti-harakatlar uchun shaxsga nisbatan rag'batlantiruvchi normalarni qo'llash vazifasini ham bajaradi. Olimning ushbu fikrini qo'llab-quvvatlagan holda, rag'batlantiruvchi normalar jinoyat huquqining maxsus funksiyalaridan biri deya qo'shimcha sifatida ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

Yuridik adabiyotlarda berilgan ta'rifga ko'ra, jinoiy jazodan ozod qilish deganda shaxsni qilmishi sudda mazmunan ko'rib chiqilib, ayblov hukmi chiqarilib, mahkumni jazo tayinlashdan yoki tayinlangan jazoni o'tashdan, shuningdek o'tayotgan jazoni davom ettirishdan ozod qilish tushuniladi. Biroq, u oqlov hukmi chiqarishdan keskin farq qilib, shaxsning jinoyat sodir etishda aybi yo'qligi aniqlangan hollarda emas, balki ushbu institut aybi isbotlangan va qilmishiga iqror bo'lgan aybdor (mahkum)ga nisbatan qo'llanadi.

Mahkumning jazo muddatini o'tashi mobaynida ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi jazodan ko'zlangan maqsadga erishilganligini anglatadi, bunda uni jazoni o'tashini davom ettirishi maqsadga muvofiq bo'lmay qoladi. Shu jihatlariga asosan, jinoyat qonunchiligida jazodan ozod qilishning quyidagi 9 ta turi belgilangan:

1) Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (69-modda);

2) Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish (70-modda);

- 3) Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (71-modda);
- 4) Shartli hukm qilish (72-modda);
- 5) Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (73-modda);
- 6) Jazoni engilrog‘i bilan almashtirish (74-modda);
- 7) 74<sup>1</sup>-modda. Jazoni o‘tash muddatini shaxs tuzalish yo‘liga o‘tganligi munosabati bilan qisqartirish
- 8) Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish (75-modda);
- 9) Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (76-modda).

Huquqshunos olim E.Turgunboyevning ta’kidlashicha, ushbu ro‘yxat asosida jazodan ozod qilish turlarini farqlash ushbu institutning yuridik tabiatini ko‘rsatadi. Ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlagan holda mazkur holat jinoyat qonunining odillik va insonparvarlik prinsiplari raqobatini ham anglatadi, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, olimlar jazodan ozod qilish turlarini ba’zi jihatlariga ko‘ra ham tasniflashadi. Jumladan, M.Usmonaliyev jinoiy jazodan ozod qilishni to‘la va qisman turlarini farqlaydi.

Jinoiy jazoni o‘tashdan to‘la ozod qilish turlari:

- jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (69-modda);
- shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish (70-modda);
- aybdorni chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (71-modda);
- shartli hukm qilish (72-modda).

Mazkur tasnifda sudning ayblov hukmi bilan jinoiy jazo tayinlanib, mahkumning tayinlangan jazoni ijro etishi jazoning maqsadiga muvofiq emasligi sababli uni ijro etmaslikka doir qaror chiqariladi.

Sud tomonidan tayinlangan jazoning o‘talmagan qismidan ozod qilish turlari sifatida quyidagilar keltiriladi:

- jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (73-modda);

- jazoni engilrog‘i bilan almashtirish (74-modda);
- kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish (75-modda);
- avf etish asosida jazodan ozod qilish (76-modda);
- amnistiya akti orqali javobgarlikdan ham, jazodan ham ozod qilishi mumkin.

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini inkor etmagan holda, biz ham jazodan ozod qilish turlarini shartli ravishda 2 guruhga ajratish bo‘yicha quyidagi fikrlarni ilgari suramiz:

1) Sudlar tomonidan jazo tayinlash vaqtida jazodan ozod qilish (69-72-moddalar);

2) Mahkumlarga nisbatan jazodan ozod qilish (73-76-moddalar).

Mavzu yuzasidan huquqshunos olimlarning fikrlarini o‘rgangan holda, mavzuni atroflicha tahlil qilib quyidagi xulosa va takliflarni bildirib o‘tishni joiz deb hisoblaymiz:

Jinoyat qonunchiligini isloh qilish jarayonida jazodan ozod qilish institutini takomillashtirishda sud-tergov hamda jazoni ijro etish amaliyotidagi ayrim holatlarni bartaraf etish bo‘yicha nazariy-huquqiy qarashlarni ishlab chiqish hamda tegishli qonunchilik normalarini o‘zgartirish, ularga qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq qonunchilik hujjatini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2005, B.662.*

2. *Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta‘limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. B.198.*

3. *Akramova M.T. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning maxsus asoslari. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2022. –B.21.*

4. *Niyazova Sh.G. Muddatlarning o‘tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...jur. fan. nomzodi. Toshkent.: 2010.*

5. *Turgunboyev E. O. Jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish masalalari. Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi. Toshkent – 2023.*

**L.O.Shukurova,**  
*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Advokatlik faoliyati mutahassisligi,  
magistratura talabasi*

## **RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA ADVOKAT HUQUQ VA MAJBURIYATLARI: QIYOSIY-HUQUQ TAHLILI.**

*Anotatsiya: Mazkur maqola rivojlangan mamlakatlarda advokatning huquq va majburiyatlarini qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda advokatning kasbiy faoliyati doirasidagi asosiy huquqlari, jumladan, mijoz manfaatlarini himoya qilish, mustaqil huquqiy pozitsiyani shakllantirish, advokatlik sirini saqlash hamda davlat organlari va boshqa subyektlar bilan munosabatlarda tenglik prinsipi asosida faoliyat yuritish masalalari yoritilgan.*

*Maqolada O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni normalari bilan bir qatorda Yevropa va Osiyo mamlakatlari, Yaponiya, Singapur qonunchiligi hamda amaliyoti tahlil qilinib, advokatning majburiyatlari — halollik, vijdonlilik, mijoz manfaatlariga sodiqlik va kasbiy etikaga rioya qilish kabi tamoyillar asosida ko'rib chiqilgan.*

*Qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida turli mamlakatlarda advokatlik faoliyatini tartibga solish mexanizmlaridagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlanib, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari advokatura institutining samaradorligini oshirish va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *advokat, advokatlik faoliyati, advokat faoliyati kafolatlari, advokatning huquq va majburiyatlari, advokatlik siri, advokatning mustaqilligi, huquqiy himoya, daxlsizlik, kasbiy erkinlik, qiyosiy-huquqiy tahlil, xorijiy davlatlar tajribasi, advokatura instituti, huquqiy maqom, qonunchilik, O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.*

Bugungi kunda ko'plab huquqiy davlatlarda qadimdan rivojlanib kelgan himoya instituti zamonaviy yuridik tizimning ajralmas va muhim tarkibiy elementi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur

jarayonda Advokatura fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sudlov adolatini ta'minlash hamda huquq ustuvorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan advokatlarning maqomi xalqaro va milliy darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Xorijiy adabiyotlarda advokatlar professional etika va majburiyatlarining huquq tizimlarida tutgan o'rni va mazmuni keng tahlil qilingan. Masalan, *Jingwei Xu, Zhengmin Li va Siyu Li*<sup>1</sup>ning fikrlariga ko'ra, advokatlarning professional etika va javobgarligi zamonaviy huquqiy tizimlarda adolat va huquqning ustuvorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida ta'riflashgan. Olimlar fikricha, advokatlar advokatlik sirini saqlash, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, adolatli sudlovni ta'minlash uchun o'z bilimlarini doimiy yangilab borish majburiyatiga ega ekanligi nazariy va amaliy jihatdan asoslantirilgan. Huquqshunos olim *Roscoe Pound*<sup>2</sup> advokatura institutini "jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi mexanizm" sifatida ta'riflagan. Shuningdek, *Richard Abel*<sup>3</sup> advokatlarni huquqiy tizimning asosiy ishtirokchilari sifatida baholab, ularni ko'pincha an'anaviy davlat yuridik yordam tizimidan tashqarida faoliyat yuritishini va o'z ishini grantlar, turli fondlar ko'magi yoki mijoz(ishonch bildiruvchi)lardan olinadigan to'lovlar orqali moliyalashtirishi haqida fikr yuritadi. Ushbu ilmiy qarashlar advokatlarning nafaqat yuridik, balki ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatini ham ko'rsatadi.

BMT tomonidan 1990-yilda qabul qilingan "Yuristlarining roliga oid asosiy prinsiplar" (Basic Principles on the Role of Lawyers)<sup>4</sup> xalqaro hujjat advokatlarning mustaqilligi, kasbiy erkinligi va daxlsizligini ta'minlashning asosiy standartlarini

---

<sup>1</sup> <https://doi.org/10.1051/shsconf/202419002006> v (Legal Ethics and Professional Responsibility in the Legal Profession, Xu, Li & Siyu; 2024)

<sup>2</sup> <https://archive.org/details/lawyerfromantiqu00roscoe>

<sup>3</sup> Richard L. Abel. "Lawyers and the Power to Change." *Law & Policy*, vol. 7, no. 1 (1985): 5-18.

<sup>4</sup><https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-role-lawyers>

belgilaydi. U huquqiy jihatdan majburiy shartnoma sifatida emas, tavsiyaviy xarakterdagi shartnomalar toifasiga kiradi. BMTning bu hujjati davlatlar tomonidan “ratifikatsiya qilinishi” talab qilinmaydi, lekin davlatlar mazkur hujjatni milliy qonunchilikda inobatga olishi yoki amaliyotida tatbiq etishi orqali mazkur davlatlarning yuridik yordam va advokatura bilan bog‘liq qonunchiligi xalqaro standartlarga muvofiq ekanligi belgilanadi.

Mazkur hujjatning qoidalarida advokat faoliyatining huquqiy asoslari batafsil ochib beradi. Jumladan, 1-moddaga ko‘ra, har bir shaxs o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun mustaqil advokat xizmatidan foydalanish huquqiga ega. Bu norma advokat institutining bevosita inson huquqlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatsa, 5-moddada esa davlatlar advokatlarga o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi shartligi belgilangan bo‘lib, bu advokatlarning institutsional mustaqilligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Hujjatning 16-moddasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unga muvofiq advokatlar o‘z kasbiy vazifalarini bajarishda hech qanday bosim, tahdid yoki noqonuniy aralashuvsiz faoliyat yuritishi lozim. Shu bilan birga, ular o‘z mijoz(ishonch bildiruvchi)lari manfaatlarini erkin himoya qilish huquqiga ega va bu jarayonda davlat organlari tomonidan uning huquq va erkinliklari amalga oshirilayotgan paytda qonunda nazarda tutilmagan holatlarda cheklovlarga uchramasligi lozim. 18-moddada advokatlarning mijoz(ishonch bildiruvchi)lari bilan erkin va maxfiy muloqot qilish huquqi kafolatlanadi, bu esa advokatlik sirining daxlsizligi prinsipini mustahkamlaydi.

Shuningdek, 20-moddaga ko‘ra, advokatlar o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirganliklari uchun qonun doirasida faoliyat yuritgan bo‘lsa, jinoiy yoki fuqarolik javobgarligiga tortilmasligi kerak, Bu norma advokatlarni asossiz ta‘qibdan himoya qilishga qaratilgan. Holbuki, 22-moddada esa advokat va ishonch bildiruvchi o‘rtasidagi ma‘lumotlar va so‘zlashuvlar maxfiy hisoblanishi belgilangan bo‘lib, ushbu qoida advokatlik sirining xalqaro darajada e‘tirof etilgan muhim elementi hisoblanadi. Bundan tashqari, 23-moddaga muvofiq advokatlar jamiyatdagi muhim ijtimoiy masalalar

yuzasidan o‘z fikrini erkin bildirish huquqiga egaligi, biroq ular buni amalga oshirishda kasbiy etikaga rioya qilishi lozimligi yoritilgan. 24-moddada esa advokatlarning o‘zini o‘zi boshqaruvchi professional tashkilotlarga birlashish huquqi mustahkamlangan bo‘lib, bu advokatura institutining mustaqilligini ta’minlashning muhim kafolati sifatida qaraladi.

Yevropa mamlakatlarida esa advokatlarning huquqiy maqomi va kasbiy majburiyatlari nafaqat milliy qonunchilik orqali tartibga solinadi, balki mintaqaviy huquqiy standartlar orqali ham mustahkamlanadi. Bunda advokat institutining asosiy xalqaro normativ-huquqiy manbalari sifatida Council of Europe tavsiyalari hamda Council of Bars and Law Societies of Europe (CCBE) tomonidan qabul qilingan “Code of Conduct for European Lawyers” kodeksi xizmat qiladi.

Yevropa Kengashining 2000-yilda qabul qilingan Recommendation No. R(2000)21 – “Advokatlik faoliyatining mustaqilligi to‘g‘risida”gi (On the freedom of exercise of the profession of lawyer)<sup>5</sup> hujjati advokatlarning mustaqil faoliyat yuritishi, kasbiy erkinligi va mijoz(ishonch bildiruvchi)larni vakillik qilish huquqini kafolatlashni belgilaydi. Ushbu tavsiyaviy hujjat advokatning davlat organlari yoki boshqa subyektlar aralashuvisiz faoliyat yuritishi, shuningdek advokatlarning professional sodiqligi va halolligini ta’minlashga qaratilgan tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Bu tavsiyanomadagi me’yorlar ayrim davlatlar uchun majburiy huquqiy kuchga ega bo‘lmasa-da, u Yevropa davlatlarining milliy qonunchiligini shakllantirishda asosiy huquq manbasi sifatida keng qo‘llaniladi.

Advokatura institutini tartibga soluvchi yana bir xalqaro hujjat – Yevropa advokatlar palatalari va yuridik birlashmasi (CCBE) tomonidan 1988-yilda ishlab chiqilgan “Yevropa advokatlari uchun odob-axloq kodeksi” (Code of Conduct for European Lawyers)<sup>6</sup>

---

<sup>5</sup> <https://www.icj.org/wp-content/uploads/2014/10/CoE-rec200021-freedom-exercise-profession-lawyer.pdf>

<sup>6</sup> <https://www.ccbe.eu/documents/publications/>

bo'lib, u advokatlarning professional munosabatlari va etik me'yorlarini yagona prinsiplar to'plamidir. Mazkur kodeks birinchi marta 1988-yilda qabul qilingan va keyinchalik bir necha bor yangilangan, 2006-yilda so'nggi tuzatishlar kiritilgan.

Kodeksining kirish qismida advokatning jamiyatdagi o'rni alohida e'tirof etilgan bo'lib, advokat nafaqat mijoz(ishonch bildiruvchi)ni himoya qiluvchi, balki umumiy adolat prinsiplarini ilgari suruvchi subyekt sifatida qaraladi. Kodeksda 10 ta asosiy prinsip keltirilgan bo'lib, ularda advokatlarning mustaqilligi, advokatlik sirini saqlash, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, kasbiy sodiqlik va huquqiy etika ustuvor tamoyillar sifatida belgilangan.

Birinchidan, mustaqillik advokat faoliyatidagi eng asosiy prinsiplardan sanaladi. Agar advokat tashqi bosim yoki ta'sir ostida ishlasa, u adolatni emas, balki kimningdir manfaatini himoya qiladi. Shuning uchun advokat faqat qonun va o'z vijdoniga tayanib qaror qabul qilishi kerak, shundagina u professional himoyani ta'minlay oladi.

Ikkinchidan, konfidensiallikda advokat advokatlik tuzilmalarida faoliyat olib boradigan boshqa kasbdoshlari bilan muloqotga kirishganda ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi lozim. Mijoz(ishonch bildiruvchi) advokatga nozik va shaxsiy ma'lumotlarini ishonib topshiradi. Agar bu sir saqlanmasa, butun huquqiy tizimning zaiflashishiga olib keladi. Demak, maxfiylik nafaqat mijoz(ishonch bildiruvchi)ni, balki jamiyatdagi adolatni ham himoya qiladi.

Uchinchidan, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish advokatning halolligini ko'rsatadi. Agar advokat bir vaqtning o'zida qarama-qarshi tomonlarga xizmat qilsa, u hech qachon xolis bo'la olmaydi. Shu sababli advokat har doim bir tomonning manfaatini to'liq va sodiq himoya qilishi lozim.

To'rtinchidan, professionallik va sodiqlik advokatning sifat darajasini belgilaydi. Faqat bilimli bo'lish yetarli emas – advokat o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi, har bir ishni jiddiy qabul qilishi va mijoz(ishonch bildiruvchi) manfaatini ustuvor qo'yishi kerak.

Chunki advokatning xatosi ba'zan inson taqdiriga ta'sir qilishi mumkin.

Beshinchidan, hurmat va xolislik advokatning madaniyatini namoyon etadi. Sud jarayonida hissiyot emas, balki hurmat va mantiq ustun bo'lishi kerak. Advokat boshqa ishtirokchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lsa, bu jarayonning adolatli va samarali o'tishiga yordam beradi.

Ushbu tamoyillar Yevropa huquq tizimidagi deyarli barcha davlatlar milliy kodekslari bilan uyg'unlashtirilishiga ahamiyat beriladi. Masalan, kodeksning 1.1-bandida advokatning "sud adolatiga xizmat" qilish vazifasi alohida ta'kidlanadi, ya'ni advokatning vazifasi nafaqat mijoz(ishonch bildiruvchi)ni himoya qilish, balki sudning adolatli qaror chiqarishiga ham hissa qo'shish ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Masalan, *Clive M. Schmitthoff*<sup>7</sup>bu kodeksga advokatlik kasbining "etika va professional salohiyatini yagona normalar bilan belgilovchi hujjat" deb ta'rif beradi.

Yevropa va Osiyo mamlakatlarida advokatlik faoliyatini tashkil etishdagi asosiy farq huquqiy xizmat ko'rsatish chegaralarining qanchalik aniq belgilanganligida namoyon bo'ladi. Yevropa davlatlarida bu soha qat'iy tartibga solingan bo'lib, qonun bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish vakolati faqat maxsus litsenziyaga ega bo'lgan advokatlarga berilgan. Bu tizimda advokat va uning yordamchisi o'rtasidagi vazifalar aniq taqsimlangan: yordamchi xodimlar faqat texnik ishlarni bajaradi, mijoz(ishonch bildiruvchi)ga mustaqil maslahat berish yoki sudda uning nomidan so'zlash huquqiga ega bo'lmaydi. Bunday yondashuv jamiyatda advokatlik kasbining nufuzini va mas'uliyatini yuqori darajada saqlab turadi, chunki mijoz(ishonch bildiruvchi) kimdan sifatli yordam olishi mumkinligini aniq biladi.

Osiyo mamlakatlarining aksariyatida huquqiy xizmatlar bozori ko'p qatlamli hisoblanadi. Advokatlar bilan bir qatorda, maxsus litsenziyasi bo'lmagan yuristlar, yuridik maslahatxonalar,

---

<sup>7</sup> [https://openlibrary.org/authors/OL926903A/Clive\\_M.\\_Schmitthoff](https://openlibrary.org/authors/OL926903A/Clive_M._Schmitthoff)

volontyorlar ham aholiga xizmat ko'rsatishi mumkin. Bu holat fuqaro uchun professional advokat bilan yuristning farqi sezilmay qoladi. Yevropadan farqli o'laroq, Osiyoning ayrim davlatlarida yuridik xizmat ko'rsatishda qat'iy monopoliya o'rnatilmagani sababli, turli darajadagi yuristlar o'rtasida aniq huquqiy va kasbiy farqlar yo'qolgan.

Bundan tashqari, Yevropada advokatlik faoliyati ustidan nazorat o'ta kuchli bo'lib, har bir xizmat uchun shaxsiy javobgarlik belgilangan. Osiyoda esa litsenziyasiz faoliyat yurituvchi shaxslarning ko'pligi sababli, ularning ko'rsatgan xizmati uchun javobgarlik masalasi ko'pincha ochiq qoladi. Yevropa modelida professional standartlar birinchi o'ringa qo'yilgan bo'lsa, Osiyo mamlakatlarida aksariyat holatlarda huquqiy xizmatlarning oson topilishi va xilma-xilligi muhim hisoblanadi.

Yaponiyaning advokatlik tizimi nafaqat milliy qonunchilik, balki o'zini o'zi boshqaruvchi mustaqil huquqiy institutdir. Ushbu tizimning poydevori 1949-yilda qabul qilingan "Advokatlar to'g'risida"gi qonun (Attorney Act)<sup>8</sup> bo'lib, uning 1-moddasida advokatlik faoliyatining bosh maqsadi insonning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni qaror toptirish deb qat'iy belgilangan. Mazkur qonuniy asos "bengoshi" (advokat) maqomiga ega bo'lgan shaxslarni shunchaki yuridik xizmat ko'rsatuvchi tadbirkor emas, balki huquq ustuvorligini ta'minlovchi mustaqil subyekt sifatida belgilaydi.

Tizimning eng o'ziga xos jihati uning *davlatdan to'liq mustaqilligidir*. Yaponiya Advokatlar Federatsiyasi (JFBA) "Advokatlar to'g'risida"gi qonunning 45-moddasiga asosan advokatlarni ro'yxatga olish, ularning faoliyatini nazorat qilish va intizomiy jazolash bo'yicha mutlaq vakolatga ega. Adliya vazirligi kabi ijro etuvchi hokimiyat organlari advokatlarning professional faoliyatiga aralashish huquqiga ega emas, bu esa sudda davlatga qarshi ishlarda ham xolis himoyani kafolatlaydi. Advokat daxlsizligi nafaqat ushbu qonun, balki Yaponiya Jinoiy-

---

<sup>8</sup> <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3636/en>

protsessual kodeksining 105-moddasi va Jinoyat kodeksining 134-moddasi <sup>9</sup> bilan ham mustahkamlangan. Unga ko'ra, advokat mijoz (ishonch bildiruvchi) sirlarini saqlash huquqiga ega va bu sirni asossiz oshkor qilish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, advokatning yashash, ish joylari va hujjatlari sud sanksiyasiz tintuv qilinishidan himoyalangan.

Advokatlarning vakolatlari doirasida "Advokatlar to'g'risida"gi qonunning 23-2-moddasida belgilangan "Shokai" (so'rov tizimi) alohida ahamiyatga ega. Ushbu norma advokatga o'zi a'zo bo'lgan bar assotsiatsiyasi orqali davlat va xususiy tashkilotlardan ishga doir hujjatlarni rasman talab qilish imkonini beradi. Ijtimoiy himoya yo'nalishida esa 2004-yildagi "Keng qamrovli yuridik yordam to'g'risida"gi qonun asosida tashkil etilgan "Houterasu" markazi<sup>10</sup> faoliyat yuritadi. Ushbu tizim kam ta'minlangan fuqarolarga bepul yoki imtiyozli yuridik yordam ko'rsatishni, shuningdek, Yaponiya Konstitutsiyasining 37-moddasiga muvofiq, jinoyat ishlari bo'yicha davlat hisobidan majburiy himoyachi (Kokusen Bengoshi) ajratilishini tartibga soladi.

Bugungi kunda Yaponiya advokatlik amaliyotida demografik o'zgarishlar bilan bog'liq meros va vasiylik ishlari, mehnat huquqi buzilishi, shuningdek, texnologik taraqqiyot natijasida kiberhuquq va intellektual mulkni himoya qilish sohalariga talab ortib bormoqda. Advokatlar ustidan nazorat o'ta qat'iy bo'lib, "Advokatlar to'g'risida"gi qonunning 56-moddasiga asosan etik qoidalarni buzgan mutaxassislar tanbehdan tortib, advokatlik maqomidan butunlay mahrum qilinishgacha bo'lgan intizomiy choralarga tortiladi.

Singapurning advokatlik tizimi ingliz umumiy huquqi (Common Law) an'alariga asoslangan bo'lib, u mintaqada o'zining yuqori professional standartlari va qat'iy tartibga solinganligi bilan ajralib turadi. Singapurda advokatlik faoliyati "Yuridik kasb to'g'risida"gi qonun (Legal Profession Act, Cap.

---

<sup>9</sup> <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3581/en>

<sup>10</sup> <https://www.nichibenren.or.jp/en/about/activities/Judicial.html>

161)<sup>11</sup> bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun hujjatiga muvofiq, Singapurda advokatlik bilan shug'ullanish uchun shaxs nafaqat oliy yuridik ma'lumotga, balki maxsus kasbiy malaka talablariga (Part A va Part B imtihonlari) hamda majburiy amaliy stajirovkaga ega bo'lishi shart.

Singapur tizimining eng muhim xususiyati — bu "birlashgan kasb" (fused profession) modelidir. Buyuk Britaniyada yuristlar *suddagi vakil (barrister) va maslahat beruvchi (solicitor) guruhlariga* ajratilgan bo'lsa, Singapurda barcha mutaxassislar rasman "*Advocate and Solicitor*" (*Advokat va solisitor*) maqomiga ega. Bu esa bir yuristning o'zi ham mijoz(ishonch bildiruvchi)ga huquqiy maslahat berish, ham barcha instansiya sudlarida, jumladan Oliy sud va Apellyatsiya sudida vakillik qilish vakolatiga ega ekanligini anglatadi.

Qonun hujjatlarida *litsenziyasiz yuridik faoliyat bilan shug'ullanish* ("unauthorised practice of law") qat'iyan man etilgan va bu jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Bunday yondashuv huquqiy xizmatlar bozorida faqat yuqori malakali mutaxassislar ishlashini kafolatlaydi. Advokatlarning kasbiy faoliyati va odob-axloq normalarini nazorat qilish *Singapur Huquqiy jamiyati (Law Society of Singapore) va Singapur Yuridik ta'lim akademiyasi (Singapore Academy of Law)* zimmasiga yuklatilgan. Advokatlar o'z faoliyatida "*Professional etika qoidalari*"ga (*Legal Profession Professional Conduct Rules*) so'zsiz rioya qilishlari shart.

Singapur xalqaro moliya va arbitraj markazi bo'lganligi sababli, advokatlik faoliyati keng ko'lamli xalqaro yo'nalishga ega. Mamlakatda chet ellik advokatlar (Foreign Lawyers) ham faoliyat yuritishi mumkin, biroq ularning Singapur ichki huquqi bo'yicha maslahat berish vakolati "Yuridik kasb to'g'risida"gi qonunning maxsus bo'limlari bilan cheklangan. Xalqaro tijorat arbitraji va mediatsiya sohalarida Singapur advokatlari dunyodagi eng yetakchi mutaxassislar qatorida turadi. Kasbiy nazorat tizimi o'ta shaffof

---

<sup>11</sup> <https://sso.agc.gov.sg/Act-Rev/LPA1966/Published/20001230?DocDate=19971220>

bo‘lib, mijoz(ishonch bildiruvchi)lar huquqlarini himoya qilish uchun maxsus intizomiy mexanizm mavjud. Agar advokat kasbiy layoqatsizlik yoki etik qoidalarni buzish holatiga yo‘l qo‘ysa, uning ishi *Uch sudyadan iborat sud (Court of Three Judges)* tomonidan ko‘rib chiqiladi. Ushbu yuqori organ advokatni amaliyotdan chetlatish, jarimaga tortish yoki uning litsenziyasini butunlay bekor qilish vakolatiga ega. Shuningdek, Singapurda yuridik xizmatlarning ochiqligini ta‘minlash maqsadida davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yuridik yordam sxemalari (Legal Aid Bureau) ham mavjud bo‘lib, ular kam ta‘minlangan fuqarolarga bepul professional yordam ko‘rsatishni kafolatlaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining qiyosiy-huquqiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, advokatlarning huquqiy maqomi va kasbiy faoliyati uchta fundamental yo‘nalishga asoslanadi: advokatlarning institutsional mustaqilligi hamda davlat organlarining aralashuvidan daxlsizligi, kasbiy etika qoidalariga qat‘iy rioya etilishi hamda mijoz(ishonch bildiruvchi) manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda odil sudlovni ta‘minlashga ko‘maklashish. Mazkur jihatlar deyarli barcha ilg‘or huquqiy tizimlar uchun universal xarakterga ega bo‘lib, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik normalarining uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan. Binobarin, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini tizimli o‘rganish va tahlil qilish milliy advokatura institutini isloh etish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirishda muhim ilmiy-nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

**С.Н.Мамадиев,**  
кандидат юридических наук,  
и.о. доцента Академии правосудия Республики Узбекистан.

## **АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕРЫ УГОЛОВНОМУ ПРЕСЛЕДОВАНИЮ И СУДЕБНЫЙ КОНТРОЛЬ ЗА ИХ ПРИМЕНЕНИЕМ: ИНСТИТУТ ОБЖАЛОВАНИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА**

**Аннотация.** *В статье комплексно анализируется институт альтернативных мер уголовному преследованию, а также его взаимосвязь с правом на обжалование и судебным контролем на стадии досудебного производства. Автор рассматривает примирение, деятельное раскаяние, утрату общественной опасности деяния или лица, соглашение о признании вины, применение акта амнистии и прекращение дела без разрешения вопроса о виновности как гуманистические и восстановительные механизмы дифференциации уголовного преследования. При этом обосновывается, что применение либо отказ в применении указанных мер не должны оставаться исключительно в сфере усмотрения следователя или прокурора, поскольку такой подход не в полной мере гарантирует право лица на судебную защиту.*

**Ключевые слова:** *уголовное преследование, альтернативные меры, судебный контроль, следственный судья, право на обжалование, примирение, соглашение о признании вины, прокурорский надзор, восстановительное правосудие, процессуальная дифференциация.*

В уголовном процессе необходимо постоянно поддерживать баланс между обвинительной функцией государства и задачей защиты прав и свобод личности. Если уголовный процесс рассматривать исключительно как механизм избличения и наказания лица, совершившего преступление, возрастает риск неоправданного ограничения прав человека. Если же процесс воспринимать только как форму согласительного урегулирования, ослабляется охранительная природа государственно-правовой реакции на преступление. Поэтому наиболее тонкий и

принципиально значимый вопрос современного уголовно-процессуального права заключается в точном определении правового соотношения между уголовным преследованием, альтернативными ему мерами и судебным контролем.

В Конституции Республики Узбекистан в новой редакции каждому гарантировано право на судебную защиту своих прав и свобод, а также право обжаловать в суд решения, действия или бездействие государственных органов и должностных лиц<sup>1</sup>. Данное положение имеет особое значение для уголовного процесса, поскольку именно на стадии досудебного производства принимаются решения, непосредственно затрагивающие свободу и неприкосновенность личности, имущественные права, право на защиту и интересы потерпевшего.

Статья 27 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан закрепляет право на обжалование процессуальных действий и решений<sup>2</sup>. Однако, как обоснованно указывается в исходном материале, отсутствие в УПК отдельной главы, комплексно регулирующей порядок обжалования на стадии досудебного производства с точки зрения формы жалобы, сроков ее подачи, процессуальных последствий, порядка судебного заседания и исполнения принятого решения, порождает на практике правовую неопределенность. Особенно остро данная проблема проявляется в сфере альтернативных мер уголовному преследованию, поскольку такие меры, с одной стороны, служат гуманизации процесса и процессуальной экономии, а с другой — их неправильное применение либо необоснованный отказ в их применении способны существенно повлиять на права лица и потерпевшего.

Цель настоящей статьи состоит в раскрытии доктринальной сущности альтернативных мер уголовному преследованию, обосновании необходимости судебного контроля за их применением, вступлении в научную полемику с

---

<sup>1</sup> Конституция Республики Узбекистан. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/6445145>.

<sup>2</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/6445145>.

позициями отечественных ученых-процессуалистов и выработке концептуальных предложений по совершенствованию действующего законодательства.

Под альтернативными мерами уголовному преследованию следует понимать предусмотренные законом механизмы, применяемые при наличии сведений о совершении преступления, подозрения или обвинения, но позволяющие не завершать дело по традиционной модели «расследование — обвинение — полноценное судебное разбирательство — приговор — наказание». Речь идет об освобождении от ответственности, прекращении производства, достижении примирения, рассмотрении дела в упрощенном порядке на основе соглашения либо применении иных мер правового воздействия при наличии установленных законом условий. Указанные институты находятся на стыке уголовного права и уголовного процесса. Их цель заключается не в уклонении от наказания, а в установлении разумного баланса между карательным воздействием, восстановительным правосудием, процессуальной экономией и гуманизмом.

В Уголовном кодексе Республики Узбекистан закреплены принципы законности, гуманизма и справедливости<sup>3</sup>. Именно эти принципы образуют материально-правовую основу альтернативных мер уголовному преследованию. Уголовное право предусматривает не только применение наказания, но и возможность освобождения от наказания или от уголовной ответственности при наличии определенных условий. Это свидетельствует о том, что реакция государства на преступление не должна быть абсолютно карательной; она должна быть дифференцированной, индивидуализированной и целесообразной.

Так, статья 65 Уголовного кодекса предусматривает освобождение от ответственности в связи с утратой деянием или

---

<sup>3</sup> Уголовный кодекс Республики Узбекистан. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

лицом общественной опасности<sup>4</sup>. Статья 66 Уголовного кодекса устанавливает возможность освобождения от ответственности в связи с деятельным раскаянием виновного<sup>5</sup>. Статья 66<sup>1</sup> Уголовного кодекса закрепляет институт освобождения от уголовной ответственности в связи с примирением<sup>6</sup>. Каждая из этих норм допускает отступление от классической карательной модели уголовного преследования при наличии специальных законных условий.

Вместе с тем научно некорректно рассматривать альтернативные меры как проявление «мягкости» или как способ «избежать ответственности». Они представляют собой иные формы уголовно-правового воздействия, требующие оценки отношения лица к совершенному деянию, возмещения причиненного вреда, характера взаимоотношений с потерпевшим, а также изменения степени общественной опасности лица или деяния. Такая оценка не может быть исключительно административно-ведомственной; она должна обеспечиваться судебно-правовыми гарантиями.

В уголовном процессе Узбекистана институт примирения является одним из наиболее значимых восстановительных механизмов. Глава 62 УПК определяет порядок производства по делам о примирении<sup>7</sup>. При примирении уголовный процесс выходит за пределы чисто обвинительного отношения между государством и обвиняемым и ориентируется на интересы потерпевшего, возмещение вреда и восстановление нарушенного социального отношения. Поэтому сущность примирения состоит не в формальном прекращении уголовного дела, а в восстановлении нарушенной правовой связи в рамках закона.

---

<sup>4</sup> Тот же кодекс. Статья 65.

<sup>5</sup> Уголовный кодекс Республики Узбекистан. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

<sup>6</sup> Тот же кодекс. Статья 66<sup>1</sup>.

<sup>7</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

Соглашение о признании вины также является важным инструментом дифференциации уголовного преследования. В соответствии со статьей 586<sup>1</sup> УПК такое соглашение заключается с надзирающим прокурором в случаях, когда подозреваемый или обвиняемый согласен с предъявленным подозрением либо обвинением, активно содействует раскрытию преступления и устраняет причиненный вред<sup>8</sup>. Данный институт не означает полного освобождения от ответственности, однако позволяет разрешить дело на основе процессуального соглашения, сокращая необходимость полноценного традиционного судебного разбирательства.

Статья 84 УПК предусматривает основания прекращения уголовного дела без разрешения вопроса о виновности<sup>9</sup>. Данная норма особенно важна в делах несовершеннолетних, по деяниям, не представляющим большой общественной опасности, а также в случаях, связанных с применением воспитательных и правовых мер воздействия. Однако при отсутствии судебного контроля применение таких институтов усиливает риск субъективности правовой оценки.

В этой связи основной научный тезис можно сформулировать следующим образом: альтернативные меры уголовному преследованию служат ограничению карательного полномочия государства, а судебный контроль гарантирует законность, справедливость и добровольность такого ограничения. Иными словами, сама альтернативная мера выражает гуманизм, а судебный контроль выступает механизмом ее правовой безопасности.

Введение в 2025 году в УПК института следственного судьи стало принципиальной новеллой, направленной на усиление судебного контроля в досудебном производстве. Согласно статье 31<sup>1</sup> УПК следственный судья действует

---

<sup>8</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

<sup>9</sup> Тот же кодекс. Статья 84. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

единолично и осуществляет судебный контроль за соблюдением прав, свобод и законных интересов личности на стадии досудебного производства<sup>10</sup>. В официальной информации Верховного суда также отмечено, что законом от 28 января 2025 года были закреплены полномочия следственного судьи<sup>11</sup>.

Однако анализ действующей редакции статьи 31<sup>1</sup> УПК показывает, что полномочия следственного судьи в основном связаны с мерами пресечения, мерами процессуального принуждения, отдельными следственными действиями, арестом имущества, обыском, получением информации, передаваемой по телекоммуникационным каналам, и предварительным закреплением показаний. Безусловно, это важная реформа. Вместе с тем вопрос судебного контроля за применением либо отказом в применении альтернативных мер уголовному преследованию пока не получил полноценной системной регламентации.

Б. Мўминов определяет судебный контроль как деятельность суда, направленную на защиту прав личности путем рассмотрения и разрешения жалоб заинтересованных лиц в ходе досудебного производства<sup>12</sup>. Такой подход имеет существенное значение, поскольку не сводит судебный контроль только к санкционированию, а рассматривает его также как форму разрешения жалоб<sup>13</sup>. Однако данную позицию необходимо развить: если судебный контроль направлен на защиту прав личности, он должен охватывать не только принудительные меры вроде заключения под стражу или обыска, но и решения, определяющие процессуальную судьбу лица, включая примирение, соглашение о признании вины, прекращение уголовного дела и отказ в применении этих механизмов.

---

<sup>10</sup> Тот же кодекс. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

<sup>11</sup> «Деятельность следственного судьи закреплена законом». Официальная информация Верховного суда Республики Узбекистан, 30 января 2025 года.

<sup>12</sup> Мўминов Б. «Совершенствование судебного контроля за досудебным производством по уголовным делам»: автореферат диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам. Ташкент, 2020.

<sup>13</sup> Там же.

Б. Иброҳимов обосновывает институт следственного судьи как специального субъекта судебного контроля, усиливающего возможности защиты прав личности и обеспечения исполнения законов<sup>14</sup>. Автор отмечает, что отечественные ученые-процессуалисты — З. Ф. Иноғомжонова, Ғ. М. Шодиев, Д. М. Миразов, Б. Мўминов и другие — исследовали вопросы судебного контроля в различных аспектах<sup>15</sup>. Поддерживая данную позицию, следует предложить дальнейшее расширение ее предметных границ: следственный судья должен быть не только субъектом, санкционирующим меры принуждения, но и процессуальным арбитром, обеспечивающим правовой баланс при применении либо неприменении альтернативных мер уголовному преследованию.

В национальной уголовно-процессуальной доктрине вопросы судебного контроля и института обжалования сформировались по нескольким направлениям. Первое направление рассматривает судебный контроль как гарантию законности в случаях ограничения конституционных прав личности на досудебной стадии. Такой подход прослеживается в трудах З. Ф. Иноғомжоновой и Г. З. Тўлагановой, а также в исследованиях, посвященных процессуальному статусу участников досудебного производства<sup>16</sup>. Сильная сторона этой позиции состоит в прямой связи судебного контроля с правами человека. Однако ее слабость заключается в том, что судебный контроль чаще всего интерпретируется применительно к следственным действиям и мерам, ограничивающим права, тогда

---

<sup>14</sup> Иброҳимов Б. «Совершенствование судебного контроля за деятельностью правоохранительных органов Республики Узбекистан»: автореферат диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам. Ташкент, 2025.

<sup>15</sup> Иноғомжонова З. Ф., Шодиев Ғ. М., Миразов Д. М., Мўминов Б. Участники уголовного процесса. Ташкент, 2007; также см.: учебник «Уголовный процесс (Общая часть)» под общей редакцией З. Ф. Иноғомжоновой, где рассматриваются вопросы гласности судебного разбирательства и ее ограничения.

<sup>16</sup> Иноғомжонова З. Ф., Тўлаганова Г. З. Участники уголовного процесса. Ташкент, 2007; также см.: учебник «Уголовный процесс (Общая часть)» под общей редакцией З. Ф. Иноғомжоновой, где рассматриваются вопросы гласности судебного разбирательства и ее ограничения.

как сфера альтернативных мер не раскрывается в достаточной степени как самостоятельный предмет судебного контроля.

Второе направление делает акцент на функции защиты. А. Юлдошбеков указывает, что функция защиты действует при применении примирения, соглашения о признании вины и амнистии на стадии досудебного производства<sup>17</sup>. Данная мысль имеет большое значение, поскольку альтернативные меры являются для обвиняемого не просто «благоприятной возможностью», а процессуальным выбором с серьезными юридическими последствиями. Вместе с тем этот подход также нуждается в дополнении: участие защитника необходимо, но недостаточно. Если прокурор отказывается в заключении соглашения, направление заявления о примирении в суд затягивается либо возможность прекращения уголовного дела необоснованно отклоняется, функция защиты без механизма судебного обжалования может остаться декларативной.

Третье направление рассматривает прокурорский надзор как основную гарантию. Статья 358 УПК предусматривает порядок подачи жалоб на действия и решения следователя начальнику следственного подразделения и надзирающему прокурору, а на решения прокурора — вышестоящему прокурору<sup>18</sup>. Значение прокурорского надзора нельзя отрицать. Однако он имеет иерархический и ведомственный характер, а потому не способен полностью заменить судебную защиту. Альтернативные меры уголовному преследованию, особенно институты примирения и соглашения, относятся к сфере с высокой вероятностью конфликта интересов: прокурор оценивает дело с точки зрения обвинения, потерпевший может стремиться к восстановительному правосудию, а обвиняемый иногда выражает согласие, не

---

<sup>17</sup> Юлдошбеков А. «Вопросы совершенствования института защиты в уголовном процессе»: магистерская диссертация. Академия Генеральной прокуратуры, 2022.

<sup>18</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. Статья 358. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

осознавая в полной мере правовых последствий. В такой ситуации необходим независимый судебный контроль.

Четвертое направление выражает осторожное отношение к активному вмешательству суда на досудебной стадии. А. Д. Бойков подчеркивает, что разрешение вопроса о виновности на досудебном этапе может нарушить последовательность стадий уголовного процесса<sup>19</sup>. Это возражение в определенной мере обоснованно: суд не должен собирать доказательства вместо органа расследования и не должен решать вопрос о виновности до судебного разбирательства. Однако судебный контроль за альтернативными мерами уголовному преследованию не является предварительным разрешением вопроса о виновности. Его предметом выступает проверка законности, добровольности, соразмерности решения или действия, а также соблюдения интересов потерпевшего и прав личности. Следовательно, такой контроль не нарушает последовательность стадий процесса, а напротив, повышает их правовое качество.

К числу основных недостатков института обжалования следует отнести отсутствие его отдельной системной регламентации в УПК, неопределенность формы жалобы, сроков ее подачи, процессуальных последствий, порядка судебного рассмотрения и исполнения решения. В сфере альтернативных мер уголовному преследованию данная проблема проявляется в нескольких аспектах.

Во-первых, право на примирение в ряде случаев ограничивается процессуальным временем. Согласно статье 583 УПК заявление о примирении может быть подано на любой стадии дознания, предварительного следствия и судебного разбирательства, но до удаления суда в отдельную комнату<sup>20</sup>. Если в ходе судебного разбирательства деяние переквалифицируется и подпадает под статью 66<sup>1</sup> Уголовного

---

<sup>19</sup> Бойков А. Д. Третья власть в России. Москва, 1997. С. 141.

<sup>20</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. Статьи 582–586. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

кодекса, право лица и потерпевшего на примирение фактически возникает позднее. В такой ситуации процессуальный формализм не должен ограничивать принцип гуманизма.

В постановлении Пленума Верховного суда по вопросам примирения разъясняется, что если на момент подачи заявления вопрос о том, относится ли деяние к составам преступлений, указанным в статье 66<sup>1</sup> Уголовного кодекса, еще не был решен, срок рассмотрения заявления исчисляется с момента получения достаточных оснований для квалификации<sup>21</sup>. Исходя из данного разъяснения, целесообразно предусмотреть в законодательстве специальную судебную гарантию для случаев, когда право на примирение возникает в результате переквалификации деяния.

Во-вторых, несмотря на наличие срока направления дела в суд после получения заявления о примирении<sup>22</sup>, в законодательстве не установлен четкий механизм обжалования следственному судье необоснованного затягивания или отказа в таком направлении. На практике подобное промедление превращает процессуальное право потерпевшего и обвиняемого на примирение в формальность.

В-третьих, в соглашении о признании вины прокурор занимает ключевую процессуальную позицию. Он вправе удовлетворить ходатайство о заключении соглашения либо отказать в его удовлетворении<sup>23</sup>. Положительным является то, что отказ не лишает лицо права повторно обратиться с ходатайством. Однако это не заменяет судебного контроля. Если отказ является необоснованным, стереотипным или чрезмерно связанным с обвинительным интересом, подозреваемый или обвиняемый должен иметь возможность обратиться за самостоятельной судебной защитой.

В-четвертых, при обжаловании решений о прекращении уголовного дела или об отказе в прекращении особое значение

---

<sup>21</sup> Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 25 октября 2002 года № 27 «О судебной практике по делам о примирении».

<sup>22</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. Статья 584. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

<sup>23</sup> Тот же кодекс. Статья 586<sup>4</sup>.

имеет определенность сроков. Представляется целесообразным исчислять срок подачи жалобы с момента ознакомления лица с решением, а для обжалования постановления о прекращении уголовного дела установить пятисуточный срок. Данное предложение должно быть согласовано с современным институтом следственного судьи: лицо не может подготовить содержательную жалобу, не зная содержания принятого решения.

Не менее важно правильно определить пределы судебного контроля за альтернативными мерами уголовному преследованию. Суд не должен формировать обвинение вместо органа расследования или прокурора и не должен заранее разрешать окончательный вопрос о виновности. Однако суд обязан проверить следующие критерии: имеется ли законное основание; разъяснены ли права лица и потерпевшего; является ли согласие добровольным; действительно ли возмещен вред; является ли решение соразмерным; обоснованы ли причины отказа; не противоречит ли альтернативная мера публичному интересу.

Определение судебного контроля, предложенное Б. Мўминовым, поддерживает именно такой подход: судебный контроль представляет собой деятельность, направленную на защиту прав путем рассмотрения и разрешения жалоб заинтересованных лиц на досудебной стадии<sup>24</sup>. Следовательно, судебный контроль в сфере альтернативных мер может осуществляться через рассмотрение жалоб и ходатайств. В такой модели суд не решает вопрос обвинения по существу, а устанавливает правовые границы процессуального усмотрения.

Практическое значение такого контроля особенно ярко проявляется в институтах примирения и соглашения. Согласно статье 585 УПК при рассмотрении вопроса о примирении суд должен выяснить добровольность примирения, признание вины, устранение причиненного вреда и понимание сторонами

---

<sup>24</sup> Мўминов Б. «Совершенствование судебного контроля за досудебным производством по уголовным делам»: автореферат диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам. Ташкент, 2020.

последствий примирения<sup>25</sup>. По делам о соглашении о признании вины суд рассматривает дело не позднее одного месяца со дня поступления дела вместе с соглашением<sup>26</sup>. Если суд уже на стадии утверждения этих институтов проводит такую проверку, то возникает закономерный вопрос: почему судебный контроль не должен распространяться также на отказ или затягивание направления соответствующих материалов в суд? Именно этот вопрос является центральной полемической точкой настоящей статьи.

Действующая статья 31<sup>1</sup> УПК определяет полномочия следственного судьи преимущественно в отношении мер принуждения и следственных действий, ограничивающих права личности<sup>27</sup>. Это необходимо, но недостаточно. На права человека влияют не только заключение под стражу, обыск или арест имущества. Отказ в прекращении уголовного дела, затягивание направления заявления о примирении в суд, необоснованный отказ в заключении соглашения о признании вины также существенно затрагивают процессуальную судьбу лица.

В связи с этим представляется целесообразным включить в статью 31<sup>1</sup> УПК следующие дополнительные полномочия следственного судьи: 1) рассмотрение жалоб на постановление об отказе в возбуждении уголовного дела; 2) рассмотрение жалоб на прекращение уголовного дела либо отказ в его прекращении; 3) рассмотрение жалоб на отказ или затягивание направления заявления о примирении в суд; 4) рассмотрение жалоб на отказ в удовлетворении ходатайства о заключении соглашения о признании вины; 5) рассмотрение жалоб на отказ в прекращении дела по основаниям, предусмотренным статьями 65 и 66 Уголовного кодекса; 6) проверка случаев затягивания или

---

<sup>25</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. Статья 585. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

<sup>26</sup> Тот же кодекс. Статья 586<sup>7</sup>. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

<sup>27</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. Статья 31<sup>1</sup>. Национальная база данных законодательства: <https://lex.uz/docs/111460>.

отказа в направлении в суд материалов, связанных с применением амнистии.

Данное предложение не превращает следственного судью в субъекта, вмешивающегося в обвинение. Напротив, оно создает институциональный баланс между усмотрением прокурора и правом личности на судебную защиту. Задача судьи будет состоять не в обязательном утверждении прекращения дела или примирения, а в проверке законности и обоснованности отказа либо затягивания.

Исходя из изложенного, в законодательство целесообразно внести следующие предложения.

Первое предложение. Статью 27 УПК следует дополнить положением следующего содержания: «Подозреваемый, обвиняемый, подсудимый, потерпевший, их защитник, законный представитель или представитель вправе обжаловать в суд применение альтернативной меры уголовному преследованию, отказ в ее применении, затягивание направления в суд заявления или ходатайства о применении такой меры, а также бездействие, связанное с данным вопросом».

Второе предложение. В статью 31<sup>1</sup> УПК необходимо включить полномочие следственного судьи по рассмотрению жалоб, связанных с альтернативными мерами уголовному преследованию. При этом судья не разрешает вопрос виновности по существу, а проверяет законность, обоснованность, добровольность и соразмерность обжалуемого решения или бездействия.

Третье предложение. В УПК следует включить отдельную статью под названием «Судебное рассмотрение жалоб, связанных с применением альтернативных мер уголовному преследованию». В ней целесообразно установить общий срок рассмотрения жалобы в пять суток, а в неотложных случаях — сорок восемь часов.

Четвертое предложение. Статью 583 УПК необходимо дополнить правилом следующего содержания: «Если в ходе

судебного разбирательства либо в суде вышестоящей инстанции в результате переквалификации деяния оно относится к категории преступлений, предусмотренных статьей 66<sup>1</sup> Уголовного кодекса, суд обязан разъяснить сторонам право на примирение и создать условия для реализации данного права».

Пятое предложение. Следует закрепить право на обжалование следственному судье постановления прокурора об отказе в удовлетворении ходатайства о заключении соглашения о признании вины. Судья не должен принуждать прокурора к заключению соглашения, однако вправе проверить соответствие мотивов отказа установленным законом критериям, отменить необоснованный отказ либо возложить обязанность повторно рассмотреть ходатайство.

Шестое предложение. По результатам рассмотрения жалобы суд должен принимать одно из следующих определений: 1) об отказе в удовлетворении жалобы; 2) о признании обжалуемого решения незаконным или необоснованным; 3) о возложении на должностное лицо обязанности совершить определенное процессуальное действие; 4) о направлении материалов прокурору или органу расследования для повторного рассмотрения; 5) об определении мер по устранению последствий нарушения прав личности.

Противопоставлять прокурорский надзор судебному контролю неправильно. Они не исключают, а взаимно дополняют друг друга. Прокурорский надзор отличается оперативностью, иерархичностью и характером процессуального руководства. Судебный контроль, в свою очередь, основан на независимости, беспристрастности и внешнем характере проверки. Поэтому в сфере альтернативных мер целесообразна двухуровневая модель: сначала прокурор принимает решение либо рассматривает заявление или ходатайство; если заинтересованное лицо не согласно с решением, оно обращается с жалобой к следственному судье.

При рассмотрении жалобы прокурор или судья должен проверить законность и обоснованность решения, указать

мотивы отказа и разъяснить порядок его обжалования. В условиях действующего института следственного судьи данная идея приобретает особую актуальность. Если следственный судья уже включен в систему досудебного контроля, направление жалобы исключительно вышестоящему прокурору не обеспечивает полного осуществления права на судебную защиту.

В постановлении Пленума Верховного суда о прямом применении норм Конституции при осуществлении правосудия также подчеркивается, что статья 55 Конституции выражает право на судебную защиту и гарантию обращения в суд с жалобой<sup>28</sup>. Следовательно, институты обжалования, закрепленные в УПК, должны толковаться в соответствии с данным конституционным стандартом и, при необходимости, конкретизироваться законодательством.

В заключение следует отметить, что альтернативные меры уголовному преследованию являются важными институтами, обеспечивающими гуманизм, восстановительное правосудие и процессуальную экономию в уголовном процессе. Однако их эффективность определяется не только самим фактом их наличия в законе, но и существованием действенного судебного контроля за их применением, отказом в применении и направлением соответствующих материалов в суд.

Отечественные ученые преимущественно исследовали судебный контроль применительно к принудительным и следственным действиям, ограничивающим конституционные права личности. Это направление сохраняет свою значимость, однако на современном этапе его уже недостаточно. Альтернативные меры уголовному преследованию также определяют процессуальную судьбу лица; поэтому судебный контроль за их применением или отказом в применении должен

---

<sup>28</sup> Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 23 июня 2023 года № 16 «О некоторых вопросах прямого применения норм Конституции Республики Узбекистан при осуществлении правосудия».

стать самостоятельным научным и законодательным направлением.

Введение института следственного судьи создало благоприятную институциональную основу для достижения данной цели. Следующая задача заключается в том, чтобы не ограничивать полномочия следственного судьи только мерами принуждения, а распространить их также на рассмотрение жалоб, связанных с примирением, соглашением о признании вины, прекращением уголовного дела, амнистией и иными альтернативными мерами.

Таким образом, развитие альтернативных мер уголовному преследованию и судебного контроля за ними наполняет практическим содержанием принципы законности, гуманизма и справедливости в уголовном процессе. Данное направление укрепляет баланс между государственным принуждением и правами личности, а также служит важной научно-практической основой для дальнейшего этапа судебно-правовых реформ в Республике Узбекистан.

### **Список использованной литературы**

1. Конституция Республики Узбекистан. – Lex.uz.
2. Уголовный кодекс Республики Узбекистан. – Lex.uz.
3. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. – Lex.uz.
4. Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 25 октября 2002 года № 27 «О судебной практике по делам о примирении».
5. Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 23 июня 2023 года № 16 «О некоторых вопросах прямого применения норм Конституции Республики Узбекистан при осуществлении правосудия».
6. Мўминов Б. Совершенствование судебного контроля за досудебным производством по уголовным делам: автореф. дис. докт. философии по юридическим наукам. – Ташкент, 2020.
7. Иброхимов Б. Совершенствование судебного контроля за деятельностью правоохранительных органов Республики

Узбекистан: автореф. дис. докт. философии по юридическим наукам. – Ташкент, 2025.

8. Иногомжонова З. Ф., Тўлаганова Г. З. Участники уголовного процесса. – Ташкент, 2007.

9. Юлдошбеков А. А. Вопросы совершенствования института защиты в уголовном процессе: магистерская диссертация. – Ташкент: Академия Генеральной прокуратуры, 2022.

10. Исходный материал: «Порядок обжалования в досудебном производстве и вопросы его совершенствования».

11. Ратнер Л. И. Об усилении гарантии своевременного и правильного разрешения жалоб трудящихся // Советское государство и право. – 1959. – № 9.

12. Будников В. Л. Обжалование действий и решений должностных лиц в уголовном судопроизводстве: дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 1984.

13. Летучих В. И. Конституционный принцип обжалования в досудебных стадиях советского уголовного процесса. – Омск, 1981.

14. Лебедев В. М. Судебная власть на защите конституционного права граждан на свободу и личную неприкосновенность в уголовном процессе. – Москва, 1999.

15. Бойков А. Д. Третья власть в России. – Москва, 1997.

**Ф.А.Эгамбердиев,**

*Самостоятельный соискатель ТГЮУ.*

## **ЭВОЛЮЦИЯ ИНСТИТУТА СУДЕБНОГО КОНТРОЛЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА ДЕРЕВОЛЮЦЕОННОГО И СОВЕТСКОГО ПЕРИОДА**

**Аннотация.** *В статье анализируется эволюция судебного контроля на досудебной стадии уголовного процесса в дореволюционный и советский периоды. Рассматриваются две модели: дореволюционная (с независимыми судебными следователями и реальным судебным контролем) и советская (с доминированием прокурорского надзора и упразднением судебного контроля). Обосновывается вывод, что эффективный судебный контроль является необходимым элементом правового государства, а его подмена прокурорским надзором создаёт риски нарушения прав личности.*

**Ключевые слова.** *Судебный контроль, досудебная стадия, судебный следователь, прокурорский надзор, Устав уголовного судопроизводства 1864 г., советский период, права личности.*

**Введение.** Судебный контроль на досудебной стадии уголовного процесса представляет собой один из важнейших институциональных механизмов, обеспечивающих соблюдение прав и свобод личности в ходе предварительного расследования. Его становление и развитие в России прошло долгий и противоречивый путь: от зачаточных форм надзора за следственными действиями в эпоху судебной реформы 1864 года до полного фактического упразднения в советский период и последующего возрождения в постсоветской правовой системе.

Изучение исторической эволюции данного института имеет не только академическое, но и сугубо практическое значение. Современный российский уголовный процесс унаследовал многие концептуальные противоречия, сложившиеся именно в дореволюционный и советский

периоды: соотношение прокурорского надзора и судебного контроля, степень независимости следственного аппарата, пределы судебного вмешательства в оперативно-следственную деятельность. Без глубокого осмысления исторических корней этих противоречий невозможно выработать научно обоснованные подходы к совершенствованию действующего законодательства.

Настоящая статья посвящена комплексному историко-правовому анализу института судебного контроля на досудебной стадии уголовного судопроизводства в двух ключевых периодах: дореволюционном (преимущественно после реформы 1864 года) и советском (1917–1991 годы). Предпринята попытка выявить закономерности трансформации данного института в зависимости от политического строя, господствующей правовой идеологии и практических потребностей системы уголовного преследования.

Институт судебного контроля на досудебной стадии уголовного процесса представляет собой одну из ключевых гарантий законности и защиты прав личности в уголовном судопроизводстве. Его эволюция в России отражает смену моделей уголовного процесса — от инквизиционной к состязательной и обратно к доминированию обвинительной власти в советский период. Анализ исторического развития позволяет выявить преемственность и разрывы в правовой традиции, а также оценить влияние политических и социальных факторов на формирование контрольных механизмов.

В Узбекистане, как и в других постсоветских государствах, сегодня активно реформируется судебная система: усиливается независимость судов, расширяются полномочия адвокатуры, внедряются новые механизмы защиты прав человека в уголовном процессе. Однако ключевой вопрос — каким должен быть реальный, а не формальный контроль суда на стадии предварительного расследования — до сих пор остаётся открытым. Именно

здесь, в досудебном производстве, права и свободы граждан наиболее уязвимы: обыски, задержания, аресты, ограничение связи. И именно здесь исторически в Узбекистане (как и во всём советском пространстве) доминировал прокурорский надзор, а не независимый судебный контроль. Понимание того, почему сложилась именно такая модель и какие альтернативы существовали в прошлом, необходимо для выработки научно обоснованных подходов к дальнейшим реформам.

Исторический опыт показывает: там, где судебный контроль на досудебной стадии был реальным (как в России после реформы 1864 года), — права личности получали действенную защиту от произвола следственных органов. Там, где его заменяли ведомственным прокурорским надзором (как в советский период), — возникал «перекос обвинения», и система работала преимущественно в интересах государства, а не человека. Для Узбекистана, который сегодня строит правовое государство и стремится интегрировать лучшие мировые стандарты в национальное законодательство, осмысление этой дилеммы — «судебный контроль или прокурорский надзор» — имеет не только теоретическое, но и сугубо практическое значение. Игнорирование исторических уроков может привести к сохранению неэффективных механизмов и, как следствие, к снижению доверия граждан к судебной системе в целом.

Дореволюционный период: становление и расцвет судебного контроля. В дореформенный период (до 1860-х гг.) предварительное следствие находилось преимущественно в руках полиции и административных органов. Судебный контроль в современном понимании практически отсутствовал: функции расследования и разрешения дел часто смешивались, процесс носил тайный и письменный характер, а гарантии прав участников были минимальны. Как отмечал известный дореволюционный процессуалист И.Я. Фойницкий, история уголовного процесса начиналась с

господства частного начала, где уголовное и гражданское судопроизводство существенно не различались<sup>1</sup>.

Перелом наступил с проведением следственной реформы 1860 г. и Судебной реформы 1864 г. Учреждение института судебных следователей (8 июня 1860 г.) стало первым значительным шагом к отделению следствия от полиции и подчинению его судебной власти. Судебные следователи назначались из состава судебного ведомства, обладали независимостью и неприкосновенностью, что позволяло суду осуществлять непосредственный контроль за ходом предварительного расследования.

Устав уголовного судопроизводства 1864 г. (УУС) закрепил ключевые элементы судебного контроля. Суд мог разрешать отводы следователю, рассматривать жалобы на действия полиции и следователей, санкционировать арест и иные меры пресечения (через прокурора или напрямую), а также прекращать производство по делу. Прокурорский надзор дополнял, но не заменял судебный контроль: следователь имел право обжаловать указания прокурора в суд<sup>2</sup>.

Многие ученые высоко оценивают эту модель. В.И. Калягин подчеркивает, что судебный контроль в 1864–1917 гг. характеризовался отрешением «следственного судьи» от обвинительной функции, что способствовало объективности и защите прав личности. А.А. Максуров отмечает преемственность между институтом судебного следствия дореволюционной России и современным судебным контролем, видя в нем апробированную временем гарантию баланса властей<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Фойницкий И.Я. Курс уголовного судопроизводства. Т.1. С.-Петербург, типография тов-ва «Общественная польза», Б. Подьяческая, 39, 1912. 16 с.

<sup>2</sup> Максуров А.А. Генезис судебного контроля... // Вестник Казанского юридического института МВД России. 2019.

<sup>3</sup> Калягин Владислав Игоревич Ретроспектива формирования института судебного контроля на досудебной стадии отечественного уголовного процесса (дореволюционный период) // Евразийский Союз Ученых. 2018. №3-3 (48).

Однако реформа не была лишена недостатков. Критики, в том числе А.Ф. Кони, указывали на сохранявшуюся зависимость следователей от прокуроров в отдельных аспектах и не всегда эффективный механизм реализации контрольных полномочий суда на практике<sup>4</sup>. Тем не менее, дореволюционная модель заложила основы состязательности и судебной защиты на досудебной стадии, существенно ограничив произвол административных органов.

Советский период: отказ от судебного контроля в пользу прокурорского надзора. Октябрьская революция 1917 г. радикально изменила подход к уголовному процессу. Советская власть отвергла «буржуазные» институты, включая независимый судебный контроль на досудебной стадии. Декреты о суде № 1 и № 2 (1917–1918 гг.) упразднили старые судебные учреждения и следователей, передав расследование революционным трибуналам и чрезвычайным комиссиям<sup>5</sup>.

Уголовно-процессуальные кодексы РСФСР 1922 и 1923 гг. (с последующими редакциями) закрепили доминирование прокурорского надзора. Судебный контроль был сведен к минимуму: суд практически не вмешивался в досудебное производство, за исключением отдельных случаев обжалования меры пресечения в виде заключения под стражу (ст. 220.1, 220.2 УПК РСФСР). Основная нагрузка по обеспечению законности легла на прокуратуру, которая одновременно осуществляла надзор и поддерживала обвинение.

М.С. Строгович и другие советские процессуалисты обосновывали такой подход необходимостью «классовой борьбы» и оперативностью борьбы с преступлениями, подчеркивая, что прокурор как «око государства» лучше обеспечивает социалистическую законность, чем формальный

---

<sup>4</sup> Судебная реформа Александра II: «Да правда и милость царствуют в судах». <https://pravo.ru/story/205825/>

<sup>5</sup> Очерк развития науки советского уголовного процесса. Воронеж, 1980. <https://kalinovsky-k.narod.ru/b/ocherk-1980.htm>

судебный контроль. Однако многие современные исследователи (например, Н.Н. Ковтун) видят в этом ослабление гарантий прав личности и нарушение принципа разделения властей.

В позднесоветский период (особенно с 1950–1960-х гг.) предпринимались попытки усиления гарантий, но радикального возврата к судебному контролю не произошло. УПК РСФСР 1960 г. сохранил приоритет прокурорского надзора. Как отмечает ряд авторов, такой подход отражал общую тенденцию концентрации властных полномочий в руках исполнительно-обвинительных органов в условиях тоталитарной и авторитарной системы<sup>6</sup>.

Закключение. Эволюция института судебного контроля демонстрирует колебания между усилением судебной защиты прав личности (дореволюционный период) и ее ограничением в пользу государственных интересов (советский период). Дореволюционная модель, несмотря на несовершенства, доказала эффективность в обеспечении баланса и объективности. Советский опыт, напротив, показал риски подмены независимого контроля ведомственным надзором.

Мнения ученых по этому вопросу расходятся. Одни (Максуров, Калягин) акцентируют ценность дореволюционного опыта для современных реформ, предлагая возродить элементы «следственного судьи». Другие подчеркивают необходимость учета советских наработок в части оперативности. В любом случае, исторический анализ подтверждает: эффективный судебный контроль на досудебной стадии является неотъемлемым элементом правового государства, гарантирующим защиту конституционных прав граждан от необоснованного уголовного преследования.

---

<sup>6</sup> Лукьянов С. С. Компетенция суда при осуществлении судебного контроля на досудебных стадиях уголовного процесса //СПб: СБГУ. – 2025.

**Использованная литература**

1. Фойницкий И.Я. Курс уголовного судопроизводства. Т.1. С.-Петербург, типография тов-ва «Общественная польза», Б. Подъячская, 39, 1912. 16 с;
2. Максуров А.А. Генезис судебного контроля... // Вестник Казанского юридического института МВД России. 2019;
3. Калягин Владислав Игоревич Ретроспектива формирования института судебного контроля на досудебной стадии отечественного уголовного процесса (дореволюционный период) // Евразийский Союз Ученых. 2018. №3-3 (48);
4. Судебная реформа Александра II: «Да правда и милость царствуют в судах». <https://pravo.ru/story/205825/>;
5. Очерк развития науки советского уголовного процесса. Воронеж, 1980. <https://kalinovsky-k.narod.ru/b/ocherk-1980.htm>;
6. Лукьянов С. С. Компетенция суда при осуществлении судебного контроля на досудебных стадиях уголовного процесса //СПб: СБГУ. – 2025.

**A.G'.Saidov,**  
*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tinglovchisi,  
Odil sudlov akademiyasi Kabinet mudiri*

## **“ELEKTRON SHAXS” KONSEPSIYASINING HUQUQIY INQIROZI**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) tizimlariga “elektron shaxs” maqomini berish konsepsiyasining nazariy asoslari va uning huquqiy inqirozi sabablari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Yevropa Parlamentining 2017-yildagi rezolyutsiyasidan boshlab, 2024-yilda qabul qilingan Yevropa Ittifoqining SI to'g'risidagi aktigacha bo'lgan evolyutsion yo'l va uning natijasida antropotsentrik huquqiy paradigmaning g'alabasi ko'rsatib berilgan. Muallif SI tizimlarini subyektlashtirishning ontologik to'siqlari, xususan, aybdorlik niyati (mens rea) va moliyaviy mustaqillikning yo'qligi konsepsiyaning o'lik tug'ilishiga sabab bo'lganini asoslaydi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining O'RQ-1115-sonli qonuni va xalqaro standartlar qiyoslanib, SI ni “avtonom ashyo” va “elektron agent” sifatida tartibga solishning afzalliklari ochib beriladi. Xulosa qismida kiberhuquqning kelajagi subyektlilik berish emas, balki algoritmnlarni boshqarish va javobgarlik zanjirini mustahkamlash bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *elektron shaxs, sun'iy intellekt, kiberhuquq, huquqiy fiksiya, javobgarlik bo'shlig'i, elektron agent, antropotsentrizm, EU AI Act, O'RQ-1115, nazorat nazariyasi.*

### **KIRISH**

Sun'iy intellekt subyektliligini tartibga solishga doir zamonaviy qarashlar asosan tizimni shunchaki inson foydalanadigan "asbob-uskuna" deb hisoblashga tayanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, SI mustaqil irodaga ega bo'lmagani bois, u huquqiy munosabatlarning mustaqil ishtirokchisi bo'la olmaydi. Binobarin, kiberhuquq doirasida har qanday algoritmik qarorning ortida doimo insoniy subyekt turishi shart deb hisoblanadi. Biroq 2017-yilda Yevropa Parlamenti tomonidan taklif etilgan "elektron shaxs" maqomi ushbu

an'anaviy qarashni o'zgartirishga urinish edi<sup>1</sup>. Mazkur tashabbus texnologik taraqqiyotning huquqiy reallikdan ilgarilab ketgani haqidagi texno-optimizm g'oyalariga asoslangan edi. Shunday bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ushbu konsepsiya jiddiy huquqiy va etik to'siqlarga duch kela boshladi. Oxir-oqibat, subyekt va obyekt o'rtasidagi chegaralarni sun'iy kengaytirishga urinish tizimli inqirozni keltirib chiqardi.

### **ONTOLOGIK VA HUQUQIY TAHLIL**

“Elektron shaxs” atamasining huquqiy genezisi bevosita Yevropa Parlamentining 2017-yil 16-fevraldagi “Robototexnika bo'yicha fuqarolik huquqi normalari to'g'risida”gi rezolyutsiyasi bilan bog'liqdir<sup>2</sup>. Mazkur hujjatda ilk bor mustaqil qaror qabul qiluvchi va uchinchi shaxslar bilan aloqaga kirishuvchi ilg'or avtonom robotlarga maxsus huquqiy maqom berish g'oyasi ilgari surildi. Rezolyutsiya mualliflari SI tizimlarini oddiy “ashyo” (obyekt) sifatida ko'rish ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholashda yetarsiz ekanini ta'kidladilar. Shu tariqa, robotlarni cheklangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan subyekt sifatida tan olish orqali javobgarlik tizimini optimallashtirish maqsad qilingan edi. Biroq ushbu tashabbus huquqiy hamjamiyatda misli ko'rilmagan qarshilikka uchradi<sup>3</sup>. Rezolyutsiyaning asosiy maqsadi tizimlarning o'z harakatlari uchun javob berishi mumkin bo'lgan “elektron identifikatsiya” tizimini yaratish edi. Ammo bu yerda subyektivlikning ontologik va funksional jihatlari o'rtasidagi ziddiyat konsepsiyaning inqiroziga poydevor bo'ldi.

Yevropa Ittifoqi rezolyutsiyasida “aqli robot” tushunchasi datchiklar yordamida atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir qiluvchi va o'z

---

<sup>1</sup> Ziemianin K. Civil legal personality of artificial intelligence. Future or utopia? // Internet Policy Review. – 2021. – Vol. 10(2). – P. 9.

<sup>2</sup> European Parliament. Resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics (2015/2103(INL)). – Strasbourg, 2017.

<sup>3</sup> Гаджиев Г.А., Войниканис Е.А. Может ли робот быть субъектом права? (поиск правовых форм для регулирования цифровой экономики) // Право. Журнал Высшей школы экономики. – 2018. – № 4. – С. 24–48.

xatti-harakatlarini moslashtiruvchi tizim sifatida ta'riflangan. Bunday robotlarning biologik ma'noda "hayoti" bo'lmasa-da, ularning funksional mustaqilligi huquqiy fiksiya yaratish uchun yetarli asos deb hisoblandi. Olimlar, xususan Ugo Pagallo, SI tizimlarini "ratsional agent" sifatida tan olish mas'uliyat zanjiridagi bo'shliqlarni to'ldirishini ta'kidlab kelgan<sup>4</sup>. Uning fikricha, SI shunchaki obyekt emas, balki o'z harakatlari natijalari uchun muayyan "mas'uliyat manbai" (source of responsibility) bo'lishi lozim. Biroq bunday yondashuv amaldagi huquqiy shaxslar doktrinasining fundamental asoslariga zid kelib qoldi. Tizimlarning "o'z-o'zini o'qitish" qobiliyati ularni nafaqat avtonom, balki bashorat qilib bo'lmaydigan qilib qo'ydi<sup>5</sup>. Natijada, huquqiy barqarorlikni ta'minlash o'rniga, yangi maqom ko'plab huquqiy nizolarga sabab bo'lishi aniqlandi.

"Elektron shaxs" konsepsiyasini asoslashda tarafdorlar ko'pincha yuridik shaxs instituti bilan analogiyadan foydalanishgan. Ma'lumki, yuridik shaxs — bu qonun chiqaruvchi tomonidan iqtisodiy ehtiyojlar uchun yaratilgan huquqiy fiksiya (persona ficta) bo'lib, u ham biologik ongdan mahrumdir. Shunga asoslanib, SI tizimlarini ham korporatsiyalar kabi mustaqil balans va javobgarlik markaziga ega bo'lgan subyektga aylantirish taklif etildi. Biroq yuridik shaxsning ortida doimo insoniy iroda va jismoniy shaxslar guruhining boshqaruvi turadi. SIda esa "o'z-o'zini o'qitish" (self-learning) jarayoni tufayli insoniy irodadan butunlay uzilgan harakatlar sodir bo'lishi mumkinligi analogiyaning buzilishiga olib keldi. Mazkur nomutanosiblik "elektron shaxs"ning yuridik shaxs kabi fiktiv emas, balki mutlaqo sun'iy tabiatini ko'rsatdi. Binobarin, korporativ huquq modellarini SIda qo'llash amalda ixtirochi va

---

<sup>4</sup> Pagallo U. The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts. – Dordrecht: Springer, 2013. – P. 45-48.

<sup>5</sup> Вохидов Ф. Sun'iy intellekt va huquqiy javobgarlik // Международный журнал научных исследователей. – 2025. – Том 11, № 1. – Б. 562.

foydalanuvchini javobgarlikdan ozod qilishga xizmat qilishi mumkinligi haqidagi xavotirlar kuchaydi<sup>6</sup>.

Huquqiy fiksiya nazariyasi vakili Gans Kelzen hatto jismoniy shaxsni ham huquqiy normalar yig'indisining bir nuqtasi sifatida qaragan bo'lsa-da, u baribir subyektivlikni ijtimoiy tartibot bilan bog'lagan<sup>7</sup>. "Elektron shaxs" esa o'zining sun'iyliги bilan yuridik shaxsdan ham ko'ra abstraktrоq konstruksiya bo'lib chiqdi. Ko'pgina olimlar SIga maqom berish uni "insonlashtirish" xavfini keltirib chiqarishini va inson qadr-qimmatini kamsitishini ta'kidladilar. Fiksiyani texnologik tizimlarga nisbatan qo'llashda ularning delikt layoqati (liability capacity) masalasi hal qilinmaganicha qoldi. Natijada fiksiya nazariyasi SIga nisbatan o'zining pragmatik jozibadorligini yo'qotib, ilmiy tanqidlar ostida qoldi. Jismoniy shaxs bilan SIning kognitiv farqlari huquqiy muloqotda tenglikni ta'minlashga to'sqinlik qildi. Shaxs maqomini berish orqali zararni qoplash mexanizmlari amalda ishlamasligi aniq bo'ldi.

2018-yilda 285 nafar kiberhuquq, etika va texnologiya bo'yicha ekspertlar tomonidan Yevropa Komissiyasiga yuborilgan ochiq xat (Open Letter) konsepsiyaning inqirozini rasmiylashtirdi<sup>8</sup>. Ekspertlar SIga shaxs maqomini berish orqali ishlab chiqaruvchilar va operatorlar o'z javobgarligini cheklashiga yo'l qo'yilmasligini qat'iy talab qildilar. Maktubda ta'kidlanishicha, robotlarning o'ziga xos aktivlari yoki jamg'armasi (peculium) yo'qligi sababli ularning javobgarligi amalda o'lik kuchga ega bo'ladi. Maqom berish g'oyasi ishlab chiquvchilar uchun "javobgarlik qalqoni" (liability shield)ga aylanib qolishi xavfi markazga qo'yildi. Shu nuqtayi nazardan, "elektron shaxs" ijtimoiy adolat va mas'uliyat tamoyillariga zid deb topildi. Ochiq xat mualliflari SI uchun huquqiy shaxslikning o'rnatilishi inson huquqlari bo'yicha global standartlarga putur

---

<sup>6</sup> Avila Negri S.M.C. Robot as Legal Person: Electronic Personhood in Robotics and Artificial Intelligence // *Frontiers in Robotics and AI*. – 2021. – Vol. 8. – P. 789327.

<sup>7</sup> Kelsen H. *Reine Rechtslehre*. – Wien: Österreichische Staatsdruckerei, 1992. – S. 176.

<sup>8</sup> Open Letter to the European Commission Artificial Intelligence and Robotics. – Brussels, 2018. URL: <http://www.robotics-openletter.eu/>

yetkazishini bildirdilar. Bu esa konsepsiyaning siyosiy darajada qo'llab-quvvatlanmasligiga asosiy sabab bo'ldi.

Joanna Bryson robotlarni huquq subyekti sifatida tan olishga qarshi chiqib, ularni doimo "qul" yoki insonning xizmatkor vositasi maqomida saqlash kerakligini ta'kidlaydi<sup>9</sup>. Uning fikricha, mashinaga shaxsiyat berish insoniy mas'uliyatni yuvib yuboradi va huquq tizimining muvozanatini buzadi. Bryson argumentiga ko'ra, robotlar o'z harakatlari uchun axloqiy va jismoniy jazo hissini tuya olmaydilar, bu esa jazo choralarning samaradorligini nolga tushiradi. Agar tizim azob chekish yoki yo'qotish hissini bilmasa, unga nisbatan jinoiy yoki fuqarolik javobgarligini qo'llash mantiqsizdir. Bu esa konsepsiyaning axloqiy-huquqiy antinomiyasini (qarama-qarshiligini) yaqqol ko'rsatadi. Shaxs maqomi faqat ongli iroda va axloqiy agentlikka ega mavjudotlar uchungina saqlanib qolishi shart. Mashina esa faqat texnik samaradorlikka yo'naltirilgan vosita bo'lib qoladi.

### **KONSEPSIYANING INQIROZIGA SABAB BO'LGAN FUNDAMENTAL OMILLAR**

Inqirozning yana bir asosi — SI tizimlarida "Mens Rea" (aybdorlik) elementining yo'qligidir. Klassik jinoyat huquqida javobgarlik uchun niyat, qasd yoki ehtiyotsizlik kabi ruhiy holat bo'lishi shart. SI esa faqat kodlar va algoritmlar asosida harakat qiladi, unda subyektiv munosabat mavjud emas. Faroxiddin Voxidov ta'kidlaganidek, hozirgi texnologik rivojlanish bosqichida SIning harakatlarida ong va niyat kabi subyektiv belgilar mavjud emas<sup>10</sup>. Algoritmik niyat (algorithmic intent) insoniy irodaning o'rnini bosa olmaydi, bu esa konsepsiyani yuridik jihatdan "o'lik tug'ilgan" deb atashga asos bo'ladi. Jinoiy javobgarlikni sun'iy tizimlarga yuklash jazo tayinlashdan kutilgan maqsadga erishish imkonini bermaydi.

---

<sup>9</sup> Bryson J. J. Robots should be slaves // Close engagements with artificial companions. – Amsterdam: John Benjamins, 2018. – P. 63-74.

<sup>10</sup> Вохидов Ф.М. Sun'iy intellekt va huquqiy javobgarlik // Международный журнал научных исследователей. – 2025. – Том 11, № 1. – Б. 562.

Binobarin, javobgarlik baribir ishlab chiquvchi yoki foydalanuvchi zimmasida qolishi mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

### **ALTERNATIV MODELLAR**

Ryan Calo va boshqa G‘arb huquqshunoslari SI tizimlarini mustaqil subyekt emas, balki “avtonom ashyo” sifatida tartibga solishni yoqlaydilar. Ularning fikricha, SI keltirgan zarar uchun javobgarlikni “Strict Liability” (qat‘iy javobgarlik) yoki yuqori xavf manbai nazariyasi orqali hal qilish samaraliroqdir. O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining 999-moddasi aynan shunday obyektlar uchun aybsiz javobgarlikni nazarda tutadi<sup>11</sup>. “Elektron shaxs” maqomi esa bunday aniq mexanizmni murakkablashtirib, jabrlanuvchini himoyasiz qoldiradi. Shu sababli huquqiy transformatsiya subyektlilikni kengaytirish emas, balki obyekt rejimini takomillashtirish yo‘lidan ketishi lozim. Sardor Bozarov ta’kidlaganidek, SI obyektlarini ijtimoiy xavfi yuqori bo‘lgan obyektlarga tenglashtirish ko‘plab huquqiy muammolarni yechishda ijobiy natija beradi<sup>12</sup>. Bu yondashuv innovatsiyalarni sekinlashtirmasdan, jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qiladi.

Roman huquqidagi “peculium” institutini SI uchun qo‘llash g‘oyasi ham konsepsiyaning inqirozini to‘xtata olmadi. Ushbu modelda SIga mustaqil jamg‘arma berilishi va u orqali zararlarni qoplashi nazarda tutilgan edi. Biroq jamg‘armaning miqdori va uni to‘ldirish manbalari bo‘yicha yagona xalqaro standart ishlab chiqilmadi. Bundan tashqari, aktivlarning sug‘urta bilan qoplanishi tizimni subyektga aylantirish shartligini inkor etadi. Maqsad faqat zararni qoplash bo‘lsa, SIga shaxslik berish shart emas, balki majburiy sug‘urta tizimini o‘rnatish yetarlidir. Peculium modeli SIga subyektlilik emas, balki shunchaki iqtisodiy mustaqillik berish uchun

---

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси (иккинчи қисм). 1996 йил 29 август (999-модда). // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>12</sup> Бозаров С.С. Сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий жавобгарлик. Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДЮУ, 2023. – Б. 22.

yaratilgan fiksiya bo‘lib qoldi. Amalda ushbu model huquqiy subyektivlikning barcha elementlarini o‘zida mujassam eta olmadi<sup>13</sup>.

## **GLOBAL VA MILLIY TARTIBGA SOLISHNING YANGI TENDENSIYALARI**

Yevropa Ittifoqining 2024-yilda qabul qilingan SI to‘g‘risidagi akti (EU AI Act) “elektron shaxs” g‘oyasidan butunlay voz kechilganini anglatadi. Ushbu akt tizimlarni huquqiy subyekt sifatida emas, balki xavf darajasiga ko‘ra tasniflanuvchi mahsulot sifatida tartibga solish modelini tanladi. Aktda asosiy e‘tibor shaffoflikka, inson nazoratiga va taqiqlangan amaliyotlarga qaratilgan. Bu esa subyektivlik konsepsiyasining amaliy siyosat darajasida muvaffaqiyatsizlikka uchraganini ko‘rsatadi. Kelajakdagi tartibga solish “Agentlik” emas, balki “Xavfga asoslangan muvofiqlik” (Risk-based compliance) standartlariga tayanadi. SI endilikda huquq subyeksi emas, balki huquqiy tartibotning yuqori nazoratdagi obyeksi sifatida ko‘riladi. Yevropa modelsizlanishi boshqa yurisdiksiyalar uchun ham namuna bo‘ldi<sup>14</sup>.

UNESCOning 2021-yildagi “Sun‘iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiyanomasi” ham global darajada insoniyat markazlashgan (human-centric) yondashuvni mustahkamladi. Tavsiyanomada sun‘iy intellektga o‘z-o‘zidan subyektivlik berish inson huquqlari tizimiga tahdid sifatida baholanadi. Hujjat tizimlarni “shaffof, tushunarli va hisobdor” bo‘lishini talab etadi, bu esa ularning obyektlik tabiatini tasdiqlaydi. UNESCO tomonidan o‘rnatilgan bu standartlar ko‘plab davlatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham yo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. Shaxs maqomi haqidagi bahslar o‘rnini mas‘uliyatli innovatsiya g‘oyasi egalladi. Mazkur hujjat SI obyektlarini insonga bo‘ysunuvchi texnologik vosita sifatida qat‘iy

---

<sup>13</sup> Pagallo U. *The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts*. – Dordrecht: Springer, 2013. – P. 45-48.

<sup>14</sup> European Parliament. *Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act)*. – Brussels: Official Journal of the European Union, 2024. – L 1689/1.

belgiladi. Binobarin, subyekt-obyekt dihotomiyasida insonning ustuvorligi qayta tasdiqlandi<sup>15</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham “elektron shaxs” konsepsiyasiga nisbatan radikal yondashuv tanlanmadi. 2026-yildagi O‘RQ-1115-sonli qonun SIga inson bilimlariga taqlid qiluvchi “texnologik yechimlar majmui” sifatida ta’rif berdi<sup>16</sup>. Qonun chiqaruvchi SIni subyekt deb emas, balki tartibga solinishi lozim bo‘lgan texnik vosita (obyekt) deb hisoblaydi. Bu yerda asosiy urg‘u inson huquqlarini buzmaslik va ma’lumotlarga qonuniy ishlov berishga qaratilgan. Milliy qonunchiligimizdagi ushbu pozitsiya konsepsiyaning global inqiroziga mos ravishda shakllangan. O‘zbekistonning 2030-yilgi strategiyasi ham tizimlarni iqtisodiyotni rivojlantirish vositasi sifatida ko‘radi<sup>17</sup>. Binobarin, SI O‘zbekiston huquqida delikt qobiliyatiga ega bo‘lmagan obyekt bo‘lib qoladi. Insonning huquqlari va erkinliklariga daxldor qarorlarda faqat SI xulosalariga tayanmaslik qat’iy belgilandi<sup>18</sup>.

Sardor Bozarov o‘z tadqiqotlarida SI javobgarligining uchta modelini tahlil qilar ekan, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobgarlik” (Direct Liability) modelining murakkabligini ko‘rsatib o‘tadi<sup>19</sup>. Uning fikricha, hozircha SIning mustaqil niyati yo‘qligi sababli

---

<sup>15</sup> Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiya, 25/11/2021. – YUNESKO. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373434>

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 21 январдаги “Сунъий интеллектни қўллаш орқали юзага келадиган муносабатлар тартибга солиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-1115-сон Қонуни. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.01.2026 й., 03/26/1115/0063-сон.

<sup>17</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 октябрдаги “Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-358-сон қарори. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.10.2024 й., 07/24/358/0765-сон.

<sup>18</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги 560-П-сон Қонуни (Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 21 январдаги ЎРҚ-1115-сон Қонуни таҳририда, 7<sup>1</sup>-моддаси). // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.01.2026 й.

<sup>19</sup> Бозаров С.С. Сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий жавобгарлик. Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДЮУ, 2023. – Б. 22.

javobgarlikni yaratuvchi yoki foydalanuvchi zimmasida qoldirish adolatliroqdir. Bozarov tomonidan ilgari surilgan modellar shuni isbotlaydiki, subyektlik maqomi berilmasa ham javobgarlik masalasini yuridik jihatdan hal etish mumkin. Bu esa “elektron shaxs” g‘oyasining yagona yechim emasligini, aksincha, u qo‘shimcha huquqiy chalkashliklarni keltirib chiqarishini tasdiqlaydi. Tizimlarni yuqori xavf manbai deb bilish jabrlanuvchini himoya qilishning eng qulay yo‘lidir<sup>20</sup>. Bozarovning tahlili inqirozning nazariy va amaliy yechimlarini birlashtirdi. Shunday qilib, milliy olimlarimiz ham konsepsiyaning inqirozini tan olgan holda pragmatik yechimlarni taklif qilmoqdalar.

Nodir Inoyatov avtonom agentlar uchun javobgarlik muammosini o‘rganib, tizimlar tomonidan yetkazilgan zararni “subyektizatsiyalash” orqali hal qilish mumkin emasligini ta’kidlaydi<sup>21</sup>. Uning argumentiga ko‘ra, SI mustaqil deliktga layoqatli bo‘lishi uchun u o‘z qarorlarining axloqiy oqibatlarini anglashi kerak. Mashinada esa bunday kognitiv va emotsional baza mavjud emas, u faqat statistik optimallashtirish bilan shug‘ullanadi. Binobarin, huquq subyektligi faqat huquqiy tan olish bilan emas, balki ongli iroda bilan ham bog‘liq bo‘lishi shart. Inoyatov taklif qilgan "elektron agent" maqomi SIni subyekt qilmasdan, uning muloqotdagi ishtirokini rasmiylashtiradi<sup>22</sup>. Bu yondashuv subyekt-obyekt dihotomiyasining inqirozini yumshatishga xizmat qiladi. Natijada, insoniyat an’anaviy huquqiy paradigmalarni saqlab qolgan holda yangi texnologiyalarni integratsiya qilishi mumkin.

Konsepsiyaning inqiroziga yana bir sabab — xalqaro huquqiy yurisdiksiyaning parchalanganligidir. Agar bir davlat SIga shaxs maqomini bersa-yu, boshqasi uni obyekt deb bilsa, bu

---

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фукаролик кодекси (иккинчи қисм). 1996 йил 29 август (999-модда). // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 16.11.2023 й., 03/23/878/0852-сон.

<sup>21</sup> Иноят Н. Автоном агентлар ва ҳуқуқий жавобгарлик масалалари // Юридик фанлар ахборотномаси. – 2024. – № 2. – Б. 56.

<sup>22</sup> Иноят Н. Автоном агентлар учун жавобгарлик муаммоси. – Тошкент: ТДЮУ, 2024. – Б. 84.

transchegaraviy munosabatlarda kognitiv dissonansni keltirib chiqaradi. Masalan, Saudiya Arabistonining robot Sofiyaga fuqarolik berishi shunchaki ramziy akt bo‘lib, u yuridik jihatdan hech qanday yangi subyektiv huquqlarni keltirib chiqarmadi. Haqiqiy huquq subyektligi universal tan olinishni va o‘zaro majburiyatlarni bajarishni talab qiladi. SI esa bunday xalqaro huquqiy barqarorlikni ta‘minlaydigan darajaga yetmagan. Xalqaro standartlar yo‘qligi konsepsiyani faqat ayrim yurisdiksiyalarning ichki tajribasi darajasida cheklab qo‘ydi. Global AI tartibga solish endilikda maqom emas, balki xavfsizlik standartlari atrofida birlashmoqda. Inqiroz shuni ko‘rsatdiki, sun‘iy subyektlar xalqaro huquqning barqaror elementi bo‘la olmaydi<sup>23</sup>.

SI bozorining ulkan o‘sishi (2030-yilga kelib 13 trillion dollar) algoritmlarni tartibga solishda ko‘proq iqtisodiy-texnik yondashuvni talab qilmoqda<sup>24</sup>. “Elektron shaxs” konsepsiyasi esa bunday amaliy o‘shish uchun kerakli bo‘lgan investitsion huquqiy barqarorlikni bera olmaydi. Investorlar va korporatsiyalar uchun aniq javobgarlik rejimi (masalan, sug‘urta yoki operator mas’uliyati) subyektlilik maqomidan ko‘ra muhimroqdir<sup>25</sup>. Binobarin, konsepsiya iqtisodiy pragmatizm sinovidan ham o‘ta olmadi. Iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisi bo‘lish uchun shaxs bo‘lish shart emas, balki qonuniy tan olingan obyekt bo‘lish yetarlidir. Iqtisodiy samaradorlik SI obyektlarini huquqiy himoya qilish orqali ta‘minlanadi. Maqom berish esa iqtisodiy xavflarni nohaq taqsimlanishiga olib kelgan bo‘lar edi.

“Elektron shaxs” g‘oyasi bugungi kunda “huquqiy inqiroz” bosqichidan o‘tib, amalda “o‘lik tug‘ilgan g‘oya” maqomiga tushib

---

<sup>23</sup> Харитоновна Ю.С., Савина В.С. Технология искусственного интеллекта и право: современные вызовы // Вестник Пермского университета. Юридические науки. – 2020. – Вып. 49. – С. 524.

<sup>24</sup> Ахмадова Г.Ж. Сунъий интеллектни ҳуқуқий тартибга солиш // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – № 1. – Б. 562.

<sup>25</sup> Бозаров С.С. Сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий жавобгарлик. Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДЮУ, 2023. – Б. 22.

qoldi<sup>26</sup>. Bu konsepsiyani qo‘llab-quvvatlagan dastlabki akademik hayajon endilikda tanqidiy realizm bilan almashdi. Huquqshunoslar va siyosatchilar endilikda e‘tiborni “algoritmik javobgarlik” va “texnik audit” vositalariga qaratmoqdalar. Inqiroz shuni ko‘rsatdiki, huquq tizimi texnologiyaga moslashishi uchun fundamental prinsiplaridan (antropotsentrim) voz kechishi shart emas. Maqom transformatsiyasi subyekt doirasini kengaytirish emas, balki javobgarlik zanjirini mustahkamlash orqali sodir bo‘lmoqda. Kelajakda SI faqat insonga xizmat qiluvchi "aqli vosita" sifatida obyektlik maqomida barqarorlashadi. Inqiroz huquqning o‘zini-o‘zi himoya qilish mexanizmi sifatida ishladi.

Huquq subyektligi inson qadr-qimmatini bilan uzviy bog‘liq ekanligi UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan bot-bot takrorlanmoqda<sup>27</sup>. Agar mashinaga inson bilan teng huquqlar berilsa, bu inson huquqlari tushunchasining o‘zini degradatsiyaga uchratadi. “Elektron shaxs” g‘oyasi mashinani inson darajasiga ko‘tarishni emas, balki insonni mashina darajasiga tushirishni anglatadi<sup>28</sup>. Shu bois konsepsiyaning inqirozi gumanistik huquqiy tafakkurning g‘alabasi sifatida ham baholanishi mumkin. Huquq har doim insonga xizmat qilishi kerak, mashina esa faqat xizmat vositasi bo‘lib qoladi. Etika qoidalari inson hayotining ustuvorligini qat‘iy belgilab berdi. Binobarin, subyektlik fiksiyasi insoniyatning ontologik daxlsizligini buzishga qodir emasligi isbotlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030-yilga qadar SI strategiyasi (PQ-358) doirasida ham subyektlik masalasi ko‘tarilmagan. Strategiyada asosiy urg‘u SIn iqtisodiyot tarmoqlariga jadal joriy etish va texnik infratuzilmani yaratishga qaratilgan<sup>29</sup>. Huquqiy baza esa tizimlarning xavfsizligi va

---

<sup>26</sup> Ziemiain K. Civil legal personality of artificial intelligence. Future or utopia? // Internet Policy Review. – 2021. – Vol. 10(2). – P. 9.

<sup>27</sup> Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiya, 25/11/2021. – YUNESKO. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373434>

<sup>28</sup> Bryson J. J. Robots should be slaves // Close engagements with artificial companions. – Amsterdam: John Benjamins, 2018. – P. 63-74.

<sup>29</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 октябрдаги “Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини

shaffofligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, ularning obyektlik maqomini saqlab qoladi. Milliy strategiyamiz konsepsiyaning inqirozini inobatga olgan holda pragmatik yo'lni tanlagani bilan ahamiyatlidir. Davlat siyosati texnologik fiksiyalarni yaratishdan ko'ra real iqtisodiy samarani ustuvor deb bildi. Binobarin, milliy qonunchiligimiz xalqaro tendensiyalarga mos ravishda inqirozni chetlab o'tdi.

“Elektron shaxs” g'oyasining nazariy inqirozi uning “agentlik” (agency) nazariyasi bilan to'qnashuvida ham ko'rinadi. Huquqda agent har doim muayyan subyektning (principal) topshirig'ini bajaradi. SI tizimlari avtonom bo'lsa-da, ularning funksional maqsadi doimo yaratuvchi yoki foydalanuvchiga bog'langan bo'ladi. Agar agent shaxsga aylansa, u va uning yaratuvchisi o'rtasidagi yuridik bog'liqlik uziladi. Bu esa javobgarlikning uchinchi shaxsga yuklanishini imkonsiz qiladi. Natijada huquqiy tartibotda boshqarib bo'lmaydigan kaos yuzaga kelishi mumkin edi. Shuning uchun agentlik nazariyasi SIni subyekt sifatida emas, balki "elektron agent" (obyekt) sifatida tan olishni afzal ko'radi<sup>30</sup>.

Statistika shuni ko'rsatadiki, 2024-yilga kelib jahonda SI bilan bog'liq sud nizolarining aksariyati intellektual mulk va ma'lumotlar bilan bog'liqdir. Ushbu nizolarning barchasida SI subyekt emas, balki bitim obyekt yoki huquqbuzarlik quroli sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda 2024-yilda SI yordamida yaratilgan noqonuniy materiallar soni keskin oshgani aynan uning “obyektlik nazorati”ni talab qiladi<sup>31</sup>. Maqom berish esa ushbu nazorat mexanizmlarini cheklab qo'ygan bo'lar edi. Shuning uchun amaliy ehtiyoj konsepsiyani rad etdi va rad etishda davom etmoqda. Sud amaliyoti SIning javobgar subyekt emas, balki dalil ashyosi yoki zarar

---

тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-358-сон қарори. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.10.2024 й., 07/24/358/0765-сон.

<sup>30</sup> Pagallo U. The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts. – Dordrecht: Springer, 2013. – P. 45-48.

<sup>31</sup> СИ (Сунъий интеллект) таҳлилий ҳисоботи / Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг ялпи мажлиси материаллари (2025 йил 15 апрель). URL: <https://zamin.uz/uz/jamiyat/147925-ozbekistonda-suniy-intellekt-haqida-qonun-qabul-qilinmoqda.html>

keltiruvchi vosita deb biladi. Binobarin, statistik ko'rsatkichlar nazariyaning amaliy inqirozini tasdiqladi.

Huquqiy transformatsiya davrida "elektron shaxs" atamasi o'rnini asta-sekin "elektron agent" tushunchasi egalladi. Elektron agent subyekt emas, balki subyektning irodasini amalga oshiruvchi texnik vositachidir. O'zbekiston Fuqarolik kodeksiga kiritilishi kutilayotgan normalar ham aynan shu agentlik tabiatiga mos keladi. Inqiroz shuni ko'rsatdiki, huquq yangilikni qabul qilishi uchun eski tushunchalarni butunlay o'zgartirishi shart emas. Konsepsiyaning o'lishi yangi va amaliy modellar uchun yo'l ochdi. Bu esa huquqiy evolyutsiyaning tabiiy va zaruriy bosqichidir. Agentlik modeli "mas'uliyat zanjiri"ni tiklashga imkon beradi<sup>32</sup>.

Yevropa Kengashining "Sun'iy intellekt, inson huquqlari va demokratiya to'g'risida"gi ramka konvensiyasi (2024) konsepsiyaning global inqirozini rasmiylashtirdi<sup>33</sup>. Konvensiyada SI subyekt deb tan olinmagan, balki davlatlarning ushbu tizimlar ustidan inson nazoratini ta'minlash majburiyati belgilangan. Bu xalqaro miqyosda subyektlik bahslariga nuqta qo'yib, e'tiborni amaliy javobgarlikka qaratdi. Konvensiya inson va mashina o'rtasidagi chegarani qat'iy chizib berdi. Shaxs maqomi haqidagi g'oyalar endilikda faqat huquq falsafasining chetki mavzusi bo'lib qoldi. Xalqaro huquq SI ni tartibga solinadigan obyekt deb qat'iy e'tirof etdi. Mazkur hujjat konsepsiyaning huquqiy barham topganini tasdiqladi.

O'zbekistonda SI etikasi qoidalari (284-mh) ham inson aralashuvi (human oversight) tamoyilini qat'iy belgilab berdi. Agar tizim shaxs bo'lganida edi, uning qarorlari ustidan inson nazorati uning erkinligini cheklash sifatida baholanishi mumkin edi. Obyektlik maqomida esa nazorat qonuniy majburiyat hisoblanadi. Etika qoidalari tizimlarni "mas'uliyat, javobgarlik va nazorat" ostida saqlashni talab etadi. Bu esa milliy huquqiy tizimimizning

---

<sup>32</sup> Иноятов Н. Автоном агентлар ва ҳуқуқий жавобгарлик масалалари // Юридик фанлар ахборотномаси. – 2024. – № 2. – Б. 56.

<sup>33</sup> Council of Europe. Framework Convention on Artificial Intelligence and Human Rights, Democracy and the Rule of Law. – Strasbourg, 2024. – P. 3.

antropotsentrik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Konsepsiyaning inqirozi axloqiy me'yorlarning huquqqa qaytishiga sabab bo'ldi. SI ishtirokchilari tizim qarorlarini yakuniy deb qabul qilmasliklari shart etib qo'yildi<sup>34</sup>.

“Elektron shaxs” tushunchasining yuridik tabiati uning “fiktivligi” bilan bog'liq bo'lib, u amaliyotda hech qanday yangi yuridik qiymat bermadi. Yuridik shaxslar soliqlarni to'laydi, sudlarda ishtirok etadi va bitimlar tuzadi. SI esa bu ishlarining barchasini operator yoki egasining nomidan amalga oshiradi. Agar SIning o'zi javobgar bo'lsa, u yetkazgan zararni qoplash uchun unda hech qanday iqtisodiy resurs mavjud emas. Natijada subyektivlik faqat nom bo'lib qolar edi, bu esa huquqiy tartibotga ziyon yetkazadi. Shu sababli inqiroz muqarrar va mantiqiy yakun edi. Fiksiyani sun'iy tizimlarga tatbiq etish amalda yuridik absurdga olib kelishi aniqlandi<sup>35</sup>.

Konsepsiyaning inqirozi shuni ko'rsatdiki, huquq subyektligi nafaqat qobiliyat, balki o'zaro tenglik (reciprocity) masalasidir. Insonlar va yuridik shaxslar o'zaro huquqiy va ijtimoiy muloqotda bo'la oladilar. SI esa faqat bir tomonlama xizmat ko'rsatadi, u huquqlardan “manfaat ko'rish” hissiga ega emas. Agar mashina huquqdan foydalana olmasa, unga huquq berish ijtimoiy ma'nosini yo'qotadi<sup>36</sup>. Binobarin, subyektivlik ijtimoiy kelishuv natijasi sifatida faqat ongli mavjudotlar uchun saqlanib qoldi. Mashina esa faqat texnik kamsitishdan holi obyekt maqomida qolishi shart. O'zaro huquq va majburiyatlarni his qilmaydigan subyekt huquq tizimi uchun yaroqsizdir.

---

<sup>34</sup> Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирининг 2026 йил 24 февралдаги 284-мх-сон «Сунъий интеллектга асосланган ечимларни яратиш, жорий қилиш ва улардан фойдаланиш бўйича этика қондаларини тасдиқлаш тўғрисида»ги буйруғи. // Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирилиги реестри, №3787, 14.03.2026 й.

<sup>35</sup> Гаджиев Г.А., Войниканис Е.А. Может ли робот быть субъектом права? (поиск правовых форм для регулирования цифровой экономики) // Право. Журнал Высшей школы экономики. – 2018. – № 4. – С. 24–48.

<sup>36</sup> Doomen J. The Artificial Intelligence Entity as a Legal Person // Information & Communications Technology Law. – 2023. – Vol. 32, No. 3. – P. 277-287.

2017-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davr “elektron shaxs” g'oyasining ilmiy va siyosiy “parvozi va inqirozi” davri sifatida tarixda qoladi. Bu davr ichida qabul qilingan ko'plab xalqaro rezolyutsiyalar oxir-oqibat texnik barqarorlik va inson huquqlari ustuvorligiga taslim bo'ldi<sup>37</sup>. Inqiroz shuni isbotladiki, yurisprudensiya texnologiyadan ortda qolsa ham, u fundamental qadriyatlaridan voz kechmasligi lozim. Maqom berish o'rniga tizimlarni boshqarish mexanizmlari takomillashdi. Inqiroz — bu huquqning yangi raqamli sivilizatsiyaga moslashuv jarayonidagi og'riqli, lekin zaruriy bosqichidir. Texno-optimizm o'rnini huquqiy realizm egalladi. Maqom bahslari endilikda amaliy javobgarlik tahlillari bilan almashti.

Konsepsiyaning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, SIga shaxslik berish huquqning barcha sohalarida kognitiv muammolarni keltirib chiqargan bo'lar edi. Masalan, mehnat huquqida robotni “ishchi” deb tan olish inson mehnatining qadrini tushirgan bo'lardi. Shartnomaviy munosabatlarda esa mashina irodasining erkinligi masalasi hal qilib bo'lmas muammoga aylanardi. Inqiroz ushbu murakkabliklarni chetlab o'tish va huquqni soddalashtirish imkonini berdi. Mashinani ashyo deb qolishi — huquqiy aniqlikning kafolatidir. Inqiroz natijasida huquq o'zining antropotsentrik o'zini himoya qilish instinktini namoyish etdi. Shaxsiyatni sun'iy kengaytirish huquqiy barqarorlikka tahdid deb baholandi.

Sardor Bozarovning uchinchi modeli — “to'g'ridan-to'g'ri javobgarlik” modeli konsepsiyaning kelajakdagi faraziy ko'rinishi bo'lishi mumkin. Ammo u ham tizimning to'laqonli shaxs bo'lishini emas, balki funksional delikt layoqatini talab qiladi<sup>38</sup>. Hozircha bu model ham ilmiy-fantastika darajasida bo'lib, amaliyotda qo'llanilmayapti. Inqiroz shuni ko'rsatdiki, hatto kelajakdagi maqom ham insoniy shaxslikka teng bo'la olmaydi. Maqom har doim

---

<sup>37</sup> European Parliament. Resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics (2015/2103(INL)). – Strasbourg, 2017.

<sup>38</sup> Бозаров С.С. Сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий жавобгарлик. Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДЮУ, 2023. – Б. 22.

“elektron” yoki “sun’iy” degan prefiksga ega bo‘ladi, bu esa uning inson bilan teng emasligini tasdiqlaydi. Bozarov tahlillari subyektlarning barcha shakllari inson nazorati bilan cheklanishini isbotladi. Kelajakda ham SI faqat cheklangan layoqatli obyekt bo‘lib qolaveradi.

“Elektron shaxs” g‘oyasining inqirozi yurisprudensiyada “Obyektning subyektivlashuvi” fenomenini tug‘dirdi. Bu shuni anglatadiki, SI tizimi obyekt bo‘lib qolsa-da, unga nisbatan talablar va qoidalar subyektlarga xos darajada murakkablashmoqda. Masalan, algoritmlarning shaffoflik va adolatlilik kabi “axloqiy majburiyatlari” paydo bo‘ldi<sup>39</sup>. Inqiroz konsepsiyani o‘ldirdi, lekin uning ijobiy elementlarini obyekt rejimiga ko‘chirdi. Shu tariqa, konsepsiyaning o‘zi yo‘q bo‘lsa-da, uning ta’siri huquqda saqlanib qoldi. Bu esa raqamli transformatsiyaning o‘ziga xos dialektik ko‘rinishidir. Obyekt endilikda oddiy "res" emas, balki "aqli tizim" sifatida tartibga solinadi.

Xalqaro miqyosda SI bo‘yicha qabul qilinayotgan yangi qonunlar bir ovozdan konsepsiyaning inqirozini tasdiqlamoqdalar. Birorta ham rivojlangan davlat o‘z qonunchiligiga SINi shaxs sifatida kiritmadi<sup>40</sup>. Amaliyot nazariyadan ko‘ra kuchliroq bo‘lib chiqdi va fiksiyani rad etdi. O‘zbekiston tajribasi ushbu global tendensiyaning mantiqiy davomidir. Inqiroz shunchaki ilmiy bahs emas, balki butun huquqiy dunyoning tanlovidir. Bu tanlov insonning koinotdagi va huquqdagi markaziy o‘rnini qayta tasdiqladi. Dunyo bo‘ylab SI bo‘yicha patentlar o‘sishi ham tizimni obyekt sifatida himoya qilishni ustuvor qilmoqda<sup>41</sup>.

---

<sup>39</sup> Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирининг 2026 йил 24 февралдаги 284-мх-сон «Сунъий интеллектга асосланган ечимларни яратиш, жорий қилиш ва улардан фойдаланиш бўйича этика қондаларини тасдиқлаш тўғрисида»ги буйруғи. // Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги реестри, №3787, 14.03.2026 й.

<sup>40</sup> European Parliament. Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2024. – L 1689/1.

<sup>41</sup> WIPO Technology Trends 2019: Artificial Intelligence. World Intellectual Property Organization Official Report. – Geneva: WIPO, 2019. – P. 14.

Inqirozning iqtisodiy asosi shundaki, “elektron shaxs” aktivlarining yo‘qligi jabrlanuvchi uchun hech qanday moddiy kompensatsiya bermaydi. Huquq esa asosan mulkiy manfaatlarni himoya qilish uchun xizmat qiladi. Agar shaxs pul to‘lay olmasa, uning shaxsligi yuridik ma’nosini yo‘qotadi. Ishlab chiqaruvchi esa mashina ortiga yashirib, foyda ko‘rishda davom etaveradi. Inqiroz ushbu adolatsizlikka barham berish uchun “Operator javobgarligi” modelini tanladi. Iqtisodiy samaradorlik subyektlikdan ko‘ra mas’uliyatli egalikni afzal ko‘rdi. SIning iqtisodiy o‘shishi faqat qat’iy javobgarlik ostida xavfsizdir.

Inoyatov va boshqa tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, mashinani javobgarlikka tortish uchun unda “ayblilik tuyg‘usi” bo‘lishi kerak. SI da esa bunday narsa yo‘q, u faqat o‘zini qayta dasturlaydi. “Elektron shaxs” g‘oyasi huquqning jazolash funksiyasini absurdga aylantirardi. Inqiroz konsepsiyani rad etish orqali huquqning ma’naviy asoslarini saqlab qoldi. Jazo faqat ongli ravishda xato qilgan subyekt uchundir. Mashina esa faqat tuzatiladi yoki yo‘q qilinadi, lekin jazolanmaydi. Mashina ongiga ega bo‘lmaguncha, u jazo subyeksi bo‘lolmaydi<sup>42</sup>.

Konsepsiyaning inqirozi shartnomaviy munosabatlarda ham yaqqol ko‘rindi. SI ishtirokida tuzilgan bitimlarda "iroda nuqsoni" (defect of will) muammosi yuzaga keldi. Agar SI shartnomani mustaqil tuzsa, uning xatosi uchun kim javobgar bo‘lishi masalasi ochiq qoldi. Inqiroz natijasida bitimlar uchun javobgarlik tizim egasiga "topsiriq shartnomasi" analogiyasi bo‘yicha yuklandi. Bu esa SIning mustaqil shartnomaviy subyektivligini inkor etadi. Shartnomaviy munosabatlarda SI faqat vositachi obyekt maqomida barqarorlashdi. Inqiroz shartnomaviy huquqning klassik tamoyillarini saqlab qoldi<sup>43</sup>.

SI algoritmlarining o‘shishi ularni intellektual mulk obyekti sifatida himoya qilish zaruratini kuchaytirdi. Agar SI subyekt

---

<sup>42</sup> Иноятов Н. Автоном агентлар ва ҳуқуқий жавобгарлик масалалари // Юридик фанлар ахборотномаси. – 2024. – № 2. – Б. 56.

<sup>43</sup> Pagallo U. The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts. – Dordrecht: Springer, 2013. – P. 45-48.

bo'lganida, u yaratgan asarlarga mualliflik huquqi o'ziga tegishli bo'lar edi. Biroq xalqaro IP doktrinasi mualliflikni faqat jismoniy shaxsga bog'lamoqda. Inqiroz natijasida SI yaratgan natijalar egasiga yoki foydalanuvchisiga tegishli deb topildi. Bu esa SIning subyekt emas, balki ijod vositasi (obyekt) ekanligini yana bir bor tasdiqladi. IP sohasidagi inqiroz maqom bahslariga amaliy nuqta qo'ydi. Binobarin, iqtisodiy manfaatlar subyektivlikdan ko'ra egalikni afzal bildi<sup>44</sup>.

Konsepsiyaning etik jihatdan inqirozga uchrashi inson markazlashgan axloq tamoyillarining g'alabasidir. UNESCO va boshqa tashkilotlar SIga insoniy sifatlar berishni axloqiy xato deb baholadilar. Inqiroz natijasida tizimlarning "mas'uliyat, javobgarlik va nazorat" prinsiplari ustuvor bo'ldi. SI qanchalik avtonom bo'lmasin, u insoniyatning etik chegaralaridan chiqa olmaydi. Elektron shaxs g'oyasi axloqiy javobgarlikni yashirishga urinish sifatida qabul qilindi. Shu sababli etik kodekslar maqom berishni emas, balki nazoratni talab qildi. Inqiroz huquqning etik mohiyatini kiberfazoda saqlab qoldi<sup>45</sup>.

SI subyektivligini tan olishning huquqiy inqirozi, shuningdek, "status-kvo"ning regressiv holatiga olib keldi. Dastlabki hayajonli yillar (2017-2018) o'rnini qat'iy va cheklovchi tartibga solish davri egalladi. Endilikda davlatlar subyektivlik berishdan ko'ra, algoritmlarni sertifikatlash va nazorat qilishga ko'proq e'tibor bermoqdalar. Inqiroz natijasida SI huquqi faqat obyektlar rejimini tartibga soluvchi sohaga aylandi. "Elektron shaxs" endilikda faqat tarixiy fiksiyaning muvaffaqiyatsiz namunasi sifatida eslanadi. Kiberhuquq tizimi an'anaviy antropotsentrik paradigmalarga qaytdi<sup>46</sup>.

---

<sup>44</sup> Убайдуллаева А.В. Правовое регулирование интеллектуальной собственности, созданной с участием искусственного интеллекта: диссертация PhD. – Ташкент: ТГЮУ, 2024. – С. 88.

<sup>45</sup> Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiya, 25/11/2021. – YUNESKO. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373434>

<sup>46</sup> European Parliament. Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2024. – L 1689/1.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, SI sohasidagi patentlar soni 2024-yilda rekord darajaga yetdi. Ushbu patentlarning 99 foizi yuridik va jismoniy shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan. Bu holat SIning o'zi emas, balki uni yaratgan subyektlarning huquqiy qudratini ko'rsatadi. Agar konsepsiya inqirozga uchramaganida, IP tizimida xaos yuzaga kelgan bo'lar edi. Inqiroz iqtisodiy manfaatdorlikni huquqiy tartibga solish bilan uyg'unlashtirdi. Shaxs maqomi berilmagani patent egalari uchun huquqiy aniqlikni ta'minladi. Shunday qilib, iqtisodiy ko'rsatkichlar ham konsepsiyaning inqirozini qo'llab-quvvatladi<sup>47</sup>.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, SIga shaxs maqomini berish inson huquqlari bo'yicha global mantiqqa zid edi. Agar mashinaga huquq berilsa, uni "qurbon" sifatida ham tan olish kerak bo'lar edi. Bu esa huquqning gumanistik tabiatini inkor etadi. Inqiroz natijasida SI faqat "yuqori xavfli obyekt" sifatida klassifikatsiya qilindi. Ushbu klassifikatsiya insoniyat xavfsizligini ta'minlashning eng mantiqiy yo'lidir. Konsepsiyaning o'lishi insonning markaziy o'rnini kiberfazoda ham mustahkamladi. SI endilikda faqat insonga bo'ysunuvchi avtonom asboddur.

Elektron shaxs g'oyasining huquqiy boshi berk ko'chasi shundaki, u hech qanday yangi yechim bermadi. Aksincha, u mavjud delikt huquqini murakkablashtirib yubordi. Inqiroz natijasida vujudga kelgan javobgarlik modellari tizim egasini birinchi o'ringa qo'ydi. S. Bozarov aytganidek, mas'uliyatni inson zimmasida qoldirish adolat tamoyilining talabidir. Inqiroz konsepsiyani o'ldirdi, lekin xavfsizlikni saqlab qoldi. Huquq tizimi texnologik xavflarni obyektlar rejimida jilovlashga qaror qildi. Mazkur qaror raqamli jamiyat uchun eng barqaror yo'l bo'lib chiqdi.

Yevropa Komissiyasining 2024-yildagi qarorlari personhood bahslariga amaliy chek qo'ydi. Endilikda barcha e'tibor SI mas'uliyati bo'yicha maxsus direktivalarga (AI Liability Directive) qaratilgan. Ushbu direktivalar SIning subyekt deb bilmaydi, balki isbotlash

---

<sup>47</sup> WIPO Technology Trends 2019: Artificial Intelligence. World Intellectual Property Organization Official Report. – Geneva: WIPO, 2019. – P. 14.

majburiyatini foydalanuvchilar o'rtasida taqsimlaydi. Inqiroz natijasida "subyektivlik" o'rnini "hisobdorlik" (accountability) egalladi. Bu o'zgarish huquqiy tartibotni yanada shaffof va tushunarli qildi. Inqiroz konsepsiyani akademik muzeyga topshirdi. SI huquqi endilikda amaliy-texnik kvalifikatsiyaga tayanadi.

### **XULOSA**

Oxirgi xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, "elektron shaxs" konsepsiyasining huquqiy inqirozi muqarrar tarixiy va mantiqiy natija edi. Bu konsepsiya texnologik taraqqiyotga huquqiy javob berishda shoshqaloqlik mahsuli bo'lib, fundamental huquqiy prinsiplarni inobatga olmagan edi. Inqiroz natijasida dunyo SI tizimlarini "yuqori xavfli obyektlar" va "elektron agentlar" sifatida tartibga solish yo'liga o'tdi. O'zbekiston kiberhuquq tizimi ham ushbu global tendensiyani tan olib, antropotsentrik paradigma doirasida qoldi. Inqiroz huquqning barqarorligini va insonning subyektlidagi mutlaq ustuvorligini qayta tasdiqladi. Kelajakdagi tadqiqotlar subyektlilik berish emas, balki algoritmlarni boshqarish metodlarini takomillashtirishga qaratiladi. Konsepsiyaning inqirozi raqamli davr huquqiy tartibining yangi tongidir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "elektron shaxs" konsepsiyasining huquqiy inqirozi SI texnologiyalarini tartibga solishda yangi paradigmalarni shakllantirdi. Antropotsentrik huquq tizimi o'zining fundamental asoslarini saqlab qoldi va sun'iy subyektlarni rad etdi. Inqiroz shuni ko'rsatdiki, huquqiy barqarorlik faqat ongli iroda va axloqiy mas'uliyatga tayanadi. O'zbekistonning milliy qonunchiligi (O'RQ-1115) ham ushbu global inqirozdan to'g'ri xulosa chiqarib, tizimlarni obyekt maqomida saqlab qoldi. Kelajakdagi raqamli tartib SI ni insonga bo'ysunuvchi avtonom vosita sifatida tartibga solish orqali rivojlanadi. Bu esa raqamli sivilizatsiyada adolat va xavfsizlikni ta'minlashning yagona kafolatidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Abbott, R. (2020). *The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law*. Cambridge University Press.
2. Bozarov, S. S. (2023). *Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik* [Legal liability within the framework of artificial intelligence]. DSc dissertation abstract. Tashkent State University of Law.
3. Bryson, J. J. (2018). Robots should be slaves. In *Close Engagements with Artificial Companions* (pp. 63-74). John Benjamins.
4. Council of Europe. (2024). *Framework Convention on Artificial Intelligence and Human Rights, Democracy and the Rule of Law*. Strasbourg.
5. European Parliament. (2017). *Resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics (2015/2103(INL))*.
6. European Parliament. (2024). *Regulation (EU) 2024/1689 (Artificial Intelligence Act)*. Official Journal of the European Union.
7. Inoyatov, N. (2024). *Avtonom agentlar uchun javobgarlik muammosi* [The problem of liability for autonomous agents]. Tashkent State University of Law.
8. Kelsen, H. (1992). *Reine Rechtslehre* [Pure Theory of Law]. Österreichische Staatsdruckerei.
9. Pagallo, U. (2013). *The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts*. Springer.
10. UNESCO. (2021). *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*.
11. Voxidov, F. M. (2025). Sun'iy intellekt va huquqiy javobgarlik. *International Journal of Scientific Researchers*, 11(1), 562.
12. Ziemianin, K. (2021). Civil legal personality of artificial intelligence: Future or utopia? *Internet Policy Review*, 10(2).
13. O'RQ-1115. (2026). *Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan... o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni*.
14. PQ-358. (2024). *Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori*.
15. WIPO. (2019). *Technology Trends: Artificial Intelligence*. World Intellectual Property Organization.

**Н.Ш.Туланбаев,**

*Жинойат ишлари бўйича Қувасой шаҳар  
судининг тергов судьяси*

## **ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИК ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ**

**Аннотация:** *Ушбу мақолада юридик жавобгарлик ҳамда унинг алоҳида тури сифатида жиноий жавобгарлик таҳлил қилинган. Шу билан биргаликда, жиноий жавобгарликнинг ўзига хослиги ҳамда унинг вужудга келиши асослари ва вақти юзасидан фикрлар илгари сурилган.*

**Калит сўзлар:** *жавобгарлик, юридик жавобгарлик, жиноий жавобгарлик, давлат мажбурилови, чекловлар.*

Жавобгарлик ҳуқуқни қўллаш амалиётида кенг қўлланиладиган асосий тушунчалардан биридир. Шу билан биргаликда, “жавобгарлик” атамаси фақатгина ҳуқуқ доирасига тааллуқли бўлмай, бошқа йўналишларда ҳам кенг маъноларда қўлланилади. Жумладан, ижтимоий ҳаётда жавобгарликнинг ахлоқий, сиёсий, диний, юридик каби бир қатор турларини учратиш мумкин.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида жавобгарлик сўзи хатти-ҳаракати, қилмиши учун бирон-бир масъулиятга ёки жазога тортишни талаб қиладиган ҳолатни ифодалашни кўрсатиб ўтилган.<sup>1</sup>

Жиноий жавобгарлик юридик жавобгарликнинг алоҳида тури бўлиб, унинг моҳиятини тушуниш учун фикримизча, дастлаб юридик жавобгарлик ўзи нима эканлигини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистонлик ҳуқуқшуносларнинг ишларида ва чет эл юридик адабиётларда юридик жавобгарлик тушунчасининг умумэътироф этилган таърифи мавжуд эмас.

Бу борада З.Исламов юридик жавобгарлик бу содир этилган ҳуқуқбузарлик учун шахснинг давлат ҳокимият

---

<sup>1</sup> Мадвалиев А. ва бошқалар.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбек миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент-2006.

моҳиятига эга бўлган муайян чеклашларни бошдан кечириш мажбурияти сифатида таърифлаб, юридик жавобгарликнинг давлат мажбурлови билан боғлиқлигини, давлат мажбурлови эса давлатнинг субъектга муайян хатти-ҳаракатни унинг хоҳиш-иродасидан ва ихтиёридан ташқари амалга ошириш мажбуриятини юклаш имконияти эканлигини таъкидлайди.<sup>2</sup>

Х.Одилқориев эса юридик жавобгарлик – ҳуқуқбузарга нисбатан ҳуқуқ нормаларида кўзда тутилган санкциялар асосида давлатнинг мажбурлов чораларини қўллаши эканлиги, бунда айбдор шахс муайян ҳуқуқлардан (шахсий, мулкӣ, ташкилий ва ҳоказо) маҳрум этилишини таъкидлайди.<sup>3</sup>

Н.Магузов юридик жавобгарлик ижтимоий жавобгарликнинг энг оғир ҳамда юқори даражада расмийлаштирилган бир тури эканлигини таъкидлайди.<sup>4</sup>

Бунга қадар баён этилган фикрлардан келиб чиқиб, **юридик жавобгарлик** – ижтимоий жавобгарликнинг бир тури бўлиб, ҳуқуқбузарга унинг содир этган ҳуқуқбузарлиги учун ҳуқуқ нормалари билан ўрнатилган тартибда давлатнинг мажбурлови орқали таъминланадиган унга мақбул бўлмаган муайян мажбуриятларни юклаш, чекловларни белгилашдан иборат деб таърифлаш мумкин.

Юридик жавобгарликнинг мақсади энг умумий маънода конституциявий тузумни, ҳуқуқ-тартиботни, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишдан иборат бўлса, тор маънода ҳуқуқбузарни жазолаш, жамиятнинг бошқа аъзоларини содир этилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарликлар ва уларнинг оқибатларидан огоҳлантиришдир.

Юридик жавобгарлик одамларнинг қонуний ҳуқуқ-атворининг муҳим рағбатлантирувчиси, ижтимоий жиҳатдан етарлича барқарор бўлмаган фуқароларни чекловчи куч бўлиб

---

<sup>2</sup> Исломов З. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Адолат. Тошкент-2007. 897-899 бетлар.

<sup>3</sup> Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Адолат. Тошкент-2018. 472-бет.

<sup>4</sup> Магузов Н., Малько А. Теория государства и права: учебник. Юрист. 2004. Ст 215.

хизмат қилади. Бошқача айтганда, у шахсни қонун, тартиб ва интизомга ҳурмат руҳида тарбиялаш воситаларидан биридир.

Юқорида таъкидланганидек, жиноий жавобгарлик юридик жавобгарликнинг бир тури бўлиб, у юридик жавобгарликнинг бошқа турларидан бир қатор жиҳатлар билан фарқланади.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 16-моддасида “Жиноят учун жавобгарлик – жиноят содир этишда айбдор бўлган шахсга нисбатан суд томонидан ҳукм қилиш, жазо ёки бошқа ҳуқуқий таъсир чораси қўлланилишида ифодаланадиган жиноят содир этишнинг ҳуқуқий оқибатидир.” деб кўрсатилган.<sup>5</sup>

Бу борада М.Рустамбоев жиноий жавобгарлик атамаси юридик адабиётларда турлича эканлигини, жиноий жавобгарлик жиноят ҳуқуқи нормалари билан кўриқланадиган ижтимоий муносабатларга жиддий зарар етказадиган ёки шундай зарар етказиши мумкин бўлган тажовуз қилингандагина вужудга келиши, шундай экан жиноий жавобгарлик ўз навбатида қандайдир ҳуқуқий оқибатни вужудга келтиришини, аммо жиноят ҳуқуқий муносабатнинг келиб чиқиши учун бирон-бир юридик факт содир этилиши талаб қилинишини ва бундай юридик факт жиноятнинг содир этилиши ҳисобланишини таъкидлайди.

Шу билан биргаликда, мазкур олимнинг фикрича жиноий жавобгарликни талқин қилишда қуйидаги учта назария аҳамиятлидир:

***Биринчи назария,*** жиноят содир этган шахсга нисбатан жиноий жавобгарлик шахсий ёки мулкый хусусиятдаги таъсир чораси эканлигини ифодалайди. Бу тушунча илмий адабиётлар ва дарсликларда қайд этилган.

***Иккинчи назария,*** жиноий жавобгарлик жиноят қонунчилигида кўрсатилган давлат мажбурлов чораси сифатида тушунилади, яъни айбдорга нисбатан судланганлик оқибатини келтириб чиқарувчи чора қўлланилади.

---

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

**Учинчи назария,** жиноий жавобгарлик деганда, барча жиноят ҳуқуқий муносабатларни, шунингдек шахс ва давлат ўртасидаги (ҳуқуқни муҳофаза этувчи органлар тимсолида) муносабатлар тушунилади.<sup>6</sup>

Бу борада М.Усмоналиев жиноий жавобгарлик шахсининг жиноят кодекси билан тақиқланган қилмишнинг содир қилганлиги учун шахс ва давлат ўртасида вужудга келадиган жиноий-ҳуқуқий муносабат сифатида таърифланади.<sup>7</sup>

Т.Норметовнинг фикрига кўра, жиноят ҳуқуқий муносабатларнинг субъектлари бир томондан давлат бўлса, иккинчи томондан жиноят содир қилган шахсдир. Шахс томонидан жиноят содир қилиниши муносабати билан давлатда жиноят ҳуқуқида назарда тутилган мажбурлов чораларини шахсга нисбатан мажбурий тарзда қўллаш, суриштирув ва тергов ҳаракатларини олиб бориш мажбурияти вужудга келади. Шахсда эса содир қилган жинояти учун жавоб бериш, жиноят ҳуқуқида белгиланган тартибда унга нисбатан қўйилган талабларга жавоб бериш мажбурияти вужудга келади. Жиноий жавобгарлик масаласи фақат жиноят ҳуқуқи доирасида белгиланган асосларга биноан амалга оширилади.<sup>8</sup>

А.Михлина жиноий жавобгарлик жамиятнинг қонунга ҳилоф хатти-ҳаракатларга салбий муносабати шакли эканлигини, шунингдек, у жиноят содир этган шахсга нисбатан янги жиноятлар содир этилишининг олдини олишга қаратилган жисмоний, мулкӣ ва маънавий маҳрум этишларни қўллашдан иборат эканлигини таъкидлайди.<sup>9</sup>

В.Суденко эса жиноий жавобгарликни бу шахсининг содир этган жинояти учун жавобгарлиги эканлигини, у жиноят қонунига

---

<sup>6</sup> Рустамбоев М. Жиноят ҳуқуқи (Умумий қисм) “Ilm Ziyο” Тошкент. 2006. 201 бет.

<sup>7</sup> Усмоналиев М. Бакунов П. Жиноят ҳуқуқи (Умумий қисм). Насаф нашриёти. Тошкент. 116 бет.

<sup>8</sup> Норметов Т. Жиноий жавобгарлик ва уни бошқа жавобгарлик турларидан фарқи. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 4 (3), Март 2024.

<sup>9</sup> Михлина А.С. Уголовное право Российской Федерации. Общая часть. Москва. 2024. Ст 66.

мувофиқ давлат томонидан унга мажбуран таъсир кўрсатишда ифодаланишини таъкидлайди.<sup>10</sup>

Жинойт кодексимизда бу борадаги берилган таъриф, шунингдек, юқорида баён этилган олимларнинг фикрларидан келиб чиқиб, **жинойт жавобгарлик** жиноят қонуни билан белгиланган, қўлланилиши жиноятчининг хоҳишига боғлиқ бўлмаган ҳамда унга салбий оқибатларни келтириб чиқарувчи содир этган жинояти учун давлатнинг мажбурлови орқали таъминланадиган ҳуқуқий таъсирдир.

Жинойт жавобгарлик институтининг мавжудлиги жамиятнинг турли жиноий унсурлардан ҳимоялаш, жиноят қонуни билан кўриқланадиган объектларни муҳофаза қилиш борасидаги давлат функциясини амалга оширишнинг асосий воситаси бўлиб хизмат қилади.

Жинойт жавобгарлик шахсга давлат номидан татбиқ этилади ва жазо чоралари жиноят қонуни асосида белгиланади.

Жинойт жавобгарлик қуйидаги хусусиятларга эга:

Фақат жиноят содир этган шахсга нисбатан қўлланилади – яъни, бошқа ҳуқуқбузарликлардан фарқли равишда, жиноят деб топилган ҳаракат ёки ҳаракатсизлик учун жиноий жазо белгиланади.

Фуқаролик, маъмурий ёки интизомий жавобгарликдан оғирроқ оқибатларга эга – жиноий жавобгарлик қўлланилганда, шахс озодликдан маҳрум этилиши ёки бошқа жиноий жазолар қўлланилиши мумкин.

Давлат номидан татбиқ этилади – жиноий жавобгарликни қўллаш фақат суд томонидан амалга оширилади.

Шахснинг ҳуқуқий мақомини ўзгартиради – шахс судланган деб топилса, у айрим ҳуқуқлардан маҳрум бўлиши, муайян лавозимларда ишлай олмаслиги ёки бошқа чекловларга дуч келиши мумкин.

Бу борада Сверчков жиноий жавобгарликнинг ижобий ва салбий каби иккита жиҳатлари мавжудлигини, уни ҳуқуққа мос

---

<sup>10</sup> Суденко В.Е. Уголовное право. Общая часть. Албом схем. Москва. 2016. 16 ст.

ёки ҳуқуққа хилоф ҳуқ-атвордаги субъектга нисбатан қаноатлантириш ёки айблалаш ҳамда жиноий-ҳуқуқий асослар мавжуд бўлганда уни қабул қилишда ифодаланадиган ижтимоий-психологик таъсир сифатида таърифлайди.

Шу билан биргаликда, у жиноий жавобгарликнинг юзага келиш вақтини қуйидагича таъкидлайди:

- а) муайян жиноий тажовузнинг содир этилиши;
- б) тегишли давлат органининг содир этилган жиноят ҳақида хабар топиши;
- в) шахсни айбланувчи сифатида жалб қилиш ва унга айблов эълон қилиш;
- г) айбланувчига процессуал мажбурлов чораларини ёки жазони қўллаш;
- д) суд томонидан айблов ҳукмининг чиқарилиши (қонуний кучга кириши);
- е) жиноий-ҳуқуқий норманинг ҳаракатга келиши.<sup>11</sup>

Жиноий жавобгарликнинг жиноят содир этилган вақтдан бошлаб вужудга келиши Я.Козаченко, А.Пионтовский каби олимлар томонидан илгари сурилади.<sup>12</sup> М.Брайнин эса жиноий жавобгарлик шахс жиноят ишига айбланувчи сифатида жалб қилинганда ёки суриштирув органлари томонидан жиноят содир этган шахс сифатида ушланган вақтдан бошлаб вужудга келишини таъкидлайди.<sup>13</sup>

Бу борада М.Усмоналиев жиноий жавобгарликнинг вужудга келиши ва тугагунча бўлган вақт жиноий жавобгарликни амалга ошириш вақти эканлигини, шахс жиноят содир қилиши биланок, у қўлга олинганидан ёки олинмаганлигидан қатъий назар, унда қилмиши учун давлат олдида жавобгар бўлиш, давлатда эса муайян давлат идоралари орқали Жиноят процессуал кодекси нормаларини қўллаш вазифаси пайдо бўлишини, демак жиноят-ҳуқуқий муносабатлар

<sup>11</sup> Сверчков В. Уголовное право общая и особенная части. Юрайт. Москва 2021. Ст 89.

<sup>12</sup> Козначенко И.Я. Санкции за преступления против жизни и здоровья. Томск. 1987. С-45.

Пионтовский А.А. Курс советского Уголовного права. Москва. 1970. Т 3. Ст 8,9.

<sup>13</sup> Брайнин Я.М. Уголовное ответственность и ее основание в советском уголовном праве. Москва. 1963. Т 3. Ст-12.

жиноят содир қилиш пайтидан бошланишини ва шунга мувофиқ жавобгар бўлиш мажбурияти ҳам шу пайтдан бошланиб, ҳукм қонуний кучга кириши билан тугашини, чунки жиноий жазони ўташ судланганлик оқибатлари ҳисобланишини таъкидлайди.<sup>14</sup>

Фикримизча, жиноий жавобгарлик жиноят кодексимизда белгиланганидек, жиноят содир этган шахсга нисбатан суднинг айблов ҳукми чиқиши ҳамда унга нисбатан жазо ёки бошқа ҳуқуқий таъсир чораси қўлланилганидан сўнг юзага келади.

Бунга қадар бўлган ҳолатлар, мисол учун жиноятнинг содир этилиш вақти уни содир этган шахсни жиноий жавобгарликка тортишнинг асоси пайдо бўлганлигини, яъни юридик фактнинг юз берганлигини англатади, лекин бу ҳали шахс жиноий жавобгарликка тортилганлигини ифодаламайди.

Бундан ташқари, жиноят юзасидан жиноят иши қўзғатилганлиги, бу борада шахс гумон қилинувчи, айбланувчи сифатида ишга жалб қилинганлиги, иш бўйича терговга қадар текширув, суриштирув, дастлабки тергов ҳам суд тергови ўтказилганлиги шахснинг жиноий жавобгарликка тортилганлигини англатмайди, балки, уни жиноий жавобгарликка тортиш учун амалга оширилган ҳаракатларни ёки жараёнларни англатади.

Бу борада, унутмаслик лозимки, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 28-моддаси, Жиноят-процессуал кодекси 23-моддасида келтирилганидек жиноят содир этганликда айбланаётган шахс унинг айби қонунда назарда тутилган тартибда ошқора суд муҳокамаси йўли билан исботланмагунча ва суднинг қонуний кучга кирган ҳукми билан аниқланмагунча айбсиз деб ҳисобланади. Айнан айбсизлик презумпцияси шахсни жиноий жавобгарликка тортиш фақатгина суднинг қонуний кучга кирган ҳукми орқалигина амалга оширилишининг, айнан ҳукм кучга киргандан сўнггина шахсга нисбатан муайян жазо ёки бошқа ҳуқуқий таъсир чорасининг қўлланилишининг кафолати бўлиб хизмат қилади.

---

<sup>14</sup> Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи Умумий қисм. Янги аср авлоди. Тошкент-2005. 119-бет.

**A.G'.Saidov,**  
*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tinglovchisi,  
Odil sudlov akademiyasi Kabinet mudiri*

## **AVTONOM TIZIMLAR TOMONIDAN YETKAZILGAN ZARAR UCHUN JAVOBGARLIK MASALASI**

**Annotatsiya.** *Ushbu ilmiy maqola avtonom tizimlar va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari keltiradigan zarar uchun huquqiy javobgarlik masalalarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada an'anaviy delikt huquqidagi "ayb" va "sababiy bog'lanish" tushunchalarining algoritmlar avtonomiyasi sharoitida yuzaga kelayotgan metodologik inqirozi hamda "javobgarlik bo'shlig'i" fenomeni tadqiq etiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2026-yildagi O'RQ-1115-sonli qonuni va xalqaro tajriba, xususan, Yevropa Ittifoqining SI to'g'risidagi akti (AI Act) doirasida javobgarlikni taqsimlashning zamonaviy modellari qiyosiy o'rganiladi. Muallif SI tizimlarini "yuqori xavf manbai" sifatida tasniflash, majburiy sug'urtalash mexanizmlarini joriy etish va "Digital Peculium" kontseptsiyasidan foydalanish orqali huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha ilmiy asoslantirilgan takliflarni ilgari suradi. Tadqiqot yakunida kiberhuquq sohasida inson ustuvorligini saqlab qolgan holda algoritmlar ustidan doimiy nazoratni o'rnatishning strategik ahamiyati asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *sun'iy intellekt, avtonom tizimlar, yuridik javobgarlik, kiberhuquq, javobgarlik bo'shlig'i, mutloq javobgarlik, algoritmik audit, raqamli subyektivlik, O'RQ-1115, AI Act.*

### **KIRISH**

Sun'iy intellekt tizimlarining avtonomlik darajasi oshib borishi bilan an'anaviy yuridik kategoriyalarning mazkur texnologik voqelikni qamrab olish imkoniyatlari jiddiy shubha ostiga olindi. Yurisprudensiya fanining markaziy tushunchasi bo'lgan "huquq subyekti" instituti tarixan antropotsentrik xususiyatga ega bo'lib, u faqat inson ongi va irodasiga tayanib kelgan. Biroq algoritmlarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati huquqshunoslarni javobgarlik zanjirini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Avtonom tizimlar o'z-o'zini o'rgatish (self-learning) jarayonida yaratuvchisi bashorat qila olmaydigan natijalarni

keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat an'anaviy delikt huquqidagi "ayb" va "sababiy bog'lanish" elementlarini aniqlashda metodologik inqirozni yuzaga keltirdi<sup>1</sup>. Binobarin, kiberhuquq doirasida har qanday algoritmik qarorning ortida insoniy javobgarlikning yo'qolishi "javobgarlik bo'shlig'i" fenomenini vujudga keltirmoqda<sup>2</sup>.

## **NORMATIV-HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO TAJRIBA**

O'zbekiston Respublikasining 2026-yildagi O'RQ-1115-sonli qonuniga ko'ra, SI inson bilimlariga taqlid qiluvchi "texnologik yechimlar majmui" sifatida tavsiflanadi<sup>3</sup>. Mazkur ta'rif tizimning texnik murakkabligini tan olgan bo'lsa-da, uning avtonom harakatlari natijasida yetkazilgan zarar uchun huquqiy kvalifikatsiyani murakkablashtiradi<sup>4</sup>. Avtonom tizimlar tomonidan sodir etilgan harakatlar ko'pincha insonning bevosita nazoratidan tashqarida amalga oshiriladi. Agar tizim mustaqil ravishda qaror qabul qilsa, an'anaviy "vakillik" yoki "topshiriq" modellari o'z kuchini yo'qotadi<sup>5</sup>. Bunday sharoitda zarar yetkazuvchi va zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish algoritmlarning "qora quti" (black box) ichida uzilib qoladi. Shu bois, texnik avtonomiya va yuridik javobgarlik o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish zamonaviy kiberhuquqning ustuvor vazifasidir.

---

<sup>1</sup> Бозаров С.С. Сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий жавобгарлик. Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДЮУ, 2023. – Б. 22.

<sup>2</sup> Asaro P. M. The liability problem for autonomous artificial agents // AAAI Spring Symposium: Ethical and Constructive Human-Robot Interaction. – 2016. – P. 192.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 21 январдаги "Сунъий интеллектни қўллаш орқали юзага келадиган муносабатлар тартибга солиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-1115-сон Қонуни. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.01.2026 й., 03/26/1115/0063-сон.

<sup>4</sup> Inoyatov N. Legal personality of artificial intelligence and autonomous systems in civil law // Elita (№ 1). – 2024. – P. 2.

<sup>5</sup> Sartor G. Cognitive automata and the law: electronic contracting and the intentionality of software agents // Artificial Intelligence and Law. – 2009. – Vol. 17, No. 4. – P. 253.

“Javobgarlik bo‘shlig‘i” tushunchasi avtonom tizimlar delikt sodir etganda aybdorni topish imkonsizligini ifodalaydi. Agar SI tizimi o‘z algoritmlari doirasida kutilmagan, ammo mustaqil qaror qabul qilsa, uni dasturlovchi shaxsni ehtiyotsizlikda ayblash qiyin bo‘ladi. Amaldagi qonunchilikda zarar uchun javobgarlik faqat “aybli” harakatlar uchun nazarda tutilgan. Biroq SI da “mens rea” (aybdor niyat) mavjud emasligi uni jazo subyekti bo‘lishidan mahrum qiladi<sup>6</sup>. Shuning uchun ham huquqiy dogma avtonom harakatlar uchun kimni javobgar qilish masalasida boshi berk ko‘chaga kirib qolgan<sup>7</sup>. Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish uchun olimlar tizimni subyektlashtirish yoki operator javobgarligini kuchaytirishni taklif etmoqdalar<sup>8</sup>.

Giovanni Sartor va Francesca Lagioia algoritmlarning qaror qabul qilish jarayonidagi shaffoflik muammosini “yuridik noaniqlik” asosi sifatida tahlil qiladilar<sup>9</sup>. Ularning fikricha, algoritmlar kamsituvchi yoki zararli natijalar berganda, bu dasturiy xato yoki tizimning o‘z rivojlanishi mahsuli ekanini ajratish mushkul<sup>10</sup>. Ushbu sharoitda an’anaviy “Product Liability” (Mahsulot sifati uchun javobgarlik) rejimi o‘z samarasini bermaydi, chunki SI mahsulot emas, balki jarayondir. Agar mahsulot o‘z xususiyatlarini foydalanish davomida o‘zgartirsa, ishlab chiqaruvchi o‘zini javobgarlikdan ozod qilishga intiladi<sup>11</sup>.

Yevropa Ittifoqining 2024-yilda qabul qilingan SI to‘g‘risidagi akti (AI Act) tizimlarni xavf darajasiga ko‘ra tasniflash orqali javobgarlik masalasiga yondashadi<sup>12</sup>. Mazkur hujjat yuqori xavfli

---

<sup>6</sup> Вохидов Ф.М. Sun’iy intellekt va huquqiy javobgarlik // Международный журнал научных исследователей. – 2025. – Том 11, № 1. – Б. 562.

<sup>7</sup> Asaro P. M. Ўша манба. – P. 194.

<sup>8</sup> Pagallo U. The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts. – Dordrecht: Springer, 2013 (Reprinted 2018). – P. 45-48.

<sup>9</sup> Lagioia F., Sartor G. AI Systems Under Criminal Law: a Legal Analysis and a Regulatory Perspective // Philosophy & Technology. – 2020. – Vol. 33. – P. 433-465.

<sup>10</sup> Sartor G. Ўша манба. – P. 450.

<sup>11</sup> Borghetti J. Civil Liability for Artificial Intelligence // European Review of Private Law. – 2016. – Vol. 24. – P. 120.

<sup>12</sup> European Parliament. Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2024. – L 1689/1.

tizimlar (High-risk AI) uchun qat'iy talablar va majburiyatlarni belgilab bergan<sup>13</sup>. Aktda asosiy e'tibor ishlab chiqaruvchi va operatorning hisobdorligini ta'minlashga qaratilgan<sup>14</sup>. Shu bilan birga, zarar yetkazilganda isbotlash majburiyatini yengillashtiruvchi normalar (AI Liability Directive) ishlab chiqildi<sup>15</sup>. YEI modeli sun'iy intellektni subyekt deb tan olmaydi, balki uning foydalanish xavfsizligini nazorat qiladi<sup>16</sup>. Ushbu yondashuv boshqa yurisdiksiyalar uchun namunaviy baza bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda<sup>6</sup>.

Lawrence Solum sun'iy intellektning kognitiv qobiliyatlari unga cheklangan huquqiy shaxslik berish uchun yetarli deb hisoblaydi<sup>17</sup>. Agar tizim huquqiy muloqotda mustaqil ishtirok etsa, uning o'zi javobgar bo'lishi mantiqan to'g'ri bo'ladi<sup>18</sup>. Biroq ko'plab olimlar bu g'oyani "mas'uliyatdan qochish qalqoni" sifatida keskin tanqid qiladilar<sup>19</sup>. Agar mashinaga shaxs maqomi berilsa, ixtirochilar o'z xatolari uchun mashinani javobgar qilib ko'rsatishi mumkin<sup>20</sup>. Shu bois, 285 nafar ekspert Yevropa komissiyasiga robotlarga shaxslik berishga qarshi maktub yo'llagan edilar<sup>21</sup>. Binobarin, huquq

---

<sup>13</sup> European Commission. The Act: Full text of the AI Act 2024. URL: <https://artificialintelligenceact.eu/the-act/>

<sup>14</sup> Montagnani M.L., Najjar M.C., Davola A. The EU Regulatory approach(es) to AI liability, and its Application to the financial services market // *Computer Law & Security Review*. – 2024. – Vol. 53. – P. 105984.

<sup>15</sup> European Commission. Proposal for a Directive of the European Parliament and of the Council on adapting non contractual civil liability rules to artificial intelligence (AI Liability Directive) COM(2022) 496 final. – Brussels, 2022.

<sup>16</sup> European Parliament. Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2024. – L 1689/1.

<sup>17</sup> Inoyatov N. Legal personality of artificial intelligence and autonomous systems in civil law // *Elita*. – 2024. – № 1(2). – P. 2.

<sup>18</sup> Solum L.B. *Yapay zekâların hukuki kişiliği* (M. Fincan, Tarj.). – Seçkin Yayıncılık, 2021.

<sup>19</sup> Bryson J.J. Robots should be slaves // *Close engagements with artificial companions*. – Amsterdam: John Benjamins, 2018. – P. 63-74.

<sup>20</sup> Open Letter to the European Commission Artificial Intelligence and Robotics. – Brussels, 2018. URL: <http://www.robotics-openletter.eu/>

<sup>21</sup> Бозаров С.С. Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari // *Общество и инновации*. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 48-56.

subyektligi faqat ongli irodaga ega mavjudotlar uchun saqlanib qolishi inson huquqlari tizimi uchun zarurdir<sup>22</sup>.

### **AVTONOM TIZIMLARDA JAVOBGARLIK MODELLARI**

Ryan Calo avtonom tizimlarni “avtonom ashyo” sifatida tartibga solishni va ularga nisbatu “Strict Liability” (Mutloq javobgarlik) modelini qo‘llashni yoqlaydi<sup>23</sup>. Uning argumentiga ko‘ra, tizim egasi uning keltirishi mumkin bo‘lgan barcha xavflarni o‘z zimmasiga olishi kerak<sup>24</sup>. Mutloq javobgarlik modelida zarar yetkazgan shaxsning aybi bor-yo‘qligi ahamiyatga ega bo‘lmaydi<sup>25</sup>. O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining 999-moddasi aynan shunday yuqori xavf manbalari uchun aybsiz javobgarlikni nazarda tutadi<sup>26</sup>. SI tizimlarini ushbu modda doirasiga kiritish jabrlanuvchi uchun zararni qoplash kafolatini oshiradi<sup>27</sup>. Biroq tizimning avtonomligi oshgani sayin inson nazorati nazariyasi (Control Theory) bilan ziddiyatlar yuzaga keladi.

Ugo Pagallo SI tizimlarini “ratsional agent” sifatida tan olish mas’uliyat zanjiridagi bo‘shliqlarni to‘ldirishini ta’kidlaydi<sup>28</sup>. Uning fikricha, SI shunchaki obyekt emas, balki muayyan iqtisodiy va huquqiy oqibatlar manbaidir. Pagallo modelida tizimning o‘ziga birlashtirilgan “raqamli hamyon” (peculium) orqali zararlarni qoplash mexanizmi taklif etiladi. Ushbu yondashuv Roman huquqidagi qulga

---

<sup>22</sup> Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiya, 25/11/2021. – YUNESKO. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373434>

<sup>23</sup> Calo R. Open Robotics // Maryland Law Review. – 2011. – Vol. 70. – P. 101.

<sup>24</sup> Calo R. Robots in American Law // University of Washington School of Law Research Paper. – 2016.

<sup>25</sup> Бозаров С.С. Сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий жавобгарлик. Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДЮУ, 2023. – Б. 22.

<sup>26</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси (иккинчи қисм). 1996 йил 29 август (999-модда). // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>27</sup> Бозаров С.С. Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 48-56.

<sup>28</sup> Pagallo U. The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts. – Dordrecht: Springer, 2013 (Reprinted 2018). – P. 45-48.

berilgan mustaqil mulk instituti bilan analogiya hisoblanadi<sup>29</sup>. Bu tizimni shaxslashtirmasdan, uning muloqotdagi ishtirokini va moliyaviy mas’uliyatini rasmiylashtiradi. Natijada, jabrlanuvchi uzoq sudlashuvlarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri fondan tovon olishi mumkin bo‘ladi.

IEEE (Elektr va elektronika muhandislari instituti) axloqiy standartlari SI tizimlarini loyihalashda “Hisobdorlik” (Accountability) tamoyilini markazga qo‘yadi<sup>30</sup>. Loyihachi tizimning kutilmagan harakatlari uchun axloqiy va texnik jihatdan javobgar bo‘lishi shartligi uqtiriladi<sup>31</sup>. Biroq axloqiy normalarning huquqiy kuchga ega emasligi ularning amaliyotdagi samaradorligini cheklaydi<sup>32</sup>. Shuning uchun xalqaro darajada ushbu etika qoidalarini majburiy huquqiy normalarga aylantirish jarayoni kechmoqda<sup>33</sup>. O‘zbekiston ham o‘zining 2026-yildagi SI etika qoidalarini aynan shu tamoyillar asosida ishlab chiqdi<sup>34</sup>. Axloqiy hisobdorlik huquqiy javobgarlikning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

## **SOHAGA OID MISOLLAR TAHLILI**

Avtonom transport vositalari sohasidagi deliktlar javobgarlik inqirozining eng yorqin misolidir. Tesla va Uber ishtirokidagi baxtsiz hodisalar ko‘rsatadiki, aybni haydovchi va dasturchi o‘rtasida taqsimlash huquqiy muammodir. Agar haydovchi tizimga to‘liq

---

<sup>29</sup> Вазаров С.С. Sun’iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – № 3. – С. 48-56.

<sup>30</sup> Ethically Aligned Design: A Vision for Prioritizing Human Well-being with Autonomous and Intelligent Systems. – New York: IEEE, 2019. – P. 45.

<sup>31</sup> Dignum V. Responsible Artificial Intelligence: How to Develop and Use AI in a Responsible Way. – Cham: Springer, 2019. – P. 67.

<sup>32</sup> Бозаров С.С. Вопросы ответственности искусственного интеллекта по аналогии с ответственностью корпораций (зарубежная практика) // Журнал правовых исследований. – 2021. – № 3. – С. 48.

<sup>33</sup> Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiya, 25/11/2021. – YUNESKO. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373434>

<sup>34</sup> Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирининг 2026 йил 24 февралдаги 284-мх-сон «Сунъий интеллектга асосланган счимларни яратиш, жорий қилиш ва улардан фойдаланиш бўйича этика қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида»ги буйруғи. // Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирилиги реестри, №3787, 14.03.2026 й.

tayangan bo'lsa, u kutilmagan vaziyatda javobgar bo'ladimi?. Ko'plab yurisdiksiyalar bunday hollarda ishlab chiqaruvchining javobgarligini (strict liability) birinchi o'ringa qo'ymoqdalar<sup>35</sup>. Germaniya va AQSH kabi davlatlar algoritmlarning tanlash mezonlarini (trolley problem) huquqiy nazoratga olishni talab qiladi. Binobarin, avtonom transportda javobgarlik subyekti shaxs emas, balki texnologik operator bo'lib qolmoqda.

Tibbiy sun'iy intellekt (sohasida tashxis qo'yishdagi xatolar uchun javobgarlik masalasi yanada nozikdir<sup>36</sup>. Agar shifokor SI tavsiyasiga ko'ra xato qilsa, javobgarlik kimning zimmasiga yuklanadi?. Ba'zi olimlar buni "Vicarious Liability" (Boshqa shaxs harakati uchun javobgarlik) doirasida ko'rishni taklif etadilar<sup>37</sup>. Bunda shifokor va SI tizimi o'rtasidagi munosabat iyerarxik tarzda baholanadi. Biroq SI mustaqil bilimlar bazasiga tayanganligi sababli, shifokorning tizimni to'liq tekshirishi imkonsizdir. Shu bois, tibbiy SI da "algoritmik xato" uchun maxsus sug'urta jamg'armalari yaratilishi lozim<sup>38</sup>.

Harbiy robotlar va avtonom qurol tizimlari xalqaro gumanitar huquq doirasida javobgarlik bo'shlig'ini keltirib chiqardi. Kim "qotil robot" sodir etgan harbiy jinoyat uchun xalqaro tribunalda javob beradi?. Robot jinoiy niyatga (dolus malus) ega bo'la olmagan sababli, u ayblanuvchi bo'la olmaydi. Komandir yoki dasturchi esa robotning o'z-o'zini o'rgatishi natijasidagi harakatlarini nazorat qila olmaganini ro'kach qilishi mumkin<sup>39</sup>. Bu esa xalqaro huquqiy javobgarlik tizimini butunlay falaj qilib qo'yishi xavfini tug'diradi.

---

<sup>35</sup> Hodula M. *Strict Liability in the Age of Autonomous Vehicles*. – Oxford: OUP, 2023. – P. 112.

<sup>36</sup> Wei L. et al. *Artificial Intelligence in Medical Diagnosis: Legal and Ethical Issues // Journal of Medical Ethics*. – 2025. – Vol. 51. – P. 102.

<sup>37</sup> Бозаров С.С. Вопросы ответственности искусственного интеллекта по аналогии с ответственностью корпораций (зарубежная практика) // *Журнал правовых исследований*. – 2021. – № 3. – С. 50.

<sup>38</sup> Бозаров С.С. *Сун'ий интеллект доирасида хуқуқий жавобгарлик*. Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДЮУ, 2023. – Б. 22.

<sup>39</sup> Baker M., Robinson T. *Accountability and Autonomous Weapons // Journal of Conflict and Security Law*. – 2020. – Vol. 25. – P. 134.

Shu sababli, inson nazorati harbiy robototexnikada majburiy shart bo'lishi kerak<sup>40</sup>.

OECDning sun'iy intellekt bo'yicha tamoyillari (2019) tizimlarni “mas'uliyatli boshqarish” (Responsible stewardship) g'oyasini ilgari suradi<sup>41</sup>. Davlatlar SI tizimlari keltiradigan xavflar uchun milliy darajada aniq javobgarlik mexanizmlarini yaratishi tavsiya etiladi<sup>42</sup>. Ushbu tamoyillar algoritmlarning shaffofligi va qarorlarning tushuntirilishi majburiyatini o'rnatdi. Agar tizim o'z qarorini tushuntira olmasa, u huquqiy muomalada ishonchsiz deb topilishi mumkin<sup>43</sup>. O'zbekiston ushbu xalqaro tamoyillarni o'zining milliy strategiyasiga faol integratsiya qilmoqda. Shunday qilib, global standartlar javobgarlikning huquqiy poydevorini mustahkamlamoqda.

Algoritmik hisobdorlik konsepsiyasi loyihalashning ilk bosqichidanoq mas'uliyatni belgilashni ko'zda tutadi. Ishlab chiquvchilar tizimning axloqiy va huquqiy muvofiqligini ta'minlashi shart<sup>44</sup>. Agar dasturiy kodda xatolik yoki kamsituvchi algoritim mavjud bo'lsa, bu “qasddan yetkazilgan zarar” sifatida baholanishi mumkin. Algoritmlarning auditdan o'tkazilishi (Algorithmic Audit) javobgarlikni aniqlashning texnik vositasi hisoblanadi. O'RQ-1115 qonunida aynan shunday audit mexanizmlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Bu ishlab chiqaruvchini o'z mahsuloti uchun doimiy hisobdor qilib qo'yadi.

Isbotlash majburiyati avtonom tizimlar keltirgan zararni qoplashda eng katta to'siqdir. Jabrlanuvchi murakkab algoritimning qayerida xato bo'lganini isbotlab berishi deyarli imkonsiz. Shu sababli Yevropa Komissiyasi “ayb pretsumpsiyasi” (Presumption of fault) modelini taklif etdi. Agar tizim yuqori xavfli deb topilsa,

---

<sup>40</sup> Osmani A. Meaningful Human Control over Autonomous Weapon Systems. – The Hague: Springer, 2021. – P. 89.

<sup>41</sup> Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. OECD/LEGAL/0449. – Paris: OECD, 2019.

<sup>42</sup> Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. OECD/LEGAL/0449. – Paris: OECD, 2019.

<sup>43</sup> OECD. Artificial Intelligence and Responsible Stewardship. – Paris: OECD, 2025.

<sup>44</sup> Artificial Intelligence and Legal Profession // Francis Academic Press. – 2023.

operator o'zining aybsizligini isbotlab berishi lozim bo'ladi<sup>45</sup>. O'zbekiston kiberhuquqida ham isbotlash yukini operatorga yuklash bo'yicha normativ takliflar ishlab chiqilmoqda. Bu jabrlanuvchining huquqiy himoyasini ta'minlashning eng adolatli yo'lidir.

Strict Liability modeli innovatsiyalarni sekinlashtirishi mumkinligi haqidagi argumentlar ham mavjud<sup>46</sup>. Agar har bir xato uchun ishlab chiqaruvchi javob bersa, startaplar SI sohasiga sarmoya kiritishdan cho'chiydilar<sup>47</sup>. Biroq ijtimoiy xavfsizlik innovatsiyalardan ustun turishi shartligi UNESCO va IEEE standartlarida qayd etilgan. Sardor Bozarov ta'kidlaganidek, qat'iy javobgarlik va innovatsiyalar o'rtasida muvozanat topish uchun majburiy sug'urta tizimi zarur. Sug'urta xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritilishi orqali risklar ijtimoiy taqsimlanadi. Natijada, ham texnologik taraqqiyot, ham huquqiy himoya saqlab qolinadi.

SI tizimlarining "yuridik shaxslik" maqomi fiksiyasi bo'yicha bahslar hanuz davom etmoqda<sup>48</sup>. Ba'zi olimlar SIn korporatsiyalar kabi mustaqil balansga ega bo'lgan subyektga aylantirishni taklif qilmoqdalar<sup>49</sup>. Nazorat nazariyasi javobgarlikni "tizimni boshqarayotgan va undan foyda ko'rayotgan" shaxsga yuklaydi. Kimda tizimni to'xtatish yoki o'zgartirish imkoniyati bo'lsa, o'sha shaxs mas'uldir. Avtonom tizimlarda nazorat masofaviy yoki algoritmik xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Agar operator tizimni noto'g'ri sozlagan bo'lsa, u delikt subyektiga aylanadi. O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 989-moddasi xodim tomonidan yetkazilgan zarar uchun ish beruvchi javobgarligini belgilaydi. Mazkur normani "SI – foydalanuvchi" munosabatlariga analogiya qilish imkoniyatlari o'rganilmoqda.

---

45

46 Smith J. *Strict Liability and Innovation in AI*. – London: TechLaw, 2022.

47 European Parliament. Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2024. – L 1689/1.

48 Doomen J. *The Artificial Intelligence Entity as a Legal Person // Information & Communications Technology Law*. – 2023. – Vol. 32, No. 3. – P. 277-287.

49 Fransisco W. *Artificial Intelligence and Corporate Legal Personhood*. – Jakarta, 2025.

Gibrid javobgarlik modellari ishlab chiqaruvchi, operator va foydalanuvchi o'rtasida mas'uliyatni ulushli taqsimlashni nazarda tutadi. Har bir ishtirokchi o'zining "nazorat zonasi"dagi xatolar uchun javob beradi<sup>50</sup>. Masalan, ishlab chiqaruvchi dizayn xatosi uchun, foydalanuvchi esa noto'g'ri ekspluatatsiya uchun javobgar bo'ladi<sup>51</sup>. Bunday taqsimot "javobgarlik zanjiri"ning uzilmasligini ta'minlaydi<sup>52</sup>. O'zbekistonda SI loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha PQ-320 qarorida ham ishtirokchilarning mas'uliyat chegaralari belgilangan<sup>53</sup>. Bu model huquqiy munosabatlarda adolatli muvozanatni shakllantiradi.

Smart-kontraktlar va avtonom savdo agentlari shartnomaviy javobgarlik masalasini kun tartibiga qo'ydi. Agar SI agenti xato qilib noto'g'ri bitim tuzsa, uning oqibati uchun kim javobgar?. Ko'plab olimlar buni "iroda nuqsoni" sifatida baholab, bitimni bekor qilish imkoniyatini ko'rib chiqmoqdalar<sup>54</sup>. Biroq raqamli iqtisodiyot bitimlarning barqarorligini talab qiladi. Shu bois, avtonom agentlar tomonidan tuzilgan bitimlar uchun tizim egasining javobgarligi presumpsiyasi o'rnatilishi lozim<sup>55</sup>. O'zbekiston milliy strategiyasida (PF-6079) elektron tijoratda SI rolini tartibga solish vazifasi belgilangan<sup>56</sup>.

---

<sup>50</sup> Custers B. Hybrid liability models for artificial intelligence // *Computer Law & Security Review*. – 2025. – Vol. 56. – P. 106000.

<sup>51</sup> Kingston J. K. C. Artificial Intelligence and Legal Liability // *Research and Development in Intelligent Systems XXXIII*. – Cham: Springer, 2018. – P. 269-279.

<sup>52</sup> DiMatteo L.A. et al. Artificial Intelligence: Global Perspectives on Law and Ethics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.

<sup>53</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 октябрдаги "Сунъий интеллект технологияларига асосланган лойиҳаларни қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-320-сон қарори. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 31.10.2025 й., 07/25/320/0748-сон.

<sup>54</sup> Бозаров С.С. Вопросы ответственности искусственного интеллекта по аналогии с ответственностью корпораций (зарубежная практика) // *Журнал правовых исследований*. – 2021. – № 3. – С. 48.

<sup>55</sup> Sartor G. Cognitive automata and the law: electronic contracting and the intentionality of software agents // *Artificial Intelligence and Law*. – 2009. – Vol. 17, No. 4. – P. 253.

<sup>56</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги "«Рақамли Ўзбекистон-2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга

Kiberxavfsizlik sohasidagi avtonom tizimlar zararli dasturlarni aniqlashda xatoga yo‘l qo‘ysa, bu tizimli inqirozga olib kelishi mumkin. Masalan, SI xatoligi sababli muhim infratuzilmaning bloklanishi ulkan zarar yetkazadi. Bunday hollarda “xizmat ko‘rsatish sifati” (SLA) bo‘yicha shartnomaviy javobgarlik birinchi o‘ringa chiqadi<sup>57</sup>. Proвайдер o‘z tizimining aniqlik darajasi uchun yuridik kafolat berishi shart. Agar xatolik algoritmdagi fundamental kamchilik bo‘lsa, delikt layoqati yuzaga keladi. O‘zbekiston kiberxavfsizlik markazi SI tizimlarini sertifikatlash tartibini joriy etishni rejalashtirmoqda.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi qarorlari kamsituvchi algoritmlar uchun davlat organlarining javobgarligini tasdiqlagan. Agar davlat SI tizimidan foydalansa, u tizimning har qanday xatosi uchun to‘liq javobgardir. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 15-moddasi inson huquqlari ustuvorligini kafolatlaydi<sup>58</sup>. Binobarin, davlat boshqaruvida qo‘llaniladigan SI tizimlari inson qadr-qimmatiga putur yetkazmasligi shart<sup>59</sup>. Har qanday zarar davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilangan<sup>60</sup>. Bu davlatning texnologik xavflar oldidagi mas‘uliyatini tasdiqlaydi<sup>61</sup>.

UNESCOning 2021-yilgi tavsiyanomasi sun‘iy intellektni inson huquqlari va adolat tamoyillari bilan bog‘laydi<sup>62</sup>. Global xavfsizlikni ta‘minlash uchun tizimlarning kamsitishga yo‘l

---

ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сон Фармони. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>57</sup> Мирзакаримова М. Кибәрхавфсизлик соҳасида сунъий интеллектдан фойдаланишнинг ҳуқуқий масалалари // Рақамли ҳуқуқ. – 2025. – № 1. – Б. 34.

<sup>58</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 2023 йил 30 апрель. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

<sup>59</sup> Ikromov D.A. AI Governance in Uzbekistan: Legal Frameworks and Ethical Considerations // World Bulletin of Management and Law. – 2025. – Vol. 53. – P. 12.

<sup>60</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси (иккинчи қисм). 1996 йил 29 август (990-модда). // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>61</sup> Бозаров С.С. Sun‘iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 48-56.

<sup>62</sup> Sun‘iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiya, 25/11/2021. – YUNESKO. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373434>

qo‘ymasligi shart qilib qo‘yildi<sup>63</sup>. O‘zbekiston Raqamli texnologiyalar vaziri tomonidan tasdiqlangan etika qoidalari ham ushbu tamoyillarni qo‘llab-quvvatlaydi<sup>64</sup>. Axloqiy normalar huquqiy sub’ektlarning texnologiyadan foydalanish chegaralarini belgilab berdi. Texnologiya har doim insonga, uning sha’ni va qadr-qimmatiga xizmat qilishi shart. Bu esa avtonom tizimlar ustidan doimiy insoniy nazoratni taqozo etadi<sup>65</sup>.

Majburiy sug‘urtalash modellari avtonom tizimlar keltirgan zararni qoplashning eng samarali iqtisodiy yechimidir<sup>66</sup>. Yevropa Parlamenti 2017-yildagi rezolyutsiyasida robotlar uchun majburiy sug‘urta fondlarini yaratishni taklif etgan edi<sup>67</sup>. O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining sug‘urta bobida ham shunga o‘xshash mexanizmlar mavjud<sup>68</sup>. Yuqori xavfli SI operatorlari uchun javobgarlikni majburiy sug‘urtalash zarur. Bu zarar ko‘rgan shaxsning tezkor kompensatsiya olishini ta’minlaydi. Sug‘urta tizimi javobgarlik bo‘shlig‘ini iqtisodiy yo‘l bilan bartaraf etadi.

Algoritmning “o‘z-o‘zini o‘rganish” xususiyati aybsiz javobgarlik kontseptsiyasini yanada kuchaytiradi. Agar tizim o‘zgaruvchan sharoitda yangi qoidalar ishlab chiqsa, bu “texnologik fors-major” emas, balki boshqariladigan riskdir<sup>69</sup>. Ishlab chiqaruvchi tizimning kelajakdagi o‘zgarishlarini modellashtirishi shartligi

---

<sup>63</sup> Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. OECD/LEGAL/0449. – Paris: OECD, 2019.

<sup>64</sup> Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирининг 2026 йил 24 февралдаги 284-мх-сон «Сунъий интеллектга асосланган ечимларни яратиш, жорий қилиш ва улардан фойдаланиш бўйича этика қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида»ги буйруғи. // Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги реестри, №3787, 14.03.2026 й.

<sup>65</sup> Ho C., Caals K. Human-In-The-Loop In AI Validation And Control From Principle To Practice // AI Ethics. – 2024.

<sup>66</sup> Bertolini A. Insurance and Risk Management for Robotic Devices. – Brussels: European Parliament, 2016. – P. 14.

<sup>67</sup> European Parliament. Resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics (2015/2103(INL)). – Strasbourg, 2017.

<sup>68</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси (иккинчи қисм). 1996 йил 29 август. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>69</sup> Abbott R. The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – P. 22.

ta'kidlanmoqda<sup>70</sup>. Agar model kutilmagan, ammo zararli natija bersa, bu ishlab chiqaruvchining nazorat majburiyatini buzishi deb baholanadi. Shu sababli, SI javobgarligi tizimning murakkabligiga mutanosib ravishda o'sib boradi. Bu esa huquq tizimini o'ta dinamik voqelikka moslashishga majbur qiladi.

Sardor Bozarov taklif qilgan "uchta model" javobgarlikni taqsimlashda metodik poydevor hisoblanadi. Birinchi modelda SI aybsiz vositachidir. Ikkinchi modelda esa tizimning kutilmagan harakatlari uchun iqtisodiy mas'uliyat ko'zda tutiladi. Uchinchi model kelajakda SIning to'g'ridan-to'g'ri javobgarligini (direct liability) faraz qiladi<sup>71</sup>. Mazkur modellar SI avtonomiyasining turli darajalariga mos keladi. Hozirgi bosqichda asosan ikkinchi model, ya'ni operator mas'uliyati amaliy ahamiyatga egadir. Bu model huquqiy aniqlikni ta'minlaydi.

Xavfga asoslangan yondashuv (Risk-based approach) SI tizimlarini tartibga solishda asosiy filtrdir<sup>72</sup>. Agar tizim inson hayoti uchun kritik sohalarda ishlasa, unga qo'yiladigan talablar maksimal darajada bo'ladi. Kam xavfli tizimlar uchun esa soddalashtirilgan javobgarlik rejimi qo'llaniladi<sup>73</sup>. Ushbu tabaqalanish innovatsiyalarni bo'g'ib qo'ymaslikka xizmat qiladi<sup>22</sup>. O'zbekiston ham o'zining SI strategiyasida aynan shunday xavf darajalarini belgilamoqda. Bu raqamli iqtisodiyot uchun moslashuvchan muhit yaratadi. Xavfsizlik va taraqqiyot muvozanati shu tamoyilga tayanadi.

---

<sup>70</sup> Ethically Aligned Design: A Vision for Prioritizing Human Well-being with Autonomous and Intelligent Systems. – New York: IEEE, 2019. – P. 45.

<sup>71</sup> Бозаров С.С. Сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий жавобгарлик. Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДЮУ, 2023. – Б. 23.

<sup>72</sup> European Parliament. Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2024. – L 1689/1.

<sup>73</sup> European Parliament. Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2024. – L 1689/1.

Roman huquqidagi “instrumentum vocale” (sözlövchi qurol) tushunchasi kiberfazoda o‘zining zamonaviy ko‘rinishini topdi<sup>74</sup>. Agar antik davrda qul subyekt deb tan olinmagan bo‘lsa, bugun sun‘iy intellekt xuddi shunday maqomdadir. Biroq, iqtisodiy zaruriyat tizimlarning ijtimoiy faolligini tan olishni taqozo etmoqda. Subyektlik faqat huquqiy tan olish orqali vujudga keladigan fiksiyadir<sup>75</sup>. Shuning uchun kiber-subyektlik masalasi har doim qonun chiqaruvchining ixtiyoriga bog‘liq bo‘lib qoladi. Amaliyotda esa SI ni obyekt maqomida saqlab qolish xavfsizlik kafolatidir. Bu huquqning barqarorligini ta‘minlaydi.

Kiberxavfsizlik sohasida SI orqali amalga oshirilgan hujumlar uchun javobgarlik milliy xavfsizlik darajasida ko‘rib chiqiladi<sup>76</sup>. Kim zararli SI-botlar harakati uchun javob beradi? Ko‘pincha bu botlar uzoq yurisdiksiyalardan boshqariladi, bu esa "masofaviy delikt" muammosini tug‘dirad. Bunday hollarda davlatlararo hamkorlik va kiber-diplomatiya muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston kiberxavfsizlikni ta‘minlashda xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilmoqda<sup>77</sup>. Noqonuniy algoritmlarni yaratish Jinoyat kodeksi bo‘yicha javobgarlikka sabab bo‘ladi. Bu raqamli tartibni saqlashga xizmat qiladi.

Smart-shartnomalarda SI tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar shartnomaviy nizolarni keltirib chiqaradi. Agar algoritm kutilmagan sharoitda bitimni noto‘g‘ri ijro etsa, zararni kim qoplaydi? O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining majburiyatlar bo‘limida shartnomani lozim darajada bajarmaslik oqibatlarini belgilangan. Avtonom agentlar bitim ishtirokchisi bo‘lsa-da, ularning harakati egasining nomidan amalga oshiriladi. Shuning uchun egasining javobgarligi presumpsiyasi ushbu sohada ham amal qilishi kerak.

---

<sup>74</sup> Атабеков А., Ястребов О. Правовой статус искусственного интеллекта: перспективные направления // Журнал российского права. – 2018. – № 12. – С. 13-22.

<sup>75</sup> Kelsen H. Reine Rechtslehre. – Wien: Österreichische Staatsdruckerei, 1992. – S. 176.

<sup>76</sup> Иноятов Н. Автоном агентлар ва ҳуқуқий жавобгарлик масалалари // Юридик фанлар ахборотномаси. – 2025. – № 2. – Б. 56.

<sup>77</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 2023 йил 30 апрель. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

Raqamli bitimlarning barqarorligi shu tamoyilga bog'liqdir. Bu iqtisodiy xavfsizlik asosi.

Javobgarlikni sug'urtalash jamg'armalari avtonom tizimlar keltirgan zararni qoplashda eng adolatli yechimdir. Bunday fondlar nafaqat zararni qoplaydi, balki innovatsiyalarni ham qo'llab-quvvatlaydi. Yevropa Ittifoqi robotlar uchun maxsus sug'urta fondlarini yaratish g'oyasini ilgari surgan edi<sup>78</sup>. O'zbekistonning 2030-yilgi SI strategiyasi doirasida ham shunday mexanizmlarni yaratish ko'zda tutilgan. Sug'urta xarajatlari ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchi o'rtasida risk darajasiga ko'ra bo'linishi lozim<sup>79</sup>. Bu zarar ko'rgan shaxsga kafolatlangan tovon olish imkonini beradi. Iqtisodiy samaradorlik va adolat shu modelda birlashadi.

Mutloq javobgarlik modelining SIDagi o'ziga xosligi shundaki, u tizimning "o'z-o'zini o'rganishi" bilan bog'liq<sup>80</sup>. Agar tizim o'zgarsa, u endi ishlab chiqaruvchi chiqargan ashyo emasdir. Bunday sharoitda javobgarlikni tizimdan oxirgi marta foyda ko'rayotgan subyektga yuklash mantiqiydir. O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 999-moddasi aynan shunday yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi<sup>81</sup>. Faoliyat egalari har doim risk uchun javobgardirlar. Bu tamoyil kiberfazoda ham o'z kuchini saqlab qolishi shart. Shunday qilib, obyekt qanchalik aqlli bo'lmasin, insoniy mas'uliyat saqlanib qoladi.

Inson huquqlari devalvatsiyasining oldini olish uchun SI subyektligini rad etish zarur. Agar mashina shaxs bo'lsa, u inson bilan resurslar uchun raqobatlashadi. UNESCO tavsiyanomasi aynan shu xavfdan ogohlantiradi<sup>82</sup>. Huquq tizimi antropotsentrik paradigma doirasida qolishi inson qadr-qimmatini uchun kafolatdir. SI faqat

---

<sup>78</sup> European Parliament. Resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics (2015/2103(INL)). – Strasbourg, 2017.

<sup>79</sup> Бозаров С.С. Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 48-56.

<sup>80</sup> Calo R. Robots in American Law // University of Washington School of Law Research Paper. – 2016.

<sup>81</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси (иккинчи қисм). 1996 йил 29 август (999-модда). // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>82</sup> Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiya, 25/11/2021. – YUNESKO. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373434>

insonga xizmat qiluvchi "aqli vosita" sifatida obyektlik maqomida barqarorlashishi lozim. Bu raqamli jamiyatda adolatni ta'minlashning yagona yo'lidir. Har qanday huquqiy transformatsiya inson manfaatlariga bo'ysundirilishi shart. Bu kiberhuquqning etik asosi.

### **JAVOBGARLIK BO'SHLIG'INI TO'LDIRISH MEXANIZMLARI**

Javobgarlik bo'shlig'ini to'ldirishda "algoritmik audit" majburiyati markaziy rol o'ynaydi<sup>83</sup>. Ishlab chiquvchilar tizim xatti-harakatlari uchun texnik hisobot berishlari shart. Agar xatolik algoritmdagi fundamental kamchilik bo'lsa, delikt layoqati so'zsizdir<sup>84</sup>. O'RQ-1115 qonunida aynan shunday audit mexanizmlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Bu ishlab chiqaruvchini o'z mahsuloti uchun doimiy hisobdor qilib qo'yadi. Audit tizimi huquqiy xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositadir. Shunday qilib, texnologiya va huquq bir nuqtada kesishadi.

O'zbekiston kiberhuquq tizimida avtonom tizimlar uchun javobgarlik modellari bosqichma-bosqich shakllanmoqda. 2026-yilgi qonun sun'iy intellekt tushunchasini muomalaga kiritdi<sup>85</sup>. Ma'muriy javobgarlik kodeksiga kiritilgan yangi normalar orqali kamsituvchi harakatlar uchun choralar belgilandi<sup>86</sup>. Kelajakda Fuqarolik kodeksiga "elektron agent" maqomini aniqlovchi qoidalar kiritilishi

---

<sup>83</sup> Бозаров С.С. Вопросы ответственности искусственного интеллекта по аналогии с ответственностью корпораций (зарубежная практика) // Журнал правовых исследований. – 2021. – № 3. – С. 48.

<sup>84</sup> Lagioia F., Sartor G. AI Systems Under Criminal Law: a Legal Analysis and a Regulatory Perspective // Philosophy & Technology. – 2020. – Vol. 33. – P. 433-465.

<sup>85</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 21 январдаги "Сунъий интеллектни қўллаш орқали юзага келадиган муносабатлар тартибга солиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-1115-сон Қонуни. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.01.2026 й., 03/26/1115/0063-сон.

<sup>86</sup> Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. 1994 йил 22 сентябрь. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

zarur<sup>87</sup>. Milliy strategiya (PF-189) doirasida ushbu sohadagi normativ bazani xalqaro standartlarga moslashtirish vazifasi qo'yilgan. Bu O'zbekistonning global texnologik reytinglardagi o'rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

Huquqiy inqirozni bartaraf etish uchun SI tizimlarini "yuqori xavfli obyektlar" deb tasniflash eng to'g'ri yo'ldir<sup>88</sup>. Bu tasnif orqali har bir tizim uchun alohida xavfsizlik rejimi o'rnatiladi. Avtonom transport, tibbiy SI va moliyaviy algoritmlar yuqori xavfli guruhga kiritiladi. Ushbu tizimlar uchun majburiy sug'urta va algoritmik audit qoidalari qat'iy qo'llaniladi. Kam xavfli tizimlar uchun esa erkinroq rejim saqlanib qoladi. Bunday tabaqalanish iqtisodiy samaradorlik va huquqiy himoyani uyg'unlashtiradi. Bu raqamli jamiyat uchun barqaror model.

"Digital Peculium" modeli SI tizimlariga cheklangan iqtisodiy subyektivlik berish orqali javobgarlikni hal qiladi<sup>89</sup>. Bu tizimni shaxslashtirmasdan, uning muloqotdagi ishtirokini rasmiylashtiradi. Tizim o'zining mustaqil jamg'armasidan jabrlanuvchiga tovon to'laydi. Ushbu yondashuv huquq tizimini o'ta murakkab sudlashuvlardan xalos qiladi. Roman huquqidagi tarixiy tajriba bugungi raqamli asrda yangi mazmun kasb etmoqda<sup>90</sup>. Peculium modeli kelajakda kiberhuquqning ajralmas qismiga aylanishi ehtimoli yuqori. Bu iqtisodiy mas'uliyatni belgilashning eng qulay yo'li.

Avtonom tizimlar keltirgan zarar uchun javobgarlik masalasi huquq tizimining raqamli transformatsiyasini talab etadi. An'anaviy delikt huquqi SIning avtonomligi va bashorat qilib bo'lmisligi oldida o'zgarish. Shu sababli, mutloq javobgarlik, majburiy sug'urta va algoritmik hisobdorlik modellarini integratsiya qilish lozim.

---

<sup>87</sup> Inoyatov N. Legal personality of artificial intelligence and autonomous systems in civil law // *Elita*. – 2024. – № 1(2). – P. 2.

<sup>88</sup> European Parliament. Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2024. – L 1689/1.

<sup>89</sup> Pagallo U. The legal challenges of big data in biology and medicine: A principled legal perspective // *Big Data & Society*. – 2017.

<sup>90</sup> Иноятлов Н. Автоном агентлар ва ҳуқуқий жавобгарлик масалалари // *Юридик фанлар ахборотномаси*. – 2025. – № 2. – Б. 56.

O'zbekiston kiberhuquqi global tendensiyalarni inobatga olgan holda, inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy modelni yaratishi zarur. Tizim obyekt bo'lib qolsa-da, uning xatti-harakatlari uchun insoniy subyektning javobgarligi so'zsiz bo'lishi kerak. Faqat shu yo'l bilan raqamli jamiyatda adolat va xavfsizlikni ta'minlash mumkin.

## **XULOSA**

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, avtonom tizimlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasi huquqshunoslikda paradigmal o'zgarishlarni keltirib chiqardi. An'anaviy "ayb" tamoyili o'rniga "xavf nazorati" va "iqtisodiy mas'uliyat" tamoyillari birinchi o'ringa chiqmoqda. SI qanchalik avtonom bo'lmasin, u insoniyat yaratgan huquqiy tartibotda har doim obyekt maqomida qolishi uning nazorat qilinishini kafolatlaydi. O'zbekiston kiberhuquq tizimi global tendensiyalarni inobatga olgan holda, o'zining milliy manfaatlarini himoya qiluvchi mukammal javobgarlik modelini yaratish bosqichidadir. Kelajakdagi tadqiqotlar endilikda subyektlik berish emas, balki algoritmlarni boshqarish metodlarini takomillashtirishga qaratiladi. Raqamli sivilizatsiyada huquqiy barqarorlik faqat ongli iroda va axloqiy mas'uliyatga tayanadi.

Ushbu tahliliy o'rganishlar avtonom tizimlar keltiradigan huquqiy xavf-xatarlarni jilovlashda mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Tizimlarni huquq obyekt sifatida tartibga solish inson qadr-qimmatini kiberfazoda ham daxlsiz saqlashning kafolatidir. Majburiy sug'urtalash va "Digital Peculium" kabi innovatsion iqtisodiy-huquqiy modellar javobgarlik bo'shlig'ini samarali to'ldiradi. O'zbekistonning raqamli taraqqiyot yo'lida qabul qilgan qonunlari (O'RQ-1115) va strategiyalari (PF-189) jahon tajribasi bilan hamohangdir. Biz faqat texnologik taraqqiyotni emas, balki huquqiy adolatni ham raqamlashtirishimiz shart. Shundagina sun'iy intellekt insoniyat uchun xavfsiz va samarali xizmat ko'rsatuvchi vosita bo'lib qolaveradi.

Oxirgi xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, avtonom tizimlar keltirgan zarar uchun javobgarlik masalasi kiberhuquqning eng dinamik va murakkab sohalaridan biri bo‘lib qoladi. Mazkur muammoni hal qilishda texnik, huquqiy va axloqiy jihatlarni kompleks uyg‘unlashtirish zarur. G‘arb va Sharq huquqiy doktrinalari o‘rtasidagi dialektika raqamli fazoda adolat va samaradorlikni ta’minlashning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston kiberhuquqi global transformatsiyaning faol ishtirokchisi bo‘lib, milliy manfaatlarni himoya qiluvchi modellarni yaratishda davom etadi. Avtonom tizimlar bizning huquqiy borlig‘imizni sinovdan o‘tkazmoqda, lekin insonning subyektlikdagi ustuvorligi o‘zgarmas qadriyatdir. Huquq — insoniyatning raqamli kelajakdagi asosiy himoya qalqoni bo‘lib qolaveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES**

1. Abbott, R. (2020). *The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Asaro, P. M. (2016). The liability problem for autonomous artificial agents. *AAAI Spring Symposium: Ethical and Constructive Human-Robot Interaction*, 192-194.
3. Bozarov, S. S. (2023). *Sun’iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik* [Legal liability within the framework of artificial intelligence]. DSc dissertation abstract. Tashkent: TSUL.
4. Calo, R. (2016). Robots in American Law. *University of Washington School of Law Research Paper*.
5. Custers, B. (2025). Hybrid liability models for artificial intelligence. *Computer Law & Security Review*, 56, 106000.
6. European Parliament. (2024). *Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act)*. Brussels: Official Journal of the European Union.
7. IEEE. (2019). *Ethically Aligned Design: A Vision for Prioritizing Human Well-being with Autonomous and Intelligent Systems*. New York: IEEE.
8. Inoyatov, N. (2024). Legal personality of artificial intelligence and autonomous systems in civil law. *Elita*, 1(2), 2.

9. Lagioia, F., & Sartor, G. (2020). AI Systems Under Criminal Law: a Legal Analysis and a Regulatory Perspective. *Philosophy & Technology*, 33, 433-465.

10. OECD. (2019). *Recommendation of the Council on Artificial Intelligence*. OECD/LEGAL/0449.

11. Pagallo, U. (2013). *The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts*. Dordrecht: Springer.

12. Sartor, G. (2009). Cognitive automata and the law: electronic contracting and the intentionality of software agents. *Artificial Intelligence and Law*, 17(4), 253.

13. UNESCO. (2021). *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*.

14. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2026). *Sun‘iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan... o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi O‘RQ-1115-sonli Qonun*. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020). *«Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash... to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni*.

**С.Н.Рамазанов,**  
*Ўзбекистон Республикаси Одил судлов академияси  
мустақил изланувчиси*

**ОДИЛ СУДЛОВГА АРАЛАШГАНЛИК УЧУН ЮРИДИК  
ЖАВОБГАРЛИК ВА СУДЬЯЛАРНИ АСОССИЗ  
ЖАВОБГАРЛИККА ТОРТИШГА ҚАРШИ  
ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТЛАР**

Жамиятда қонун устуворлигини таъминлаш ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишда муваққил суд тизимининг ўрни беқиёсдир. Одил судловга аралаштириш билан боғлиқ қилмишлар учун жавобгарликни такомиллаштириш жараёнида судьяларнинг ноқонуний ва асосланмаган тарзда жавобгарликка тортилишининг олдини олиш ҳуқуқий тизим барқарорлигини таъминлашда муҳим устуворликлардан бири ҳисобланади. Судьялар фаолиятига ҳар қандай асоссиз таъсир кўрсатиш ёки уларни тартибий, маъмурий ёки жиноий жавобгарликка тортишга бўлган уринишлар суд муваққиллиги ва инсоннинг адолатли суд ҳимояси ҳуқуқига бевосита таҳдид солади. Шу сабабли, судьяларнинг ҳуқуқий мақомини муваққиллаш ва уларни турли хил босимлардан ҳимоя қилиш механизмларини такомиллаштириш долзарб илмий ва амалий аҳамият касб этади.

Мамлакатимизда суд тизими муваққиллигини таъминлаш борасидаги ислохотларга қарамай, амалиётда судьялар фаолиятига таъсир кўрсатиш ҳолатлари ҳануз қайд этилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгашининг 2024 йил фаолиятига оид маълумотларига кўра, ўтган йил давомида судьялар дахлсизлигини таъминлаш мақсадида Бош прокуратурага 5 та расмий тақдимнома киритилган бўлиб, улардан иккитаси бўйича жиноят иши қўзғатилган. Бундан ташқари, судьялар олий малака ҳайъатига 10 нафар судьяга нисбатан асоссиз интизомий жазо чоралари белгиланган қарорларни бекор қилиш тўғрисида тақдимномалар киритилган.

Шунингдек, оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда судьялар фаолиятига, уларнинг шахсий дахлсизлигига ва қабул қилаётган қарорларига таъсир ўтказишга йўналтирилган материаллар сони ҳам эътиборга молик. Масалан, 2022 йилда 91 та, 2023 йилда 73 та ва 2024 йилда 65 та шундай ҳолат қайд этилган бўлиб, бу рақамлар судьяларни ҳимоя қилишга қаратилган институционал ва шахсий кафолатларни янада кучайтириш зарурлигини кўрсатади. Судьяларнинг жавобгарлигини белгилашда “институционал кафолатлар” ва “шахсий кафолатлар” ўртасидаги мувозанат ўта муҳимдир. Олим Д.Л. Зернов таъкидлаганидек, судья фаолияти учун жавобгарликнинг чегаралари аниқ белгиланмас экан, бу ё судьянинг жазосизлигига олиб келади, ёки унинг мустақил қарор қабул қилиш қобилиятини сусайтиради.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 19-моддасида барча шахсларнинг қонун олдида тенглиги мустақамланган. Халқаро ҳуқуқда, жумладан, Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пактнинг 14-моддасида ҳам ҳар бир шахс судлар олдида тенг эканлиги белгилаб қўйилган.

Бироқ, судьяларни, шунингдек депутатлар ва прокурорларни жавобгарликка тортишнинг қонунчиликда белгиланган алоҳида тартиби мавжудлиги қонун олдида тенглик принципнинг бузилиши ҳисобланмайди. Судьянинг жиноий жавобгарликка тортилиши ёки ҳибсга олиниши учун Судьялар олий кенгаши (ёки Пленум) розилиги талаб этилиши ушбу шахсларни умумий жавобгарликдан истисно қилмайди. Аксинча, бу – улар томонидан амалга ошириладиган ўзига хос ва ўта масъулиятли давлат хизматини турли ташқи таъйиқларсиз, холис бажаришларини таъминлаш учун хизмат қилувчи муҳим кафолатдир. Агар шундай дахлсизлик кафолатлари бўлмаса, судьялар ўз вазифаларини лозим даражада ва қўрқувсиз бажара олмас эдилар.

Профессор Г. Тўлаганова қайд этишича, барча суд судьяларига нисбатан қўзғатилган жиноят ишлари Ўзбекистон Республикаси Олий суди судловига тегишли эканлиги – бу шахсига кўра судловга тегишлиликнинг кўринишидир. Бу судьянинг профессионал фаолияти билан боғлиқ бўлиб, ишни унинг турар жойи бўйича кўрилишида юзага келиши мумкин бўлган бирёқламаликнинг олдини олиш имконини беради.

Амалдаги жиноят-процессуал қонунчилигимизда айрим юқори мансабдор шахслар тоифасига қараб жиноят ишларини қайси суд юрисдикцияси кўриб чиқиши лозимлиги тўлиқ ва аниқ процессуал нормалар билан ёритилмаган. Франция, Германия, Исландия каби ғарб давлатлари тажрибасида жиноятни ким содир этганлиги масаласи ишни кўриб чиқиш ваколатига эга бўлган судни белгиловчи асосий омиллардан бири (personal jurisdiction – шахсга қараб судловга тегишлилик) сифатида қаралади.

Янги таҳрирда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги қонунининг 64-моддасида судьяга нисбатан жиноят иши Ўзбекистон Республикаси Олий суди судловига тегишли эканлиги мустаҳкамланган. Бироқ мазкур муҳим қоида амалдаги Жиноят-процессуал кодексида (ЖПК) бевосита ўз аксини топмаган. Бу эса амалиётда процессуал бўшлиқларни келтириб чиқариши мумкин.

Бундан ташқари, хорижий тажриба (Германия, Франция, Россия ва бошқалар) судьяларнинг ҳуқуқий мақомини аниқловчи алоҳида қонун ҳужжатлари қабул қилинганлигини кўрсатади. Ўзбекистонда ҳам 2019 йил 26 мартдаги Парламент палаталари Кенгашларининг Қўшма қарори билан тасдиқланган Йўл харитасида 2020 йил сентябрь ойига қадар «Суд тизими ва судьялар мақоми тўғрисида»ги Қонун ишлаб чиқиши белгиланган бўлса-да, ушбу қонун ҳанузгача қабул қилинмаган.

Юқоридаги таҳлиллар асосида судьяларнинг асоссиз жавобгарликка тортилишининг олдини олиш ва уларнинг

дахлсизлигини мустаҳкамлаш мақсадида қуйидаги таклифлар илгари сурилади:

**Биринчидан,** Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексига алоҳида тоифадаги мансабдор шахсларга нисбатан жиноят ишларининг судловга тегишлилиги масаласини аниқлаштириш зарур. “Судлар тўғрисида”ги қонуннинг 64-моддаси талабидан келиб чиқиб, ЖПКга судьяларга нисбатан жиноят ишлари бевосита Олий суд судловига тегишли эканлигини мустаҳкамловчи тегишли норма киритилиши лозим.

**Иккинчидан,** Қонунчиликда “шахсга қараб судловга тегишлилик” принципини кенгроқ жорий этиш мақсадга мувофиқ. Хусусан, Олий Мажлис депутатлари ва Сенати аъзолари, Омбудсман, Бизнес-омбудсман, судьялар, Бош Прокурор ва унинг ўринбосарлари, Судьялар олий кенгаши аъзоларига нисбатан жиноят ишларини одатий ҳудудийлик принципи асосида қўйи судларда кўриб чиқилиши одил судловга ҳалал бериши мумкинлигини инобатга олиб, улар учун алоҳида процессуал юрисдикцияни белгилаш керак.

**Учинчидан,** Мамлакатимизда тўғридан-тўғри амал қилувчи “Судьяларнинг ҳуқуқий мақоми тўғрисида”ги (ёки «Суд тизими ва судьялар мақоми тўғрисида»ги) алоҳида қонунни ишлаб чиқиш ва қабул қилишни жадаллаштириш зарур. Бу қонун нафақат амалдаги судьяларнинг, балки аввалги лавозими орқали муайян алоқаларни сақлаб қолган собиқ судьяларнинг ҳам жавобгарлиги ва дахлсизлик чегараларини ҳуқуқий жиҳатдан аниқ тартибга солишга хизмат қилади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, судьяларнинг жавобгарликка тортилишини тартибга солувчи махсус механизмлар ва иммунитетлар қонун олдида тенглик принципига зид эмас, балки фуқароларнинг адолатли суд муҳокамасига бўлган ҳуқуқларини рўёбга чиқаришнинг энг муҳим процессуал ва институционал кафолатидир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги Қонуни. 29.07.2021 й., ЎРҚ-703-сон.
2. Жиноят-процессуал ҳуқуқи. Дарслик. Муаллифлар жамоаси. –Т.: ТДЮУ нашриёти, 2020 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Судьялар Олий кенгашининг 2024 йил фаолиятига доир Ахборотномаси.
4. Сафаров Т.Б. Одил судловни амалга ошириш жараёнида судьяларнинг юридик жавобгарлиги: замонавий ҳолат ва ривожланиш йўналишлари. PhD диссертацияси автореферати. –Т., 2023.
5. Зернов, Д.Л. (2019). Ответственность судей: теория, практика, перспективы развития. Российская юстиция, (6), 35–39.
6. Shklar, J. N. (2014). Legalism: Law, morals, and political trials. Harvard University Press.

## **MUNDARIJA**

Sudyalar hamjamiyati organlari qarorlari ustidan shikoyat qilishning huquqiy tabiati: sud hokimiyati mustaqilligi va protsessual kafolatlar o'rtasidagi muvozanat .....	5
Jinoiy sud ishlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikda tergov sudyasining roli: milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o'rtasidagi kolliziyalar .....	10
Jinoyat protsessida tergov sudyasi instituti: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari .....	15
“Tergov sudyasi” tushunchasining nazariy-huquqiy mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-huquqiy ahamiyati .....	19
Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlarda tergov sudyasining alohida o'rni .....	25
Sudgacha ish yuritishda shikoyat qilish huquqini suiiste'mol qilishning oldini olish: sud nazorati chegaralari va qonunchilikni takomillashtirish .....	34
Sudgacha ish yuritish jarayonida tergov sudyasi faoliyati doirasida tortishuv prinsipini ta'minlash masalalari .....	46
Jinoiy sud ishlarini yuritishda tezkor – qidiruv faoliyatini amalga oshirishning tarixiy jihatlari .....	53
Ayrim tergov harakatlari ustidan sud nazoratini amalga oshirish muammolari .....	61
Sud nazoratining tergov xatolarini bartaraf qilishdagi ahamiyati .....	68
Sud bosqichida tergov sudyasi faoliyati bilan bog'liq masalalar: mavjud muammo va takliflar .....	79
Tergov sudyasi faoliyatida raqamlashtirish: elektron sud tizimlari va protsessual kafolatlar .....	86
Sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi faoliyati bilan bog'liq muammolar .....	97
Aybga iqrorlik tushunchasi, huquqiy tabiati va jinoyat-protsessual nazariyasidagi o'rni .....	104

Tergov siri, advokat siri, jurnalist siri va yopiq sud majlisi ma'lumotlari mutanosibli: huquqiy asoslar va protsessual chegaralar .....	114
Sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi faoliyati bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari .....	122
Jinoyat protsessida shaxs erkinligini cheklash ustidan sud nazorati mexanizmlari .....	143
O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizmidagi islohotlar .....	154
Sudyalar mustaqilligi kafolatlarining xalqaro huquqiy asoslari .....	161
Kiberjinoyatlar bo'yicha sudga qadar ish yuritishda tergov sudyasi nazoratini raqamli transformatsiya qilish .....	165
Kiberxavfsizlik sohasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari .....	171
Ibn Xalidning "muqaddima" asarida qozilar va ularning vakolatlari haqidagi fikrlar .....	178
Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari yurituvini differentsiatsiya qilishning nazariy modellari .....	185
Yuridik shaxslarning ishchanlik obro'siga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalalari: O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi.....	193
Sudga qadar ish yuritish bosqichida tergov sudyasi faoliyati bilan bog'liq muammolar: o'g'irlik jinoyati misolida .....	199
Jinoyat huquqida jazodan ozod qilish institutining genezisi va rivojlanish bosqichlari .....	206
Jinoyat qonunchiligida jazodan ozod qilish tushunchasi va mohiyati .....	212
Rivojlangan mamlakatlarda advokat huquq va majburiyatlari: qiyosiy-huquq tahlili .....	216
Алтернативные меры уголовному преследованию и судебный контроль за их применением: институт обжалования и совершенствование законодательства .....	226

Эволюция института судебного контроля на досудебной стадии уголовного процесса дореволюционного и советского периода .....	243
“Elektron shaxs” konsepsiyasining huquqiy inqirozi .....	250
Жиноий жавобгарлик тушунчаси ва унинг ўзига хослиги .....	271
Avtonom tizimlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasi .....	278
Одил судловга аралашганлик учун юридик жавобгарлик ва судьяларни асосиз жавобгарликка тортишга қарши ҳуқуқий қарорлар .....	278